3. В большинстве экономически развитых зарубежных странах объекты недвижимого имущества, прочно связанные с землей, следуют за земельными участками. Земельный кадастр превращается в этих государствах в «кадастр недвижимости». Этот положительный опыт характерен в первую очередь для Швеции, Франции. Он позволяет пользователям сэкономить время и средства.

4. Необходимо отметить, что многие положения не могут быть автоматически перенесены в нынешнюю систему кадастра недвижимости и регистрацию прав на недвижимость в нашей стране. Основными причинами

этого являются различия в характере земельных отношений, размере территории и административно-территориальном устройстве, нормативно-правовом обеспечении, уровне материально-технической базы, современном состоянии и технологиях выполнения работ.

Литература:

1. Зарубежный опыт функционирования кадастровых информационных систем// Филиппова А.П. – Земельный вестник России, №1-2, 2005 – с.63-68.
2. Земельно-кадастровые работы. Технология и организация/ Л.И.Коротеева – Ростов н/Д: Феникс, 2006. – с.23.
3. Землеустройство. Том 7. Землеустройство за рубежом.// Волков С.Н. – М:КОЛОСС, 2005 - с.63
4. Недвижимость, кадастр и мировые системы регистрации прав на недвижимое имущество// Никонов П.Н., Журавский Н.Н.-Аналитический обзор, СПб, 2006
5. Опыт управления земельными ресурсами в зарубежных странах /Рассказова А.Н. - Электронный журнал Investzem.Ru
6. Правовое регулирование ведения государственного земельного кадастра: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук// Сидоренко В.Н. – М., 2003

УДК: 528.6

Тупрокларнинг агрокимёвий харитасини тузиш

204 -ГКК гуруҳ талабаси Умирзоков Зойир

*Илмий раҳбар: ГКваК кафедраси ўқитувчиси Ибрагимов Лазизбек
(СамДАҚИ)*

Мамлакатимиз аграр сиёсатининг бош мақсади қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига бўлган талабни тўлиқ қондириш, мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, мавжуд табиий ресурслар салоҳиятидан самарали фойдаланиш орқали давлатимизнинг иқтисодий қудрати ва аҳоли яшаш фаровонлигини янада яхшилашдан иборатдир.

Аграр тармоққа йиллар давомида асосий эътиборни қаратилиши натижасида ислохотларни изчиллик билан амалга ошириш, хусусан, деҳқон-фермер хўжаликларини устувор ривожлантириш, уларда ерга эгалик ҳуқуқини таъминлашга катта эътибор қаратилди.

Тупрокдан илмий асосда тўғри фойдаланиш учун тупрокнинг хоссасини, хусусиятларини, уларнинг тавсифини, агрономик кўрсаткичларини, табиий унумдорлигини ва шароитини ҳисобга олишда картографик материаллардан фойдаланишнинг илмий асосларини яратиш ва самарали фойдаланиш кўп жихатдан замонавий технологияларни қўллашга боғлиқ бўлиб қолмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 24 октябрдаги “Ўсимликларни ҳимоя қилиш ва қишлоқ хўжалигига агрокимёвий хизматларни кўрсатиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-2640-сонли ҳамда 2016 йил 31 декабрдаги “2017 йилда

қишлоқ хўжалигини минерал ўғитлар билан таъминлаш, уларни ишлаб чиқаришда мувофиқлаштириш ҳамда ишлатиш самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-2712-сонли қарорларига мувофиқ, агрокимёвий таҳлиллар асосида агрокимёвий хариталар тузиш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Тупроқ хариталарини яратишнинг асосий вазифаси ер юзасининг маълум майдонини картасини тузиш, тупроқ ва тупроқ ҳосил қилиш шароитларини ўзаро боғлиқлигини ўрганиш, тупроқ, типлари, типчалари ва хилларини тарқалиш қонуниятларини очиб беришдан иборат.

Тупроқни харитага маълум масштабда тушуришда тупроқнинг ҳамма хусусиятлари ҳақида маълумот берилади ва морфологик белгилари ифодаланади.

Амалиётнинг талаблари тупроқни карталаш ишларининг рифожланишига асосий туртки бўлди.

Тупроқкартографиясининг асосий усули В.В. Докучаев томонидан ишлаб чиқилган тупроқ географияси усулидир. Тупроқни табиатда ва лаборатория шароитида биргаликда ўрганиш тупроқ ҳосил бўлиши, ривожланиш, тарқалиши ва унумдорлигини аниқлаш каби жуда мураккаб масалаларни ҳал этишга ёрдам беради.

Шу боис, тупроқларнинг агрокимёвий харитасини тузиш услубиятини такомиллаштириш Самарқанд вилоятида фаолият олиб бораётган фермер хўжаликлари суғориладиган ер майдонлари тупроқлари агрокимёвий хаританомасини тузиш ва қишлоқ хўжалик экинларини ўғитлаш тизимини такомиллаштириш бўйича тавсиялар беришдан иборат.

“Агрокимё станцияси” томонидан тупроқ агрокимё дала текширув ишлари натижасининг маълумотларига асосланиб ишлаб чиқилган Агрокимёвий хаританомалар тупроқ таркибида мавжуд ҳаракатчан озик моддалар миқдорини акс эттирувчи асосий график ҳужжат ҳисобланади

Агрокимёвий хариталар фермер хўжалиги ва бошқа қишлоқ хўжалик корхоналарининг экин турлари ва режадаги ҳосилдорлик бўйича минерал ўғитларнинг йиллик меъёрлари ҳамда оптимал агротехник муддатларда қўлланиши юзасидан илмий асосланган кўрсатмадир.

Тупроқларнинг агрокимёвий харитасини тузиш учун тажриба намуналари Самарқанд вилояти Оқдарё туманида олиб борилди. Тумандаги фермер хўжаликларига тегишли суғориладиган ерлардан хўжаликнинг 1:10000 масштаби ердан фойдаланиш харитасига асосан тупроқнинг устки 0-30 см қатламидан Агрокимё станцияси томонидан намуналар олинган.

Тупроқда озик моддалардан бирортасининг (айниқса, азот, фосфор ва калий нинг) етишмаслиги ёки унинг ортикча бўлиши ўсимликка салбий таъсир этади.

Қишлоқ хўжалигида асосан уч турдаги, яъни азотли, фосфорли ва калийли минерал ўғитлардан фойдаланилади. Маълумки, қишлоқ хўжалиги экинларидан мўл ва сифатли ҳосил олиш ҳамда тупроқ унумдорлигини тиклаш ва сақлаш уларнинг минерал ва маҳаллий ўғитлар билан таъминланганлигига боғлиқ. Шунингдек, маҳаллий (органик) ўғитлар

қўлламадан, фақат азотли ўғитлардан муттасил фойдаланиш, тупроқ таркиби, унинг биологик, агрохимёвий, сув-физик ва физик-химёвий хоссалари ва режимларини бузилишига маҳсулот сифатини пасайишига олиб келади.


Азот оксил моддалар таркибига кириб асосан, ўсимлик ер устки органларининг ўсиши ҳамда ривожланишида катта роль ўйнайди. Тупроқда азот етишмаса, ғўза ёмон ўсади, барглари сарғайиб майда бўлиб қолади. Аксинча, кўп бўлса ғўза ғовлаб сербарг, ранги тўқ кўк бўлиб, ривожланиши кечикади. Шунинг учун, **азотли ўғитларни** қўллашда, тупроқ ва иқлим шароити ҳамда тупроқнинг агрохимёвий ҳолатидан келиб чиқиб улардан фойдаланиш лозим.

Фосфор ҳам, азот сингари, оксиллар таркибига кириди ва ўсимликларнинг нафас олиши ҳамда илдизларининг ўсишига катта таъсир кўрсатади. Шунингдек, ўсимликнинг ривожланишини ва меваларининг етилишини тезлаштиради.

Калий ўсимликларда эркин ёки кучсиз химёвий бириккан ҳолда, асосан, у ўсимликни яхши мустаҳкамланишига, ҳосилнинг ошишига ва турли касалликлар, сув танқислигига чидамли бўлишига ёрдам беради.


Намуналар олишда ҳар бир дала 5 гектарлик элементар участкаларга ажратилди. Ҳар бир элементар участкадан конверт усулида 20 та индивидуал тупроқ намуналари олиниб улар аралаштирилиб ўртача намуна тайёрланди. Олинган намуналар лабораторияга олиб келиниб, майдаланиб диаметри 1 мм бўлган ғалвирдан ўтказилиб, тупроқ таркибидаги гумус ва ўсимликлар учун зарур бўлган озик элементлар, яъни ҳаракатчан фосфор ва алмашинувчан калий миқдори аниқланди.

Олинган лаборатория таҳлиллари асосида “PANORAMA” дастурида тупроқларнинг ҳаракатчан фосфор ва алмашинувчан калий билан таъминланганлик даражаси харитаси тузилди ва қишлоқ хўжалиги экинларини ўғитлаш бўйича тавсиялар берилди.



1-расм. Тупроқлар таркибидаги ҳаракатчан фосфор P_2O_5 миқдори бўйича Х А Р И Т А (мг/кг тупроқда ҳисобида)

Гупрокни харакатчан фосфор билан гаъминланганлиги	1 кг тупроқда харакатчан фосфор микдори мг	Майдонлар бўйича нисбати		
		Таъминланганлик даражаси	Га	%
Ранглар	Гуруҳланиш			
Кизил	Жуда кам	0-15	22,0	31
Сарик	Кам	16-30	12,9	18
Хаво ранг	Ўртача	31-45	18,6	26
Кўк	Юқори	46-60	17,3	25
Яшил ранг	Жуда юқори	60 дан ортик		
Жами :			70,8	100



2-расм. Тупроқ таркибидаги алмашувчан калий K₂O микдори бўйича

Х А Р И Т А (мг/кг тупроқда)

Гупрокни алмашувчан калий билан гаъминланганлиги	1 кг тупроқда алмашувчан калий микдори, мг	Майдонлар бўйича нисбати		
		Таъминланганлик даражаси	Га	%
Ранглар	Гуруҳланиш			
Сарик	0-100	Жуда кам		
Кизил	101-200	Кам	4,0	5,6
Хаво ранг	201-300	Уртача	66,8	94,4
Кўк	301-400	Етарли		

Яшил ранг	400 дан ортиқ	Юкори		
Жами :			70,8	100

Мазкур минерал ва органик ўғитларни табақалаштирилган ҳолда қўллаш бўйича тупроқларнинг агрокимёвий харитасини тузиш услубияти фермер хўжаликлари раҳбарлари, уларнинг мутахассислари ва иш юритувчилари, шу соҳада меҳнат қилаётган кенг ишбилармон ва тадбиркорлар оммасига мўлжалланган.

Қишлоқ хўжалиги экинларини минерал ўғитлар билан озиклантиришни илғор технологиялар асосида ўтказиш, уларни **агрокимёвий хариталар** асосида қўллаш мўл ва сифатли ҳосил етиштириш имкониятини беради.

Тупроқларнинг агрокимёвий харитаси қишлоқ хўжалиги экин турларини озиклантиришда минерал ўғитлар тақсимотида тупроқнинг озика элементлари билан таъминланганлигига илмий асосланган талаблар ва озиклантириш меъёрлари бўйича бериш, шунингдек давлат эҳтиёжлари учун пахта, ғалла ва барча экинларини режалаштиришда ва жойлаштиришда муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 24 октябрдаги “Ўсимликларни ҳимоя қилиш ва қишлоқ хўжалигига агрокимёвий хизматларни кўрсатиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-2640-сонли Қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 31 декабрдаги “2017 йилда қишлоқ хўжалигини минерал ўғитлар билан таъминлаш, уларни ишлаб чиқаришда мувофиқлаштириш ҳамда ишлатиш самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-2712-сонли Қарори.

Х.Намозов, У.Таджиев. Картографирование почв на основе использования материалов космических снимков. Т. «Фан», 2003

3. Ж.М.Максудов, А.А.Турсунов, И.А.Акрамов, Г.Г.Нагаев, Р.К.Кузиев, В.Е.Сектименко, С.А.Абдуллаев, А.К.Баиров, Н.Ю.Абдурахманов. Давлат ер кадастрини юритиш учун тупроқ тадқиқотларини бажариш ва тупроқ карталарини тузиш бўйича йуриқнома. Т., 2005 .

4. “Агрокимё станцияси Самарқанд филиали” МЧЖ маълумотлари.

УДК: 528.2

Маданий мерособъектлари давлат кадастрини картографик таъминлашда ГАТ тизимидан фойдаланиш

204-ГКК гуруҳ талабаси Хаққулова Адиба

Илмий раҳбар: Ибрагимов Лазизбек (СамДАҚИ).

Маълумки, кадастр картографияси-барча кадастр тизимининг тузилиш жараёни, вазифалари ва кадастр маҳсулотларининг таркибий қисми каби ривожланувчи ва кенгаювчи картографиянинг энг қадимги йўналишларидан бири ҳисобланади. Ҳар қандай давлат кадастрининг самарадорлиги унинг картографик таъминланиш ҳолати билан изоҳланади. Кадастр хариталари ва

хариталарни маълумотлар базаси билан бойитиш дунё олимлари томонидан тадқиқ қилинган.

Маданий мерос объектлари давлат ўзида маданий мерос объектларининг жуғрофий жойлашиши, ҳуқуқий мақоми, миқдорий, сифат тавсифлари ва баҳоси тўғрисидаги янгилаб туриладиган маълумотлар ва ҳужжатлар тизимини ифодалайди.

Давлат кадастрини юритиш маданий мерос объектларига мулкчилик ҳуқуқини ва бошқа ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказишни, маданий мерос объектларини миқдорий ва сифат тавсифларини ҳисобга олишни, маданий мерос объектларини сифат ва қиймат жиҳатидан баҳолашни, кадастр ахборотини туркумлаштириш, сақлаш ва янгилашни, маданий мерос объектларининг ҳолати тўғрисидаги ҳисоботларни тузишни, Давлат кадастрлари ягона тизимига киритиш учун тегишли ахборотни тақдим этишни, фойдаланувчиларни кадастр ахбороти билан таъминлашни ўз ичига олади.

Бугунги кунда маданий меърос объектлари давлат кадастрини картографик таъминлаш-замонавий ташкилий-техник таъминотни амалга оширишни талаб қилади. Маданий меърос объектлари давлат кадастрини картографик таъминлашнинг талаб қилувчи ривожланиш даражаси кенг ва фаол геоахборот технологияларига қарамасдан тегишли илмий-назарий база билан таъминланмаган.

Маданий меърос объектлари давлат кадастрини картографик таъминлаш-кадастр фаолиятида нафақат ахборот манбаи ва ташувчиси ролини, балки кадастр объекти моделини ва уни қўллаш усулини, шунингдек, маълумотларни тўплаш, сақлаш, ташкил этиш ва таҳлил қилиш воситалари ролини бажаради. Маданий меърос объектлари давлат кадастрини юритишда-геоахборот технологияларини қўллаш турли идораларда кадастр ахборотининг интеграцияси билан асосланган.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, маданий меърос объектлари давлат кадастрини картографиялаш-кадастрни юритишда картографиянинг бошқа йўналишларидан фарқ қилувчи хусусиятларга эга, уларга қуйидагилар киради: юқори нормативлик, комплекслилик, тезкорлик, кўп даражали, кўп функцияли, юқори малака ва тизимлилик. Кадастр картографиясининг нормативлиги маълум даражада давлатнинг иштирокига ва кадастрни картографик асосини текширишга боғлиқ. Кадастр хизмати билан шуғулланувчи ташкилот ва корхоналарга, кадастрни қонуний ва норматив таъминлашга, кадастр ҳаракатлари ва ҳужжатларига, кадастр объектларининг ҳуқуқий хусусиятларига, кадастр ахборотлари таркибида ҳуқуқий ва бошқа норматив маълумотлар ҳажмига боғлиқ.

Маданий меърос объектлари давлат кадастрини картографиялашнинг комплекслик хусусияти-маданий меърос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан оқилона фойдаланиш, шунингдек самарали бошқариш бўйича ечимларнинг хилма-хиллигини амалга ошириш имконини берувчи кадастр объектлари ва предметларини кўп томонлама тасвирлашдан иборатдир.

Маданий меърос объектлари давлат кадастрини картографиялашнинг тезкорлик хусусияти шундан иборатки, кадастр ихтиёридаги геоахборот технологияларини чуқур жорий этиш ва кенг қўллаш кадастр хариталарини тез янгилаш имконини беради.

Маданий меърос объектлари давлат кадастрини картографиялашнинг кўп босқичлик, кўп функционаллик ва махсулашиш ҳар бир функционал бўлим, ҳар бир технологик бўғиннинг бирликлари ва талабларининг хилма-хиллиги мос келувчи кадастрнинг ташкилий, функционал ва технологик тизимлари билан асосланган.

Тизимли сифатлар хариталар ва картографиялашнинг хусусиятлари ва имкониятларини бирлаштиришдан ва кадастрни картографик таркибни ташкил этиш ва амалга оширишдан иборат.

Маданий меърос объектлари давлат кадастрини картографиялаш-кадастр хариталарини ишлаб чиқиш, тузиш ва қўллаш билан боғлиқ жараёнدير. Ғарб манбаларида кадастр хариталари географик хариталарнинг классификациясида ўнинчи гуруҳни ташкил этади. Бу кадастр ахборотига қуйидаги аломатлар берилиши билан боғлиқ:

- баъзи кадастр ахборотларини расман ёки қонуний тан олиш;
- бир нечта турли жабҳали аҳамиятга эга алоҳида кўрсаткичларни акс эттириш;
- объектларнинг ҳуқуқий ҳолатини акс эттирувчи кўрсаткичларнинг ахборот таркибида кўп бўлиши.

Ундан ташқари, кадастр хариталари ташқи кўринишга кўра фарқ қилади.

Хариталар классификациясига кўра уларнинг мазмунини ҳисобга олиб, маданий меърос объектлари давлат кадастрини картографиялаш иккита асосий гуруҳга бўлинади: кадастр плани ва кадастр хариталари.

Кадастр планида акс этган кадастр ахборотларини уч қисмга бўлиш мумкин: график, ҳуқуқий тасниф ва метамаълумотлар. График қисмида ер участкасининг тўғри бурчак координаталаридаги жойи ва уларга яқин бўлган белги ва объектлар кўрсатилади. Ер участкасини ҳуқуқий таснифлашга қуйидаги маълумотлар киради: кадастр рақами ёки геокод, субъект маълумотлари (исми, шарифи, манзил, маъмурий бирлик), ер участкаси майдони ва режа масштаби. Учунчи қисм метамаълумотлар – бу мазкур режанинг барча ахборотлари расмий, тўғри, юқори даражадаги аниқликдан далолат беради.

Маданий меърос объектлари давлат кадастрини картографиялаш- ҳудудий куршовига кўра бошқа географик хариталардан фарқ қилади. Маданий меърос объектлари давлат кадастри хариталари бошқа хариталар каби инвентаризацияли, прогнозли, тавсияли ва динамик баҳоловчи хариталарга бўлинади.

Маданий меърос объектлари давлат кадастри харитаси – расмий харита бўлиб, ер участкасининг кадастр ахбороти билан чегарасини кўрсатибгина қолмай, юридик характердаги ҳужжат ҳамдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Булатова Г.Н., Трафимов А.М., Панасюк М.В. Тенденция развития ГИС. Журнал «Геодезия и картография», №9, 1997 г., 50-53 с.
2. Берлянт А. М. Картография. - М.: Аспект-Пресс, 2001. - 336 с.
3. Берлянт А. М., Геоинформационное картографирование. - М.: Астрей, 1997. - 64 с.

УДК 349.4(575.1)

Ерга оид қонунчиликни ривожланиш хусусиятлари

204-ГКК гуруҳ талабаси Хаққулова Адиба

Илмий раҳбар: Ибрагимов Лазизбек (СамДАҚИ).

Ер табиий ресурслар ичида ўзига хос хусусиятлари билан ажралиб туради. Ер мамлакатимиз аҳолисининг турмуш фаровонлигини таъминлайди, республикамизнинг иқтисодий салоҳияти учун моддий негиз яратади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 55-моддасида таъкидланишича “Ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий захиралари умуммиллий бойликдир, улардан оқилона фойдаланиш зарур ва улар давлат муҳофазасидадир”. Ер қонунчилигида мустаҳкамланган ердан фойдаланиш ҳуқуқининг мерос қилиб қолдириладиган ер участкасига умрбод эгалик қилиш ҳуқуқи, ер участкасига доимий эгалик қилиш ва ундан фойдаланиш ҳуқуқи турлари фуқаролик ҳуқуқи нормаларига кўра мулк ҳуқуқига тенглаштирилган ашёвий ҳуқуқлар ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 36-моддаси ҳар бир шахсни мулкдор бўлиш ҳуқуқини мустаҳкамлайди. Фуқароларнинг ердан фойдаланишида мулк ҳуқуқи алоҳида аҳамият касб этади. Қонунга мувофиқ ерлардан фойдаланиш ҳамда уларни муҳофаза қилиш устидан назорат – давлат ва жамоатчилик назорати асосида олиб борилади. Ер кодексининг 84-моддасига кўра ерлардан фойдаланиш ҳамда уларни муҳофаза қилиш устидан давлат назоратини маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, шунингдек махсус ваколатга эга бўлган давлат органлари томонидан амалга оширилади.

Вазирлар Маҳкамасининг 2005 йил 16 февралдаги 66-сон қарори билан тасдиқланган “Ердан фойдаланиш ва уни муҳофаза қилиш устидан давлат назорати тўғрисида низом” ердан фойдаланиш ва уни муҳофаза қилиш устидан давлат назоратини амалга ошириш тартибини, шунингдек ердан фойдаланиш ва уларни муҳофаза қилиш устидан давлат назоратини амалга ошириувчи давлат органлари фаолиятининг ҳуқуқий асосларини белгилайди. Низомга кўра Ўзбекистон Республикаси Ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри давлат қўмитаси ва Ўзбекистон Республикаси Давлат табиатни муҳофаза қилиш қўмитаси ердан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш устидан давлат назорат бўйича махсус ваколатли давлат органлари ҳисобланади. Қонунчилик ушбу органларни ердан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш борасида давлат назоратини олиб боришдаги функциялари, ҳуқуқлари ва мажбуриятларини ўрнатади.

Ушбу даврда авваламбор, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг қабул қилиниши ҳамда унда ер соҳасидаги ижтимоий муносабатларнинг конституциявий даражада тартибга солиниши аҳамиятлидир. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида ер соҳасидаги муносабатларни тартибга солувчи-ерга нисбатан мулкчиликни, ерларни муҳофаза қилиш ва ундан оқилана фойдаланиш талабини белгиловчи қатор моддалар (50, 54, 55, 100-моддалар) ўрин олди.

Жумладан, мазкур босқичда мамлакатимизда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Хорижий юридик ва жисмоний шахсларга Тошкент шаҳрида ер участкаларини ижарага бериш тўғрисидаги”ги 06.07.1994 йилдаги 346-сонли Қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 29.11.1994 йилдаги “Ердан фойдаланиш самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 575-сонли Қарори ва унинг асосида тасдиқланган “Ер майдонлари ажратиш бўйича доимий ишловчи махсус комиссия тўғрисида” Низом, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Корхоналар, иморатлар ва иншоотлар қурилиши учун танланган ерларда лойиҳалаш ишларини бошлашга рухсат бериш ва шу мақсадлар учун ер ажратиш тўғрисида”ги 29.12.1994 йилдаги 626-сонли Қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг “Савдо ва хизмат кўрсатиш соҳаси объектларини улар жойлашган ер майдонлари билан биргаликда ҳамда ер майдонларини мерос қилиб қолдириш шарти билан умрбод эгалик қилиш учун хусусий мулк сифатида сотиш тартиби тўғрисида”ги 11.04.1995 йилдаги 126-сонли Қарори ва унинг асосида ишлаб чиқилган “Савдо ва хизмат кўрсатиш соҳаси объектларини улар жойлашган ер майдонлари билан биргаликда ҳамда ер майдонларини мерос қилиб қолдириш шарти билан умрбод эгалик қилиш учун хусусий мулк сифатида сотиш тартиби тўғрисида”ги Низом кабиларни киритишимиз мумкин. Иккинчи босқич, бозор муносабатларига ўтиш шароитида ер муносабатларини тартибга солишнинг барқарор асосларининг шаклланиши, ер қонунчилигининг кодификациялашуви амалга оширилиши, ер соҳасида давлат бошқарувининг институтларининг ҳуқуқий асослари ишлаб чиқилганлиги билан тавсифланади (1998-2006 йиллар).

Учинчи босқич. Бозор муносабатларига ўтилиши туфайли ерларни фуқаролик муомаласига жалб этишга йўналтирилган, ер соҳасида ипотека ва бозор муносабатларини ривожлантиришга қаратилган қонунчилик ҳужжатлари қабул қилинганлиги, ердан фойдаланишнинг асосий ташкилий-ҳуқуқий шакли сифатида фермер хўжаликлари фаолиятига тааллуқли, хусусан, фермер хўжаликлари фаолияти самарадорлигини ошириш билан боғлиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мажмуи қабул қилинганлиги каби хусусиятлар билан тавсифланади. (2006 йилдан ҳозирги вақтга қадар бўлган давр).

Хулоса қилиб айтганда мустақиллик йилларида ердан фойдаланиш ва муҳофаза қилишга оид қонунчилик ўзига хос йўлни босиб ўтиб мамлакатда ижтимоий иқтисодий соҳада амалга оширилаётган ислохатларнинг муҳим жиҳати ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Усмонов М. Ўзбекистон атроф муҳитни муҳофаза қилишнинг конституциявий-ҳуқуқий асослари // ТДЮИ Ахборотномаси. – Тошкент, 2011. – №5. – Б. 68-71.;

2. Холмўминов Ж.Т. Конституцияда атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш масалаларининг тартибга солиниши // ТДЮИ Ахборотномаси. – Тошкент, 2010. – №6. – Б. 124-126.;

3. Кенжаев Р. Ерларни муҳофаза қилишнинг конституциявий асослари // ТДЮИ Ахборотномаси. – Тошкент, 2011. – №5. – Б. 75-76.;

УДК: 528.65

3D ўлчамли картографик тасвирларни яратишнинг услубий асослари

Л.Т.Ибрагимов, И.Х.Омонов, М.М.Эргашева, А.О.Хаққулова (СамАҚИ).

Кейинги йилларда харита яратишнинг қоғоз кўринишидан электрон рақамли кўринишига ўтиш, яъни географик ахборот тизимидан фойдаланган ҳолда харита яратишга ўтиш жадал суръатлар билан ривожланмоқда. Компьютер технологияларининг ривожланиши картографияда ҳам анъанавий усулларни ўзгартириш кераклигини тақоза этмоқда[1].

Шундай йўналишлардан бири уч ўлчамли график муҳаррирлар ёрдамида тайёрланадиган 3D картографик моделларни визуаллаштиришнинг янги илмий – услубларини ишлаб чиқиш ҳисобланади. Бизни ўраб турган геомухитнинг 3D ўлчамли моделлаштиришга жадал тарзда ўтиш, географик ахборот тизимлари(ГАТ), автоматлаштирилган лойҳалаш тизимлари(АЛТ), 3D ўлчамли дунёни шакллантиришга янги имкониятлар очди. Бу усулларни, картографик тасвирларни ҳосил қилишда қўллаш мумкин, аммо бунинг учун керакли илмий-услубий ва технологик ечимларни ишлаб чиқиш лозим.

Ҳозирги кунда 3D ўлчамли картография деб номланадиган картографик тасвирларни ҳосил қилиш жараёнида учта мустақил ва бир бирига боғлиқ кузатиш объектларини ажратиш мумкин:

- 3D ўлчамли картографиянинг ҳудудий объектнинг фазовий тавсифи;
- 3D ўлчамли картография жараёнининг тавсифи;
- Олинган 3D картографик суратнинг тавсифи.

Ҳар бир белгиланган тавсифларнинг сифат ва миқдор кўрсаткичларини, уларнинг бир бирига таъсирини ва 3D картографиянинг мезонларини ишлаб чиқиш керак. Мантиқий мулоҳазалардан келиб чиқиб, тавсифларнинг ўзаро тизимли таъсири, уларни таркиби ва қатнашиш мезонларини таклиф этиш, ўз навбатида 3D картографиянинг илмий – услубий асоси ҳисобланади.

3D ўлчамли шаклда объект ҳақида маълумот борлиги сабабли, шу модел бўйича автоматик равишда унинг сонли тавсифларини аниқлаш имконияти бўлади[2].

3D ўлчамли картография иккита мустақил жараённи ўз ичига олади.

➤ Жойнинг уч ўлчамли рақамли моделини жойнинг уч ўлчамли картографик моделига айлантириш;

➤ жойнинг уч ўлчамли картографик модели бўйича картографик тасвирни тузиш ва визуаллаштириш.

Биринчи жараён жойнинг уч ўлчамли рақамли моделининг барча объектларини, жумладан шартли белгиларнинг уч ўлчамли системаси, генерализация, рангли ва таркибий безакларни ўз ичига олади. Вертикал генерализация ноананавий ҳисобланади.

Вертикал генерализациянинг асосий турларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- 3D визуаллаштириш учун объект танлаш;
- 3D ўлчамли визуал моделларни турларга ажратиш уларни сифат ва миқдор бўйича гуруҳлаш;
- 3D ўлчамли моделларнинг контурларини бирлаштириш;
- катталаштирилган объектларни кўрсатиш.

3D ўлчамли рақамли картографиянинг 1-жараёни қуйидаги иккита сонли кўрсаткич билан характерланади:

- Мкг-горизонтал танланган масштаб;
- Мкв -вертикал танланган масштаб.

Шунга кўра горизонтал масштаб бошланғич масштаб ҳисобланади ва хаританинг аниқлигига қараб танланади. 3D ўлчамли картографиянинг 2-жараёни турли параметрлар учун рақамли картографик модел тузиш ва картографик моделларни визуаллаштиришдан иборат[3].

Юқорида келтирилган тавсифлар 3D ўлчамли картографиялашнинг қуйидаги шаклий тасаввурларини келтириб чиқаради.

➤ Биринчидан, картографик объектларни кузатиш нуқталари учун фазовий жойлашувини белгилаш лозим;

➤ Иккинчидан, объектнинг 3 ўлчамли модели дискрет бирлашмалар мажмуасидан иборатдир(алоҳида суратлар), шунга кўра кузатиш нуқтасининг сони ва жойлашувини аниқлаш керак.

Ҳар бир профил орқали нуқталарнинг оптимал жойлашувини аниқлаш мумкин. Бу профилларнинг частотаси картографик объектнинг элементларининг ўртача қийматларини аниқлаш орқали топилади. Ҳар бир профилда визир нурининг ҳолатини аниқлаш учун картографик объект чегарасидан кузатиш нуқтасигача бўлган масофани унинг баландлиги Нтн ва визир нурининг қиялик бурчаги β ни аниқлаш мумкин.

Шу тариқа 3 ўлчамли фазо параметрларини алоҳида горизонтал ва вертикал проекцияларнинг параметрларига ўтиш мумкин, бу иш функционал аниқлашни анча осонлаштиради. Харита яратишнинг бу технологияси, сезиларли даражада универсаллашган ва жуда тез ривожланаётган, инсон фаолиятининг ҳамма соҳаларини қамраб олаётган жараёндир.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.Cromley R. Digital Cartography. New Jersey: Prentice Hall
- 2.Nielsen A. (2004). User-Centered 3D Geovisualisation. Proceedings of the 12th International Conference on Geoinformatics: Bridging the Pacific and Atlantic, June 7-9, University of Gavle, Sweden, pp412-216

3. Bishop I. and Lange E. (2005). Visualization in Landscape and Environmental Planning: Technology and Applications.

Узлуксиз таълимда ахборот технологиялари воситасида география фанини ўқитиш

Анвар Жонзоқов,

Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон

Педагогика фанлари илмий тадқиқот институти

таълим докторанти

Ахборот технологиялари ўқувчи-талабалар фаолиятини асосий таълим жараёни билан боғлашда энг замонавий интеллектуал воситадир. Бинобарин, мавжуд ахборот технологиялари мактабда ўқитиш жараёнида кенг ишлатилади.

География фанини узлуксиз таълимда ўқитишда ахборот технологияларидан фойдаланиш куйидаги 3та йўналишда олиб борилади:

- ахборот воситаси сифатида;
- ўрганиш воситаси сифатида;
- ўргатиш воситаси сифатида.

Узлуксиз таълимда ўқув жараёнини янада самаралироқ ташкил этиш муҳим оимиллардан биридир. Узлуксиз таълимда география фани таълими самарадорлигини ошириш учун ахборот технологияларидан фойдаланиш чегараланмаган.

География фанини ахборот технологиялари соҳасида олинган билим ва кўникмалар ўқувчи-талабаларнинг табиат ва гуманитар билимларни органик бирликда эгаллашига, кўникмаларини оширишга ёрдам беради. География фани ахборот технологиялари соҳасида эришилган назарий ва амалий билимлар асосида илмий тадқиқот қилиш, танқидий фикрлашни ривожлантириш, замонавий ҳаётга мослашиш ва тўғри касб танлашни амалга оширишга хизмат қилади. Хорижда география фани таълимда ахборот технологиялари таълимидан фойдаланиш бўйича тадқиқотлар узок вақт давомида олиб борилган. Хусусан АҚШ, Франция, Япония, Россия каби мамлакатлар таълим муассасаларида география фани таълими учун кўпгина компьютер тизимлари ишлаб чиқилган.

География фанини узлуксиз таълимда ахборот технологиялар ёрдамида ўқитишда куйидаги ўқитиш воситаларидан фойдаланиш тавсия этилади(1-расм).

Юқоридагилар билан бирга, ўқувчи дарсликдан тизимли фойдаланиш билан бирга унинг фикрлашни ривожлантириш учун ахборот технологияларидан ҳам кенг фойдаланиши лозим. Таълимни модернизация қилиш шароитида ўқитувчининг касбий маҳоратига бўлган талаб ортиб бормокда. Талаблардан бири ўқув машғулотининг турли шаклларига қарамасдан ўқув жараёнининг асоси бўлиб қоладиган дарсни такомиллаштиришдир. Анъанавий дарс машғулотлари давлат таълим

стандартлари билан боғлиқ ўзгаришларни талаб этади. Дарс самарасини оширишнинг асосий шартларидан бири барча ўқувчи-талабаларни самарали таълим фаолияти билан шуғулланиш, мустақил билим олиш ва уларни мустақил ишлаш маҳоратини оширишга ўргатишдир.



1-расм. География фанини узлуксиз таълимда ахборот технологиялар асосида ўқитиш воситалари

Узлуксиз таълимда география ўқувчи-талабаларда Ер сайёраси ҳақида мураккаб, тизимли ва ижтимоий йўналтирилган нуқтаи назарни шакллантиради. Бу шунингдек, уларнинг ер, атмосфера ҳақидаги илмий ёндашувнинг махсус усули сифатида худудий ёндашув билан таништирадиган фандир.

География фанида функционал муаммоларни ечиш ва ахборот технология жараёнларини ташкил этиш усулларини такомиллаштириш бутунлай янги ахборот технологияларидан фойдаланишга олиб келади, улар орасида қуйидагилар воситалар муҳимдир:

- география фанида ахборот технология воситалри асосида яратилган электрон дарсликлар, симуляторлар, репетиторлар, лаборатория устахоналари, тест тизимлари;

- шахсий компьютерлардан фойдаланган ҳолда қурилган мультимедиа технологиялари асосида ўқитиш тизимлари, видео ускуналари, оптик дисклар.

- ҳар хил мавзуларда ишлатиладиган интеллектуал ва таълим бўйича эксперт тизимлари.

▪ маълумотлар тармоқлари бўйича тақсимланган маълумотлар базалари.

▪ телекоммуникациял воситалари, шу жумладан электрон почта, телеконференциялар, маҳаллий ва минтақавий алоқа тармоқлари, маълумотлар алмашинуви тармоқлари ва бошқалар.

▪ электрон кутубхоналар, тарқатилган ва марказлаштирилган нашриёт тизимлари.

Шундай қилиб, таълим жараёнида ахборот технологияларидан самарали фойдаланиш ўқувчи-талабаларда назарий фикрлашни ривожлантириш, ўқув жараёнини мамлакатимизда ва бундай тизимлар узоқ вақтдан бери ишлатилган энг ривожланган Ғарб мамлакатларида ҳақиқий интеграцияни рағбатлантиришга ёрдам беради деган хулосага келиш мумкин.

Юқори интерактивлик даражаси билан ажралиб турадиган ахборот таълим технологиялари самарали таълим ва когнитив муҳитни яратишга ёрдам беради, яъни. турли хил дидактик вазибаларни ҳал қилишда ундан самарали фойдаланилади. Ушбу муҳитнинг асосий хусусияти шундан иборатки, у коллектив ва индивидуал таълимни ўз ичига олади. Бундан ташқари, мультимедия ва алоқа воситаларидан фойдаланган ҳолда компьютер таълимининг функцияларини бирлаштирган ушбу муҳит қуйидаги муайян хусусиятлар билан тавсифланади:

▪ ўқувчи-талабаларга кейинги натижалар билан ишлаш имконини бериш;

▪ ижодий фикрлашни ривожлантириш учун шароитлар яратиш;

▪ телекоммуникация тармоғи орқали ўрганишни ижтимоий жамоавий жараёнга айлантириш учун шароитлар яратиш;

▪ ахборотнинг ўзида тармоқ орқали ўзаро алоқанинг барча иштирокчиларининг эътиборини жамлаш;

▪ "виртуал синф" яратиш учун шартлар, гуруҳ ва лойиҳа тайёрлаш учун имкониятларни кенгайтириш ва ҳ.к.

Хулоса қилиб айтганда ахборот-таълим технологиялари ўқув жараёнини янги медиа воситаларидан, шу жумладан, гиперматн ва гипермедиа ҳаволалари, графикалар, тасвирлар, анимациялар, видеофъмлар ва овозларнинг қисмлари ёрдамида тўлдириш имконини беради. Шу боис, таълим жараёнида ахборот технологияларидан фойдаланиш ўқувчи-талабаларнинг фикрлаш, ҳис қилиш ва билимларни фаоллаштиришга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Примерные программы по учебным предметам «География 6-9 классы» Москва. «Просвещение» 2010.
2. Федеральный государственный образовательный стандарт общего образования. [://www.edu.ru/db-mon/mo/Data/d_10/m1897.html](http://www.edu.ru/db-mon/mo/Data/d_10/m1897.html)
3. Лобжанидзе А.А. Проблемы современного школьного географического образования. «География в школе», №3, 2013.
4. Узлуксиз таълимнинг 5-9 синф География дарсликлари.

Высокоэффективное использование земельных ресурсов.
 Студентка 3 курса кафедры «БХА» ТИИИМСХ Пирназарова Г.У.
 Ассистент кафедры «БХА» ТИИИМСХ: Ташходжаева Г.

Анотация.

Земля в рыночной экономике определяется как естественный природный ресурс, используемый для производства сельскохозяйственной продукции, для строительства домов, городов, железных дорог, а также позволяет земельному собственнику получать доход. При этом защита, охрана и рациональное использование земельных ресурсов, является основным приоритетным направлением на основе проведения землеустройства, перераспределения земли и передача их эффективным хозяйствующим субъектам и повышение плодородия почв.

Land market economy is a natural resource, used for the production of agricultural products, for the construction of houses, cities, railways and also allows landowner to receive income. At the same time, protection and rational use of land resources is the main priority direction on the basis of land management, land redistribution and transfer to efficient economic entities and increasing soil fertility.

Ключевые слова: землеустройство, мониторинг, картографической деятельности, государственного земельного кадастра, государственного картографо-геодезического кадастра, государственного кадастра зданий и сооружений, государственного кадастра территорий, государственного геодезического надзора .

Key words: land, land place, monitoring, cartography, state land cadaster, state cartographic-geodetic cadaster, state cadaster of buildings and structures, state cadaster of territories, state geodetic authority.

Земля является общенациональным богатством, подлежит рациональному использованию и охраняется государством как основа жизни, деятельности и благосостояния народа Республики Узбекистан.

Земельные ресурсы в обществе имеют многоцелевое назначение, земельный фонд по назначению подразделяются на следующие категории: Земельный фонд Республики Ўзбекистан .

Таблица 1

№	Формы земельного фонда	Общая площадь Земель		В том числе орошаемые земли	
		Всего,га	В процентах	Всего, га	В процентах
1	Земли предполагаемые для сельского хозяйства.	20388,8	45,42	4209,3	9,37
2	Земли населенных пунктов	219,2	0,49	49,9	0,11

3	Земли предназначенные для обороны, связи, транспортных целей.	909,6	2,03	12,3	0,03
4	Земли предназначенные для охраны природы	76,0	0,17	0,8	0,002
5	Земли предназначенные для культурно-исторических целей	13,7	0,03		
6	Земли лесного фонда	9773,0	21,77	33,2	0,07
7	Земли водного фонда	833,3	1,85	4,7	0,01
8	Запасы земель	12678,8	28,24	2,2	0,005
	Всего земли:	44892,4	100,0	4312,4	9,6

За последние годы в республике реализован ряд мер, по рациональному и эффективному использованию земельных ресурсов, для осуществления контроля и комплексного регулирования отношений в области земельных ресурсов, геодезии, картографии и государственного кадастра.

В рамках, Указа Президента РУз «О мерах по усилению контроля за охраной и рациональным использованием земель, совершенствованию геодезической и картографической деятельности, упорядочению ведения государственных кадастров» были определены основные задачи и направления деятельности Государственного комитета Республики Узбекистан по земельным ресурсам, геодезии, картографии и государственному кадастру:

- разработку и обеспечение реализации единой государственной политики по рациональному использованию земельных ресурсов, в сфере геодезической и картографической деятельности;

- осуществление системного государственного контроля за рациональным использованием и охраной земель, государственного геодезического надзора за неукоснительным соблюдением требований законодательства с привлечением виновных лиц к установленной законодательством административной ответственности;

- разработку и реализацию государственных программ по рациональному использованию земельных ресурсов, обеспечению сохранности и охраны земель, повышению плодородия почв, усилению эффективности геодезической и картографической деятельности;
- ведение государственного земельного кадастра, государственного картографо-

геодезического кадастра, государственного кадастра зданий и сооружений, государственного кадастра территорий, а также Единой системы государственных кадастров;

- координацию деятельности органов государственного управления и органов исполнительной власти на местах в сфере государственных кадастров;

- проведение мониторинга сельскохозяйственных угодий, посева и выращивания сельскохозяйственных культур с применением беспилотных летательных аппаратов, обеспечение функционирования систем спутниковой навигации, с использованием геодезических данных и картографических материалов;

- осуществление аэрокосмосъемочных, топографо-геодезических, картографических, почвенных, геоботанических и других обследований и изысканий, осуществление картографического мониторинга;

- широкое внедрение современных информационно-коммуникационных технологий;

- расширение международного сотрудничества в области землепользования, геодезии, картографии и государственного кадастра, привлечение международных грантов;

- обеспечение на системной основе переподготовки и повышения квалификации кадров по землеустройству, геодезии, картографии и государственным кадастрами.

Сув ва энергия тежамкор, тупроқ унумдорлигини оширадиган экологик-инновацион технология

Мурадов Шухрат Одилович,

Рустамов Жавоҳир Ботирали Ўғли

Қариши мухандислик иқтисодиёт институти, Қариши

АҚШ, Россия, Миср, Хитой, Чехия, Италия, Азарбайжон давлати ва Ўзбекистонда (Тошкент Давлат аграр университетида) табиий минераллардан фойдаланиб тупроқ унумдорлигини оширадиган тажрибалар ўтказилган. Бундан ташқари ТИҚХММИ, Фарғона Политехника институтида полимерлар ва Тошкент Кимё-технология институтида намликни сақлаш бўйича гедрогеллар таклиф қилинган. Бизнинг техник ечим нафақат намликни, балки тупроқ энергиясини сақлашга ва унумдорлигини оширишга йўналтирилган.

Маълумки, республикамизнинг пахта тозалаш корхоналаридан йилига кўп миқдорда қаттиқ чиқинди қаровсиз ҳолатда ташланмоқда ва айрим ҳолатда ёқиб юборилмоқда. Ушбу чиқиндиларидан қайта фойдаланиш натижасида, атроф муҳит муҳофаза этилади.

Тупроқларни соғломлаштиришнинг асосий омиллари бу намлик ва энергиядан унумли фойдаланиш. Таклиф этилаётган технология, пахта тозалаш корхоналаридан чиқаётган қаттиқ чиқиндилардан фойдаланиб,

атроф мухитни муҳофаза қилинади ва иссиқхоналарда тупроқ соғламлаштирилади.

Иссиқхоналарда тупроқ энергиясини сақлаш орқали, намликни парланиш миқдори камайтирилади. Шу боис, унумли парланиш ошади. Иссиқхонада томчилар пайдо бўлиши камаяди, ўсимликларнинг ривожланиши ошади ва тупроқ соғломлашади, кислород ажралиши кўпаяди, табиий минераллардан фойдаланиш миқдори камаяди.

Пахта тозалаш корхоналарининг чиқиндиларни табиий минераллар билан аралаштириб тупроқ намлигини тежаш йули билан энергияни сақлаш ва унумдорлигини ошириш масаласи асосий стратегик йўлимиз ҳисобланади.

Мисол, Қашқадарё вилояти Косон туманида ўртача йилига 60 000 минг тонна пахта етиштиради. Бундан қарийб 120 тонна чиқинди чиқади.

Пахта тозалаш заводларидан қарийб 0,2 % гача республикамиздан 6800 минг тоннадан ортиқ чиқинди ташланади. (Ўзбекистонда 2017-йил 3400 минг тонна пахта етиштирилганлигини ҳисобга олган ҳолда) қарийб 19.4 минг гектардан ортиқ иссиқхона ерларига етади. Ушбу технология лабораторияда ва дала шароитида синалган.

Оддий ҳолда табиий минераллар билан аралаштириб (50x50), пахта чиқиндисидан фойдаланилади, сув-энергия ресурслари тежалади ва тупроқ унумдорлиги ошади.

Иссиқхонада дастлаб декабрни 4-санасида пиёз экилди. 1 м² га оддий ҳолат ва 1 м² га эса чиқинди аралаштирилган ҳолат декабрдан март ойигача улар ўртасидаги ўзаро фарқлар кузатилиб борилди. Яъни иссиқхонада бошланғич ой 120С ва 160С бўлса январ ойидаги ҳароратни тушиб кетишидаги фарқларни назарда тутиб декабр ойида пиёзлар орасида ўсув 3-5 см бўлса январ ойига келиб оддий ҳолатда экилган пиёзларни айримлари нобуд бўлиб, баъзилариники эса ўсув жараёни секинлашди. Чиқинди қўлланган тажриба майдончасида эса ўзининг ўсув жараёнида ҳеч қандай салбий ҳолат кузатилмади.

Аввало, бу салбий ҳолат балки тупроқларданмикан деб ўйлаб албатта бу ҳолатга аниқлик киритиш учун айнан мелиорант қўлланилмаган тажриба майдончасига бодринг экилди. Лекин бунда ҳам ўсув жараёни ўртача, ўсимликни ривожланиш даражаси суст эди. Чиқинди қўлланилган томонда экилган бодринг эса оддий ҳолатдагидан 7-9 см фарқ қилди. Шунини айтиш жоизки, бодринг кўчатларининг ҳам ҳар кунлик ўсув, ҳароратларини ўрганиб чиқиб шундай ҳулосага келдикки, бир вақтнинг ўзида экилган, парвариш бир хил бўлган бу ўсимликларни бир қисмига берилаётган чиқиндиларнинг таъсири жуда ҳам ижобий натижасини кўрсатди.

Ушбу ўтказилаётган тажриба маҳсулини баҳолашда албатта тупроқнинг таркиби асосий ўринда туради. Тупроқ намлигини ўлчайдиган асбоб ёрдамида ҳар иккала оддий ва мелиорант қўлланилган томонда ҳар кунлик таҳлилий текширув ўтказилиб борилди ва қуйидаги 2 хил даражадан фарқларни баҳолаш мумкин.

Бодринг кўчати экилган оддий тажриба майдончасидаги тупроқ намлиги (moist) 4.5, pH 5.5 миқдори кўрсатди. Шунингдек, мелиорант қўлланилган

бодринг кўчати экилган тажриба майдончасида эса тупроқнинг намлиги (moist) 8 , рН 4 ни кўрсатиши тажрибада синалди. Оддий ҳолатда мелиорантни таркибий тахлили (dry) 2.9 даражани кўрсатди.

Шуни айтиш жоизки, 2 та тажриба майдончасини ўзаро фарқи юқорида келтирилган даражалардан кўриниб турибди ва мелиорант қўлланилган тажриба майдончаси эса ўзининг ижобий натижасини кўрсатмоқда.

1м² майдонга аралашманинг сарфи – 3,5 кг, шундан 50 % чиқинди, 50 % минерал (Патент №4539 Тупроқни мелорациялаш усули, 30.09.97).

Суғориш меъёри 2-3 марта камаяди, тупроқ соғломлаштирилади ва энергияси сақланади, ўсимликларнинг ҳосилдорлиги ошади. Пахта тозалаш корхоналарининг чиқиндиларидан қайта фойдаланиш эвазига атроф муҳит ҳимояланади. Тупроқда намлик ва энергияни сақлаш туфайли микроорганизмлар ривожланади, транспирация жараёни ошади ва унумли қатлам соғломлаштирилади.

Ишлаб чиқилган технология бошқа усулларга нисбатан иқтисодий жиҳатдан самарали ва экологик хавфсиздир.

Ер шўрини ювишни математик моделлаштириш

Бобокалонов Мавлон, Джаббаров Мамасоли

СамДАҚИ

Ерларнинг шўрланиши бутун дунёда катта муаммолардан бири ҳисобланади. Шўрланган ерларда қурилган фуқаро ва саноат биноларининг пойдевори тез емирилади, бундай ерларда деҳқончилик қилиш қийин, кучли шўрланган ерларда эса бутунлай мумкин эмас. Бизнинг Республикамизда шўрланган ерлар Қорақалпоғистон автоном Республикаси, Хоразм, Бухоро, Навоий, Жиззах, Сирдарё ва Қашқадарё вилоятларида кўп. Самарқанд вилоятининг Нарпай ва Пахтачи туманларида кейинги 20-30 йил ичида ерларнинг шўрланиши ошиб, баъзи дарахтлар қуриб қолмоқда. Шу сабабли ерларнинг шўрланишига қарши курашиш долзарб муаммо бўлиб, у бир қатор илмий-тадқиқот институтлари ва илмий лабораторияларда ўрганилади. Мазкур мақолада биз ер шўрини ювишнинг мураккаб бўлмаган математик моделини қараймиз. Жараёнга таъсир этувчи кўп факторларни ҳисобга олувчи мукамал моделлар мураккаб математик масалаларга олиб келади ва бу масалалар сонли усуллар ёрдамида ечилади [1].

Бир жинсли ва намликка тўйинган грунт сувидаги тузларнинг умумий концентрациясини аниқлаш учун қуйидаги тенгламадан фойдаланиш мумкин [2]:

$$m_0 \frac{\partial c}{\partial t} = D \frac{\partial^2 c}{\partial z^2} - v \frac{\partial c}{\partial z} + \gamma(c_n - c), \quad (0 < z < l) \quad (1)$$

Бу ерда z – ер сатҳидан бошлаб ҳисобланадиган, пастга йўналган координата (м); t – вақт (сут); $c = c(z, t)$ – грунт сувларининг (шўр сувларнинг) масса концентрацияси, яъни бирлик ҳажмдаги тузнинг массаси (г/л, яъни 1 литр

сувдаги тузнинг граммдаги миқдори); c_n – тузга тўйинган эритманинг концентрацияси (г/л); l – ер ости сувлари сатҳи, м (вақтнинг биз қараётган оралиғида грунт сувлари сатҳи ўзгармайди деб ҳисоблаймиз.); m_s – грунтнинг эффектив ғоваклиги, $m_s = m_a(1 + \Gamma)$, m_a – актив ғоваклик, Γ – Генри коэффиценти; v – шўрни ювиш учун қуйилган сувнинг сизилиш тезлиги (м/сут); D – конвектив диффузия коэффиценти (м²/сут), $D = D_m + \lambda|v|$; D_m – молекуляр диффузия коэффиценти (м²/сут), λ – дисперсия параметри (м); γ – эриш коэффиценти (1/сут).

Агар шўр ювиш бошланишидан олдинги ер ости сувлари концентрациясининг тақсимланиши $c^0(z)$ функция ёрдамида ифодаланса, (1) тенглама учун бошланғич шарт

$$c(z, 0) = c^0(z), \quad (0 \leq z \leq l) \quad (2)$$

бўлади. Агар шўр ювиш учун ерга қуйиладиган (суғорилаётган) сувнинг концентрациясини c_n десак, (1) тенглама учун $z = 0$ (яъни ер сатҳига мос келувчи) чегаравий шарт

$$\left(vc - D \frac{\partial c}{\partial z} \right) \Big|_{z=0} = vc_n \quad (3)$$

бўлади. Бу шарт вақт ўтиши билан грунт сатҳидаги сувнинг концентрацияси суғорилаётган (қуйиладиган) сув концентрациясига тенглашишини ифодалайди.

Шўрланишни камайтириш учун қуйиладиган сувлар грунт сувларига бориб қўшилади. Филтрацион оқимнинг чиқишида (ер ости сувларига қўшиладиган жойида) сув ва тузларнинг тезлиги бир хил, яъни концентрация градиенти нол деб ҳисоблаш мумкин. Математик томондан бу $z = l$ чегаравий шарт

$$\frac{\partial c}{\partial z} \Big|_{z=l} = 0 \quad (4)$$

кўринишда эканини билдиради.

(1) тенглама, (2) бошланғич шарт ва (3), (4) чегаравий шартлар грунтлар шўрини ювишнинг содда математик моделини ифодалайди. Бунинг маъноси шуки, биз шўр ювиш ҳақидаги масалани математик масалани ечишга келтирдик. Масалани ечишдан олдин, қулайлик учун, уни ўлчамсиз катталикларда ифодалаймиз. Бунинг учун қуйидаги янги ўзгарувчи ва ўзгармас миқдорларни киритамиз:

$$x = \frac{z}{l}, \quad \bar{t} = \frac{t}{t_x}, \quad u(x, \bar{t}) = \frac{c - c_n}{c_n - c_n}, \quad u^0(x) = \frac{c^0 - c_n}{c_n - c_n},$$

$$t_x = \frac{m_0 l^2}{D}, \quad \bar{\gamma} = \gamma \frac{l^2}{D}, \quad Pe = \frac{vl}{D}, \quad \alpha = \frac{1}{2} Pe$$

Бу ердаги Pe Пекле сони дейилади. Ўлчамсиз ўзгарувчиларда масала куйидагича ифодаланади

$$\frac{\partial u}{\partial \bar{t}} = \frac{\partial^2 u}{\partial \bar{t}^2} - Pe \frac{\partial u}{\partial x} + \bar{\gamma}(1-u), \quad (0 < x < 1) \quad (5)$$

$$u(x, 0) = u^0(x), \quad (0 \leq x \leq 1) \quad (6)$$

$$\left(\frac{\partial u}{\partial x} - Pe \cdot u \right) \Big|_{x=0} = 0, \quad \frac{\partial u}{\partial x} \Big|_{x=1} = 0 \quad (7)$$

Масалани Фурьенинг ўзгарувчиларни алмаштириш усули билан ечамиз. Бунинг учун изланаётган номаълум функцияни

$$u(x, \bar{t}) = X(x)T(\bar{t}) \quad (8)$$

кўринишда излаймиз. (8) ни (5) тенглама ҳамда бошланғич ва чегаравий шартларга кўйиб, $X(x)$, $T(\bar{t})$ функциялар учун оддий дифференциал тенгламаларни ҳосил қиламиз. Бу тенгламаларнинг ечимини (8) га кўйиб, (5)-(7) масаланинг ечимини куйидаги кўринишда оламиз:

$$\begin{aligned} u(x, \bar{t}) = & 1 - \frac{1 + \alpha - \alpha x}{1 + 0.5\alpha} e^{\alpha x} - 2 \sum_{k=1}^{\infty} \frac{\psi_k(x) e^{\alpha x - \beta_0 x - \mu_k^2 \bar{t}}}{\mu_k^2 + \alpha^2 + \alpha} \cdot \int_0^1 (1 - u_0(x)) \psi_k(x) e^{-\alpha x} dx + \\ & + \frac{2e^{\alpha x}}{1 + 0.5\alpha} \cdot \sum_{k=1}^{\infty} \frac{\omega_k \psi_k(x) e^{\omega_k^2 \bar{t}}}{\mu_k (\mu_k^2 + \alpha^2 + \alpha) (\mu_k^2 + \alpha^2)} \cdot [(1 - \cos \mu_k) Pe + \\ & + \alpha^2 (1 - \sin \mu_k / \mu_k) + \mu_k \sin \mu_k] \quad (9) \end{aligned}$$


Бу ерда $\omega_k = \sqrt{\mu_k^2 + \beta_0^2}$, $\psi_k^2(x) = \alpha \sin \mu_k x + \mu_k \cos \mu_k x$, μ_k - куйидаги

$$\operatorname{tg} \mu = \frac{2\alpha\mu}{\mu^2 - \alpha^2}$$


тенгламанинг мусбат илдизлари.

Масала параметрларининг куйидаги
 $v = 0.002 \text{ м/суу}$; $\lambda = 0.5 \text{ м}$; $c_n = 1 \text{ г/л}$; $m_g = 0.41$; $D_m = 0.0001 \text{ м}^2/\text{сут}$;
 $l = 3 \text{ м}$; $\gamma = 0.001 \text{ 1/сут}$; $c_n = 20 \text{ г/л}$ қийматларида сонли ҳисоблашлар бажарилди.

1-расмда грунт сувидаги тузлар концентрациянинг вақт бўйича ўзгариши кўрсатилган. Расмдан кўринадики, тузларининг бошланғич концентрацияси ҳамма ерда бир хил 7.5 г/л бўлса, ернинг шўрини концентрацияси 1 г/л бўлган сув билан ювилганида 10 суткадан кейин ер сатҳида тузлар концентрацияси 2 г/л гача камаяди, грунт сувлари сатҳида эса концентрация, аксинча 9.5 г/л гача ошади. Вақт ўтиши билан ер сатҳида ҳам, грунт сувлари сатҳида ҳам концентрация камаяди, 50 суткадан кейин концентрация ер сатҳида деярли куйилаётган сувлар концентрациясига тенг, грунт суви сатҳида эса 9 г/л бўлади.



1-расм



2-расм.

Математик моделлаштиришнинг афзалликларидан бири шуки, у математик моделга кирувчи параметрларнинг жараёнга таъсирини амалда тажриба ўтказмасдан ўрганишга имкон беради. 2-расмда қаттиқ ҳолатдаги тузлар эрувчанлигининг концентрацияга таъсирини ўрганиш мақсадида стационар ҳолатда ($t \rightarrow \infty$) эрувчанлик коэффициентининг $\gamma = 0.0001$ 1/сут $\gamma = 0.0001$ 1/сут, ва $\gamma = 0.001$ 1/сут, яъни бир-биридан 10 баравар фарқ қилувчи қийматларида концентрациянинг координата (чуқурлик) бўйича ўзгариши графиги кўрсатилган ($c_n = 0$). Бу шуни кўрсатадики, грунтда мавжуд қаттиқ ҳолатдаги тузларнинг эрувчанлик коэффициентини билган ҳолда ерларнинг шўрланиш даражасини баҳолаш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. ДЖаббаров М.С. Моделирование нестационарных процессов влагосолепереноса в многослойных системах и их исследование аналитическими и численными методами. Дисс. на канд. физ.-мат. наук. – Ташкент, 1991. – 161 с.
2. Веригин Н.Н., Васильев С.В. и др. Методы прогноза солевого режима грунтов и грунтовых вод. – М.: Колос, 1979. -336 с.

Темір yo'lni trassalashda hisob chizma ishlarini avtomatlashtirish

Abduraxmon Xayrullayevich Nasullayev

Omonjon Maxamadjonovich Bozorov

Ilmiy raxbar: Bositxon Voxidovich Ziyavitdinov

Toshkent temir yo'l muhandislari instituti

Темір yo'lni qurish va undan foydalanish jarayonida yo'l alohida qisimlarining joylanishini bilish zarur. Buning uchun temir yo'l trassasi o'q chizig'i bo'ylab kilometrli va 100 metrli (piket) masofalar belgilanadi. Bundan tashqari trassa tarxi va kesimini tuzish uchun, undagi barcha relefnig o'zgarish joylari, trassani boshqa mavjud temir va avtomobil yo'llari, daryolar, tavsilot elementlari bilan kesishgan nuqtalarning o'rni ham belgilanishi kerak. Bunday nuqtalar odatda 100 mertli piketlar orasida bo'lib ular oraliq nuqtaqlar yoki plyusovkalar deb ataladi. Bu jarayonga trassani piketlash deyiladi.

Trassa uzunligini o'lchaganda piketlar 0 dan (PK0) ketma-ket raqamlanadi.

Shunda piket raqami trassaning boshidan ungacha bo'lgan masofaning 100 metrliklari soniga teng. Trassada qoya, yirik suv havzasi, aholi punktlari va boshqa to'siqlar uchrashi mumkin. Bunday to'siqlar aylanib o'tilib, trassa o'z yo'nalishini o'zgartirib, chapga yoki o'nga buriladi. Trassaning burulish burchaklari o'lchanadi.

Temir yo'lni vertikal tekislik bo'yicha loyihalash uchun trassaning (piket plyus va egri chiziq) nuqtalari otmetkalarini bilish kerak. Bu otmetkalar bo'yicha trassaning bo'ylama va ko'ndalang kesimlari tuziladi, hamda bu otmetkalarda yo'l qurulishdagi muhandis masalalarini bajarishda foydalaniladi.

“Texnik nivelirlash jurnali” temir yo'l trassasi bo'yicha bajarilgan nivelirlash, egri chiziq elementlarini va bosh nuqtalarini piket o'rnini hisoblash, xamda nivelirlash yo'li (temir yo'l trassasi) bo'ylama va ko'ndalang kesimlarini tuzishdan iborat. Bo'ylama va ko'ndalang kesim millimetrlilik qog'ozda tuzilib, trassaning bo'ylama kesimi talab qilingan miqyosda chiziladi.

Hozirgi globallashtirish jarayoni hamda axborot-kommunikatsiya rivojlanish davrida bu ishlarini yanada avtomatlashtirish va sifatini oshirish imkoniyatiga egamiz. Rivojlanib kelayotgan yo'ldan foydalangan holda zamonaviy dasturlar, ya'ni AUTOCAD va 3DMAX dasturlari yordamida trassaning bo'ylama va ko'ndalang kesimlarini tuzish hamda loyihalash ishlarini bajarishimiz mumkin.

Toshkent temir yo'l muhandislari institutining yosh geodezlar to'garak a'zolari sifatida biz ancha qulay bo'lmish, AUTOCAD dasturi yordamida loyihalash ishlarini olib boryapmiz va uni avtomatlashtirishga erishdik. Bunga ko'ra biz bir qator ishlarini ketma-ket bajarmoqdami:

- AUTOCAD dasturi chap tarafida ishchi oynasining o'rtasidan gorizontal chiziq o'tkaziladi. Undan pastda kesim to'riga tegishli ma'lumotlar kiritiladigan gorizontal qatorlar majmuasi chiziladi.

- nivelirlash jurnalida berilgan ma'lumotlarga asosan “Masofalar” qatoriga berilgan miqyosda trassa piketlari (PK 0, PK 1 va x.k.) va oraliq (+40, +50, PK3, + 62 va h.k.) nuqtalar o'rnini tik chiziqlar bilan belgilanadi. Har bir piket chizig'ining tagiga uning raqami (nomer): 0, 1,2 va x.k lar yozib qo'yiladi. Piketlar va oraliq nuqtalar orasidagi masofa ko'rsatiladi. Bu masofalarning yig'indisi 100m ni tashkil etishi kerak. Bo'ylama kesimga “X” nuqtalar va PK 14+50 dagi ko'ndalang kesim nuqtalari (o'ngga +8, +20 chapga +4, +14,+20) kiritilmaydi. “Yer belgilari” qatoriga nivelirlash jurnalidan (11-ustun) piket va oraliq nuqtalarining tegishli mutloq balandlik belgilar 0,01m. gacha yaxlitlab ko'chiriladi.

- to'rnining eng yuqori gorizontal chizig'i (shartli sath yuzasi) dan 6-10sm. ko'tarilib, tik chiziq bo'yicha berilgan miqyosda jurnalidagi mutloq balandliklarga ko'ra 10 m gacha yaxlitlangan balandliklar belgisi xar 1 sm uzunlikda yozib chiqiladi (130,140,150 va h.k.) Nivelirlash jurnalining “Yer belgilari” qatoridagi mutloq balandlik belgilari bo'yicha PK va oraliq (+) nuqtalarining tik chiziq (ordinata)lardagi o'rnini belgilanadi. Ordinatalar uchi to'g'ri siniq chiziqlar bilan tutashtiriladi. Bu hosil bo'lgan siniq chiziq trassaning bo'ylama kesimi bo'ladi.

- “Yer qatlami” qatoriga geologik qidiruv ishlari natijasida olingan yerning ustki qatlami tarkibi yoziladi (qumlik, loy, tosh va h.k.).

- “Tafsilotlar” qatoriga piketlash daftarchasidan trassa yoni tafsilotlari tushiriladi, qator o'rtasi bo'ylab uzunasiga trassa o'q chizig'i chizilib, burilish

uchlari piket o'ri (BU1PK)ga ko'ra tegishli tomonga qaratilgan (chap, o'ng) mil (strelka) lar bilan ko'rsatiladi;

- "Trassa tarhi" qatorida yana trassa o'q chizig'i o'tkaziladi hamda "Trassa egri va to'g'ri chiziqlari jadvali"da hisoblab topilgan trassaning hamma egri chiziqlari (EBpk, EOpk) piket o'ri qiymatlariga ko'ra egri chiziqlar oval chiziq bilan belgilanadi. Agar burilish o'ng tarafga bo'lsa, oval pastdan, agar chap tarafga bo'lsa - yuqoridan chiziladi. Egri chiziqning bosh va oxirgi nuqtasidan

- "Masofalar" gacha tik chiziq ko'tarilib ikki tarafida piketlarga bo'lgan masofa beriladi. Trassaning to'g'ri chizikli uchastkalarining azimutlari (A0 va A1) xamda uzunliklari trassa boshidan egri chiziq boshigacha (d1) va egri chiziq oxiridan trassa oxirigacha (d2) trassa o'qi chizig'ining usti va tagida ko'rsatiladi.


- "Kilometrlar" qatorida PKO dan boshlab xar 10-piketda 5 mm li yarmi bo'yalgan doirachalar (●) shaklida kilometr belgilari qo'yiladi va km raqami yoziladi.

- Chizma yuqorisida bo'ylama kesim nomi va qo'llanilgan miqyoslar qiymati yoziladi.

Temir yo'lni qidiruv, loyihalash va qurish uchun bajariladigan trassalash, bo'ylama va ko'ndalang nivelirlashning kameral ishlarini avtomatlashtirish natijasida vaqtni tejash, sifatni oshirish va ishlar samaradorligini yuqori darajaga ko'tarish imkoniyatini beradi.

Temir yo'l trassasining bo'ylama kesimi ПK0 dan ПK20 gacha

M^Г 1:10000
B 1:1000



Methods for protecting radio signals from active and passive interference
Turumbetov Bairam Kongratbaevich¹, Reypnazarov Ernazar Nurzhamievich²
1Nukus Branch of TUIT, 2Tashkent University of Information Technologies named
after Muhammad al-Khawarazmi

The methods of protection against interference are based, as a rule, on the use of difference in signal parameters and interference.

Frequency selection is based on the difference in the spectra of signals and interference. Frequency selection is considered as one of the main means of noise protection against intentional active and passive interference. The basis of the principle of frequency selection is the expression of the spectral function of the signal at the output of a linear four-terminal network, known from radio engineering.

$$\dot{S}_{out}(\omega) = \dot{K}(j\omega)\dot{S}_{in}(\omega)$$

If you select the frequency response of the four-port, which only passes the useful signal spectrum, you can eliminate the effect of interference outside the reception band (blocking is not taken into account here) (Fig. 1).




Fig. 1. Frequency selection.

We recall that for an undistorted reception it is necessary that $|\dot{K}(j\omega)| = K_0$ in the band of the spectrum of the signal, and the phase response be linear.

Let's consider some variants of frequency selection. There are several ways to change the carrier frequency.

a) Use of two transceiver channels tuned to different frequencies f_1 and f_2 . Channels work alternately. Switching is carried out manually by the operator or automatically with the help of an analyzer of the electronic-magnetic situation, which fixes the presence of interference in the receiving channel.

b) The relatively slow continuous change in the operating frequency of the radio station according to a given law, for example, $f_c = f_0(1 + k \sin \Omega t)$, where Ω is the low frequency, k is the coefficient determining the frequency deviation.

c) The frequency varies from one value to the other, but at each of the selected frequencies it takes a long time (for example, during a large number of pulses of the radio station).

Most promising and already used

d) Rapid change in the frequency of the radio broadcasting station (RBS) by random law (for example, in digital communication systems - expansion of the spectrum, in radio relay systems (RRS) - frequency change from pulse to pulse).

If the carrier frequency of the signals changes randomly from pulse to pulse within the Δf_{RBS} band, the frequency distribution density is constant and the distribution law of the jump interval is symmetric, then the mathematical expectation of the modulus of the frequency difference of the two consecutive

pulses is $M_{|f_i - f_{i+1}|} = \frac{\Delta f_{RBS}}{2}$.

This method protects well from active masking interference and from impact noise interference. When using obstructions across the entire band of interference, it is ineffective, but for obstruction there should be more power. For example: currently in the RBS, rapid frequency tuning from $(0.03 \text{ to } 0.2)f_0$. Then, for a RRS with a wavelength $\lambda=10 \text{ sm}$ ($f_0=3000 \text{ MHz}$), a 5% change from f_0 is $\Delta f_{RBS}=150 \text{ MHz}$ with the pass band of the radar receiver (mean intermediate frequency amplifier (IFA)) $\Delta f_{IFA}=1.5 \text{ MHz}$, the ratio $\Delta f_{RBS}/\Delta f_{IFA}=100$. That is, all other things being equal, the power of the transmitter of the obstruction must be 100 times greater than the power of the transmitter of impact interference.

Rapid frequency tuning over a wide range is a measure of the fight against unintentional RBS interference of one frequency subband. If the effective bandwidth of the RBS receiver is Δf_{eff} , the effective spectral width of the emitted signal is Δf_s and the tuning band Δf_{RBS} (with $\Delta f_{RBS} \gg NRBS \Delta f_{eff}$ and $\Delta f_{RBS} \gg NRBS \Delta f_s$, $NRBS$ is the number of RBS in one frequency band) then the probability P of the signals of neighboring RBSs to enter the receiving channel of

$$P = \frac{\Delta f_{eff} + \Delta f_s}{\Delta f_{RBS}} (N_{RBS} - 1)$$

each of them will be equal to

It is assumed that for the occurrence of unintentional interference, it is sufficient that the frequencies of the j -th signal coincide with the width of the spectrum Δf_{sj} and the bandwidth of the i -th receiver Δf_{effi} (Fig. 2).




Fig. 2. Quick frequency setting within wide limits.

At $\Delta f_s=2 \text{ MHz}$, $\Delta f_{eff}=2\Delta f_s=2 \text{ MHz}$, $\Delta f_{RBS}=500 \text{ MHz}$ (5% of $f_0 = 10000 \text{ MHz}$) and $NRBS=10$, we get $P=0.1$. Those on average, only a tenth of the cycle will be accompanied by unintentional interference.

To protect against interference by frequency selection, it is advisable to restructure to a frequency that provides the minimum interference power. This method of protection is based on the use of an uneven distribution of the frequency

density of the interference power in the range of possible adjustment of the carrier frequency of the RBS.

УДК:528.2/5:528.541

**Республикамиз қишлоқ хўжалигида гидротехник иншоотларни
лойиҳалаш ва қуришда геодезик ишлар**

Ў.П.Исломов., Д.А.Абдурахмонова., М.М.Иноятова-ТИҚХММИ

Annotation. Characteristics in conducting of geodesic works in projecting and building of hydro technical constructions.

Keywords: geodesy, cartography, cadastre, photogrammetry, reclamation, hydraulic engineering measures, geodesic instrument.

Сўнги йилларда мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги соҳасини янада барқарор ривожлантириш, ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, уларнинг унумдорлигини ошириш ва шу тариқа қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлигини кўпайтириш учун зарур шарт-шароитларни яратиш бўйича кейинги йилларда самарали ишлар олиб борилмоқда. Суғориш тизимини тубдан реконструкция қилиш, янги суғориш иншоотлари, каналлар қурилши ишларини тизимли тарзда кириш бўйича янги дастурлар қабул қилинди. Мамлакатимизда 1986 йилдан буён бирорта суғориш тизимини яхшилашга мўлжалланган каналлар қурилмаган ескилар тўлиқ реконструкция қилинмаган еди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиш бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг мамлакатимиз тараққиётини барча соҳа ва тармоқларда янги босқичга кўтариш бўйича атрафлича ёритилиб берилган.

Мустақиллик йилларида ҳукуватимиз тамонидан қишлоқ хўжалиги ерларини мелиоратив ҳолатини яхшилашга, сув хўжалиги иншоотларини ишлатиш ва замонавийлаштиришга давлат бюджетидан жуда катта маблағ ажратилмоқда. Республикада ҳар йили 5,0 минг км магистрал каналлар, сув истеъмолчилари уюшмалари ва фермер хўжаликлари ҳисобидаги 16,0 минг км суғориш тармоқлари, 10 мингга яқин гидротехник иншоотлар ва гидропостлар тозаланади ва таъмирланади. Сўнги йилларда 1,5 минг км канал, 400 та йирик гидротехник иншоот, 200 та насос станцияси, 386,0 минг га суғориладиган ерлар реконструкция қилинди ҳамда каналлар ва гидротехник иншоотларнинг техник ҳолати яхшиланди.

Гидротехник иншоотлар халқ хўжалигидаги масалаларни ҳал қилишда сув ресурсларидан самарали фойдаланиш учун қўлланади. Масалаларни ҳамма томонлама ҳал қилувчи гидротехник иншоотлар мажмуъасига гидроузел дейилади. Катта гидроузелларни асосий қисмларини қуйидагилар ташкил қилади: темир - бетон тўғон, ёки тупроқли тўғон, ГЭС, кема, юрувчи каналлар, сув омборлар ва сув билан таъминлаш ва суғориш учун магистрал каналлар.

Тўғон дарёни икки қисмга бўлади: юқори ва қўйи тублари. Тўғоннинг юқори қисмида сув омбор жойлашган бўлади. Текис жойларда тўғри чизиқли

тўғонлар қурилади. Тоғли дарёларда аркали эгри чизиқли тўғонлар қурилади.

ГЭС ни босим кучи текис жойдаги дарёларда 25- 30 м тоғли дарёларда босим кучи 200-300 м ташкил қилади (Нурек, Ингур, Гирит ГЭС лари).

Гидротехник иншоотлар 2 босқичда лойиҳаланади:

1). Техник лойиҳа; 2). Ишчи чизма.

Гедротехник иншоотларни лойиҳалашда асосий геодезик ишлари бўлиб, уларни топографик асос яъни, топографик карталар билан таъминлаш ҳисобланади.

1. Гидроузелларни лойиҳалашда асосий геодезик ишлар кўйидагиларни ташкил қилади :

а). 1: 5000 - 1: 25000 масштабни карталарда дарёларни фойдаланиш схемаларини, уларни профили, ҳамда туғон створининг профилини тузиш.

б). Гидроузеллар ва ишчи посёлкаларни лойиҳалаш учун 1: 1000 ÷ 1:2000 масштабни топографик карталарни ва тўғоннинг ўқи бўйича бўйлама профилини тузиш ва ишчи чизма тузиш босқичида - гедроузелни алоҳида иншоотларини лойиҳалашда 1:100 ÷ 1:500 масштабни топографик карталар қўлланади.

2. Сув омборларни лойиҳалашда:

а). 1:100000 - 1:25000 масштабни топографик карталарда дарёларни фойдаланиш схемасини ҳамда дарё водийсини топографик картасини тузиш.

б). Лойиҳалаш босқичида - дарёни бўйлама профили ва унинг водийсини топо-график картасини тузиш 1: 25000, кичик дарёларда 1:10000.

с). Ишчи чизмаларни тузиш босқичида ҳам лойиҳалаш босқичида қўлланиладиган топографик карталар қўлланилади.

3. Чизиқли иншоотларни лойиҳалашда:

а). Лойиҳалаш босқичида иншоотларни трассалашнинг йўналишини танлаш учун 1: 100000, 1:25000 масштабни топографик карталар : трассанинг танланган йўналиши бўйича иншоотли лойиҳалаш учун 1: 500 -1:2000 масштабни топографик план 1:10000, 1:5000 горизантал масштабида трассанинг бўйлама профили (вертикал масштаби 10 маротаба йирик).

б). Ишчи чизма босқичида - трасса бўйича алоҳида бино ва иншоотларни лойиҳалашда (станция, омборлар контора ва х.к) 1:2000 –1:500 масштабни топографик планлар.

с). Гидрогеология ва геология изланишларда дарё водийсини топографик картасини тузиш учун 1: 100000 - 10000 масштабларда қўлланади.

д). Гидрологик изланишларда : гидрометрик станциялар участкаларини, сув ўлчанадиган постларни қуришда 1: 10000 - 1: 500 масштабни топографик карталар қўлланилади.

Гидроузел қурилиш майдончасида геодезик тармоқларни барпо этиш, гидроузелни қурилиш майдончасида барпо этиладиган геодезик тармоқ ер усти ва ер остидаги иншоотларни асосий ўқларини жойга кўчириш, ҳамда бу иншоотларни деформациясини кузатиш учун хизмат қилади. Қидирув ишларида тузилган тармоқлар аниқлиги ва зичлиги бўйича

жавоб бера олмайди, шунинг учун гидроузелларни қурилиш майдончасини худудида махсус геодезик тармоқлар тузилади ва улар иншоотнинг ўлчамига боғлиқ бўлиб, гидроузелларнинг катта - кичиклигига қараб III категорияга бўлинади.

Планли геодезик тармоғи триангуляция усулида барпо этилади. Светодалномерларни ишлатишда полигонометрия усуллари ҳам қўлланиши мумкин.(1-жадвал)

1-Жадвал. Гидротехник иншоотларни лойиҳалаш ва қурилишдаги триангуляция кўрсаткичлари

Қурилиш категорияси	Триангуляция разряди	Учбурчак томонлари узунлиги, (км)	Бурчак ўрта квадратик хатоси	Учбурчаклардаги энг катта боғланмаслик қиймат	Нисбий хатоликлар (ўртача)	
I	II	0,5 -1,5	±1"	±13",5	1:800000	1:200000
II-III	III	0,3-1,0	1",5	5"	1:500000	1:150000
III	IV	0,2-0,8	2"	7"	1:150000	-

Триангуляция тармоғини кейинчалик зичлаштириш полигонометрик йўллар ёки аналитик тармоқлар орқали бажарилади. Қайд этилган масштаблар яъни 1:10000, 1:25000 бўйича топографик съёмкаларни бажариш учун геодезик таянч тармоғи триангуляция усулида барпо этилади. Триангуляциянинг асосий қаторидаги пунктлар дарё водийсининг қаттиқ соҳилларида жойлаштирилади. Триангуляциянинг асосий қаторини синфи дарё водийсининг энга боғлиқ.

Топографик съёмка учун баландлик таянч тармоғи IV синф нивелирлаш орқали барпо этилади. Шунда нивелир йўли дарёнинг бир соҳили бўйича ўтказилади. Гидроузел иншооти учун топографик съёмкалар 1: 2000 ёки 1: 1000 бажарилади: Бунинг учун махсус таянч тармоқ барпо этилади. Бу тармоқнинг икки пункти А ва В тўғоннинг ўқи бўйича жойлаштирилади.

Тармоқдаги бош пунктлари деформацияга жуда кам учрайдиган жойларда белгиланади. Улар иншоотнинг деформациясини кузатиш учун қўлланилади ҳамда режалаш тармоқлари пунктлари ўрниларини доимийлигини назорат қилиш учун қўлланилади. Тўғонни ўқи 3та бош тармоққа пунктлари ва 2 та режалаш тармоғи пунктлари билан маҳкамланган.

Триангуляция пунктлари диаметри 20- 30 см пулат трубалар ёки темир бетон столбалар орқали 5-10 м чуқурликга маҳкамланади. Гидротехник иншоотларни баландлиги бўйича режалашда нивелир йўллари III-IV синф нивелирлаш орқали ўтказилади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Миромоновичнинг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси” Тошкент “Адолат” 2017 йил.

2. Рахимбоев Ф.М., Хамидов М. Қишлоқ хўжалиги мелиорацияси. Инженерлик геодезияси бўлими. Т., Ўқитувчи, 1996йил.

Ер атмосферасининг ўзгариши ва глобал иқлимий ўзгаришлар

Ф.Ю.Шайманова, Г.Қ.Турсунова (Қарши МИИ)

Ердаги ҳаёт Қуёшдан нурланаётган энергия оқимининг интенсивлигига бевосита боғлиқ бўлиши асослаб берилган [1,2]. Лекин, Ердаги иқлимнинг барқарорлигига таъсир қилувчи омиллардан яна бири Ерни ўраб турган атмосфера қатламига чиқарилаётган чиқиндилар миқдорига боғлиқлиги ҳам нуфузли олимлар томонидан эътироф этилмоқда [3,4]. Хусусан, Нобел мукофоти лауреати Алберт Гор: “Биз бугун сайёрамизни ўраб турган атмосферанинг юпқагина қобиғига гўё очик зовурдек 70 млн тонна ифлос чиқиндилар чиқаряпмиз. Эртага эса кўплаб Қуёш иссиқлигини банд этадиган улкан концентрациялар мажмуидан иборат яна кўпдан-кўп чиқиндиларни чиқараверамиз. Натижада, Ернинг иситмаси аланга оташ бўлади. Иссиқлик муттасил ортаверади ” деган эди. Экспертларнинг таъкидлашича, бу ўз-ўзидан ўтиб кетадиган ҳасталик эмас. Айрим тадқиқотчиларнинг фикрича шимолий қутб музлик қалпоғи камида 22 йилдан кейин буткул йўқолиб кетиш хавфи остида экан.

Атмосферанинг глобал иситиш муаммосини ўрганиш ва унинг ечимида иштирок этиш мақсадида Ўзбекистон 1993 йилдаги БМТнинг иқлим ўзгариши тўғрисидаги доиравий конвенциясига кўшилди [5,6]. 1999 йилда эса, Киото баённомаси ратификация қилинди. Мазкур конвенцияда атмосферада парник газлари концентрациясини иқлим тизимига хавфли антропоген таъсирга йўл қўймайдиган даражада барқарорлаштириш масаласи белгилаб қўйилган.

Ер атмосфераси, гидросфераси ва биосфераси ўртасидаги энергия алмашинуви иқлимни ҳосил қилувчи асосий физик жараён саналади. Сайёрамизга тушаётган Қуёш радиацияси (асосан кўзга кўринувчи нурлар) қисман қуруқлик ва океанлар сирти, шунингдек булутлардан, атмосферадаги аэрозоллар ва бошқа аралашмалардан қайтади. Тушаётган энергиянинг тақрибан 70%и Ер сатҳига ютилади, кейин инфрақизил нурлар шаклида Ер сатҳидан қайта нурланади. Атмосфера ана шу нурланишни ўзига ютиб, шу ҳисобга исийди. бироқ инфрақизил нурланиш атмосферамизнинг 99%ини ташкил этган кислород ва азот эмас, балки сув буғлари, корбонат ангидрид ва метан, озон ва унчалик кўп бўлмаган газлардан ютилади. Атмосферанинг иссиқлик балансида корбонат ангидрид ва метан газлари муҳим рол ўйнайди. Агар иқлим ўзгаришларини сўнгги 400 минг йил давомида

атмосферадаги корбонат ангидрид гази миқдори билан қиёсланса уларнинг бир-бирига мутлақо мос келиши аён бўлади [7,8].

Уларнинг бироз ўзгаришидан атмосферадаги энергетика балансининг бузилишига олиб келувчи кўплаб омиллар мавжуд. Бунда ўз мувозанатли ҳароратига эга бўлган янги мувозанат вужудга келгунига қадар Ер ҳалокатли тарзда совий бошлайди ёки қизийди. Сайёрамиз иқлими тарихи музланиш давлари ва музланишлараро мавсумларнинг муттасил алмашиниш занжиридан иборат. Ҳозирги вақтда камида 4 та глобал музланиш даври бўлганлиги аниқланган. Булардан дастлабкиси 400 млн йил аввал содир бўлган бўлса, чамаси энг қаҳратон музланиш даври 850-630 млн йиллар оралиғида бўлган, учинчи музланиш даври эса 460-430 млн йиллар оралиғида кузатилган. Энг сўнгги музланиш даври бундан 40 млн йил муқаддам бошланган. Шундан бери қор қопламанинг қалинлашиши ва юпқаланиши давлари 100-40 минг йиллар оралиғида такрорланган. Сўнгги исиш тақрибан 10 минг йил аввал бошланган.

Ер иқлимига таъсир этувчи омиллар жумласига қисман Қуёш ёрқинлигининг вариациялари, Ер орбитасининг тебранишлари туфайли Қуёш радиацияси оқимининг ўзгариши ёки астероидларнинг тушиши ҳамда ички сайёравий омилларни киритиш мумкин. Ерда вулқон отилиши натижасида Қуёш энергиясининг тўсилишига олиб келувчи атмосферага кўтарилган модда ёки литосфера плиталарининг силжишлари ички омиллар сирасига киради. Иқлимни шакллантирувчи эҳтимолий механизмлардан бири сифатида литосфера плиталарининг силжиши мисолига батафсилроқ тўхталиб ўтсак. Қачонлардир литосфера плиталари жойлашувининг ўзгариши океан оқимларининг қутб минтақаси томон ҳаракат йўлининг тўсилишига олиб келади. Натижада қутб минтақасида ҳарорат пасая бориб, қутбда муз қалпоқлари пайдо бўлган. Қутб қалпоқлари ўз навбатида Қуёш энергияси ютилишининг (қутбий минтақаларда Қуёш энергияси нурланиш коэффициентининг ортиши туфайли) камайишга олиб келади, бинобарин ҳарорат янада пасая бориб, музлик қоплами майдони ортади. Бошқа қандайдир жараён, айтилик нурланишга тескари таъсир кўрсатмағунича бу жараён кучая борган. Ҳозирги вақтда парник газлари концентрацияси тобора ошаётганлиги ниҳоятда муҳимдир. Айнан ушбу омил Ер глобал ҳарорати ортишининг бош сабабчиси ҳисобланадики, бу ҳақида сўнгги йилларда кўп гапирилмоқда. Эндиликда олимлар иқлимнинг келажакдаги ўзгаришларини башорат қилиш муаммоси устида фаол иш олиб боришмоқда.

Ердаги ҳаво ҳароратининг йилдан йилга кўтарилиб бораётганлиги инсонлар ва Ердаги барча тирик мавжудотлар учун катта муаммоларни келтириб чиқармоқда. Олимлар келажакда температуранинг кўтарилиб бориш натижасида Антарктида ва Гренландия музликлари эриши ва дунё океани сатҳининг кўтарилиб боришини башорат қилишмоқда. Бунинг натижасида бир қанча мамлакатлар сув остида қолиб кетиши муқаррар бўлиб қолмоқда. Инсоннинг об-ҳавога бинобарин иқлимга таъсири кенг кўламда ва кучлироқ намоён бўлмоқда. Келгусида об-ҳавонинг қандай бўлиши инсон фаолиятига боғлиқ. Мутахассисларнинг ҳисоб-китобига кўра асримиз

Ўрталарига келиб сайёрамиз иқлими сўнгги музлик даври арафасидаги иқлимга кўра иссиқроқ бўлиши яна 100 йилдан кейин эса сўнгги 70 млн йил мобайнидаги энг юқори ҳарорат рўй бериши мумкин. Ер иқлимини исиши катор кўнгилсиз воқеаларга сабаб бўлди. Чунончи озиқ-овқатлар танқислиги, иқтисодий барқарорлик, қишлоқ хўжалик экинларининг нобуд бўлиши. Ер кurrasи иқлимнинг ўзгаришига таъсир этувчи асосий сабаб инсон фаолиятидир. Ҳар йили млрд тонналаб кўмир, нефт, газ ёқилади. Булар атмосферада карбонат ангидриднинг кўпайиб боришига олиб келмоқда. Бундан ташқари ҳар йили минг минг гектарлаб ўрмонлар ёнгин туфайли нобуд бўлмоқда. Тропик ўрмонларнинг кўплаб кесиб юборилиши натижасида ҳам атмосферада кислород камайиб, карбонат ангидрид гази кўпаяди. Кейинги 10 йилликларда ҳар йили атмосферага 10 млн тонналаб карбонат ангидрид гази кўшилиб бормоқда. Шу тарзда давом этаверса 2030 йилларга бориб атмосферадаги карбонат ангидрид газининг миқдори ниҳоятда ошиб кетади. Карбонат ангидрид гази Қуёшдан келувчи нурларга халал бермаган ҳолда Ер юзидан коинотга тарқалувчи иссиқликни сезиларли даражада тутиб қолади. Демак Ер атмосферасида карбонат ангидрид газининг кўпайиши ҳаво ҳароратининг кўтарилишига сабаб бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Фан ва Турмуш 2008 й. 2-сон, 2009 й. 3-сон.
2. www.astrin.uz

Montaj gorizontiga o'tmetka uzatish usulin taxlil qilish

Tleumuratova Gulsara Mirzabaevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Geografiya kafedrasi assistenti


Geometrik nivelirlash bilan o'tmetka uzatish vertikal osilgan millimetr bo'linmalarga ega bo'lgan ruletka, ikki nivelir va boshlang'ich montaj gorizontidagi reperlarga o'rnatilgan ikki reyka yordamida amalga oshiriladi. Geometrik nivelirlash usulida lazerli ruletkani qo'llash yordamida montaj gorizontlariga o'tmetka uzatish usuli hozirgi vaqtda ko'p qo'llaniladigan usullarning biri hisoblanadi. Bu usulda lazerli ruletka(yoki lazerli dal'nomer) zamonaviy qurilish uchun juda qo'lay asbob hisoblanadi, u masofalarni tez va yuqori aniqlik bilan o'lchash imkonini beradi. Bunday asboblarning masofalarni o'lchashdan tashqari, xonalarning hajmini yaxshi hisoblaydi va borish qiyin bo'lgan joylarning uzunligin Pifagor teoremasi bilan oson aniqlash mumkin.

Lazerli ruletka-bu masofa o'lchash uchun mo'ljallangan kompaktli optik-elektron asbob hisoblanadi. Bu asboblarning zamonaviy modellari keng funktsiyalarga ega. Ruletka bilan ishlash u darajada qiyin emas, foydalanuvchi asbobni tekis joyga qoyib, ishga tu'shiradi. Asbobdan chiqqan nur nuqtaga borib qaytadi. Obyektdan asbobgacha bo'lgan masofadan nur qaytib, ruletka displayida ko'rinadi. Ko'pchilik ruletkalarning o'lchash aniqligi $\pm 1.5-2$ mm bo'ladi. Bunday aniqlik bilan katta hajmli masalalarni yechish va professional qurilish ishlarida qo'llash imkoniyatini beradi. Lazerli ruletka yordamida montaj gorizontlariga o'tmetka uzatish usuli sxemasi 1-rasmda ko'rsatilgan.

Montaj gorizontidagi ischi repering otmetkasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$H_M = H_o + a - b + l + c - d \quad (1)$$

Bu yerda: a,b,c,d- nivelir reykasining qora tomonidan olingan sanoqlar;
l- lazerli ruletka bilan o'lchangan vertikal masofa.



1-rasm. Lazerli ruletka yordamida otmetka uzatish sxemasi.
(1-nivelir; 3-lazerli ruletka)

Bu usulning aniqligini baholash uchun o'lchangan qiymatlarning o'rta kvadratik xatoligini hisoblash kerak bo'ladi. Reykadan olingan sanoqlarning xatoliklari teng ta'sir qiluvchi deb hisoblasak, u holda aniqlanuvchi otmetkaning o'rta kvadratik xatoligini hisoblash mumkin.

$$m_{H_2} = \sqrt{m_o^2 + 4m^2 + m_l^2} \quad (2)$$

Bu yerda, m_o - boshlang'ich ma'lumotlarning o'rta kvadratik xatoligi;

m - reykadan olingan sanoqlarning o'rta kvadratik xatoligi;

m_l – ruletkada o'lchangan masofaning o'rta kvadratik xatoligi.

Agar boshlang'ich ma'lumotlarning o'rta kvadratik xatoligi $m_o=2\text{mm}$, reykadan va ruletkadan olingan sanoqlarning o'rta kvadratik xatoligi $m=1\text{mm}$, lazerli ruletka bilan o'lchangan vertikal masofaning o'rta kvadratik xatoligi $m_l=2\text{mm}$ bo'lsa, bu usulda otmetka uzatish o'rta kvadratik xatoligi $m_H=3.5\text{mm}$ teng bo'ladi.

Hisoblashlar shuni ko'rsatadiki, geometrik nivelirlash usulida lazerli ruletka yordamida montaj gorizontiga otmetka uzatish aniqligi yuqori bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Полищук.Ю.В. Высотные разбивочные работы в строительстве. Киев, -Будівельник,1980.
2. Плеханов.Г.В. Курсовой проект по теме Передача высотных отметок на монтажные горизонты методами геометрического и тригонометрического нивелирования.-Санкт-Пете

Elektrostansiyalardan chiqqan oqava, mazut va moylardan ifloslangan suvlarni tozalash usullari.

*Samatova Shoirra Yo'ldashevna
Talaba Jonqobulova Lola Borat Qizi
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti*

Zamonaviy IESlar suv iste'molchilarining eng yiriklaridan biridir. Elektr stansiyaga uzatiladigan suv quyidagi guruhlarga bulinadi:

1) 8-10oC gacha qizib kondensatsiya issiqligini olib chiqaradigan suvlar. Bu suvning miqdori IES tizimidagi suv sarfining 95% ga tengdir. Ushbu suvni kimyoviy xossalari va sifatini o'zgarmaganligi tufayli, ular qaytadan suv xafzalariga tashlab chiqariladi;

2) IESni texnologik sikllarida ishlatiladigan va qaytmaydigan (sovutkich qurilmalarda bug'lanish jarayoniga, yo'qolishlarni qayta tiklanishiga va boshqalarga) suvlar. Qaytmasdan yo'qoladigan suvlarning miqdori, umumiy sarfi 2 - 3% ga teng;

3) maishiy – xo'jalik va texnologik jarayonlarda ifloslangan suvlar. Bu turdagi suvlar oqava suvlar tarkibiga kirib, qayta ishlatishdan oldin, mexanik, fizika – kimyoviy va biologik tozalashni talab etadi. Ushbu guruh suvlarga, neft mahsulotlaridan (mazut, moy va boshqalar) ifloslangan suvlar; qozon dumida joylashgan qizdirish yuzasini va regenerativ havo qizdirgich yuzalarini yuvish suvlari; suv tayyorlash uskunalaridan chiqindi suvlar; iviol (yuqori zaharli, yonmaydigan moy) bilan ifloslangan suvlar; gidroko'l chiqarish tizimlaridan chiqqan suvlar. Oqava suvlarning ifloslanish miqdori va darajasi elektrostansiyaning quvvatiga, yoqilg'i turiga, jixozlar turiga va tozalovchi qurilmalarning texnikaviy darajalariga bog'liqdir.

Zamonaviy elektrostansiyalar loyihalanganda quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

a) tashlang'ich suvlar, ifloslangan va ifloslanmaganlarga bo'linadi va ifloslangan suvlar tozalovchi qurilmalarga uzatiladi, ifloslanmagan suvlar tozalanmasdan suv xafzalarga qaytariladi;

b) oqava suvlarni tozalangan va tozalanmagan holda maksimal qayta ishlatish e'tiborga olinadi;

v) har bir jixozga mo'ljallangan texnik ehtiyojlariga suvning sarfi maksimal miqdori bo'yicha qabul qilinadi.

g) tozalangan oqava suvlarning eng muhimli ko'rsatkichlari avtomatik jixoz yordamida nazorat qilinadi.[A1]

Neft mahsulotlardan ifloslangan oqava suvlarning tarkibida mazut va moylar mavjuddir. Bunday oqava suvlar qattiq yoqilg'ida ishlaydigan elektrostansiyalarida, gidrokulshlak chiqarishidagi qaytuvchan suv ta'minot tizimida ishlatiladi. Mazutda ishlaydigan KES va IES lardan chiqqan oqava suvlar quyidagicha tozalanadi: qabul qiluvchi idish – neft ushlagich – ikki bosqichli mexanik filtrlar. Kichik sarfli (5 m³/s gacha) ushlagichlar tindirgich safida bajarilib, unda 6÷8 soat davomida oqava suvlar tindiriladi. Sarfi 5 m³/s dan oshsa hajmiy oqimli ushlagichlarda oqava suvlar 2 soatdan oshiq tindiriladi. Ba'zi

hollarda jarayonni tezlashtirish maqsadida oqava suvlar ushlagichdan oldin qizdiriladi. Ushlagichlarning keyingi tozalik darajasi 30÷20 mg/kg gacha yetib boradi. Ancha emulgirlangan oqava suvlar flotatorda tozalanadi. Flotatsiyani ikki turi uchraydi: bosimli va impellerli. Bosimli flotatsiyada oqava suvlar bosim ostida havo bilan to'yinib, ochiq rezervuarga o'zatiladi.

Iviol bilan ifloslangan suvlar. Ularni tarkibida o'tkir zaharli suyuqliklar: trikrezilfosfat va triksillenilfosfatlar, hamda ularning ortoizomerlar mavjuddir. Iviol bilan ifloslangan suvlar qozonni o'txonasiga uzatiladi, chunki ularni tozalab bo'lmaydi. Yonish natijasida iviol 600 OS haroratda P2O5 to'ziga va CO2 larga bo'linadi.

Kimyoviy tozalashdan chiqqan suvlar. Tozalashning maqsadiga va yuviladigan jixozning metall sifatiga qarab bu oqava suvlarda kislota, ishqor, nitritlar, ammoniy tuzlari, temir tuzlari, trilon – B, gidrazin, ftor, katapin, kaptaks, urotropinlar mavjud bo'lib, ular neytrallashtirilishi shart. Neytrallangandan keyin suvlar organik moddalar (gidrozin, formaldegid, kaptaks va boshqalar)ni zaxarlanish larajasini pasaytirish maqsadida, ishqorli reagent va xlorli oxaklar bilan tozalanadi.

Konservatsiyadan chiqqan suvlar va issiqlik - kuch jixozlarni kimyoviy tozalashidan chiqqan suvlar zaharsiz bo'lib ularning sifati suv ta'minot manbaining suvidan past bo'lmaganligi uchun, ular aylanuvchan suv ta'minot tizimlarida ishlatiladi.[A5]

Issiqlik - kuch jixozlarni konservatsiyalashidagi suvlar tarkibiga – gidrazin, ammiak yoki natriy – nitratlardan kiradi.

Gidrokul chiqarish (GZU) tizimli elektrostansiyalarda jixoz yuvilishida ishlatilgan eritmalar kultashlagichlarga uzatiladi. Bunda yorug'langan suvning pH miqdori 8 dan katta bo'lsa, shur eritmalarini neytrallashtirmasdan chiqarish mumkin. Aks holda, GZU jixozlarini korroziyadan saqlash uchun chiqariladigan shur suvlarning pH miqdori kamida 7 gacha tushmasligi shart. Ishqorli eritmalar neytrallashtirmasdan kultashlagichlarga chiqariladi. GZU tizimlari yo'qligida, neytrallashtirilgan suvlar, bug'lantiruvchi qurilmalarga uzatiladi.[A2,5]

Gidrokulshlak chiqarish tizimlardan chiqadigan oqava suvlar. Bunday suvlar qattiq yoqilg'ida ishlaydigan IES lardan chiqadi. GZU tizimlar zanjirli siklida ishlagani uchun, ulardagi chiqindilar- suv miqdori ortganda yoki tuz balansini saqlash kerakligida, paydo bo'ladi. Ushbu oqava suvlarni kimyoviy tarkibi turlicha bo'ladi. Bunda, Cu va Mg karbonat va sulfatlari mavjuddir. Bundan tashqari gidrokul chiqarish suvlarda ftor, vanadiy va boshqa moddalar birikmalarning borligi, ularni ochiq xafzalarga tashlab chiqarishi ba'zi hollarda ruxsat etiladi.

GZU tizimidagi suvning kamligi bo'lgan hollarda, uni IES ning oqava suvlari bilan ta'minlash mumkin. Zamonaviy elektrostansiyalarda oqava suvlarning tozalash vazifasi amalga oshirildi. Chiqindi suvlarni tozalash tadbirlari to'liq ishlatilishi tufayli, IESni oqava suvlarsiz ekspluatatsiya etishiga imkoniyat beradi, ya'ni ifloslangan suvlarni umumiy iste'mollashning suv havzalariga chiqarilmaslik holati. Bunday IES loyihalari ishlab chiqarilgan va IES larning bir katori, oqava

suvsiz rejimga o'tqasilmogda. Lekin, ba'zi hollarda, ekspluatatsiya darajasi past bo'lganligi sababli

Shuning uchun oqava suvlarni tozalash usuli iqtisodiy tomonidan ham qulayli bo'lishi, birinchi darajali vazifadir. Bunday talab o'z navbatda gidroqo'lushtiruvchilarga tegishlidir. Oqava suvlarni to'g'ridan-to'g'ri tozalashdan tashqari, bu muammo bevosita ham yechilishi mumkin.

IESlarni quruq kulushtiruvchi tizimlarga o'tishi, GZU ni oqava suvlarni katta miqdorini chiqarish va kulushtiruvchi muammolarini bekor qiladi. [A3,4,5]

Kutilayotgan natija va xulosa

1) Dastlabki tozalashning oqava suvlari – kam ishqorli bo'lib, oxakli chiqindi va koagulyatning kupiklaridan iboratdir. Bu suvlar gidrokul chiqarish tizimlarga va chiqindi yig'iladigan joylarga chiqariladi;

2) Mexanik filtrlarni yuvilishlaridan chiqqan suvlar – mexanik aralashma va koagulyant kupiklardan iborat bo'lib, suv tayyorlash tizimiga qaytariladi;

3) Ionit filtrlarning regeneratsion suvlari – yuqori meneralli va nordon suvlar. Ularning mo'tlaqo neytrallashtirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бабий В.И., Белоконова А.Ф., Белый Р.А. – Энергетика и охрана окружающей среды. – М.: Энергия. 1979.

2. Под.ред. Путилова В.Я., Экология энергетики. Учебное пособие. М.: МЭИ. 2003

3. Скалкин Ф.В., Канаев А.А., Копп И.З., Энергетика и окружающая среда. Ленинград 1991.

4. Tallimarjon IESi UK ekologiyabo'limi materiallaridan foydalanildi.

Sanoat korxonalarida qozonlaridan chiqayotgan tutun gazlari tarkibidagi oltingugurt birikmalari kamaytirish usullari.

Abdullaeva Komila Tursunovna

Talaba Qudratova Barchin

Qarshi davlat universiteti


Atrof – muhitni ifloslantiruvchi moddalarni kamaytirish muammosi, energetika rivojlantirishning dolzarb masalasidir. Ushbu muammo elektr energiyasi ishlab chiqaradigan va loyihalangan stansiyalarida echilishi zarur. Chiqindilar tarkibidan oltingugurt birikmalarni kamaytirish muammosini yechishida ikkita yo'nalishi mavjud: tutun gazlarni oltingugurtdan tozalash; yoqilg'ini yondirishdan oldin tozalash.

Hozirgi vaqtda ikkita yo'nalishlar bo'yicha solishtirma tahlil o'tkazish uchun ma'lum bir natijalar mavjuddir. Tutun gazlarni oltingugurtdan tozalashning samaradorligi 90-95% gacha bo'lib, yoqilg'i turiga bog'liq bo'lmay ishlatish mumkin.

Ushbu usulning kamchiliklari deb kapital sarflarning kattaligi va bugungi kunga ishga tushirish ishonchligini aniqlashga imkoniyat yo'qligi hisoblanadi. Bundan tashqari ekspluatatsion harajatlari ham ancha. {A1,2}

«Oxakli usul»da tutun gazlarni oxak yordamida (Ca(OH) yoki CaCO₃) namli tozalashning bir necha turlariga aytiladi.

Bu jarayonlar quyidagi kimyoviy reaksiyalarga asoslanadi:




Tutun gazlarning tarkibidagi oltingugurt birikmalar miqdorining 99% ni SO₂ tashkil etgani tufayli (qolganni SO₃), hisob shu birikmaga nisbatan olib boriladi.

Ikkala jarayonlarda ham, reaksiya mahsuloti, uchuvchan kul zarrachalari va reaksiyaga kirmagan elementlaridan iborat bo'lgan mahsulotlari qo'ltashlagichga chiqariladi. Yoqilg'i tarkibidagi oltingugurt miqdori 3,5-4,0% bo'lgan holda, oltingugurt birikmalaridan tozalash sifati 85-95% ga teng. Bu turdagi qurilmalarning ishonchligi 100% ga yaqinlashadi.

Bundan tashqari kapital va ekspluatatsion harajatlari kichik bo'lishi, va uchuvchan kul miqdorini kamaytirishlari – usulning yutuqlaridir. Lekin bu tozalashning natijasida paydo bo'ladigan chiqindilar miqdori ancha bo'lgani tufayli, ikkilamchi ifloslanishiga keltirishi mumkin. Shuning uchun bunday qurilmalarni shaharli IESlarda qo'llash tavsiya etilmadi. Bunga qaramay «oxakli usul» keng ravishda qo'llaniladigan usuldir. {A3,4}


«Ikkipog'onali ishqorli usul»ning asosidaskruberyordamida, ochiqranglinatriy tuzlar eritmasi yoki ammiak bilan tozalashning birinchi pog'onasi, va oxak yordamida tozalashning ikkinchi pog'onasi bajariladi.



1- rasm. «Ikki pog'onali ishqorli» skrubber jarayonida oltingugurt oksidlardan tozalashning ta'sviri.

1- aralastiruvchi idish; 2- skrubber; 3- reaktor; 4- tindiruvgich; 5- vakuumli filtr; 6- oqizuvchi idish.

Natijada paydo bo'lgan shlak chiqariladi, ishqor eritmasi esa skrubberda ishlatiladi. Natriy varianti quyidagi reaksiyalar bo'yicha kuzatiladi:



Bu jarayonning samaraligi 90-99% tashkil etadi.

Jarayonning yutuqlari: tannarxining kichikligi, jixozlarni kam korroziyalanishi, skrubberda qattiq cho'kmalarni kam miqdorida paydo bo'lishi va bir vaqtda qattiq zarrachali chiqindilarni kamligidir.

Usulning kamchiliklari: katta miqdorli chiqindilarni chiqarish zarurligi; qizdirish yuzalarda qattiq cho'kmalarni hosil qiluvchi kalsiy sulfati ishqorli

eritmasiga tushishligida. Bu turdagi qurilmalarning quvvati 100 Vt dan yuqori Yaponiyada ko'rilmoqda. {L2,3}

Bunday qurilma yordamida yonish mahsulotlardan oltingugurt anhidridi 90% gacha ajratib olinadi. Yoqilg'ilarni oltingugurt birikmalardan tozalash usullarining asosiy yo'tug'i: shundan iboratki, bunday tozalash IES ni ish rejimiga bog'liq emasligidadir. Yoqilg'ini oltingugurtdan tozalash qurilmalarni maqbul tartibida ishlatib tozalangan yoqilg'ini yig'ib saqlashga imkon beradi. Oltingugurtdan yoqilg'ini tozalash usullari va ularni uzlashtirish darajalari yoqilg'i turiga va chuqur tozalanishiga bog'liqdir. Suyuqli yoqilg'ilarni oltingugurtdan tozalash amaliy o'zlashtirilgan bo'lib, qo'llanilishi masalasi esa iqtisodiy tomoniga bog'likdir. Hozirgi vaqtda suyuqli yoqilg'ilarni oltingugurtdan tozalashning ikkita: to'g'ri va vositali usullari mavjud. Oltingugurtdan to'g'ridan-to'g'ri tozalash usulida suyuqli yoqilg'ida katalitik namlantirish yordamida, oltingugurtli vodoroddan elementar oltingugurt ajratib olinadi. Tozalanishning tannarxi ko'pgina faktorlarga (neft turiga tozalash darajasiga, qurilma quvvatiga va xokazo) larga bog'liq bo'ladi. Bu turdagi qurilmalar Yaponiya, AQSH, Meksika, Venesuela va bir qator boshqa davlatlarda ishga tushiriladi. Ularning quvvati 6-10 Mt/yil gacha, tozalanish darajasi esa 4 - 3 % dan 1-0,6 % gacha bo'ladi.

Vositali tozalash–yoqilg'ini vakuum ostida haydashiga asoslanadi. Oltingugurtdan tozalash darajasi bunda 0,3-0,5% gacha, qurilmaning quvvati 18 Mt/yil gacha bo'lib, Yaponiya va Karib dengizining barcha mamlakatlarida ishga tushirildi.

Qattiq yoqilg'ilarni sanoatda oltingugurtdan tozalash murakkab jarayondir. Ko'mir tarkibidagi oltingugurt organik va kolchedanali ko'rinishda uchraydi. Ularning miqdori ko'mir turiga bog'liq bo'ladi. Organik oltingugurt yoqilg'ini yoquvchan massasiga kirgani tufayli, uni ajratib olish ancha murakkabdir. Bir qator mamlakatlarda ko'mirni organik oltingugurtdan tozalash ishlari olib borilmoqda. Usullarning ko'pi turli erituvchilarni qo'llanishiga asoslanadi. Masalan, AQSH (Vashington va Alabama shtatlari) da 6 t quvvatli qurilma ishlatilishiga tayyorlanmoqda. Bunda SRC(solvent rafined coal) nomli usul asosida $t=450^{\circ}\text{C}$, $P=1,4\text{ MPa}$ va vodorod qatnashgan hollarda maxsus eritgichda eritiladi. Natijada organik oltingugurt H_2S ga o'tib, tarkibidan chiqariladi. Eritgich regeneratsiyalanib siklga qaytariladi. Ko'mirlarni oltingugurtdan tozalash usullari hozirgi vaqtda, faqat tajriba qurilmalarida sinash darajasidadir. {A4}

Yoqilg'ini oltingugurt va uning birikmalaridan tozalashning biri – yoqilg'ini **gazlantirishdir**. Yoqilg'ini gazlantirish usulida, qattiq yoki suyuq yoqilg'ilarni yuqori haroratda gaz holatiga aylanganda, to'liq oksidlanmasdan va bir yo'li tovar belgisiga va turdosh mahsulotga ega bo'lgan (oddiy oltingugurt, vanadiy konsentratlari va boshqalar), zaxarli aralashmalarni ketma – ket chiqarish jarayonlarga aytiladi. Gazlantirish usullarning hammasi bir turdagi kimyoviy reaksiyalar bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atmosfera havosini muxofaza qilish texnologiyasi. (muammolri ma'ruza matnlari). Sh.O.Muradov, U.R.Panjiev, KMII. Qarshi – 2003.

2. Ласков Ю.М., Воронов Ю.В., – Пример расчетов канализационных сооружений. – Учебное пособие. – М.: Высшая школа, 1981.

3. Бабий В.И., Белоконова А.Ф., Белый Р.А. – Энергетика и охрана окружающей среды. – М.: Энергия. 1979.

4. Под.ред. Путилова В.Я., Экология энергетики. Учебное пособие. М.: МЭИ. 2003

5. Скалкин Ф.В., Канаев А.А., Копп И.З., Энергетика и окружающая среда. Ленинград 1991.

Issiqlik chiqindilarining atrof – muhitga tarqalishdagi ekologik mummolar va ularnishamol tezligiga bog'liqligi

Abdullaeva Komila Tursunovna

Talaba Vaydullayeva Maftuna Nasriddin Qizi

Qarshi davlat universiteti

Odatda issiqlik chiqindilar tarqalishini o'rganishida, ma'lum bir qurilma bilan chegaralanib tahlil etiladi. Ushbu muammoni kengaytirib o'rganish uchun energetik qurilma va energiya iste'molchilaridan, issiqlikni qabul etuvchi atmosfera va gidrosferalarrida issiqlik muvozanatligi o'rnatirilguncha tarqalishini tahlil etilishi maqsadlidir.

Bug' turbina kondensatorning sovituvchi suvning issiqlikligining asosiy qismi suv havza va suv oqimlariga uzatiladi. Suv havzalarida issiqlik chiqindilarini tarqalishi, havzadagi suvning haroratiga, kondensator suvining kirish va chiqish haroratlari farqiga, suv tashlagich qurilmaning konstruksiyasiga, oqim tezligiga, suvlar aralashadigan zonaning uzunliklariga bog'liq bo'ladi.

Demak, havzadagi issiqlik chiqindilarni tarqalishi ko'rib chiqish uchun issiqlik rejimining qonuniyatlari ma'lum bo'lishi kerak.


Ma'lum bir suv havzasida issiqlik chiqindilarini tarqalish masalasini analitik ravishda yechilishining qiyinchiligi, gidrologik sharoitlarini aniqlashidir (shamolr va boshqa faktorlar ta'sirini hisobga olish imkoniyat yo'qligi).

Haroratlar stratifikatsiyasi o'rnatilgan holdagi, suv havzasiga issiqlik chiqindilarni gipolimnion yoki metalimnion zonalarga chiqarishi, suv havzaning issiqlik rejim muvozanatligini buzilishiga keltiradi. Issiqlik va massa almashinuv jarayonlar, maxsus gidrodinamik jarayonlar bilan kuzatiladi va natijada masalan, gorizont qatlamlar orasidagi turbulent almashinuvini pasaytiruvchi, suvda kislorod eruvchanligini pasaytiruvchi, reeratsiya jarayonini pasaytiruvchi va boshqalarning sababchisi, termoklin paydo bo'lishi mumkin. [A2]

Suv havzalar hisobidagi taxminiy baholashida, real gidrodinamik jarayonlarni, soddalashtirilganlarga almashtiriladi.

Vaqt davomida o'rnatilgan jarayonida, energetik qurilmalardan suv havzalariga uzatilgan issiqlikning hammasi atmosferaga o'tadi. Issiqlik chiqindilarni atmosferada tarqalish masalasini yechishda, balandligi bo'yicha tezligi o'zgarmas bo'lgan, «issiqlik bulut» modeliga asoslanib ko'rishi, L. A Rixter tomonidan tavsiya etildi.

Adiabatik kengayish jarayonida (suvli bug' kondensatsiyalanishning hisobga olinmaganda) «issiqlik bulut» harorati taxminan 100m ga 1°C o'zgarishi qabul qilinadi. Haqiqiy uzatishlar, havo harorati va atmosfera bosimlariga bog'liq bo'lib, ancha farqlanishi mumkin.




1- rasm. Izotropik jarayonidagi haroratlar farqi ΔT_g hisobidan, «issiqlik bulut»ni ko'tarilish balandligining, harorat farqlarining nisbatiga (a) va shamol tezliklariga bog'liqligi.

Zamonaviy IES va AES larda texnikaviy suv ta'minoti zanjirli, minora gradirnyali bo'lib, ishchi jismdan olinadigan issiqlik energiya bevosita atmosfera havosiga uzatiladi. Bunda gradirnyalardan chiqqan namli havo, tutunli bulutga o'xshab nam tumanli zonani sodir etadi. Shamol, oqim, to'lqinlar ta'sirlar orqali, issiqlik tarqalish bo'yicha izlanishlardan foydalanish va masalani analitik yo'li bilan yechishlaridan qiyinchiliklarni yaratadi. Bu muammoni yechishida katta miqyosli izlanishlar hamda koinot izlanishlardan foydalanish zarurdir.

Atmosfera uzatiladigan issiqlik miqdori yoqilg'i yonish issiqligiga yoki ishlatilgan energoresurslarining issiqlik ekvivalentlari bilan belgilanadi. Atmosferaga chiqadigan energiyaning asosiy qismi energetik qurilmaning atrofida tarqalib, ushbu zona ustida mahalliy havo haroratining ko'tarilishiga olib keladi. Atmosfera havo harorati oshgan joylarga «issiqlik oroli» deyiladi. Yakkali energetik qurilmalar ustidagi «issiqlik orollari» vaqt davomida shamol va boshqa faktorlar ta'sirida beqaror bo'ladi.

Shuningdek issiqlik chiqindilarining atmosfera chiqarilishi mintaqaviy darajada bo'lib, bir nechta qurilmalar ishlagan holda va energiya iste'mollashida zamonaviy ilmiy texnikaviy inqilobning pog'onasi deb hisoblanadi. Yetarli darajali



mahalliy issiqlik manbaning har qaysisi, shamolsizlikda termik sirkulyatsiya paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. Bir necha yuz metrli balandliklarda bu xodisani nazorat etish mumkin. Diametri 10 km li «issiqlik oroli»ni shamol tezligi 1m/s bo'lganda, 500m li qatlamdagi vertikal tezligi 10 sm/sek gacha bo'lishi mumkin. [A3]

3- rasm. «Issiqlik oroliq» atrofidagi atmosfera havoning sirkulyatsiya xodisasining paydo bo'lishi.Hozirgi vaqtda «issiqlik oroli» ning

atmosfera boshqa jarayonlariga ta'siri yaxshi o'rganilmagan. Izlanuvchilarning ba'zilar tuman paydo bo'lishi, atmosfera yo'qotishlarining ko'payishi, «issiqlik orob»lariga bog'liqligini isbotlab beradi, ba'zilar esa teskari xulosalariga egadir. Bunday yopiq suv havzalaridagi suvning hisobiy harorati, o'simliklarni yeydigan baliqlarni (oq amur, tolstolobik va boshqalar) ko'payishiga sharoitni ta'minlaydi, yoz mavsumida havzani ifloslanishini (gullash, suv o'tlarini ko'payishi) oldini oladi. [3]

Hozirgi vaqtda azot oksidli chiqindilarni konstruktiv – rejimli tadbirlar orqali kamaytirish masalalari bo'yicha ma'lum bir tajriba natijalari to'plandi. Bulardan asosiysi quyidagilar:

1) $\alpha = 1,15-1,20$ bo'lganda, azot oksidlarning darajasi 900-1500 mg/m³ bo'lib, $\alpha = 1,03$ gacha pasayganda, azot oksidlarning darajasi 25-30% tushadi;

2) retsirkulyatsion gazlarni (15%) uchoqlardan o'tkazishning natijasida, yonish zonadagi gazlarning harorati pasayadi va gazlardagi NO_x ning darajasi 25-30% gacha tushadi;

3) yoqilg'ini ikki pog'onali yondirishida NO_x ning miqdori sezilarli pasayishi mumkin. Bunda birinchi pog'onasidagi yonish jarayoni kam havoli ($\alpha = 0,8$), ikkinchisida esa ortiqcha havoli bo'lib, o'tkasiladi;

4) o'txonaning issiqlik quvvatini pasayish va ikki tomonlama yorug'lik ekranlarni qo'llanishlar orqali, o'txona kamerasida gazlarning haroratini pasaytirish.

Yuqorida keltirilgan azot oksidlarni kamaytirish usullarni qo'llanilishi, tabiiy gazda ishlaydigan qozon qurilmalarda, eng samaralidir.

Keltirilgan konstruktiv-rejimli tadbirlardan tashqari, o'choq, o'txona va butunlay qozon qurilma konstruksiyalarini mukammallashtirish ishlari ham olib borilmoqda. Bundan tashqari NO_x li chiqindilarning miqdori havoni qizdirish haroratiga va boshqalarga bog'liqligi aniqlandi.[2]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рихтер А.А., Волков Е.А., Покровский В.Н. Охрана водного и воздушного бассейна от выбросов ТЭС. М., Энергоиздат, 1980.

2. Григорьев Л.Н., Исанов Л.М., Максимов Г.В. и др. Очистка и рекуперация промышленных выбросов. Учебное пособие – 2-е изд. Перераб. М.: Лесная промышленность, 1981.

3. Институт энергетических исследований, зав. спец. А.А. Макаров, Развитие энергетики и охрана окружающей среды, 01/12/2003.

Atmosferaga ta'sir etadigan kimyoviy chiqindilarning dolzarb muammolarini kamaytirish istiqbollari

*Yaxshiboyeva Damira Tolipovna - Navoiy Davlat Pedagogika instituti
"Biologiya o'qitish metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi.*

*Abdulloyev Abduxoliq Abbos o'g'li - Navoiy Davlat Pedagogika instituti
"Biologiya o'qitish metodikasi" kafedrasida 3- kurs talabasi*

Butun tirik organizmlarni o'z bag'riga olgan tabiatda turli zararli moddalar haddan tashqari ko'payib ketmasa, tabiiy jarayonlar ta'sirida zaharli omillar o'z-o'zidan zararsizlanishi mumkin. Atmosfera havosiga chiqarib tashlangan gazsimon, bug'simon moddalar yoki changlar oz miqdorda bo'lsa, ular vaqt o'tishi bilan o'z-o'zidan havo muhitida kuyib, zararsiz holatga o'tib qoladi. Atmosfera havosining o'z holicha tozalanish xususiyati juda sekinlik bilan boradi. Atmosfera havosining tozalanishida yog'ingarchilik asosiy o'rin tutadi. Havo tarkibida mavjud bo'lgan zararli omillarni qor va yomg'ir suvlari yuvadi. Yog'ingarchilik qanchalik ko'p bo'lsa, havo tarkibi shunchalik tozalanadi. Atmosfera havosini tozalashda daraxtlar, qolaversa, o'simliklar olamining ahamiyati juda ham kattadir. Jumladan, daraxt barglari chang zarralarini, zararli gazlarni o'ziga singdirib oladi.

Havoning iflosliklardan tozalashda suv havzalarining roli ham katta, ayniqsa bir hujayrali suvo'tlarning ahamiyati kattadir. Sanoat korxonalaridan ajralib chiqayotgan zaharli chiqindilar o'simliklar olamiga asoratli ta'sir ko'rsatadi. Sanoat korxonalaridan atmosfera havosiga chiqadigan chiqindilarni kamaytirish ustida ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda atmosfera havosini muhofaza qilish uchun uchta tadbirni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bular texnologik, loyihalash, sanitariya-texnika tadbirlaridir. Mazkur tadbirlar amalga oshirilsa, atmosfera havosining ifloslanishini ruxsat etiladigan darajada ta'minlash mumkin bo'ladi. Ko'mir yoki mazut yoqib isitiladigan qozonlar gaz bilan isitilsa, atmosferaga chiqadigan zararli moddalar 70-90% ga kamayib ketadi. Xom ashyolar tarkibidagi zararli moddalarni yo'qotish ham texnologik jihatdan muhim hisoblanadi. Texnologik jarayonlar biror daqiqa bo'lsa ham to'xtab qolmasligi kerak. Agar jarayon to'xtab qolsa, chiqindilar to'planib atmosfera havosining ifloslanishiga imkon tug'dirishi mumkin.

Atmosfera havosini mutloq ifloslanishdan xoli qilishning iloji bo'lmasa ham, uni kamaytirish, oldini olish mumkin, bu muhandis va texnik xodimlardan hushyorlikni talab qiladi.

Loyihalashga asoslangan chora-tadbirlar asosan, chiqindilarni atmosfera havosiga tushishining oldini olishga qaratilgan. Sanoat korxonalarini shahar hududida to'g'ri joylashtirilishi, shahar bosh loyihasiga hamda sanitariya me'yorlariga asoslangan holda qurilishi kerak. Sanoat korxonalarini qurish uchun yer maydoni ajratilayotganda joyining relyefi, uning iqlim sharoiti, tumanlarning paydo bo'lib turish holatlariga ahamiyat beriladi.

Sanitariya-gigiyena tadbirlari sanoat korxonalari va avtotransport vositalaridan ajralib chiqadigan zararli chiqindilarni tozalash va bu usullarni takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Mazkur usulda qurilgan tozalash inshootlari, mazkur sanoat korxonalaridan ajralib chiqayotgan zararli omillarni kamaytirish yoki butunlay yo'qotish bilan shug'ullanadi. Tozalash inshootlari changlarni mexanik usulda filtrli apparatlar yordamida, elektrostatik filtrlar va namlaydigan apparatlar vositasida ushlab qoladi. Sanoat korxonalari chiqindilaridan havoni tozalash uchun absorbsiya va adsorbsiya jarayonlarini bajaruvchi asboblar ishlatiladi. Bular skruberlar, ko'pik hosil qiluvchi apparatlar, barboterlar va boshqa moslamalardir. Atmosfera havosini tozalash yo'lida olib borilayotgan ishlar atmosferaga tushayotgan iflosliklarni bir necha million tonnaga kamaytirmoqda. Bu o'z navbatida, aholining salomatligini saqlashda ma'lum darajada ijobiy rol o'ynamoqda. Atmosfera havosining tozaligini ta'minlash uchun kundalik sanitariya nazorati joriy qilingan. Sanoat korxonalarida kundalik sanitariya nazoratini amalga oshirish va atmosfera havosining ifloslanishining oldini olish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- Gigiyena jihatdan talabga javob beradigan uskunalar ishlatilishi;
- Texnologik jarayonlar vaqtida quvurlarni mahkam berkitish, ular orqali zaharli gazlar chiqishiga yo'l qo'ymaslik;
- Xomashyo va reaktiv sifatida foydalaniladigan kimyoviy moddalardan me'yorida foydalanish;
- Korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni qadoqlash va boshqa jarayonlarni avtomatlashtirilishi zarur;
- Texnologik jarayonlarni berk sistemaga o'tkazish, iloji boricha isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik zarur.
- Eng zaruri tozalash inshootlarining samarali ishlashini ta'minlash hisoblanadi;

Keyingi yillarda kimyoviy moddalarning ko'p qo'llanilishi natijasida artof-muhit, insonlar salomatligi yomonlashdi va bu jarayon davom etmoqda, deyishimiz mumkin. Zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash jarayonida ularning tashqi muhit ob'yektlaridagi qoldiq miqdorlarining inson organizmiga bo'ladigan ta'sirining oldini olish dolzarb masala hisoblanadi.

Agar, atmosfera havosining ifloslanish darajasi aniqlansa, unda faqat moddaning nomini, miqdorini bilishning o'zi kifoya qilmaydi, bunda aniqlangan miqdor ruxsat etiladigan miqdordan necha foiz ortdi, deb so'raladi. Atmosfera havosida zaharli kimyoviy moddalarning mumkin bo'lgan me'yoriy miqdorini aniqlash uchun dastlab, eng kichik miqdor aniqlanadi. Bu kichik miqdor mumkin bo'lgan me'yoriy miqdorni aniqlash uchun kerak bo'lgan limitli sezgir ko'rsatkich bilan izohlanadi. Inson organizmidagi sezgi a'zolari havodagi zaharli moddalar hidini sezmasa, shu zaharli modda tashqi muhitga zarar yetkazmasa, u holda zaharli moddalarning limit ko'rsatkichi insonning sezgi a'zolari hisoblanadi. Chunki, bugungi kunda eng kichik miqdorni insonning sezgi a'zolari aniqlaydi. Aniqlangan miqdor tashqi muhitga ta'sir qilsa, u holda gigiyenik me'yor ishlab chiqilayotganda tashqi muhitni o'zgartiruvchi eng kichik miqdor nazarda tutiladi. O'rtacha mumkin

bo'lgan me'yoriy miqdorni aniqlash uchun zaharli moddaning umumiy ta'siri o'rganiladi. Buning uchun sutkalik maxsus tajriba o'tkaziladi. Tajribalar asosan, oq kalamush, dengiz cho'chqasi kabi laboratoriya hayvonlarida olib boriladi. Buning uchun maxsus kameralarda 3-4 oy tajriba o'tkaziladi. Bunda tajribadagi hayvonlarga havo bilan o'rganilayotgan modda yuboriladi, eng kichik ta'sir qilmaydigan miqdor ana shunday topiladi. Bu miqdor mumkin bo'lgan me'yoriy miqdorni topish uchun asos bo'ladi. Hayvon organizmida ro'y beradigan o'zgarishlar bilinar-bilinmas bo'lishi mumkin. Shu sababli, bunda eng nozik asboblardan fiziologik, biokimyoviy, gistokimyoviy hamda morfologik usullardan foydalanilib, eng nozik ko'rsatkichlar aniqlanadi. Tajriba vaqtida oliy asab sistemasidagi o'zgarishlarga katta ahamiyat beriladi. Ayrim tajribalarda qonning fermentativ holati, oqsil fraksiyalari, B1, B2 va boshqa vitaminlar yetishmasligi, embrionga, spermatozoidga ta'siri o'rganiladi. Atrof muhitning chiqindilar bilan ifloslanishida antropogenlar va sanoat korxonalarini tomonidan kelayotkan zararli chiqindilar ko'payib bormoqda. Bu ko'rsatkichlarni kamaytirish uchun yuqorida keltirilgan loyihaviy yechimlarni amalga qo'llash zarur bo'ladi.

Suv resurslaridan foydalanish va uning ifloslanishini oldini olishda huquqiy-me'yoriy asoslarni o'rni

NavDPI Biologiya o'qitish metodikasi kafedrasini o'qituvchilari

N.R.Achilova, M.B. Yuldashova

Suv eng qimmatli tabiiy resurs. U hayotni tashkil qiluvchi moddalar almashinuvi jarayonida muhim rol o'ynaydi. Suv sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda, maishiy turmushda katta ahamiyatga ega. Suv yer yuzasini shakllanishida ishtirok etadi, tabiatda aylanib turadi, shuningdek iqlimni, ob-havoni shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Suv dunyoning eng katta boyligi, ammo chuchuk suv zahiralari cheksiz emas. Yer sharining ko'pgina rayonlarida, chuchuk suv tanqisligi dolzarb muammo hisoblanadi.

Suv O'zbekiston Respublikasining davlat mulki-umummilliy boylik hisoblanadi. Undan oqilona foydalanish mamlakatimiz fuqarolarining asosiy burchi hisoblanadi va u davlat tomonidan qo'riqlanadi. Respublikamizda foydalaniladigan suvning umumiy miqdori o'tgan asrning 80-90 yillariga nisbatan yiliga 64 mld/m³ kamaytirildi. Bu davrda 1 gektar sug'oriladigan maydonga 10-11 ming metr kub suv ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunda uning sarfi 6-7 ming metr kubga kamaytirildi. Respublikamizda jami sug'oriladigan 4,3 mln gektar yer maydoni egallab, bu umumiy yer maydonning 9,6 foizini tashkil etadi. (Respublika O'zgergeokadastr qo'mitasining ma'lumotlari).

Mamlakatimizda suv va suv resurslaridan oqilona tejamkorlik bilan foydalanish, uning ifloslanishini oldini olish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Respublikamizda suv va suv resurslari, uning zahiralariidan ehtiyotkorona foydalanish maqsadida, 1993 yil 6-may «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 7 aprel №174-sonli «O'zbekiston Respublikasidagi suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar, magistral kanallar va kollektorlarning, shuningdek, ichimlik

suv va maishiy suv ta'minotining, davolash va madaniy sog'lomlashtirishda ishlatiladigan suv manbalarining suvini muhofaza qilish zonalarini haqidagi» Nizomni tasdiqlash to'g'risidagi, 2007 yil 4may №218 sonli «O'zbekistonda suvni tejash va undan ratsional foydalanish dasturi haqida» gi, 2013 yil 19 mart №82-sonli «O'zbekiston Respublikasida suvdan foydalanish va suv iste'moli tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 14 iyun №171- sonli «Suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste'mol qilish uchun ruxsatnoma berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida» gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4 oktyabrdagi 401-sonli «Zarafshon daryosi sanitar-epedemiologik holatini yana yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarorlari va 2017 yilning 25 sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3286-sonli «Suv ob'ektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori sohani faoliyatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu qarorlarning mazmun –mohiyati suvga doir munosabatlarni tartibga solish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvlardan oqilona foydalanishni ta'minlash, suvlarni bug'lanish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlash, suvlarning zararli ta'sirining oldini olish hamda ularni bartaraf etish, suv ob'ektlarining holatini yaxshilashdan, shuningdek suvga doir munosabatlar sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo'jaliklari hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir. Orol bo'yi mintaqasini ekologik holatini sog'lomlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 29 avgustda 255-sonli «2015-2018 yillarda Orolbo'yi mintaqasini tiklash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, Orol halokatini oqibatlarini engillashtirish kompleks chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida» gi Qaror qabul qilindi. Unga ko'ra 89,39 mld so'm yoki 1635,55 mln dollar mablag' ajratildi. Dastur asosida 247459,8ga maydonga o'rmonzorlar tashkil etish maqsadida daraxtlar ekildi.

Bu fikrlardan xulosa qilib suv resurslarini muhofaza qilish, undan oqilona foydalanish va boshqaruvini takomillashtirishda, suvdan limitli foydalanish asosida suvni tejash, yer usti va osti suvlarini muhofaza qilish, mavjud suvdan foydalanish tizimlarini qayta tiklash va qayta jihozlash, sanoat oqava suvlarini tozalashning samarali industrial usullarini, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish va suvdan yopiq zanjirli tizim asosida foydalanishni yo'lga qo'yish, monitoring va axborotlashtirish tizimlarini tashkil etish, takomillashtirish va joriy etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'z. Res. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasining «Ekologiya xabarnomasi» 2016yil.
2. «EKO Muvozonat» ijtimoiy –ma'rifiy ommabop gazetasi 2017.

Qattiq chiqindilar muammosi tahlili

Zafar Ravshanovich Boyirov

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Aholi sonining yildan-yilga o'sib borishi va ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishi ko'pgina ekologik muammolarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shulardan biri atrof muhitning qattiq maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi va uni oldini olish muammosidir. So'nggi yillarda Respublikamizda vujudga kelgan ekologik vaziyatning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, chiqindilar atrof muhitning zararli moddalar bilan ifloslanishiga va aholi salomatligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Bugun dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida qattiq maishiy chiqindilar aholi jon boshiga har yili bir foizga oshib bormoqda. Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko'ra, ayni paytda chiqindining 800 dan ortiq turi qayd etilib, kelgusida bu ko'rsatkich yanada o'sishi mumkin [4].

Tahlillarga ko'ra, so'nggi yillarda Respublikamizda yiliga yuz million tonnadan ortiq sanoat chiqindisi, 35 million tonnaga yaqin maishiy chiqindi hosil bo'ladi. Chiqindi poligonlarida 2 milliard tonnaga yaqin sanoat, qurilish va maishiy chiqindi saqlanayotgani hamda ular 12 ming gektar maydonni egallab turganini inobatga olsak, chiqindilarning salbiy ta'sirini tasavvur etish qiyin emas.

Mamlakatimizda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2002 yil 5 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan [1].

Yurtimizda ekologiya va sanitariya muhitini yanada yaxshilash, aholi salomatligini mustahkamlash, shahar va qishloqlarimizning yanada obod va ko'rkam qiyofa kasb etishi yo'lidagi ulkan amaliy ishlarni bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2017 yilning 21-apreldagi mamlakatda sanitar-ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning fuqarolar sog'ligiga salbiy ta'sirini kamaytirish, aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirishga qaratilgan "2017–2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyatga ega [2].

Chiqindilar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish maqsadida mamlakatimizning bir nechta hududlarida qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlaydigan korxonalar ishga tushirildi. Xususan, Navoiy, Qoraqalpog'iston, Buxoro, Sirdaryo viloyatlarida korxonalar ish boshlagan. Qashqadaryo va Samarqand viloyatlaridagi korxonalar ishga tushish arafasida.

Ko'rilayotgan choralar mamlakat aholisidan qattiq chiqindilarni markazlashtirilgan holda olib ketish ko'lamini hozirgi 63 foizdan 2021-yilda 93 foizgacha ko'tarish imkonini beradi.

Ta'kidlash joizki, qattiq maishiy chiqindilarning 80 foizini organik moddalar tashkil qiladi. Shu bois maishiy chiqindilar butun dunyoda arzon xomashyo hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi chiqindilarning 85 foizini qayta ishlash mumkinligini ko'rsatmoqda. Hatto, ayrim mamlakatlarda chiqindilarni alohida yig'ish tizimi yo'lga qo'yilgan. Natijada qog'oz, plastik, alyuminiy kabi

xomashyoning katta qismi qayta ishlashga yuboriladi. Xususan, Yaponiyada rezina mahsulotlarining 34 foizi, qog'oz va kartonning 54 foizi, shisha buyumlarning 43 foizi chiqindini qayta ishlash hisobiga tayyorlanadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan energiya va xomashyo miqdori 50 foizgacha tejaladi.

Shveysariya bugungi kunda chiqindilarga eng e'tiborli mamlakat sifatida e'tirof etilmoqda. Sababi bu davlatda chiqindilar fuqarolar tomonidan turlarga ajratilgan holda maxsus konteynerlarga tashlanadi. Shu bois bu mamlakatda fuqarolar chiqindini ikkilamchi qayta ishlash punktlariga topshirishni afzal ko'rmoqda [4].

Bugun barcha qit'alarda qattiq maishiy chiqindilarga bo'lgan munosabat tahlillari shuni ko'rsatadiki, mazkur sohada qattiq maishiy chiqindilarni ko'mish poligonlarining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda va chiqindilarning ko'p qismi ikkilamchi xom ashyo sifatida qayta ishlash sanoati uchun foydalanilmoqda (1-rasm) [3].

Demak, jahon tajribasi ko'rsatganidek, chiqindilarni qayta ishlashni yo'lga qo'yish orqali ishlab chiqarishning yangi tarmog'ini rivojlantirish, muammoni hal etishning eng muqobil yo'llaridan biri hisoblanadi.

Chiqindilarni o'z vaqtida yig'ishtirib olib, zararsizlantirilsa, qayta ishlansa, aholining keng qatlamlari uchun yanada qulay ijtimoiy sharoitlar yaratiladi va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga erishiladi. Zamonaviy va samarali boshqariladigan chiqindilarni yig'ib olish tizimi fuqarolar orasida kasallanishning oldini olish bilan birga, ularning yashash va mehnat qilish sharoitlarini yaxshilaydi.

Yog'in miqdorining yil ichidagi taqsimoti (*Namangan viloyati misolida*)

D.Isoqov., M.Abduvaliyeva., D.Shuhratova., J.Anafiyayev

Jaxon meteorologik tashkilotlari [(Kanada iqlim markazi (CCCM), Birlashgan qirollik meteobyurosi (UKMO), Geofizik gidrodinamika laboratoriyasi (CFDL) va AQSH Goddard kosmik tadqiqotlar instituti (GISS)] tomonidan yaratilgan atmosferaning umumiy sirkulyatsiyasi modellari yordamida SO₂ ning hozirgi konsentratsiyasida O'zbekistonning tekislik hududi bo'yicha 1951-1980 yillar uchun hisoblangan mavsumiy yog'in miqdori bo'yicha farq 57% dan 200% gacha yetadi. Bu jihatdan O'zbekiston olimlarining baholari iqlim o'zgarishi bo'yicha davlatlararo ekspertlar guruhi baholaridan juda katta farq qiladi. Ularning 3-hisobotida Osiyoning arid va yarimarid hududlarida kelgusi 2-o'n yillikda yog'inlarda sezilarli o'zgarish bo'lmasligi, 2050 yildan esa qishki yog'inning 7% ga ko'payishi, yozgi yog'inning esa 4% ga kamayishi aytilgan.

Namangan viloyati va O'rta Osiyoning boshqa tekislik hamda tog' oldi xududlari uchun yog'in miqdorining yil ichidagi eng kam miqdori yozgi davrga to'g'ri kelgan (10-jadval). Yog'inning o'rtacha miqdorlari yig'indisi kuzatilayotgan davr uchun Namangan meteostantsiyasida 183 mm, Kosonsoy meteostantsiyasida 315 mm, Pop meteostantsiyasida 171 mm ni tashkil etgan.

Barcha meteostantsiyalar bo'yicha yog'inning eng kam ko'rsatkichi avgust oyida kuzatilgan. Jumladan, Namangan meteostantsiyasida 2,4 mm, Kosonsoy


meteostantsiyasida 6,1 mm, Pop meteostantsiyasida 6,84 mm ga yetgan. Eng ko'p miqdori esa Namangan va Pop meteostantsiyalarida mart oyida kuzatilib, mos ravishda 103,3 hamda 121,7 mm ga, Kosonsoy meteostantsiyasida aprel oyida 139,9 mm ga teng bo'lgan.

Namangan viloyatida yog'inning xarakterli ko'rsatkichlari

Namangan													
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VI II	IX	X	XI	XII	Yil
X'	20,4	20,8	29,3	20,4	18,5	9,03	6,0	2,39	3,85	15,2	18,4	20,2	183
max	87,4	84,1	103,3	86,4	79	59,4	81,6	41	68	107,6	80,9	83	398,4
min	0	0	0,5	0	0	0	0	0	0	0	0	0	78
Kosonsoy													
X'	27,1	30,2	46,5	41,6	40,2	23,9	16,5	6,1	4,8	22,6	26,8	28,7	315
max	196,0	108,0	132,6	139,9	122,0	109,4	125,7	48,0	42,6	126,6	107,2	105,7	611,9
min	0,0	4,8	4,0	0	0,0	3,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	102,2
Pop													
X'	13,9	17,9	22,4	20,4	17,6	12,9	9,6	6,8	6,8	12,1	13,9	15,9	171
max	87,2	64,9	121,7	73	52,9	40	44	28,2	37	89,4	69,5	67,9	449,5
min	0	0	1,7	0,3	1	0	0	0	0	0	0	0	44,8

Yog'in miqdorining o'rtacha oylik ko'rsatkichlari, yuqoridagi uchala meteostantsiyalar bo'yicha ko'rilganda, yil ichida 2,4 mm dan (avgust) 46,5 mm gacha (mart) o'zgarib turgan.

O'rtacha oylik ko'rsatkichlar Namangan viloyatida avgust oyida 2,4 mm ga teng bo'lgan bo'lsa, mart oyida 29,3 mm ni tashkil qilgan. Kosonsoyda 6,1 mm va 46,5 mm ni, Popda 6,84 mm va 22,4 mm ni tashkil etgan (2-rasm).



-rasm. Namangan viloyatida o'rtacha yog'in miqdorining yil ichida o'zgarish grafigi, mm da

Kanada iqlim markazi (CCCM), Birlashgan qirollik meteobyurosi (UKMO), Geofizik gidrodinamika laboratoriyasi (CFDL) va AQSH Goddard kosmik tadqiqotlar instituti (GISS) tomonidan yaratilgan atmosferaning umumiy sirkulyatsiyasi modellari yordamida SO₂ ning hozirgi konsentratsiyasida O'zbekistonning tekislik hududi bo'yicha 1951-1980 yillar uchun hisoblangan mavsumiy yog'in miqdori bo'yicha farq 57% dan 200% gacha yetadi.

Osiyoning arid va yarimarid hududlarida kelgusi 2 o'n yillikda yog'nlarda sezilarli o'zgarish bo'lmasligi, 2050 yildan esa qishki yog'inning 7% ga ko'payishi, yozgi yog'inning esa 4% ga kamayishi kuzatiladi.

- Namangan viloyatining tekislik hamda tog' oldi xududlari uchun yog'in miqdorining yil ichidagi eng kam miqdori yozgi davrga to'g'ri keladi.

-Yog'inning o'rtacha miqdorlari yig'indisi kuzatilayotgan davr uchun Namangan viloyatida 233 mm ni tashkil etgan.

-Viloyatdagi barcha meteostantsiyalar bo'yicha yog'inning eng kam ko'rsatkichi avgust oyida kuzatilgan bo'lib, o'rtacha 5,1 mm ga yetgan.

-Eng ko'p miqdori esa Namangan va Pop meteostantsiyalarida mart oyida kuzatilib, mos ravishda 103,3 hamda 121,7 mm ga, Kosonsoy meteostantsiyasida aprel oyida 140 mm ga teng bo'lib, o'rtacha maksimum 121,6 mm ni tashkil qilgan.

Yog'in miqdorining o'rtacha oylik ko'rsatkichlarini yil ichida o'zgarishi viloyat bo'yicha ko'rilganda, avgust oyda 2,4 mm dan mart oyida 46,5 mm gacha o'zgarib turgan. Jumladan, o'rtacha oylik ko'rsatkichlar Namangan viloyatida avgust oyida 2,4 mm ga teng bo'lgan bo'lsa, mart oyida 29,3 mm ni tashkil qilgan. Kosonsoyda 6,1 mm va 46,5 mm ni, Popda 6,84 mm va 22,4 mm ni tashkil etgan.

Namangan meteostantsiyasi ma'lumotlari bo'yicha yog'in miqdorida trend borligi va uning miqdori 1mm/yil ga yaqin ekanligi ham hisoblandi.

Yog'in miqdoridagi trend qish va kuzda kattaroq, bahor va yozda kichikroq qiymatlarga ega, yahni qish va kuzda 0,32-0,34 mm/y, bahor va yozda 0,14-0,16 mm/y, yiliga esa 1,0 mm ga yaqin.

1946-1975 yillardagi sovuqroq davr hamda 1976-2010 yillardagi isish davri uchun Namangan meteostantsiyasidagi yog'in ko'rsatkichlari taxlil qilindi. Bunda, ikkala davrdagi yog'in miqdorining kuzgi va kuzgi ko'rsatkichlaridagi farq katta. Bu holat bahor faslida mart oyida, masalan, oktyabr oyida o'rtacha yog'in miqdori oldingi davrga nisbatan isish davrida 9,1 mm ga, dekabr oyida 12,8 mm ga, mart oyida 3,49 mm ga ko'paygan. Bu holat boshqa oylarda ham takrorlangan. Biroq noyabr oyida kamayish kuzatilgan.

Eng katta o'zgarish noyabr oyida kuzatilib, yog'in 66 mm ga ortgan, bo'lsa mart oyida 38 mm ga kamaygan.

Oktyabr-noyabr, yanvar, mart oylarida o'rtacha minimal oylik yog'in iliq davrda 1-1,9 mm ga ko'paygan, qolgan oylarning qariyb hammasida kamaygan. Eng katta kamayish fevral, aprel, may va iyun oylarida kuzatilgan bo'lib, 0,9 mm dan 2 mm gachani tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, Namanganda iqlim isishi davrida yog'in miqdorining o'zgarishi yil davomida tebranib turgan.

Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda tizimli yondoshuv

Sayimova Dilbar Qahramonovna

Navoiy Davlat pedagogika instituti

Fan- texnika taraqqiyoti davrida insonning tabiatga ta'siri bir necha barobarga ortadi. Kelib chiqishiga ko'ra, ekologik muammolar mahalliy, mintaqaviy, sayyoraviy bo'lishiga qaramasdan, umuminsoniy ahamiyat kasb etadi. Ayni kunda bu masala butun insoniyatning muammosiga aylanib bormoqda. Zero, dunyo issiqxonasi vujudga kelishi, ozon tuynuklarining hosil bo'lishi, atmosfera havosining chiqindi gazlar bilan ifloslanishi, o'rmonlar maydonining qisqarib ketishi kabilar sayyoramizda sodir bo'lgan global darajadagi ekologik muammolardir. Chunonchi, mamlakatimiz hududida ham ekologik muammolarning jiddiy tus olishi, har bir insonni, ayniqsa yosh avlodni atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatda bo'lishini talab etadi. Shu sababli, ekologik ta'lim - tarbiyaga e'tiborni kuchaytirish, ekologiya mashg'ulotlarini takomillashtirib, tizimli yondashuv asosida amalga oshirish lozim. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassislar chuqur bilim, intellektual salohiyat, yuqori ekologik madaniyatga ega bo'lishlari zarur. Bu ta'lim-tarbiya asosida amalga oshiriladigan muhim pedagogik jarayondir. Unda tabiat bilan inson o'rtasida o'zaro oqilona mas'uliyatli munosabat tarkib topadi. Hozirgi vaqtda talabalar ekologik madaniyatni shakllantirishga tizimli yondashuvning ilmiy – pedagogik va metodik yo'nalishlarini tadqiq etish, amaliy jihatdan samarali tajriba o'tkazish uchun o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish zaruriyati davr talabiga aylanmoqda. Bu o'ziga xoslik o'rganilayotgan ekologik jarayonlarning murakkabligi va serqirraligida, ta'lim – tarbiya jarayonida nazariy va amaliyot omillarini ilg'or pedagogik texnologiya qirralari bilan birlashtirish zaruriyatida namoyon bo'ladi. Tabiatni muhofaza etishning me'yor va qoidalari uni muhofaza qilishga oid ta'limiy hamda amaliy faoliyatning birligida o'rganiladi.

O'rganilayotgan muammolardagi tabiiy, ilmiy, pedagogik, psixologik, tarbiyaviy omillarning ko'pligi talabalarning ekologik madaniyatining shakllantirishda zamon talablariga mos keladigan tizimli yondashuvni taqozo etadi va, bu esa, bir qator talablarga rioya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Xususan:

- inson tabiatning tarkibiy qismi sifatida, tabiiy ijtimoiy taraqqiyotni o'zgartira olish omili ekanligini anglash;

- tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorlik qonuniyatlarini bilish;

- tabiat- jamiyat- texnika tizimi tufayli yuzaga kelgan ekologik muommolarni anglatish;

- ekologik ta'lim umumiy ta'limning tarkibiy qismi ekanligi;

- ekologik ta'lim – tarbiyaning ilmiy metodik va nazariy asoslarini ishlab chiqish;

- talabalar ekologik madaniyatini shakllantirishda ichki motivasiya imkoniyatlaridan to'liq foydalanish;

- ta'lim – tarbiya jarayonida axborot vositalaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish;

- tabiatdagi mavjud qonunlar asosida tabiiy muvozanatga erishish.

Yuqoridagilar ilmiylik, izchillik, ko'rgazmalilik, onglilik, uzliksizlik natijasida, tizimli yondashuv asosida amalga oshirilsa, talabalar ekologik madaniyatning shakllanishi yuzaga keladi.

Ekologik madaniyatli insonning tabiatga nisbatan munosabati ikki yo'nalishda, ya'ni tabiatni muhofaza qilish va tabiat zahiralardan oqilona foydalanishda namoyon bo'ladi. Bular turli o'quv yo'nalishlari mazmundagi ekologik jihatlarni talabalarning bilish, tadqiqotchilik, o'lkashunoslik, auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatlarning turlarini tizimli tashkil etish asosida ro'yobga chiqadi. Biz ekologik madaniyatni shakllantirishni auditoriya va auditoriyadan tashqari ta'lim jarayonlarida olib borish maqsadida masofaviy o'qitish metodi va uning vositalaridan foydalandik.

Masofaviy o'qitish metodi- kompyuter hamda telikommunikasiyalarga asoslangan o'qitish shakli va vositalari bo'lib, ta'lim jarayonida eng yaxshi an'anaviy va inovatsion metodlardan foydalangan holda ta'lim berish turi hisoblanadi.

Kompetentlilik yondashuv asosida ekologik savodxonlikni bazaviy asoslari

Sayimova Dilbar Qahramonovna

Navoiy davlat pedagogika instituti

Hayot kechirish vositalarini saqlab qolish muammosi "Asr mavzusi"ga aylanib, jahon jamoatchiligi diqqat markazida turibdi. Ishlab chiqarish jarayonlari oqibatida muhitning ifloslanishi kelgusi avlodlar uchun mutlaqo ochiq-ko'rinib turgan xavf bo'libgina qolmay, balki u hozirning o'zida ham ijtimoiy halokat yoqasiga kelib qoldi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 2010 yilning 20-21 sentyabr kunlari AQSHning Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT sammitining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisida so'zlagan nutqida "...ekologiyani muhofaza qilish va atrof-muhitni asrab-avaylash masalasi hozirgi anomal tabiiy o'zgarishlar sharoitida Mingyillik deklaratsiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda katta ahamiyat kasb etadi", deya ta'kidlaydi.

Ta'limda kompetentlilik yondashuvning asosiy holatlarini tahlil qilishdan shu narsa kelib chiqadiki, ekologik kompetentlilik – murakkab va ko'p omilli (faktorli) hodisadir. Ekologik kompetentlilik mohiyatining ta'riflanishi uning kategoriyalar bo'yicha aniqlanishini, tarkibiy qismlari va tuzilishini ajratishni talab qiladi. Ushbu masalani echish uchun ekologik kompetentlilikning ekologik psixologiya va pedagogikaning boshqa kategoriyalari bilan nisbatini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kompetentlilik yondashuvi doirasida ekologik kompetentlilik shaxsning muhim o'ziga xos xususiyati bo'lib hisoblanadi deya bema'lol aytish mumkin. Ekologik psixologiya va pedagogika tushunchalari tizimida ekologik kompetentlilikni aniqlash uchun **ekologik faoliyat kategoriyasi** ham ekologik jihatdan tarbiyalab etishtirish bilan bir qatorda bazaviy asos bo'lib hisoblanadi, u o'z navbatida, **ekologik anglash, ekologik qadr-qimmatlar, ekologik savodxonlik va ekologik mulohaza** yuritish bilan chambarchas bog'langan. SHu tariqa

pedagogik va psixologik jarayonlar bilan holatlar o'rtasida shaxs tomonidan ekologik ta'lim jarayonida ekologik faoliyatning o'zlashtirilishini ta'minlovchi o'zaro bog'liqlik vujudga keladi, buning natijasida mos keluvchi kompetentlilik shakllanadi.

Ekologik faoliyat keng ma'noda "u yoki bu tarzda jamiyat va tabiatni optimallashtirishga yo'naltirilgan turli-tuman faoliyat turlarining maxsus o'ziga xos jihatlarini belgilash uchun ishlatiladigan integrativ tushuncha" sifatida xarakterlanadi.

Ekolog N. F. Reymersning fikriga ko'ra "**Ekologik anglash** – inson va insoniyatning tabiat bilan aloqasi uzilmas ekanligini, odamlarning turmush farovonligining ortib borishi inson yashash muhitining yaxlitligi va nisbatan o'zgarimasligi bilan bog'liq ekanligini chuqur, avtomatizm darajasigacha etkazilgan tushunishdir". Ekologik ta'lim nazariyasida **ekologik anglash** - jamiyat va tabiatning munosabatlari muammolarini muayyan (konkret) ijtimoiy va tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda optimal hal qilishni aks ettiruvchi qarashlar, nazariyalar va his tuyg'ularning jamlanmasi sifatida tushuniladi. Ekologik anglashni shakllantirish odam tasavvurlari va qarashlarini rivojlantirish maqsadida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan ekologik me'yorlar (ekologik bilim, ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologik kompetentlik va h.k) uning tabiatga nisbatan bo'lgan munosabatlarida xulq-atvor me'yorlariga aylantirish maqsadga muvofiq. XX asrning oxirlari - XXI asrning boshlariga kelib ekologik anglash to'g'risidagi tasavvurlar o'zgarishga yuz tutmoqda, bu asosan insoniyatning zamonaviy olamda tutgan o'rnini yangicha talqin qilish bilan izohlanadi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ekologik anglashning ekomarkazli tipi –ekologik jihatdan maqsadga muvofiqlikka, inson va tabiatning bir-biriga qarshi turmasligiga, tabiatni sub'ekt sifatida idrok qilishga, tabiat bilan pragmatik va nopragmatik o'zaro ta'sirlarning muvozanatda bo'lishiga yo'naltirilganlik bilan ifodalanadigan olam to'g'risidagi tasavvurlar tizimidir. SHunday qilib, ekologik kompetentlikni mahiyati insonning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirlarida amalga oshadigan mavjudlik shakli sifatida ko'rib chiqilishi mumkinligidan iborat bo'ladi. Kompetentlilik, makon va zamonda funksional jihatdan chegaralangan psixik hosil bo'lishlar shaxsning ushbu insonni xarakterlovchi, uning hatti-harakatlari va xulq-atvorini tartibga solib turuvchi doimiy tuzilishga aylangan psixik holatlari bilan belgilanadi. Ekologik ta'limda kompetentlilik yondashuvi bazaviy asoslari quydagi bilimlar asosida ochib beriladi:

- **bilishga o'qish** - tabiatni bilish (ekologik bilimlar va ko'nikmalarning shakllanishi);
- **bajarishga o'qish** - o'zining ijodiy mahsulotlarini yaratish, o'quv ekologik loyihalarni amalga oshirish;
- **yashashga o'qish** - yashash muhitini asrash; **mavjud bo'lishga o'qish** - ekologik faoliyat jarayonida hayot yo'lini, o'z-o'zini amalga oshirish yo'lini tanlash.

Ekologiya va atrof-muhit ob'yektlarini analiz qilishda elektrokimyoviy analiz usullaridan foydalanishning amaliy ahamiyati

E.A.Ruziyev., M.Do'stmurodov., Ruziyev J.E.

Samarqand davlat universiteti

“2017-2021 yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida” gi Prezident qaroriga muvofiq, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash bo'yicha kompleks chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan unumli va oqilona foydalanish, ishlab chiqarilayotgan sanoat va oziq-ovqat mahsulotlarining sifat tarkibini yaxshilash, inson salomatligi uchun xos bo'lgan yashash sharoitlarini ta'minlash va ona tabiatimizni kelajak avlodlar uchun avaylab asrash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Fan- texnika rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarishning o'sishi atrof – muhitga va umuman, respublikamizning ekologik muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ifloslanish jarayonining intensiv taraqqiy etishining sababi nafaqat aholi sonining ko'payishi yoki ishlab chiqarishning o'sishi, balki shu bilan birgalikda qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishida yuz berayotgan o'zgarishlar oqibatida ham ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar hududiy va ekologik vaziyatlarni to'g'ri baholamasdan qo'llanilayotgan yoki keltirilayotgan ba'zi texnologik vositalar va uslublar bilan ham bog'liqdir.

Vodorod sulfidining mikro va makro konsentratsiyalarini aniqlash uchun elektrokimyoviy va termokatalitik (elektrometrik o'lchashga asoslangan) usullar va ular asosida termokatalitik sensor yaratildi [3]. Sensorning analitik signali chiqish signali (E, mv) hisoblanib, analiz qilinadigan aralashmadagi vodorod sulfid konsentratsiyasiga proporsionaldir.

Bundan tashqari ko'p yillar davomida organik erituvchilar va neft mahsulotlari, ayniqsa, aviatsiya yoqilg'ilari tarkibidagi erigan va emulsiya holdagi suv miqdorini elektrokimyoviy analiz usullari (kulonometriya, potensiometriya va konduktometriya) yordamida aniqlash bo'yicha ham ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Bunda suvning standart eritmalarini tayyorlash uchun kerosin va suvda turli nisbatda aralashtirish imkoniyati bo'lgan etilenglikolning monoetilli efiri tanlandi. Suvning mikro miqdorini kulonometrik va potensiometrik aniqlashlarda Fisher reaktivi tarkibidagi metanolni etilsellozolvga almashtirilgan yangi modifikatsiyasining imkoniyatlaridan foydalanildi. Bunga sabab, masalan, metanolning ruxsat etilgan me'yori 5 mg/m³ ni tashkil etsa, etilsellozolvning ruxsat etilgan me'yori 740 – 520 mg/m³ ni tashkil etadi. Fon elektroliti sifatida foydalanilgan ushbu reaktiv kulonometrik titrlash samaradorligini oshiradi.

Ushbu anjumanda atrof-muhit ob'yektlarini nazorat qilish uchun bajarilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar natijalari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berish niyatidamiz.

Adabiyotlar:

1. Ruziyev E.A., Abdurahmonov E.A. Электрохимическое определение фосфат-ионов // Деп. в ГФНТИ ГКНТ РУз. 08.02.94. № 2003-Уз. 94.-6 с.

2. To'qsonov F., Ruziyev E., Qorjovov A. Sanoat oqava suvlari tarkibidagi nitratlarni analitik nazorat qilish // “Перспективы науки и производства химической технологии в Узбекистане”. Матер. науч.-техн. конф. Навои, 2014, с.271 – 272.

3. Ruziyev E., Qorjovov A., Turg'unov D. Sanoat ob'ektlari atrof-muhitidagi sulfidlarni analitik nazorat qilish. // “Зелёная химия в интересах устойчивого развития”. Матер. I Респ. конф. с международным участием. Самарканд, 2012, с. 543 – 545.

“Vatanim ekologiyasi uchun: fikrlayman, izlanaman, tadqiq etaman va amalga oshiraman” loyihasini barcha ta'lim muassasalarida joriy etish

Ernazarov Komil Anorboy o'g'li

Navoiy davlat pedagogika instituti kimyo o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Ekologik ta'lim tarbiya – bu insonning tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanish, psixologik, axloq odob yuzasidan, xalqimizning tabiatga nisbatan hurmat e'tibor bilan qaraydigan yaxshi urf-odatlarini, udumlari asosida yoshlarni tarbiyalash, ularda tabiat, uning xilmax-xil boyliklariga mehr-muhabbat uyg'otish, tejamkorlikka o'rgatish, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, bog'u-rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga undash, ularning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iborat.

Ekologik madaniyatni shakillantirish va uni rivojlantirish uzluksiz ta'lim tarbiya tizimiga tayanadi. Yoshlarning ta'lim tarbiyasida ekologik bilimlar muhim o'rin egallamog'i lozim. Zero ekologik bilimlarsiz ekologik madaniyat shakillanmaydi, bunda maktabgacha ta'lim muassasasi, maktablar, kasb hunar kollejlari, akademik litseylar va oiliy ta'lim muassasalari yaxlit bir zanjirni tashkil etishi, ekologik bilimlarni pog'onama-pog'ona chuqurlashtirib borish lozim.

Bugungi kunda ekologiya fanini faqat o'rta maxsus va oiliy ta'lim tizimida o'qitilmasdan balki maktabgacha ta'lim muassasalari va ayniqsa umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ham ekologiya fanini DTS ga kiritib maxsus dastur ishlab chiqish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir.

Loyiha doirasida yurtimizning barcha hududlarida turli aksiyalar, ommaviy tadbirlar, ko'rgazmalar tashkil etish ko'zda tutilgan. Poytaxtimiz va viloyatlardagi bir qator oliy o'quv yurtlari, akademik litseylarda va boshqa ta'lim muassasalarida ekologik qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari, barqaror rivojlanishga xizmat masalalariga oid ilmiy anjumanlar, seminarlar, davra suhbatlari, yosh ijodkorlar tanlovlari o'tkazish rejalashtirilgan.

Hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bu - fan-texnika yutuqlari asosida aholi orasida ekologik ta'lim tarbiya va madaniyatga oid bilimlarni oshirish yo'li bilan tabiat muhofazasini tezlashtirishning turli chora-tadbirlarini ishlab chiqish va bu borada mutaxassislar ishtirokida chora-tadbir rejasini tegishli ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlarda amalga oshirishdir. Masalan: maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga dastlabki ekologik tushunchalarni o'rgatish, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida o'zlari yashab turgan hudud ekologik muammolari to'g'risida insholar tanlovini o'tkazish, yuqori

sinf o'quvchilari va boshqa ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida bosqichma bosqich ekologik muammolarning oldini olish chora tadbirlari mavzularida konfrensiyalar tashkil qilish. Bu loyihani amalga oshirish natijasida hozirgi ekologik vaziyatning kelajakda ancha yaxshilinishiga va mavjud ekologik muammolar o'z yechimini topishiga erishiladi.

Атмосфера ифлосланишининг тирик организмларга кўрсатадиган салбий таъсири ва атмосфера ҳавосини сунъий ифлосланишдан сақлаш

Эрназаров Комил Анорбой ўғли

Навоий давлат педагогика институти Кимё ўқитиш методикаси кафедраси ўқитувчиси

Атмосфера ҳавоси табиатнинг энг муҳим элементларидан бири бўлиб. тирик организмнинг яшаши учун жуда ҳам зарурдир. Атмосфера ернинг химоя қатлами, тирик организмларни, шу жумладан инсонни турли ультрабинафша нурлардан, самодан тушадиган метиоридларнинг заррачаларидан, чанг тўзонлардан сақлайди. Атмосфера планетамизнинг иссиқлик режимини тартибга солувчи регуляторлик вазифасини бажаради. Атмосфера сув буғларини тўпланишида, булутлар ҳосил бўлишида, ёғинларни ёғишида, яъни сувнинг айланма ҳаракатида муҳим аҳамиятга эга. Тупрокни унумдорлигини шаклланишида ҳавони циркуляциясида муҳим роль ўйнайди. Атроф-муҳит компонентлари бир-бирига диалектик боғланганлиги туфайли инсоннинг хўжалик фаолияти натижасида ифлосланган атмосфера ўз навбатида табиатнинг бошқа компонентларига ҳам таъсир этиб инсоният, ҳайвонлар ва ўсимликлар организмда салбий ўзгаришларни келтириб чиқармоқда

Ҳавонинг ифлосланиши киши организмга салбий таъсир этиб, улар саломатлигини ёмонлашишига сабаб бўлмоқда. Айниқса, олтингугурт оксиди, углерод оксиди, углерод сульфид, водород сульфид, фтор бирикмалари, азот оксидлари, ҳар хил саноат чиқиндилари, радиоактив моддалар ва қишлоқ хўжалик пестицидлари киши организмда ҳар хил касалликларни вужудга келтиради. Олтингугурт оксиди ҳавода кўп тўпланиб қолса кишилардан бронхит, гастрит ва ўпка касалликларини вужудга келтиради. Углерод оксидининг ҳавода ортиб кетиши туфайли киши организмда гемоглобин сусаяди, юрак, қон-томир тизимларида бузилишлар содир бўлади, атеросклероз касаллиги ривожланади, бошайланади, оғрийди, юрак тез уриб, уйқу бузилади, киши тажанг бўлиб қолади. Водород сульфид газининг ҳаддан ташқари кўпайиб кетиши натижасида одамнинг боши оғрийди, қайт қилади, дармонсиланади ва ҳатто ҳид билиш қобиляти заифлашади. Фтор бирикмалари таъсирида эса бурундан қон келади, тумов пайдо бўлади, киши йўталади. Азот оксидлари туфайли ўпка касалланади, қон босими пасаяди ва натижада бош айланиб, ҳушидан кетади, қайт қилади, нафас бўғилади.

Чанг заррачалари киши терисини, хусусан шиллиқ пардаларини зарарлайди, кўз касаллигини тезлаштиради. Ундан ташқари чанг заррачалари

киши организмга ҳаво билан бирга кириб, улардан ҳар хил касалликларни вужудга келишини тезлаштиради. Таркибида мишяк, симоб, кўрғошин, асбест ва бошқа моддалар бўлган чанг юшга асабини фалаж қилади, бош мия яллиғаланишига сабаб бўлади, жигар ва буйракни заифлаштиради, болаларнинг жисмоний тараққиётини кечиктиради. Асбест чанги ўпка касалликларига сабабчи бўлади. Киши организмга атмосферада чангсимон ҳолда учрайдиган радиоактив моддалар ҳам хавфлидир. Кам миқдордаги радиоактив моддалар киши асаб фаолиятини, ошқозон ичак ўйларини, буйрак усти беши ишини, жинсий безлар фаолиятини, қалқонсимон без фаолиятини, нормал ишлашга таъсир этади; қонни шаклли элементлари ва юрак-томир системаси фаолиятини ўзгартириб юборади, оқибатда инсон умри қисқартиради.

Тоза ҳаво деганда, киши ва бошқа организм ҳаётига, унинг яшаш шароитига салбий таъсир этувчи захарли газ ва чанг миқдорининг ошиб кетмаган ҳолати тушинилади. Шу сабабли гигиенистлар тоза ҳаво деб ҳар хил зарарли моддалар концентрацияси мавжуд бўлган, лекин инсон саломатлигига, унинг иш қобилиятига, ўсимлик ва ҳайвонларнинг нормал яшашига путур етказмайдиган даражада бўлган ҳаво концентрацияси тушинилади деган хулосага келишган.

Яшил ўсимликлар атмосфера ҳавосини тоза сақлашдан ташқари, инсонларга психофизиологик таъсир этиб, уларга эстетик завқ ҳам беради.

Бу ўзгаришлар биосферада ижобий ўзгаришларга олиб келади натижада, ўсимликлар, ҳайвонлар ва инсонларнинг яшаши учун қулай шароит вужудга келади.

Biologik resurslardan oqilona foydalanish tizimini takomillashtirish yo'llari.

Hasanova Lobar Yusuf qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti

Olimlarning taxminlariga ko'ra, dastlab ona sayyoramizda 3 mlrd. o'simlik turi mavjud bo'lgan. Yerdagi ekologik o'zgarishlarga moslasha olmaganligi sababli ularning 99 foizi nobud bo'lgan va hozirgi kunga kelib, faqat 4 mln. o'simlik turlari saqlanib qolgan. Ularni asrab-avaylash, dorivor o'simlikshunoslikni rivojlantirish va ularni madaniylashtirish, sanoat plantatsiyalarida o'stirishni yo'lga qo'yish har bir mamlakat florasida uchun muhim sanaladi.

O'zbekistonda o'sadigan har qanday o'simlik umumxalq mulki bo'lib, davlat muhofazasidadir.

Kavrak (Ferula) turkumi ziradoshlar (soyabonguldoshlar)-Apiaceae (Umbeliferae) oilasi, magnoliyasimonlar sinfi, magnoliyatoifa bo'limiga mansub bo'lib ko'p yillik o't o'simliklardan iborat. Kavrakning yer yuzida 170 dan ziyod turlari bo'lib, e'tiborli jihati shundaki, uning 110 dan ortiq turi O'rta Osiyoda, 50 dan ortiq turi g'arbiy Tyan-Shanda va 60 ga yaqin turi Pomir-Oloy tog'lari va tog' yonbag'irlarida keng tarqalgan. Qumli cho'llar, qir-adirlar, tog' va tog' oldi hududlar bo'ladimi, sof tuproqli maydonlarmi, birdek barq urib o'saveradi.

Mahalliy aholi kavrak turkumining har xil turlariga qarab sassiq kavrak, rova, ravshak, kamol, mo'rcha kamol va boshqa nomlar bilan atashadi.

Kavrak o'simligining poyasi tik o'suvchi, yo'g'on, ichi kovak, yuqori qismi shoxlangan bo'ladi. O'simlik poyasi 8-9 yilda bir marotaba gullab meva beradigan monokarp o'simlik.

Kavrak turkumiga mansub turlar Toshkent, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Navoiy, Buxoro hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida qumli cho'llar, adirlar, tog'lar va tog'oldi yalangliklarda, sof tuproqli yerlarida o'sadi. Smola-yelim olish uchun asosan kavrakning 10 turi ishlatiladi. Bular sassiq kavrak, kuhiston kovragi va boshqa nomdagi kavraklardir. Bu turlar, tashqi morfologik jihatdan bir-birlariga juda ham o'xshab ketadi, ammo tabiatda sassiq kavrak (*Ferula assa-foetida* L.) keng tarqalgan bo'lib, yelim-smola asosan shu turdan olinadi. Xalq tabobatida kavrakdan uzoq yillardan buyon foydalanib kelinadi. Tarkibida efir moylari, smola (saqich), karbon suv va boshqa moddalar saqlovchi kavrakdan har xil kasalliklarni davolashda keng foydalanilgan. O'simlik ildizi va poyasining kesilgan joyidan kippa, asafetida, sapayun, sumbul, ammonikkum deb ataluvchi dorivor saqichlar olingan.

Kavrak suyuqligi qon to'xtatuvchi, tomirlar spazmini to'xtatuvchi, yaralar bitishini tezlashtiruvchi, balg'am ajratuvchi, kuchga to'ldiruvchi, ichaklardagi yaralarni davolashda yordam beradi, qurtlarni tushiruvchi vosita sifatida foydalanib kelingan. Kovrak ko'rish qobiliyatini yaxshilaydi, katarakta, ko'z kasalliklari va shishlarini davolaydi. Asab kasalliklarini davolashda samarali vosita hisoblanadi. Quloq og'riqlarini, artrit va bo'g'im og'riqlarini davolashda yordam beradi, qonni tozalaydi va bezgakni yo'q qiladi. Hozirgi kunda tibbiyot saraton va boshqa kasalliklarni davolashda kovrakdan foydalanib kelmoqda va bu yaxshi natijalarni bermoqda. Kosmetologiya sohasida undan temiratki, sepkil, so'gal va chandiqlarni yo'q qilishda foydalaniladi. Sharqda taomga ziravor shaklida ishlatiladi.

Shifobaxshligi bilan nom qozongan ushbu o'simlikdan xo'jasizlarcha foydalanish oqibatida o'simlik turining maydonlari yil sayin qisqarib bormoqda. Bu tashvishli holat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 55-moddasida belgilanganidek, «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boyligimiz, ulardan oqilona foydalanishimiz zarur va ular davlat muhofazasidadir». Hozirgi kunda kavrakzorlar faqatgina tog'oldi maydonlarda saqlanib qolgan, xolos. Chunki sobiq ittifoq davrida cho'llarni o'zlashtirish bilan birga bu o'simlikning juda katta maydonlari yo'qolib ketgan.

Xorijda bu o'simlikka qiziqish juda katta. Chunki undan qimmatbaho va noyob mahsulotlar tayyorlashda foydalanishadi. Shuning uchun aholi kavrak smolasini yig'ib bozorlarda xorij fuqarolariga pullashmoqda. Afsuski, noqonuniy smola yig'ayotgan aholi, bu o'simlikdan smola olish uchun uni yig'ishni uyushtiruvchi tadbirkorlar har doim ham o'simlik tupini saqlab qolish, ularni qayta tiklash masalasiga jiddiy ye'tibor qaratishmaydi. Yelim-smola yig'ish qoidalarini bilmaydi. Shu sababli monokarp o'simlik yo'qolib ketish arafasida, bu muammoni hal etish uchun bir qancha amaliy vazifalarini bajarish lozim. Ushbu dorivor

o'simlikni saqlab qolish, ko'paytirish va undan foydalanishni takomillashtirish yo'llari:

- kavrak populyatsiyaning biologik, ekologik xususiyatlarini, tashqi muhit sharoitining ta'sir etishini, individlar yoshini, populyatsiya egallagan joy chegaralarini aniqlab, xaritasini tuzish;
- kavrak populyatsiyaning statistik tavsifini ishlab chiqish;
- kavrakdan foydalanishni yangi texnologiyalarini ishlab chiqish;
- gullagan o'simliklardan foydalanmaslik;
- o'simlik tarqalgan maydonlardan navbatma-navbat foydalanish;
- qayta tiklanishiga imkon beradigan holda tuplarni qoldirish;
- tabiiy landshaftlarni vujudga keltirish;
- madaniy holda ko'paytirish;
- kavrak bilan shug'ullanadigan tadbirkorlarni mutaxassislar bilan birgalikda ish olib borish va boshqalar;

O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan samarali foydalanishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda bu boradagi me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'simliklar dunyosi taraqqiyoti bevosita inson omiliga bog'liqligi hech kimga sir emas. Tabiatga shavqatsiz munosabatda bo'lish ayrim o'simliklarning qirilib ketishiga olib kelishi mumkin. Tabiiy sharoitda o'sadigan o'simliklar dunyosi, takror yetishtirish, genetik fondini saqlash uchun ekib o'stiriladigan yovvoyi o'simliklarni muhofaza qilish, noyob o'simlik turlarini, shuningdek endemik turlarni aniqlashda va ulardan foydalanish masalalarini hal etilishida mutaxassis maslahatiga amal qilish zarur.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish- qonun himoyasida.

Hasanova Lobar Yusuf qizi, Fayzullayev A.K.

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti

Inson borki, hayot uchun kurashadi, tabiatning barcha injiqliklariga moslashishga intiladi, har bir kishi tabiat in'omlaridan foydalanadi, quradi, bunyod etadi. Odatda inson biror maqsadni ko'zlab tabiatning muayyan bir sohasida ijobiy yoki ko'pincha salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kishilar o'zlari uchun istiqomat joylari barpo etar ekanlar, buni atrof-muhitning o'simlik va hayvonot dunyosiga qandaydir salbiy ta'siri bo'ladi, natijada tabiat kambag'allashib boradi. Inson qurilish materiallari sifatida tabiiy o'rmonlarni keragidan ortiqcha kesadi, demak o'simlik dunyosi qisqarib, u o'z navbatida atmosfera havosini musaffo bo'lishiga rahna tufdiradi, tuproq eroziyaga uchraydi, yer osti suvlari kamaya boradi, ko'chkilar paydo bo'lib, sel natijasida jarliklar hosil bo'lishi mumkin.

Kelgusi avlod qobiliyatini saqlab qolgan holda inson o'z ehtiyojlarini va talablarini qondira oladigan darajada kuzatiladigan rivojlanish barqaror rivojlanishdir. Tashqi muhit va ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishni bir-biridan ajratgan holda alohida qaramaslikni xis etish barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosini tashkil etadi. Demak, ana shu nuqtai nazardan qaralganda sog'lom ijtimoiy– iqtisodiy muhitda sog'lom tashqi muhit mavjud bo'ladi.

Albatta, ekologik muammolarni yechishda ekologik bilimlar, kishilarning xohishi yoki man etadigan qarorlar yetarli darajada bo'ladi deb hisoblash noto'g'ri. Bu ekologik muhitni sog'lomlashtirishning asosiy mezonlaridan biri haqiqiy madaniy insonni tarbiyalash. Shaxs, jamiyat va tabiatning gormoniyasini ta'minlash lozim. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng u xalqaro iqtisodiy va siyosiy tizimlar bilan integratsiyani kuchaytirdi va natijada har qanday ekologik muammolarni yechish uchun sharoit tug'ildi. Hozirgi kunda tashqi muhitni muhofaza qilish Respublikamizda bo'layotgan iqtisodiy islohatlarning bir bo'lagi bo'lib qoldi. O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy siyosati, uning integratsiyasi ishlab chiqarish bilan tashqi muhitning o'zaro muvofiqligi asosida o'tkazilmoqda. Bu siyosat xalqimiz va davlatimiz oldida turgan ekologik muammolarning naqadar jiddiy ekanligini sezgan holda olib borilmoqda.

Hozirgi kunda aholining ekologik xavfsizligi O'zbekiston Respubliasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan. Bundan tashqari, mustaqillik davrida tabiatni muhofaza qilish va ekologik muammolarni odilona yechishga bag'ishlangan 100 dan ortiq hujjatlar qabul qilingan.

Ekologik munosabatlarni tartibga solib turuvchi asosiy hujjatlardan biri – Respublikamizda 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish Qonuni»dir. Bu qonun tashqi muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan to'g'ri (ratsional) foydalanish, ekologik sistemalar, tabiiy komplekslar va ayrim biologik ob'ektlarni asrashning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy negizini aniqlab beradi. Inson uchun toza va qulay muhit yaratishni kafolatlaydi. U tashqi muhitni asragan holda Respublikamizni stabil rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, biologik turli-tumanlikni, inson salomatligini va madaniy merosimizni saqlab qolishga imkon yaratadi.

1992 yil 3 iyulda Respublikamizda «Davlat sanitar nazorati to'g'risida» Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun xalqimizning ekologik xavfsizligini tartibga solib, insonning toza tashqi muhitga ega bo'lish huquqini mustahkamlaydi, har qanday iqtisodiy faoliyatning toza (sanitar holati) bo'lishini talab etadi, sanitar standartlar, me'yorlar va qoidalarning buzilishini man etadi.

Fan va texnika taraqqiy etgan sari insonning tabiatga ta'sir etish yo'llari va shakllari ko'payib bormoqda. Ular tabiatda bo'ladigan miqdor o'zgarishlari bilan bir qatorda, sifat o'zgarishlariga ham olib kelmoqda. Aholi sonining ortishi, xo'jalik faoliyatining kengayishi tufayli tabiatning inson qo'li tegmagan joyi qolmayapti. Shuning uchun ham atrof-muhit muhofazasi qonun himoyasida. Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodga atrof-muhitni himoya qilish va u haqdagi qonunlar, ekologik tarbiya haqida dars jarayonida ta'lim bilan birga tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Insoniyatning ekologiyaga yetkazayotgan talofatlari

Hotamova Muhabbat Sattorovna

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dunyo miqyosida ijtimoiy – siyosiy munosabatlar jadallashib, globallashib, vaqt, tabiat va inson omilining ahamiyati oshib borayotgan bir paytda jamiyat

va tabiat munosabatlariga doir fikrlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Insoniyatning tabiat bilan bir butunligi va uyg'unligi haqidagi tasavvurlar, uning tabiatga intellektual salohiyat, ekologik ma'naviyat, madaniyat, mafkura tamoyillariga asoslangan munosabati, Sharq tafakkur tarziga xos siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy va ekologik madaniyatini namoyon qiluvchi insonparvarlik g'oyalari ayniqsa muhim bo'lib, mazkur insoniy qadriyatlar ijtimoiy, ekologik ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, dialektik fikrlash, nuqtayi nazaridan yangilanib, endilikda tabiatga nisbatan g'ayri axloqiy xatti-harakatlarga qarshi turish taqazo etilmoqda. Tabiat yaxlit tizim sifatida o'ziga nisbatan oqilona munosabatni talab etib, faqat tabiat bilan uyg'unlashgan hayot, uning qonuniyatlariga muvofiq keladigan faoliyat inson va tabiatning dialektik birligini hamda kelgusi taraqqiyotni ta'minlay oladi.

Ona - tabiat deb bejizga aytilmaydi. Biz undan nafas olamiz, uning beminnat ne'matlarini iste'mol qilamiz, qurilish materiallari sifatida ishlatamiz, maishiy kundalik hayotda foydalanamiz. Lekin Ota-bobolarimiz ta'kidlaganidek, hamma narsaning ham savol-javobi bor. Har bir tabiiy ne'matni o'z o'rnida va vaqtida kerakli miqdorda sarf qilsak muvozanat buzilmaydi.

Akademik Varnadskiy aytishicha, "Kam miqdorning cheksizligini ta'minlashning birdan bir usuli uni yopiq halqa bo'ylab aylanishga majbur qilishdir". Tabiatni muhofaza qilishni har bir inson amalga oshirsa, uning cheksizlikni ta'minlashga bizning ham hissamiz ulkan miqdorda qo'shiladi.

Inson tabiat bilan o'zaro aloqada bo'lib, uning hayotini tabiatda Inson tabiat bilan o'zaro aloqada bo'lib, uning hayotini tabiatdan alohida tasavvur qilish mumkin emas. Shu ma'noda Prezidentimiz I.A.Karimovning "Ona zaminimiz-boyligimizning, mustaqilligimizning va go'zal kelajakka ishonchimizning asosiy manbaidir" – degan so'zlarida juda katta ilmiy-falsafiy mazmun bor. Insoniyat yashayotgan zaminning o'z qonuniyatlari mavjud bo'lib, zaminda bitmaydigan, tugamaydigan ne'matning o'zi yo'q.

Inson tabiatning shunchaki bir qismi emas, balki uning ongli, aql idrokli va faol mavjudotidir. Inson hech qachon tabiatdan tashqarida, u bilan doimiy aloqa va munosabatda bo'lmasdan turib yashay olmaydi. Tabiiy resurslar, ya'ni yoqilg'i, ma'danlar, metallar, havo, suv, is'temol qilinadigan mahsulotlar, shifobaxsh g'iyohlar, turli-tuman xom ashyolar tabiat tomonidan insonga in'om etilgan buyuk ne'matlardir. Lekin bugungi kunga kelib tabiatga ko'rasatilayotgan noto'g'ri munosabatlarimiz ta'sirida turli xil noxush voqea va hodisalarga sabab bo'lmoqda. Bu ekologik muammolar bugungi kunga kelib shunchalik ko'p globallashtirish bularni soni adog'iga etib bo'lmaydi. Bularga atmosferaga chiqariladigan turli gazlar atmosferaning ifloslanishi va issiqxonaning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Yadro qurollari bo'yicha mutaxassis Xarlingtondan so'rashganida yadro qurollari inson uchun qanchalik xavfli deganda u shunday javob bergan ekan „Insoniyatni yadro qurollari emas balki issiqxona halokatga uchratadi“. Buni biz keyingi yillarda yozning jazirasidan ham bilib olishimiz mumkin. Buning oqibatida Antraktida va Arktika muzlarining erishi natijasida insonlar yashayotgan zaminning ¼ qismi suv ostida qolishi aytilmoqda. Bu muammolardan yana biri suvsizlik muammosidir. Bugungi kunda

olimlarning hisoblaricha, dunyoda 120 dan ortiq davlat suvsizlikdan aziyat chekar ekan va turli xil kasalliklarga duchor bo'lar va og'ir ahvolga tusharkan. Shifokorlarning ta'kidlashlaricha insondagi kasalliklarning 70% suv orqali yani ifloslangan suv orqali yuqar ekan. Bulardan tashqari ocharchilik, okean va dengizlarning ifloslanishi, cho'llashish jarayoni, o'rmonlarning kesilishi, yerlarning yaroqsiz ahvolga aylanishi, hayvonlarning ko'pchiligining qirilib yo'q bo'lishi va boshqa muammolar juda ham ko'payib ketganligi sezilmoqda. Bularning barchasini bilib turgan holda ham biz tabiatga zarar yetkazishda davom etmoqdamiz. Mashhur olim Jak if Kusto shunday degan "Ilgari tabiat insoniyatni qo'rqitar edi, bugun esa insonlar tabiatni qo'rqitmoqda, agar biz muammolarni o'z vaqtida hal qilmas ekanmiz bundan faqatgina tabiat emas balki insoniyatni o'zi ham halokatga uchrashi mumkin.

Tabiat muhofazasiga, ekologik taraqqiyot masalalariga oid tarbiya g'oyalari o'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa allomalarimiz asarlarida ilgari surilgan bo'lib, ularda tabiat va jamiyat birligi, o'zaro aloqadorligi, tabiatni muhofaza qilish, uning organizmga ta'siri kabi masalalar ilmiy asoslab berilgan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari umuminsoniy ahamiyat kasb etayotgan, insoniyatning tabiiy muhitga yetkazgan salbiy oqibatlari qayta ko'rib chiqilayotgan bir paytda shu narsa ma'lum bo'ldiki, aholining barcha qatlamlarida ekologik madaniyatni shakllantirish muammolari inson ongidagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq.

Bugungi kunda fan-texnika jadal suratlarda rivojlanib, inson va tabiat o'rtasidagi tabiiy muvozanat buzilayotganligi, tabiatga nisbatan jamiyat a'zolarida g'amxo'rlik sust ahvolga kelib qolganligi oqibatida atrof-muhitga katta ziyon yetmoqda. Ona tabiatga istiqbolni ko'zlab munosabatda bo'lish, kelajak avlodga uni go'zal va tabiiylikicha qoldirish bugungi kunning muhim vazifasi bo'lib turibdi. Chunki tabiatga nisbatan inson qanchalik berahmlik bilan munosabatda bo'lsa, tabiat ham insonga nisbatan aynan ana shunday javob qaytaradi. Har bir inson ongida ekologik madaniyat qay darajada shakllansa, jamiyat ham shu darajada taraqqiy etadi. Demak tabiatga oqilona munosabat inson ma'naviyati va madaniyati bilan ham uzviy bog'liq.

Shuning uchun ham Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" (T.: "O'zbekiston", 1997) asarida bu masalalarga o'z fikrini yoritib beradi. Agar biz "Barqaror rivojlanish" so'zlar birikmasini o'zbek tilida "Barqaror taraqqiyot" desak ko'p adashmagan bo'lamiz.

Ekologik muammolarning paydo bo'lishi va ularga qarshi kurashning dolzarbligi

Hotamova Muhabbat Sattorovna
Navoiy davlat pedagogika instituti

Ekologik inqirozning keskinlashib hayot-mamot masalasiga aylanishi bilan jamiyatning rivojlanishini ekologik faoliyat samaradorligiga bog'lash zaruriyati vujudga keldi. Yaqin kelajakda moddiy ne'matlarning qiymatini, iqtisodiy arzonchilik, yuqori sifatli, estetik jihatlari emas, balki ekologik ko'rsatkichlari belgilab turishiga shubha yo'q.

Xuddi shu qoidaga asosan ilmiy-texnika inqilobining ijobiy yoki salbiy oqibatlari baholanadi, ya'ni uning ahamiyati tabiat ustidan hukmronlikning mukammal texnik vositalari texnologik jarayonini vujudga keltirishi bilan emas, balki tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlashga qo'shayotgan hissasi bilan belgilanadi. Bundan tashqari ekologik vaziyatning keskinlashishida ilmiy-texnikaviy taraqqiyotini asosiy sababchi deb bilish yoki aksincha ilmiy – texnika inqilobi avtomatik tarzda ekologik ziddiyatlarni hal qilishga olib keladi, deb tushunish xatodir.

Antropologik ta'sir natijasida ekologik inqirozning, falokatlarining tarixi hozircha yetarli darajada o'rganilgan emas.

Amerika Qo'shma Shtatlarining janubi-g'arbida joylashgan Arizona shtati chegaralarida XI-XII asrlarda Kanzas hududlarida g'oyat mukammal 75ta shahar qurganlar, hatto 5 qavatli 800 dan ortiq xonalari ham bo'lgan. Shuningdek, murakkab muhandislik inshootlari yaratilgan. Keyinchalik shaharlarni yoppasiga tark etganlar.

Hozirgacha bu ko'chishga uzoq vaqt davomida qurg'oqchilik sabab bo'lgan, deb hisoblanar edi. Amerikalik tadqiqotchi Julio Beshtankurning xulosalariga ko'ra aholining ikki asr davomida atrof-dagi daraxtlarni ommaviy ravishda yoqilg'i va qurilish materiallari uchun kesib yuborishi ekologik falokatga olib kelgan va xalqlarning "Buyuk ko'chish" lariga sabab bo'lgan. Hozirga vaqtda ham agar oldi olinmasa, vujudga kelayotgan ekologik halokat mintaqalarda minglab millionlab kishilarni ko'chirishga to'g'ri keladi.

Dunyo mamlakatlarida ekologik inqirozni chuqurlashtirayotgan yirik omillardan biri sayyoramizning turli nuqtalarida yuz berayotgan harbiy harakatlar, urushlardir. Yuzaki qaraganda urushlarning asosiy maqsadi bevosita tabiiy atrof-muhitga zarar yetkazib, ekologik muvozanatni buzishga qaratilgan emas. Lekin urush holati muqarrar ravishda ekologik falokatni sun'iy ravishda vujudga keltirgan. Xususan, urush vaqtida dushmanga qarshi kurashda yong'inlardan, yoki suv bostirishdan foydalanilgan. Masalan, qadimgi yahudiylarning afsonaviy qahramoni Samson falastinliklarga qarshi kurashda 300 tulkining dumiga o't yoqib yuborishi natijasida bog'lar va dalalar yonib ketgan.

Mo'g'ul istilochisi Chingizxon 1219-yilda Urganch sharini olti oy qamal qilgan, natija bermagandan so'ng Amudaryoni to'sib shaharni suvga bostirgan.

Qurollanish poygasi tabiiy boyliklarni, inson halokati yo'lida isrof qilishning birdan-bir noma'qul usuli bo'lib qolmoqda. Hozirgi vaqtga kelib harbiy-siyosiy qarama-qarshilikning pasayishi, xususan yadro siyosatining muvaffaqiyati, shubhasiz ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishga ham muhim hissa bo'ladi, deb aytishga to'la asos bor. Ekologik muammolarni asosiy yo'nalishlari inson faoliyati bilan bog'liqligini bilgan holda uni hal qilish maqsadida nima qilish kerak? degan savolga javob topishimiz lozim. Qurollanish va harbiy harakatlarni kamaytirish, iloji bo'lsa to'xtatish kerak, suv, tuproq va havoni tozaligini saqlash uchun quruq gap bilan emas, balki haqiqiy faoliyat bilan harakat qilish kerak. Buning uchun yoshlardagina emas, o'zimizda ham ekologik dunyoqarashni o'zgartirishimiz shart va zarur. Ming shukrlar bo'lsinki, istiqbolimiz bizga beqiyos, benazir imkoniyatlar, nurlil kelajak yo'lini ochdi. Eng noyob, bebaho milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz, bayramlarimiz tiklandi. Endi mustaqil yurtimiz ekologiyasini yaxshilash bosh vazifamiz bo'lishi kerak. Yurtimizdagi har giyoh, har tosh bir qimmatga ega ekanligi ma'lum. Ana shu qimmatli boyliklarni ishlatishdan keyin qolgan chiqindi ham qandaydir qiymatga ega bo'ladi, biz ana shuni qadriga yetib, undan foydalanishimiz kerak. Buyuk kimyogar olim D.I. Mendeleev "Ilg'or texnologiyaning bosh maqsadi tashlab yuboriladigan, foydasiz narsalardan inson uchun kerakli mahsulot ishlab chiqarish usullarini qidirib topishdir", degan edi, darhaqiqat yuqorida ta'kidlaganimizdek, tabiatda foydasiz narsaning o'zi yo'q. Ayniqsa bizning mamlakatimizda, mamlakat boyliklarini isrof qilish, ekologik muvozanat buzilishiga qarshi kurashda olib borilgan tadbirlar natijasida ana shu boyliklar muhofaza qilinmoqda. Respublikamizda davlat tomonidan barcha huquqiy, iqtisodiy va boshqaruv shart-sharoitlari tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan. Xalq xo'jaligini rejalashtirishda davlat tomonidan tabiiy muhitni himoya qilish va uni qayta tiklash uchun e'tibor berilib, kerakli mablag' ajratilmoqda. Biz qilishimiz kerak bo'lgan muhim vazifalardan biri- o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida ekologik madaniyatni, shuningdek, ekologik dunyoqarashni shakllantirishga alohida e'tibor berish kerak.

Muxtasar qilib aytganda, muammo kelib chiqishiga o'zimiz sababchi bo'lar ekanmiz, ularning yechimini topish ham qo'limizdan keladi. Faqatgina har bir inson tabiat, atrof- muhit, musaffo osmon, bepoyon dalalar barcha ehtiyojimizni qondirayaptimi, biz ham ularga nisbatan befarq bo'lmasligimiz kerakligini tushunib yetishi zarur.

Ekologiyaning global va lokal muammolari

M.SH.Ahadov

NavDPI

Ekologik muammolar XXI asrning eng dolzarb muammolari bo'lib qoldi. Insoniyat, hayvonot dunyosi va o'simliklarning kundalik hayoti bevosita atrof- muhit bilan o'zaro munosabatiga bog'liq.

Yerdagi barcha tirik mavjudot, birinchi navbatda, odamzod uzluksiz nafas oladi. Insonning eng asosiy ozuqasi havo hisoblanadi. Biz nafas olar ekanmiz, burun va og'zimizdan kirgan havo to'g'ridan-to'g'ri o'pkamiz orqali qonga

qo‘shiladi. Butun tanamizni, ayniqsa, bosh miyamizni oziqlantiradi. Bu jarayon bir necha daqiqa to‘xtab qolgan taqdirda muqarrar halokat yuz beradi.

Bundan tashqari, odamzod va boshqa jonzotlar suv hamda turli xil ozuqa moddalari bilan oziqlanadi. Biz iste‘mol qiladigan meva, poliz ekinlari, sabzavotlar esa yerdan oladigan ozuqa bilan birga havodan ham nafas oladi. O‘simliklarning ozuqasi jonzotlarnikining aksi bo‘lib, ular tirik organizmlarning chiqindi gazlari bo‘lgan karbonat angidrid va boshqalarni iste‘mol qilib, o‘zidan kislorod chiqaradi. Shunday qilib, tabiatda mutanosiblik hosil bo‘ladi.

Lekin atrof-muhitga tarqalayotgan me‘yoridan ortiq zararli chiqindilarning barchasini o‘simliklar o‘zlashtira olmaydi. Ortiqcha zararli moddalar o‘simlik va mevalarda yig‘ilib qoladi hamda ularni iste‘mol qilgan odamlaru butun jonzotlarni zaharlaydi. Natijada, tirik jonzotlar va o‘simliklar o‘rtasida million yillardan beri hukm surib kelayotgan mutanosiblikka putur yetadi.

Taassufki, kundalik hayotda va deyarli har qadamda ekologik muhitning mayda yoki yirik miqyosda qo‘pol buzilayotganiga guvoh bo‘lamiz. Jamiyatimizdagi ko‘pchilik insonlar o‘ta madaniyatli, ozoda va tartibli. Ularning yurish-turishi, yuksak odob-axloqi va madaniyatini ko‘rib faxrlanasan, kishi. Otabobolarimizdan meros yuksak ma‘naviyatning munosib vorislari bo‘lishga hamisha intilib yashaymiz. Biroq guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek, jamiyatimizda «o‘ziga xon, ko‘lankasi maydon» ayrim kimsalar borki, ularning yurish-turishi, qilayotgan ishlarini ko‘rib beixtiyor yoqa ushlaysan. Ko‘cha va maydonlarning ko‘plab joylariga ko‘zni shamg‘alat qilib chiqindi tashlab ketuvchilar, odam gavjum bekatlarda sigaret chekish, pista chaqish, duch kelgan qog‘oz-lattalarni yerga tashlash kabi salbiy illatlarga duch kelamiz.

Ayniqsa, yirik suv havzalariga tashlanayotgan chiqindilarning son-sanog‘i yo‘q. Shunga o‘xshash mayda-chuyda narsalar ekologiyaning qo‘pol buzilishiga sabab bo‘ladi. Hozirgi kundagi eng dolzarb muammo – jamiyatimizning barcha a‘zolarini ekologik madaniyatli qilib tarbiyalashdan iborat. Yurtimizdagi umumiy ekologik muhit ko‘plab ikir-chikirlarning yig‘indisidan iborat. Uni yaxshilash choralarni faqat ekologiya uchun mas‘ul shaxslar emas, balki barcha birgalikda o‘ylashi va maqbul ish tutishi darkor. Axir gap o‘z sog‘lig‘imiz va hayotimiz to‘g‘risida ketmoqda-ku.

Yuqorida tilga olingan salbiy odatlar va omillarni inson o‘z qo‘li bilan bartaraf etishga qodir sanalsa-da, ekologik barqarorlikka muntazam xavf soluvchi ayrim tabiiy ofatlar ham borki, insoniyat ularni hech qachon bartaraf eta olmaydi. Faqatgina chuqur ilmiy tadqiqotlar orqali oldindan xabardor bo‘lish imkoniga ega bo‘ladi, xolos. Shunday tabiiy ofatlardan biri sanaluvchi zilzilani har tomonlama o‘rganib boruvchi seysmologiya ilmining ekologiya bilan bog‘liq ayrim jihatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, keyingi yillarda seysmik xavf-xatarni baholashning yangi yo‘nalishi tez sur‘atlarda rivojlanmoqda. Ya‘ni, birorta joyda zilzila sodir bo‘lishi kutilsa, endi undan ko‘riladigan zararni oldindan hisoblab chiqish imkoni mavjud. Bu jarayonda deyarli barcha omillar: joylarning muhandis-geologik sharoiti, imoratlarning hozirgi holati, yer osti va ustidagi turli kommunikatsiya tizimlarining joylashuvi, aholi zichligi va boshqa ma‘lumotlar hisobga olinadi. Bu ehtimoliy zilzila xavfning oldini olish va zararli oqibatlarini kamaytirish chora-tadbirlarini

ishlab chiqishdan iborat. Faraz qilaylik, aholi zich yashaydigan hududlarning birida magnitudasi 6,5-7,0 ga teng zilzila sodir bo'ldi. Bunday zilzila epitsentrida 12 balli shkala bo'yicha bir necha ming kvadrat kilometr maydonda 7-9 balli yer silkinishini kuzatamiz. Natijada ming-minglab odamlar va hayvonlar vayronalar ostida qolishi, ichimlik suvi, gaz va elektr tizimlari ishdan chiqishi, ko'plab uy va turli inshootlar shikastlanishi yoki butunlay qulab tushishi, ko'chliklar hosil bo'lishi, suv havzalari va to'g'onlar zararlanishi, yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari, gaz va neft quvurlari ishdan chiqishi, portlashlar, qisqa tutashuvlar yuz berishi mumkin. Agar ehtimoliy tabiiy ofatlar haqida o'z vaqtida xabardorlik ta'minlanmasa, bu chinakam ekologik fojialarga yo'l ochib berishi muqarrar.

Ekologik fojia ro'y bermasligi uchun qanday ishlarni amalga oshirish lozim?

Bu masala bilan tabiiy ofatlar bo'yicha maxsus davlat xizmati shug'ullansada, ular haqida qisqacha ma'lumot berib o'tish joiz. Avvalo, zilzila ro'y bergan joy haqida, zilzilaning kuchi, chuqurligi va boshqa parametrlari haqida tezkor hamda aniq ma'lumotga ega bo'lish kerak. Birinchi navbatda qilinadigan ish – zilzila ro'y bergan joyda shtab tashkil qilish va ularni aloqa va boshqa zarur narsalar bilan ta'minlashdan iborat. Zilzilaning zararli oqibatlarini bartaraf etish uchun qutqaruvchilarning maxsus guruhlari jadal sur'atda yetib kelishi hamda qutqaruv va avariylarni bartaraf etish ishlarini boshlab yuborishi lozim. Qutqaruvchilar, shuningdek, yong'inlarni, elektr, gaz va suv tizimidagi avariylarni bartaraf etishi, to'silib qolgan yo'llarni ochishi, avariya holatiga kelgan ko'priklarni tuzatishi, radioaktiv yoki kimyoviy zaharlanishlarni bartaraf etishi lozim. Qutqaruv ishlari davom etgan holda, qurbonlar va nobud bo'lgan turli hayvonlarni iloji boricha dafn etish lozim. Aks holda, ayniqsa, yoz oylari bo'lsa, turli kasalliklar tez tarqalishi mumkin. Keyingi navbatda qilinadigan ishlarga aholini vaqtinchalik yoki doimiy yashash joyi, suv, oziq-ovqat, kiyim-kechak, eng zarur ro'zg'or buyumlari bilan ta'minlash, aloqani tiklash, tartib-intizom o'rnatish, aholini kerakli dori-darmonlar bilan ta'minlash ishlarini yo'lga qo'yish va hokazolar talab etiladi. Shuningdek, odamlar ovqatlanishlari uchun ko'chma yoki doimiy ovqatlanish joylarini tashkil etish zarur.

Xullas, ekologiyaning kundalik hayot, sihat-salomatlik va kelajagimiz bilan bog'liq o'ta dolzarb muammolari juda ko'p. Bu kabi muammolarni oldini olish har birimizning oldimizdagi burchimiz va vazifamiz desa xato bo'lmaydi. Eng avvalo odamlarda ekologik madaniyatini rivojlantirish muhim masala bo'lib qoladi.

Ekologik vaziyatni yaxshilash yo'llari

M.Sh.Ahadov

NavDPI

O'zbekiston ekologiyasini yaxshilash uchun, mamlakatimizdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilash, ekologik tanazzulning oldini olish uchun xalqimiz orasida qadimda ma'lum bo'lgan ekologik madaniyatni tiklashimiz, tarixni yaxshilab o'rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak.

Inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ana shunday ta'sirda yoki munosabatda bo'lishi natijasida XX asr o'rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi.

Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq muammolar ko'z oldimizga keladi. Inson sivilizasiyasining rivojlanishi va uning tabiat bag'riga tobora chuqurroq kirib borish oqibatida ahvol tubdan o'zgardi. Bugungi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapirma ham bo'ladi. Chunki yer yuzidagi o'rmonlar qirgildi, katta – katta hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, dorilar bilan o'g'tlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiat ifloslandi. Bundan tashqari tabiatda toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy muvozanatiga putur yetkazadi.

Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday ekologik muammolarga ba'zi bir misollarni keltirib o'tamiz:

1. "Atmosferaning dimiqishi" hodisasi.
2. "Ozon qatlamining siyraklanishi" hodisasi.
3. "Chuchuk suv" muammosi .
4. "Tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi" muammosi.
5. "Pestisetlardan foydalanish" muammosi.

Yer yuzasining muayan mintaqasi o'ziga xos tabiiy iqlim, ijtimoiy – ekologik, etnogirafik xususiyatlari uni tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqa munosabatlari harakterini belgilab beradi.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston yirik sanoat va agrar mintaqaga bo'lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashinasozlik, energetika, kimyo, oziq – ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko'zda tutulgan. Bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy – ekotizmlarning holatiga muayan darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Respublikada keskin bo'lib turgan ekologik va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar:

1. Yirik hududiy – sanoat majmualari joylashgan rayonlarda ya'ni Angren-Olmaliq Chirchiqlarda, Farg'ona-Marg'ilonda, Navoiy va boshqa rayonlardagi tabiatni muhofaza qilish muammolari. Bu rayonlarda ijtimoiy-ekotizm holati yaxshi emas. Chunki sanoat markazlarida chiqayotgan turli-xil gazlar va chiqindilar atrof-muhitni ekologik holatini buzulishiga olib kelmoqda.
2. Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar.
3. Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestisedlar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanishi ham muammolardan biridir.
4. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish .

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasidagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilar hisoblanadi:

Sut emizuvchi hayvonlar va qushlar kamayib ketdi. Qurigan maydonlar xavfli kasalliklarni tarqatuvchi kemiruvchi bilan to'lib bormoqda. Orol bo'yining sanitar-epidemiologik ahvoli nihoyatda og'irlashmoqda. Agar zudlik bilan tabiatda

vujudga kelayotgan muammolar hal qilinmasa insoniyat va butun mavjudodning hayoti xavf ostida qoladi. Biz tabiatga qarammiz, biz tabiatsiz yashay olmaymiz, shunday ekan biz barchamiz tabiatni asrab avaylashimiz, uning har-bir qarich yerini ko'z qorachig' iday asrashimiz, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishimiz, har-bir tomchi suvni tejab ishlatishimiz, tabiat haqida doimo g'amxo'rlik qilishimiz lozim.

Talabalarni atrof muhit ta'sirida ahloqiy tarbiyalashning mazmun va mohiyati

NavDPI o'qituvchi: M.N. Ataqulova

Talaba: Qayumova Mohinur

Tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida Respublika hukumati xalq ta'limi sohasida o'rtaga qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Hozirgi sharoitda ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga etishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish, xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqloli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'lib, shu asosda uzluksiz pedagogik ta'lim g'oyasi amalga oshirilmoqda.

Ta'limning barcha bo'g'inlarida mutaxassislarni tayyorlash bu sohadagi o'quv tarbiya jarayoni mazmunini bugungi kun voqeligiga yaqinlashtirishga yo'naltirilgan. Shunga bog'liq holda pedagogika kollejlari va oliy o'quv yurtlari oldida faqat savodli, yuqori malakali mutaxassislarnigina emas, balki ongli hamda demokratik qayta qurishlarda faol ishtirok eta oladigan fuqarolarni tarbiyalashdan ham iborat. Buni bo'lajak o'qituvchilarning ahloqiy-ekologik tarbiyasiga tatbiq etadigan bo'lsak, u milliy-tarixiy asoslarga, o'zbek xalqining ahloqiy-ekologik an'analariga tayanishi, shuningdek, Respublikaning hozirgi zamon ekologik muammolari bilan aloqador bo'lishi lozimligini anglatadi.

O'rta Osiyo faylasuflari jamiyatga geografik muhitning ta'siri masalasiga katta ahamiyat berishgan. Bunda, ayniqsa, havo, suv, tuproq, shuningdek, iqlim, oziq-ovqat, yashash joyining inson salomatligiga ta'siri alohida e'tiborga olinadi. U bug', tutun va boshqa narsalar bilan ifloslangan atmosfera havosining inson salomatligiga salbiy ta'sirini tahlil qiladi. Suvni tozalashga oid tavsiyalar beradi. Kasalliklarning paydo bo'lishi va uni davolashda hayotiy sharoit hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko'rsatib beradi. «Tib qonunlari»ning maxsus bobi inson salomatligini saqlashga bag'ishlangan. Asarda shu narsa juda ochiq ko'rinadiki, davlatning mavjudligi, jamiyat sog'lig'ini saqlab qolish mahorati bilan chambarchas bog'liqdir.

Xalqlarning marosimiy faoliyati sotsiumning murakkab o'zaro aloqalaridan iborat bo'lib, u insoniyatning tabiat bilan o'zaro hamkorligi hamda o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan jarayondir. Bu jarayon faqat yopiq ijtimoiy tizimdagina emas, yaxlitligicha butun insoniyat orasida ham sodir bo'ladi. Bunda u insoniy qadriyatlar darajasida rivojlanadi hamda jahon madaniyatiga qo'shilib

ketadi. Ifloslik va kasallik, nifoq va g'alayonlar, yovuzlik va zulmat, ya'ni inson va uni o'rab turgan muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi har qanday hodisaga qarshi kurashish zardushtiylar nuqtai nazaricha yovuzlik kuchlariga qarshi turishni anglatadi. Ushbu holatda nihoyatda katta ahloqiy ma'no bor. Zero, unda har qanday odamning qo'lidan keladigan odatdagi majburiyatlarni bajarish vositasida yovuzlik bilan kurashga chaqiriq mavjud. {2}

O'rta Osiyo xalqlarining og'zaki ijod namunalari, tarixiy afsona va rivoyatlarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, xalq ekologik madaniyatiga oid ayrim urf – odat, rasm-rusum, an'analar hamda ularning ming yillar davomida bizning kunlarimizgacha saqlanib qolishi dinamik izchillika ega ekanligidan dalolat beradi.

Avlodlar tajribasiga tayanish vorisiylik silsilasida, xalq ekologik madaniyatini abadiylashtirishda alohida ahamiyatga ega. Bu umumiy xususiyat O'rta Osiyo sharoitida O'zbekiston misolida nihoyatda yorqin namoyon bo'ladi. {3}

O'tmish ahloqiy-ekologik o'g'itlarining unutilishi, tabiat zahiralari mulohaza qilmasdan isrofgarchilik bilan muosabatda bo'lish O'zbekistonda ham ko'zga tashlangan edi. Buning oqibatida ko'plab ekologik muammolar yuzaga keldi. SHuning uchun ahloqiy-ekologik tarbiyadagi eng muhim yo'nalish, Respublika hududidagi hozirgi zamon ekologiyasini ilmiy asoslash va uni maqsadga muvofiq tarzda pedagogik jihatdan o'rganish, talabalarda ularga nisbatan ahloqiy-qadriyatli munosabatni shakllantirish, ularni bu kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirish va targ'ib etishdan iboratdir. Mavjud pedagogik jarayon yurtboshimiz tomonidan buhronli jarayon va uning sabablarini tasvirlab berish, baholash, ekologik muvozanat buzilishining bartaraf etilishi uchun kurash yo'llarining ko'rsatilgani qabul qilingan davlat xujjatlari bilan tanishtirishni ham o'z ichiga olmog'i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tursunov X. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. T. "O'zbekiston" 1997 y.
2. ZikiryaevA., TursunovX. Ekologiya va barkamol avlod tarbiyasi. Elektron darslik. 2007.
3. ZiyamuhamedovB.. Ekologiya va madaniyat.-T.: "Mexnat".1997.

Табийй яйловлар биохилма-хиллигини асраш ва ундан оқилона фойдаланиш

Мавланов.Х. Қодирова.С.

Жиззах Давлат Педагогика Институту.

Республикамиз табиий яйловларнинг биологик хилма-хиллигини сақлаш ва улардан оқилона фойдаланиш шу куннинг долзарб масалаларидан биридир Юртимиз қишлоқ хўжалигининг асосий тармоғларидан бирини чўл чорвачилиги ташкил этади . Ўзбекистон республикасининг 70 фоиздан ортиқ майдонининг чўллардан ташкил топганлиги бунинг далилидир.(Н.Ботиров 2018)

Биохилма-хиллик халқнинг сихат-саломатлигининг иқтисодий юксалганлигининг эстетик, этик, маданий фаровонлигининг ва экологик барқарорлигининг муҳим манбаи ҳисобланади. Аммо бутун дунёда биохилма- хиллик камайиб бораётган чунончи ноёб популяциялар, турлар ва экологик тизимларнинг йўқ бўлиб кетаётганилиги бизга ҳам таҳдид солмоқда.

Инқирозга учраган чўл ҳудуди яйловларини яхшилаш мақсадида Нурота,Фориш ва Ғаллаорол туманларида бу борада олиб борган ишларимиз яхши самара берди.

Яйловлар ҳосилдорлигини ошириш мақсадида экиб синаб кўрилган ўсимликлардан қуйидагилари:

Изен-*Kochia prostrate*

Кейрук-*Salsola orientalis*

Чогон-*Halothamnus subaphyllus*

Қатрон-*Crambe cochii*

Янтоқ-*Alhagi pseudalhagi*

Шувоқ-*Artemisia turanica*

Саксовул-*Haloxylon aphyllum*

Терескен –*Ceratoides eversmanniana*

Серҳосиллиги, кўп йиллиги, озуқабоблиги, қурғоқчиликка чидамлиги билан ўзининг самарали эканлигини кўрсатди.

Бу ўсимликлардан яратилган суний яйлов ва пичанзорлардан 15-20 йил мобайнида кўшимча ҳаражатсиз фойдаланиш мумкин.Бу усул билан инқирозга учраган кам ҳосилли яйловлар ҳосилдорлигини ўртача 10-20 баробар ошириш мумкин.

Шахсан давлатимиз раҳбарининг 2017 йил 16 мартдаги “Чорвачиликда иқтисодий ислоҳатларни чуқурлаштиришга доир кўшимча чора тадбирлар тўғрисида” ва 2018 йил 14 мартдаги “Қорақўлчилик соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари асосида чорвачиликда хусусий мулкнинг устувор аҳамияти ва ўрнини таъминлаш, яйловлардан самарали фойдаланиш, унинг биохилма-хиллигини сақлаш, чўл яйлов озуқабоб ўсимликлар уруғчилигини ташкил этиш,чорвачилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмларини кўпайтириш ва рақобатбардошлигини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Шундай қилиб Президентимиз қарорларида яйловлардан оқилона, рационал фойдаланиш тизимига алоҳида эътибор қаратилган.

Чўл табиатининг биологик хилма-хиллигини асраш уни яхшилаш ва келажакда ем- хашак ўсимликларининг мустаҳкам базасини яратиш ва чорва молларини озуқага бўлган талабини қондиришнинг икки йўналиш асосида амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Маҳаллий флорага мансуб бўлган ем-хашак ўсимликлардан оқилона фойдаланиш ва муҳофаза қилиш заҳираларни аниқлаш, камайиб кетаётган турларини кўпайтириш ва маданийлаштириш.

Ўзга ҳудуд флорасига мансуб бўлган ем-хашак ўсимликларни чўл ва ярим чўл шароитига интродукция қилиш, уларнинг биоэкологик

хусусиятларини ўрганиш кимёвий таркибини аниқлаш касаллик ва зараркунандаларга бўлган чидамлилигини ўрганиш, турли минтақаларда(тупрок шароитларида) етиштириш усулларини (агротехникасини)ишлаб чиқиш селекция ва уруғчилигини яратиш, кенг майдонларда плантацияларни барпо этиш керак. Бу йўналишларнинг асосини интродукция ташкил этади.

Катта майдонларда зўриктириб мол боқиш натижасида яйловларнинг инкирозга учраши кучайиб бормоқда. Шу сабаб табиий яйловлар туёқ сони йил сайин кўпайиб бораётган чорва молларини етарли ем-хашак билан таъминлай олмайди. Бу муаммони олдини олишнинг бирдан-бир йўли бундай худудларда қурғоқчиликка чидамли озуқабоп, серҳосил ва кўп йиллик бўлган ўсимликлардан сунний (экма) пичанзор ва яйловлар ҳисобланади.

Чўл табиатининг биологик хилма-хилигини асраш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва уни келажак авлодларга етказиб беришини муҳим вазифаларимиз ва бурчимиз деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абулқосимов.Х.П ва бошқалар “Проблемы опустынивания в Центральной Азии и её социально-экологические аспекты// Тез.докл.Международного семинара НАТО по перспективным исследованиям.-Самарканд 2003
2. Н.Ботиров “Халқ сўзи” 2018 й 27 апрель.

“Kislotali yomg’ir”lar va ularning atrof – muhitga ko’rsatadigan salbiy ta’sirlari.

Abdurasulova Sarvinoz Murodullayevna

NavDPI, Kimyo o’qitish metodikasi ta’lim yo’nalishi I bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Karimova Zarifa Umarovna

NavDPI, Kimyo o’qitish metodikasi ta’lim yo’nalishi o’qituvchisi.

Yaqin o'tmishda ham biz bahor momaqaldirig'idan keyin shovullab quyadigan yomg'ir, yoz yomg'iri yoki qishdagi laylakqordan quvonar edik. Ular har bir faslning o'z zavqi borligini bildirar edi. Endi esa ular ehtiyot bo'lishimizni va uydан bosh kiyimsiz va soyabonsiz chiqmasligimiz haqida ogohlantiradi!

Atmosferaga nima bo'ldi ekan, nima uchun oddiy hodisa bo'lgan yog'ingarchilikdan biz qo'rqib qoldik?

Endilikda kundalik hayotimizda foydalanadigan soyobonlarimiz bizni yomg'irda ivishdan emas, balki “Kislotali yomg'ir”dan himoyalash uchun xizmat qiladigan vositaga aylanib bormoqda.

Aslida hamma yomg'irlar ham ozgina kislotali bo'ladi. Ammo hozirgi kunda sanoati rivojlangan mintaqalar, masalan, Yevropa va Shimoliy Amerikaning sanoat tarmoqlaridan ajraladigan havoni ifloslantiruvchi kimyoviy moddalar mavjudligi bois kislota konsentratsiyalashuvi ortib ketadi va shu tariqa “Kislotali yomg'irlar” paydo bo'ladi.Sanoat korxonalarining chiqindilarida mavjud kulrang angidrid va azot oksidi,avtomobillardan chiqayotgan zaharli gazlar ma'lum bir sharoitda kislotaга aylanadi va yerga turli yog'ingarchilik mahali qaytib tushadi .

Xo'sh, o'zimiz sababchisiga aylanib borayotgan "Kislotali yomg'irlar" atrof-muhit va inson hayotiga qanday salbiy ta'sir ko'rsatadi?

"Kislotali yomg'irlar"ning atrof –muhitga ko'rsatadigan salbiy ta'siri haqida to'xtaladigan bo'lsak, bunday yomg'irlar sababli o'rmonlarning yo'q bo'lib ketishi, hosilning nobud bo'lishi, yerning unumdorligi pasayib ketishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari "Kislotali yomg'irlar" sababli binolar, madaniy yodgorliklar, quvurlar emirilmoqda shuningdek avtomobillarni ishdan chiqishiga sababchi bo'lmoqda.

"Kislotali yomg'irlar" sababli suv tubida organik va anorganik moddalar to'planib, ulardan zaharli metallar alyuminiy, simob, qo'rg'oshin, kadmiy kabi metallar ajralib chiqib, inson salomatligi uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Ildam qadamlar bilan rivojlanib borayotgan sanoat yildan-yilga ko'proq yoqilg'i yoqishni talab qilmoqda. Yomg'ir kunlari soyabonlardan foydalanishning sababi ham shunda, yomg'irdan ivib ketishda emas.

Biz avtomobil dvigatellari va qozonxonalarda shunchalik ko'p yoqilg'i yoqib yuboramizki, havoni azot oksidlari va oltingugurt dioksidlari bilan ifloslantirib yuborganmiz. Oqibatda yog'ayotgan yomg'ir suvi taxir bo'lib qoladi. O'shandagina biz "kislotali" yomg'irlarning salbiy ta'siri haqida so'zlay boshladik.

Kislotali yomg'irlar o'rmonlarning yo'q bo'lib ketishi, hosilning nobud bo'lishi, yerning unumdorligi pasayib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, kislotali yomg'irlar binolar, madaniy yodgorliklar, quvurlarni emirmoqda, avtomobillarni ishdan chiqarmoqda, zaharli metallar yerning suv sızib o'tadigan qatlamlariga kirib borishi mumkin.

Kislotali yomg'irlar yog'ishining oqibatini AQSH, Germaniya, Chexiya, Shveysariya, Avstraliya va sanoati rivojlangan boshqa ko'plab mamlakatlarda kuzatish mumkin.

Kislotali yomg'irlar ko'l, daryo va boshqa suv havzalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ulardagi taxirlik darajasi ko'tarilib, suvdagi o'simlik va hayvonlar nobud bo'ladi. Suv tubida organik moddalarni ko'paytib, ulardan zaharli metallar - alyumin, simob, qo'rg'oshin, kadmiy ajralib chiqadi. Ushbu zaharli metallar suvga o'tib, inson salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diradi.

Kislotali yomg'irlar nafaqat suvning o'simlik va hayvonot olami uchun zarar yetkazadi, balki ular yerdagi o'simliklarni ham nobud qiladi. Vaziyatni yaxshilashning yagona bir yo'li bu barcha yoqilg'ilardan foydalanuvchi ob'yektlarning chiqindilarini kamaytirishdir.

Xalqaro olimlar guruhi Yerning o'z tarixidagi eng kuchli muzlash davrlaridan biri – proterozoydan chiqishi – global kislotali yomg'irlar va bo'ronlar bilan kuzatilganini ma'lum qildi. Proceedings of the National Academy of Sciences jurnalida shu mavzuga bag'ishlangan tadqiqot chop etildi.

Mutaxassislar Xitoyning janubi-sharqiy Xunan provinsiyasidagi muz qoyalardan topilgan magniy izotoplarini tahlil qilib, ana shunday xulosaga kelishdi. Olimlar tomonidan o'rganilgan namunalar taxminan 600 million yil ilgari ro'y bergan kuchli eroziya izlariga ega bo'lgan.

Manbaga ko'ra, tog' jinslari degradatsiyasi suv, karbonat angidrid va kislorod ta'siri ostida ro'y beruvchi intensiv kimyoviy jarayon natijasida yuzaga kelgan.

Mutaxassislarning baholashicha, sayyoradagi kislotali yomg'irlar davri bir necha yuz yil davom etgan va buning natijasida muzlash davri poyoniga yetgan. Olimlarning so'zlariga ko'ra, tadqiqot sayyoradagi global sovish qanday qilib global isishga aylanganini izohlash imkonini beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bunday og'ir vaziyatni yaxshilashni birdan biri yo'li bu- barcha yoqilg'ildan foydalanuvchi obyektlarning chiqindilarini kamaytirish, zaharli chiqindilarsiz ishlab chiqarish tizimini faollashtirish bizning asosiy maqsadimiz bo'lishi kerak. Agar bu muommoga befarqlik bilan yondashadigan bo'lsak, yechimi topilmagan, insoniyat hayoti uchun globall muam-moga aylanib bo'lgan muammolar qatoridan o'rin olishi tabiiy.

Botanika darslarida o'quvchilarning ekologik tarbiyasi masalalari

Ravshanova Muhabbat Xamrokulovna

Baxramova Fotima

Navoiy davlat pedagogika instituti

Bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan botanika fani o'quvchilarga faqat o'simliklarning tashqi va ichki tuzilishi, sistematikasi, ularda boradigan fiziologik jarayonlar to'g'risida ta'lim berib qolmasdan, o'simliklarning tabiatda tutgan o'rni, tarqalishi, inson hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda ekologik tarbiya berishni nazarda tutadi.

Ekologik ta'lim va tarbiya jarayonlarini bir – biridan ajratib bo'lmaydi. Ular doim o'zaro aloqada rivojlanadi. Shaxsning tabiatga bo'lgan munosabati oila va maktabda beriladigan ekologik tarbiya orqali shakllanadi. Insonning tabiatga ta'siri boshqa organizmlar (o'simlik va hayvonlar) ta'siriga nisbatan faol va xarakteri jihatidan farq qiladi. Inson onggi bilan o'z ehtiyojlari yo'lida tabiatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan insonning tabiatga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish va tarbiyalash dolzarb masalalardan biri sanaladi.

O'simliklar olamida sodir bo'ladigan tabiiy jarayonlar (xazonrezgilik, fotosintez, suv bug'latish, nafas olish, tinim davri va boshqa) ni tushuntirish barobarida ularning ijobiy taraflarini ham yoritib, o'quvchilarning ekologik tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Masalan, kuzda o'simliklarda ro'y beradigan jarayonlardan biri bo'lgan xazonrezgilik to'g'risida ma'lumot berganda barglarni yoqmaslik aksincha ularni tuproqqa ko'mishning ahamiyatini tushuntirib o'tish kerak. Barglar yoqilganda atmosfera havosi turli zararli gazlar bilan ifloslanadi, bu esa sog'liq uchun nihoyatda zararli hisoblanadi. To'kilgan barglar ko'milganda esa tuproqni tabiiy o'g'it bilan boyitib, uning unumdorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Quyidagi jadvalda 5 – sinf botanika fanida bir qancha mavzularda ekologik tarbiyani shakllantirish nazarda tutiladi.

t/r	Mavzular	Ekologik tarbiyani shakllantirish mazmuni
1	Kuz faslida o'simliklar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlar	Xazonlarni yoqmaslik, chorva mollari uchun ozuqa sifatida (boshqa yem-xashaklarga qo'shib) berish va yerga ko'mib (chiritib) o'g'it tayyorlashni uqtirish;

2	Ildizning tuproqdan suv va mineral moddalarni shimishi	Suvning ahamiyatini, ekinlarni sug`orishda suvning ortiqcha isrof bo`lishiga yo`l qo`ymaslik to`g`risida tushuncha berish;
3	O`g`itlar	Tuproqqa mineral o`g`itlar me'yoridan ortiqcha solinsa, uning ekologik holati yomonlashishini, tuproqdagi tirik mavjudotlarga salbiy ta'sir ko`rsatishini va uning tarkibini buzilishiga olib kelishini va bunday sharoitda yetishtirilgan hosil (qovun, tarvuz, kartoshka va boshqalar) tez buziladi, uni iste'mol qilgan odam zaharlanishini tushuntirish kerak.
4	Poyaning bo`yiga va eniga o`shishi	<i>Poyaning bo`yiga va eniga o`shishini tushuntirish orqali o`simlik resurslarini muhofaza qilishga chaqirish mumkin.</i>
5	Poyada oziq moddalarning harakatlanishi	Poyada oziq moddalarning harakatlanishi tog`risida bilim berish barobarida o`simliklarning tabiatda "ozuqa zanjiri" ning ajralmas qismi ekanligi tushuntiriladi.
6	Barglarda organik moddalarning hosil bo`lishi	O`simliklarga yorug`lik, harorat, suv, mineral tuzlar va karbonat angidrid gazi qancha yetarli bo`lsa, organik moddalar shuncha ko`p hosil bo`ladi. Ularda organik moddalar qancha ko`p bo`lsa, hosili shuncha mo`l bo`ladi. Shularni tushuntirgan holda o`simlik resurslarini muhofaza qilishga undash mumkin.
7	O`simliklarning vegetativ ko`payishi	O`simliklarning vegetativ ko`payishini tushuntirish orqali tabiatda yo`qolib borayotgan o`simliklarni qayta tiklash, sun`iy o`rmonzorlar parpo etishning sayyoramiz ekologik holatiga ijobiy ta`sir ko`rsatishi tushuntiriladi.

Botanika darslarida o`quvchilarning tarbiyasiga e`tiborli bo`lish, ayniqsa ekologik tarbiyani darslarda muntazam singdirib borish, ularning kelgusida Vatanimiz uchun sodiq insonlar bo`lib voyaga yetishida, fan sirlarini mukammal o`rganib yurtimiz taraqqiyotiga va atrof muhit musaffoligiga o`z hissasini qo`shadigan kadrlar bo`lishida katta ahamiyatga ega. Botanika fani orqali shakllanib boriladiga ekologik tarbiya kelgusida o`quvchilarning zoologiya, odam va uning salomatligi, biologiya fanlarini ham chuqur o`rganishiga zamin tayyorlaydi.

O`zbekistonda havo qatlamining buzilishi va uning oqibatlari.

NavDPI "BO`M" kafedrası o`qituvchisi: M.N.Ataqulova

3-kurs talabasi K.B.Aliyeva

Mustaqil yurtimiz iqtisodiy rivojlangan jannatmakon o`lka bo`lib qolishi uchun sog`lom ekologik jihatdan toza atrof – muhitni yaratish, odamlar salomatligini asrash muhimdir. Insonning butun hayoti – tug`lishi, yeb – ichishi, o`sib – unishi, mehnat qilishi – barcha barchasi tabiat bilan payvanddir.

Atmosfera havosi tozaligi muammosi yangilik emas. Bu muammo sanoat va transportning vujudga kelishi bilan vujudga keldi. Deyarli ikki asr mobaynida havoning ifloslanishi mahalliy xarakterga ega bo`ldi. Zavod, fabrika va parovoz trubalaridan chiqayotgan tutun va g`uborlar katta borliqda osonlikcha tarqalib ketardi. Ammo XX asrga kelib, sanoat va transportning tez o`shishi havoga chiqadigan toksik chiqindilar hajmi oshishiga olib keldiki, endi bu chiqindilar atmosferada atrof-muhitga va insonga zarar etkazmaydigan miqdor darajasida yoyilib ketolmay qoldi.

Bundan tashqari, yer yuzasidan uchib chiqqan turli – tuman chang, metal zarralari havoga to`planib, maxsus inversiya qatlamini hosil qiladi. U esa quyoshdan kelayotgan yorug`lik oqimini yer sirtiga o`tishiga to`squinlik qiladi. Oqibatda yerda iqlim o`zgaradi. Tirik mavjudotning hayoti havf ostida qoladi. Hozirgi kunda atmosferani muhofaza qilish masalasi jahon xalqlarini tashvishga solib kelmoqda. Demak, har bir madaniyatli kishi atmosfera va uning ahamiyati haqida ma`lum darajada ma`lumotga ega bo`lmog`i lozim.

Respublikamiz iqlimi quruq zonada joylashgan, uning hududida atmosferaga yirik tabiiy aerozolemissiyasi manbalari bo`lmish, tez-tez changli to`fonlar bo`ladigan Qoraqum va Qizilqum kabi hamda Orol dengizining qurigan qismi hisoblangan Orolbo`yi zonasi mavjuddir. Ushbu manbalarning asosiy qattiq muallaq zarralari-tuproq va mineral zarralardir. Mamlakatimiz havosining asosiy salbiy ifloslovchilari oltingugurt oksidi, azod, uglerod, tarkibi va kelib chiqishi turlicha bo`lgan qattiq muallaq zarralar hisoblanadi. O`zbekistonda atmosferaga 150 turdagi ifloslantiruvchi moddalar chiqariladi. Qolganlarida ularning o`rnatilishi yoki yangisi bilan almashtirilishi talab etiladi.

Respublikamizning sanoat korxonalari ko`p rivojlangan shaharlariga Olmaliq, Bekobod, Chirchiq, Toshkent, Samarqand, Farg`ona, Navoiy kabi shaharlar kiradi. Yuqorida aytilgan muammolar ushbu shaharlarda ayniqsa ko`p uchraydi. Ushbu shaharlarda bronxial astma, upka kasalliklari, surunkali bronxit, teri kasalliklari, allergik kasalliklar va boshqalar ko`p kuzatilmoqda. {1}

Xalqaro tashkilotlarning izlanishlari natijasi shuni ko`rsatadiki, yirik shaharlardagi bolalarning sochi, tirnoqlari hamda qonida qo`rg`oshin, benzapiren moddalari qishloqlarda yashaydigan bolalarga qaraganda ancha ko`p ekan. Ayollardagi anemiya (kamqonlik), erkaklardagi yurak qon – tomir kasalliklarining ortib borayotganligi ham tashvishli holdir. bunday muammolar faqatgina ekologik muammolar bo`libgina qolmay, balki ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammo hamdir. Bu muammoni Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo`mitasi, Sog`liqni

saqlash vazirligi, mutasaddi tashkilotlar rahbarligi, hokimliklar va jamoatchilik faol qatnashib hal qilishi mumkin. {2}

Mamlakatimizda ekologik va mehnat muhofazasiga e'tibor ortib bormoqda. Demak, biz ekologik va mehnat madaniyati sari boryapmiz. Shu yo`lda mustahkam bo`lsak, hayotimiz va el salomatligi tobora yaxshilanib, iqtisodiyotimizning esa samaradorligi oshib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Sh.Otaboyev., Z.Malikov., Sh. Mamadaliyev., M.Mirsovurov
“Ekologiya” Toshkent. 2011 yil
2. E.O.Turdiqulov “Global ekologik muammolar va ularni hal etish srategiyasi” Navoiy 2015 yil

Atmosfera va ozon qatlami muhofazasiga doir mulohazalar

G.D.Shamsidinova

Navoiy davlat pedagogika instituti

Atmosfera barcha tirik organizmlarning nafas olishi uchun asosiy manba hisoblanib, uning muhofazasi: zaharli gaz, chang, qattiq zarrachalar bilan ifloslanishini kamaytirish borasida turli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Atmosfera havosini muhofaza qilish, yer yuzidagi tirik jonzotlarni turli xil kasalliklar, noxush holatlardan asrash, uning ifloslanishi, hayvon, qush va hashoratlarni nobud bo`lishiga sabab bo`lishi, havodagi chang zarralari inson organizmiga noxush ta`sir qilishidan darak beradi. Changlarning asorati, ular tarkibidagi kimyoviy moddalarning biologik faolligi, tabiati, fizik jihatiga bog`liqdir. Havodagi chang tarkibida qo`rg`oshin, kadmiy, ftor aerezollari organizmga tushub, surunkali kasalliklarni paydo qilishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi hududida juda yirik sanoat korxonalari joylashganligi, ishlab chiqarish jarayonida ortiqcha gazlarni atrof muhitga chiqarilishi, mazkur hududda ekologik muvozanatni buzilishiga olib keladi. Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo`mitasi tomonidan mazkur hududda chiqindilarni nisbatan zararsiz holatga o`tkazish yuzasidan ko`plab ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi iqtisodiy imkoniyatlar ochayotgan davr, barcha insonlarning butun umri davomida, toza atmosfera havosidan nafas olishi, qulay atrof- muhit sharoitida yashashi uchun haqli ekanligi, inson huquqlari deklaratsiyasida aniq bayon qilingan.

Global ekologik muammolar: oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligi, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, ichimlik suvining keskin kamayishi, yoqilg`ilarning yonishi, o`rmonlarning kesilishi, okeanlarning neft mahsulotlari va pestisidlar bilan ifloslanishi – atmosferada kislorodning kamayishiga olib keladi.

Ozon (O₃) kislorodning allotropik shakl o`zgarishi bo`lib, atmosferada hajm jihatidan 2.10⁻⁸ % ni tashkil qiladi. Yil fasllari, joyning balandligi va boshqa sharoitlarga qarab, ozon miqdori turli joylarda turlicha bo`ladi. Ozonosferada

Сравнительно недавно появились данные по загрязнению атмосферы над территорией России в сравнении с глобальными выбросами и отдельными западноевропейскими странами (Данилов-Данильян В.И. и др., 1994). Так, в 1990 году в мире в атмосферу выбрасывалось более 400 млн. тонн четырех главных загрязнителей (табл. 2).

Таблица 2

**Выбросы в атмосферу главных загрязнителей в мире
и в России**

Вещества, млн тонн	Диоксид серы	Оксиды азота	Оксиды углерода	Твердые частицы	Всего
Глобальный выброс	99	68	177	57	401
Россия (только стационарные источники)	9,2	3	7,6	6,4	26,2
Россия (с учетом всех источников), %	12	5,8	5,6	12,2	13,2

Как видно из таблицы, Россия не является основным поставщиком этих веществ в атмосферу. По сравнению с другими странами ее вклад составляет: по диоксиду серы - 12% (США - 21%), оксидам азота - около 6% (США - 20%) и т. д.

В России составлен ранжированный перечень городов (на 1991 г.) по количеству выбросов загрязняющих веществ в атмосферу от стационарных

источников. Список возглавляет Норильск, где ежегодно промышленные предприятия выбрасывают в атмосферу около 2,5 млн. тонн вредных веществ, что составляет 8% всех выбросов в России. Далее закономерно следуют наиболее крупные промышленные центры (Магнитогорск, Череповец, Нижний Тагил и т.д.). Одиннадцатое место по выбросам занимает Москва (около 800 тыс. тонн). Однако в последние годы во многих городах России несколько улучшились экологические показатели, в основном за счет спада производства и простоя предприятий. Контроль за загрязнением атмосферы ведется в 334 городах и охватывает все города с населением более 100 тыс. человек и с крупными промышленными предприятиями.

Водные ресурсы в нижнем течении реки Амударья

Асанова С.- Студентка 3-курса Каракалпакского государственного университета

т.и.к. Д.К.Жумамуратов, асс.Г.К.Абдиганиева

Крупнейшая река Средней Азии - Амударья образуется в результате слияния рек Пейдж и Вахш, которые дают основную (82-83%) часть объёма её годового стока. Малочисленные притоки этих рек, формирующихся в горах Памира, имеют ледниковые или снеговые питания. Это обуславливает склонность, ледниково-снеговые типы питания Амударьи.

Обмен осадков выпадающих зимой пределах водостроенной площади бассейна Амударьи отмечается многоводность реки в период таяния снега и ледников. При этом смешанные ледниково-снеговые питания Амударьи обуславливает наличие двух пиков: весеннего, образующим от таяния сезонного снега на водосборах Кундуздарья, Кафринган, Сурхандарья, Кызулсу и Янез, в который приходит в месяцах апрель-май и летнего от таяния вечных снегов и ледников верховьях Вахша, Пейджа и их протоков, проходящего в июнь-августе месяцев.

Гидрограф пиков характеризуется многовершинностью с резко выраженными пиками число которых может доходить до 11-12 и более.

Меженный период на Амударье длится с октября до марта и апреля, когда начинается интенсивное таяние снега на нижнем ярусе гор. Минимальный расход воды между ними наблюдается в период с декабря по март месяцы.

После провозглашения независимости Республики река Амударья считалась трансграничной независимых государств Таджикистан, Туркменистан и Узбекистаном и верхних гидропосты определяющих более точный прогноз водности реки находилось в Таджикистане, что затрудняет определения водности в целом бассейна реки Амударьи и особенно в нижнем ее течении.[1]

Нижняя часть реки Амударьи начинается от Туямуюнского водохранилища до Аральского моря, которые охватывают около 1 млн.га орошаемых земель, где проживает 4,5 млн. человек.

Главными водопотребителями являются Ташаузская область Туркменистана, Хорезмская область и Каракалпакстан.

Основной отраслью является сельское хозяйство, которые составляют 70% ВВП, в основном занимаются хлопководством, зерноводством, рисоводством, животноводством и рыбоводством. Здесь за последнее 20 лет наблюдалось частичное повторение маловодных год, что на прямую связано с экономическим развитием региона.

Например 1995, 1997, 2000, 2001, 2007, 2008 и 2010 годы наблюдались маловодье годы на низовьях реки Амударьи.

Как показывает многолетняя практика в управлении водными ресурсами, главное - водохозяйственные проблемы. Река Амударья сосредоточен в низовьях, которые страдают от острой нехватки воды в засушливые годы. Несмотря на предпринимаемые усилия по распределению водных ресурсов, между водопользователями даже в рамках одного государства на всегда удается избежать диспропорцию водопотребления между средним и нижнем течениях реки. Особенно тяжелым участкам реки в управлении водными ресурсами являются нижнее течения реки Амударьи.[2]

Необходимо отметить, что в условиях жесткого дефицита водных ресурсов, государств бассейна с вниманием следует за соседями, кто сколько получит воды. Для того, что бы выдержать равномерность регулировался водных ресурсов в таких условиях необходимо переходить на пропорциональное водоотделение, исходя из располагаемых водных ресурсов.

В целях эффективного распределения водных ресурсов, снятие ненужной напряженности в вопросе водоотделения повышение доверья между водопотребителями реки, руководителей водного хозяйства Туркменистана и Узбекистана исходя из необходимости оптимального управления стоком реки и оперативного решения вопросов распределения воды в нижнем течении реки Амударьи 21 мая 2007 года в городе Ургенче приняли согласование о совместном использовании водных ресурсов Туркменистана и Республики Узбекистан в низовьях реки Амударьи. Например: по состоянию на 1.01.2012 года было всего проведено 64 заседания совместной комиссии по вододелению в низовьях реки, с участием руководителей п/о «Дошогузсувхожалык» (Туркменистан) НАБУИС (Каракалпакстан и Хорезм) БВО Амударья и Уз ТМГУ. На этих совещаниях разрабатывались режим работы ТМГУ и водные ресурсы распределялись согласно достигнутой договоренности. Такой подход к распределению водных ресурсов в низовьях реки устраивают все стороны. Тем не менее динамика изменения водных ресурсов реки Амударьи за последние 11 лет (2000-2011 годы) показывают, что маловодные годы водообеспеченность в нижнем течении реки 2000-2001г. 51,4%, 2007-2008 г. 55%, 2009-2011 г. 47,7% от установленного лимита, а в среднем, верхнем течении маловодные годы составили 93% , 88,4%, и 85% соответственно.[3]

Этот процесс ущемляет права водопользователя низовьях Амударьи и особенно в Республике Каракалпакстан.

Засуха принесла огромные убытки сельскому хозяйству республики, которые являются одним из основных источников её национального дохода. Резко сократились площади орошаемых земель. Из-за недостаточного проведения промывных поливов увеличилась засоленность орошаемых земель.

Площадь земель, подвергнутых сильному и очень сильному засолению за 1999-2002 гг. увеличилась с 42,7 до 64,5 тыс. га. Вместе с тем, площадь слабозасоленных земель уменьшилась с 248 до 169,7 тыс. га. Результатом увеличения площади засоленных земель стало сокращение производства сельскохозяйственной продукции.

Литература

1. Байманов К.И., Камалов Т.К. Потери воды в каналах и их учет. - Нукус. «Каракалпакстан», 1994.
2. Курбанбаев Е., Артыков О., Курбанбаев Р. Аральское море и дохозяйственная политика в Республиках Центральной Азии. – Нукус. «Каракалпакстан», 2011.
3. Рахимов Ш., Бегимов И., Жумамуратов Д. - Совершенствование водораспределения в крупных магистральных каналах низовья реки Амударья, Доклады Академии Наук Республики Узбекистан. – Ташкент, 2008. – №3 – С.59 – 61

Inson tabiatga bog'liq bo'lganidek, tabiat ham insonga chambarchas bog'liq

Axmadova O. – Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs talabasi

Abdiganieva G. - QDU o'qituvchi

Yurtimizda keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Osmono'par binolar, ta'lim dargohlari, namunaviy loyihalar asosidagi turarjoylar, istirohat bog'lari qurilmoqda. Bu kabi bunyotkorlik ishlari yurtimiz chiroyiga chiroy qo'shmoqda.

Ammo... Ba'zi hududlarda yo'l yoqasi, ariqlarda tog'dek bo'lib to'planib turgan chiqindilarga to'lganini ko'rib xafa bo'lasan. Ariqlardagi suvlar iflosliklarga to'lgan. So'nggi yillarda respublikada vujudga kelgan ekologik vaziyatning tahlili shuni ko'rsatadiki, chiqindilar atrof tabiatning xafli ifloslanishiga va aholi salomatligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

2004-yil "O'zgidromet" tomonidan maishiy chiqindixonalarda hosil bo'layotgan gazlar o'rganib chiqildi va hisob-kitoblarga ko'ra Respublikadagi chiqindixonalarda 274 ming tonna metan gazi hosil bo'lishi aniqlandi. Metan gazi atmosferaga ta'siri koeffitsiyenti 21 ga teng bo'lsa, uning zararli ta'sirini qilish qiyin emas. Hozirgi kunga kelib bu ko'rsatkich anchaga kamayganini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida 2001-yilgacha shahar va tuman markazlarida davlat miqiyosida muoiflashtiriladigan chiqindilarni tasaruffidagi maxsus

avtokorxonalaridan iborat bo'lgan. Mazkur vazirlik respublika bo'yicha yagona texnikaviy siyosatni shakllantirib korxonalarining faoliyatini muvofiqlashtirib borgan. Hozirgi kunga kelib vazirlik tugatilib, korxonalar bevosita mahalliy hokimliklarga bo'ysundiriladi. Shu bilan birga, soha faoliyati bo'yicha monitoringni olib boorish "O'zkommunxizmat" agentlikning vakolatlaridan chiqindilar muammosi olib tashlanganiga qaramay monitoring ishlari davom ettirilmoqda.

Hozirgi vaqtda iflos oqova va chiqindi suvlarni tozalashda bir qator uslublardan foydalanilmoqda. Bulardan eng muhimlari mexanik, kimyoviy, elektroliz, biologic tozalash usullaridir. O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi" qonunlarga muvofiq chiqindilarni boshqarishni davlat tomonidan muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklaridamda maxsus davlat vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda chiqindilarni utilizatsiya qilish, qayta ishlash korxonalarini tashkil qilish, buning uchun tadbirkorlarni jalb etish masalasi bo'yicha alohida e'tiborga qaratilmoqda. - Jumladan Nukus, Urganch, Navoiy, Buxoro, Qarshi, Termiz, Guliston, Jizzax, Angren, Namangan va Farg'ona shaharlari zamonaviy innavatsion texnologiyalarga asoslangan qattiq maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish klasterini tashkil etish bo'yicha o'ndan ortiq tashabbuskor-tadbirkorlik subyektlari jalb etildi.

Qo'mita tomonidan atrof-muhit sanitariyaepidemiologiya va ekologik holatni yaxshilash maqsadida 2017-2021-yillarda chiqindilarni to'plash, saqlash, utilizatsiya qilish va qayta ishlash tizimini takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Toshkent, Samarqand, Andijon va Namangan shaharlarida xalqaro moliya tashkilotlarning 161 million AQSH dollaridan ortiq mablag'ni jalb etgan holda investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Nukus shahri va barcha viloyatlar markazlarida chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini qurish ko'zda tutiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 21-apreldagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni va "2017-2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida bu borada muhim dasturil amal bo'lmoqda.

Ўзбекистонда биологик хилма-хилликни сақлаш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш

Б.Е.Жумабаев

Навоий давлат педагогика институти

Инсоният яшаётган заминнинг ўз қонуннати мавжуд. Бу абадият қонунидир. Демак заминда битмайдиган, тугамайдиган неъматнинг (табиий ресурслар) ўзи йўқ. Вақтида ўйламай қурилган айрим иншоотлар ва корхоналар, жиддий эътибор берилмай олиб борилган илмий тадқиқот ишлари (балиқларни иқлимлаштириш) бугунги кунда табиатга ҳам жамиятга

хам катта моддий ва маънавий зиён етказиб келаётганлиги ҳеч кимга сир эмас.

Биологик хилма-хилликни, экологик мувозонатни сақлаб қолиш масаласи, уни муҳимлиги ҳозирги вақтда бутун дунё жамоатчилиги томонидан тан олинган муаммодир. Бу масалага БМТ раҳбарлигидаги катта Халқаро дастур бўлмиш "Инсон ва биосфера" дойрасида эътибор берилмоқда. Маълумки, 1992 йилда Рио-де-Жанейрода Халқаро конференцияда биологик хилма-хилликка доир Конвенция қабул қилинган эди. Унда ушбу йўналишнинг стратегик режаси ва шу соҳада амалга оширилиши лозим бўлган ҳаракат соҳалари, мазмуни баён қилинган эди. Ана шу конвенцияни дунёнинг кўп мамлакатлари қатори Ўзбекистон Республикаси ҳам 1995 йилда ратификация қилиб, ушбу конвенция мавзуга доир Ўзбекистоннинг ўз режаси тайёрланиб, ушбу ҳужжат асосида 1998 йилнинг 1-апрелида, "Биологик хилма-хилликни сақлаш миллий стратегия ва ҳаракат режаси" ишлаб чиқилиб, кўп нусхада нашр қилинди. Бунда табиий, биологик ресурслардан фойдаланишда биохилма-хилликни сақлаган ҳолда фойдаланиш механизмларини ривожлантириш ишларини амалга ошириш назарда тутилган.

Шундай экан, эндиликда ҳозирги экологик вазиятдан келиб чиқиб, биохилма-хилликни сақлашни ва ундан барқарор фойдаланишни кафолатловчи шарт-шароитларни билиш, уларни мустаҳкамлаш ва ривожлантириш зарур.

Табиатда табиий ресурс сифатида турлар сонининг камайиши бир томондан, уларни ўзи учун хавфли бўлса, иккинчи томондан бошқа хавф - генетик хилма-хилликни пасайишига, сўнишига олиб келади. Шунинг учун ҳам ҳозирги замон тараққиётида биологик хилма-хилликни сақлаб қолиш муаммоси умумжаҳон ва айни пайтда худудий муаммо ҳамдир.

Республикамиз худудидаги сув ресурсларидан оқилона фойдаланиб, балиқчиликни ривожлантириш энг муҳим масалалардан биридир.

Навоий вилояти ҳам анча йирик сув ресурсларига, яъний Айдар-Арнасой кўллари тизимига (180 минг/га) кирувчи майдони 140 минг/га бўлган Айдаркўл кўли, сув ҳажми 1,2 млрд/м³, майдони 22 минг/га тенг бўлган Тўдакўл сув омбори ва сув сифими 250 – 260 млн.м³, майдони 2516 га ни ташкил қиладиган Шўркўл сув омбори. Мазкур сув ҳавзаларида балиқчиликни ривожлантириш бўйича маълум бир миқдорда ишлар олиб борилмоқда, лекин олиб борилаётган ишлар давр талабига жавоб бермайди.

Республикамизда балиқчиликни ривожлантириш учун мавжуд табиий ва сунъий сув ҳавзаларида (сув омборлари, коллектор ва оқова сувларни қабул қилиб олувчи пастқам ерлар ва ҳоказолар ёрдамида) балиқ кўпайтиришга, етиштиришга катта эътибор берилиб, давлатимиз томонидан қатор номатив-ҳуқуқий ҳужжатлар чиқарилиб, чора-тадбирлар ишлаб чиқарилган, жумладан 2017-йил 1-майда "Балиқчилик тармоғини бошқариш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Президентимиз Қарори, балиқчилик соҳасини ривожлантиришда янгидан-янги имкониятларни яратиш берилмоқда.

Ушбу Қарорга кўра, “Ўзбекбалиқсаноат” уюшмаси ташкил этилди. Жойларда балиқчилик тармоғи ташкилотлари ишларини мувофиқлаштирувчи 13 ҳудудий “Балиқсаноат” масъулияти чекланган жамияти фаолияти йўлга қўйилди. Уларга 2023-йилнинг 1-январигача уруғ, балиқ чавоғи етиштириш, балиқ маҳсулотларини тайёрлаш ва қайта ишлашдан олинган даромадларини ягона солиқ тўловидан озод этиш бўйича имтиёзлар берилди. Юқори маҳсулдор балиқ турларини иқлимлаштириш ишларини илмий асосда ташкил этиш ҳисобига Африка лаққаси, тилапия, форел, венгрия сазани ва осётр каби балиқ турларини кўпайтириш йўлга қўйилади.

Балиқ маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг ташкилий-технологик жараёнларини тизимли ташкил этиш, балиқ чавоқларини такрор кўпайтириш ва озуқа базани мустаҳкамлаш, табиий сув ҳавзалари ва сунъий кўллар ресурсларидан оқилона фойдаланиш, шунингдек, балиқ етиштириш жараёнига илмий асосланган усулларни ва интенсив технологияларни жорий этиш «Ўзбекбалиқсаноат» уюшмасининг асосий вазифалари ҳисобланади.

Бундан ташқари, балиқчилик тармоғида илмий-тадқиқот ишларини янада такомиллаштириш, илмий кадрлар тайёрлаш, илмий ва техник янгиликларни тадбиркорлик субъектларига етказиш мақсадида Балиқчиликни ривожлантириш илмий-тажриба станцияси Балиқчилик илмий-тадқиқот институтига айлантирилди. Навоий вилоятида Шўркўл сув омбори ва Айдар-Арнасой кўллар тизимида ҳамда бошқа ҳудудларда унинг филиаллари очилди.

Экология фанида таянч компетенциялар элементларини ва эвристик таълимни шакллантириш

Мурадов Шухрат Одирович,

Киличева Дилдора Исмаилжоновна,

Юсупова Мухлиса Алиқуловна

Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти

Маълумки, педагогика фанининг ривожланиши натижасида, олий таълимда янги мақсад, яъни: эвристик таълимни шакллантириш зарурияти пайдо бўлди.

Биз бу мақсадга эришиш учун, “Экология” фанини ўқитишда қуйидаги келтирилган таянч компетенциялардан фойдаланишни маъқул деб ҳисоблаймиз:

Мазмунан- қимматли компетенциялар:

-экология фанини ўрганишда ва соҳа фаолиятида қимматли шахсий мўлжални шакллантириш;

- танлаш вазиятида шахсий ҳатти-ҳаракатлар асосида ўз мавқеини белгилаш усулига эга бўлмоқ; қарор қабул қила олиш, вазиятни билган ҳолда маъсулиятни ўз зиммасига олиш, белгилаб олинган мақсадли ва мазмунли вазифаларни бажариш учун фаолият олиб бориш;

- умумий талаблардан ва меъёрлардан келиб чиқиб, шахсий таълимий йул харитасини яратиш;

Ўқиш ва билиш компетенциялари:

-мақсадни қўйиш ва натижага эришишни ташкил этиш, мақсадини тушунтира олиш;

-режаларни тузиш, таҳлил, мулоҳаза ва ўз-ўзини назорат қилиш, ортга назар солиш, ўз-ўзини англаш, ўз шахсий фаолиятини англаш, ўз онгини таҳлилий тасвирлаш, ўз-ўзининг ўқув-билиш фаолиятини баҳолай олиш;

-кузатилган далилларга саволлар қўйиш, ходисаларнинг келиб чиқиш сабабларини излаш, ўрганилаётган муаммони ҳал этишда уларнинг тушунишини ёки тушунмаслигини белгилай олиш;

-билим вазифаларини ишлаб чиқиш ва фаразларни киритиш; кузатиш ёки тажриба ўтказиш учун воситалар ва жиҳозларни танлаш, ўлчов кўникмаларини билиш, кўрсатмалар билан ишлаш, эҳтимоллик элементлари ва статистик усулларни билиш, натижаларни ёза олиш, хулосалар бера олиш;

-компьютер воситаларидан ва технологияларидан фойдаланган ҳолда тадқиқот натижалари тўғрисида оғзаки ва ёзма равишда чиқишлар қила олиш (матн ва график муҳаррирлари ва презентациялар);

Коммуникатив компетенциялар:

-оғзаки ва ёзма равишда ўзини таништира олиш, эссе, ариза, хулоса ёза олиш;

-экологик майдончани тасаввур қила олиш;

- ташқи дунё билан ўзаро муносабатларини билиш; оғзаки хабар билан чиқиш қилиш, савол бера олиш, таълим суҳбатини тўғри ўтказиш;

-турли хил нутқ фаолияти (монолог, диалог, ўқиш, эссе), тилшунослик ва лингвистик компетентликка эга бўлиш;

- мулоқот давомида гуруҳлар фаолиятини ва алоқаларини биргаликда олиб бориш усулларини билиш; муросага келиш йўллариини излаш ва топа олиш;

Ахборотлар билан ишлаш компетенциялари:

-китоблар, дарсликлар, маълумотномалар, атласлар, хариталар, аниқловчи малумотнома, энциклопедиялар, рўйхатлар, луғатлар, флеш-модем, интернет ва турли ахборот манбалари билан ишлаш кўникмаларига эга бўлиш;


- ўқув масалаларни ечиш учун зарур бўлган маълумотларини танлаб олиш, мустақил тарзда излай олиш, чиқариб олиш, тизимлаштириш, таҳлил қилиш, ташкиллаштириш, ўзгартира олиш, сақлаш ва тушунтира олиш;

-ахборот оқимларида мўлжал олиш, энг муҳим ва зарурларини белгилаб олиш; оммавий ахборот воситаларида кенг ёйилган маълумотларни онгли равишда қабул қилиш;

-компьютер ахборот воситалари, телевизор, магнитофон, телефон, мобил телефон, пейджер, факс, принтер, модемдан фойдаланиш маҳоратига эга бўлиш;

-таълим вазифаларини ҳал қилиш учун ахборот ва телекоммуникация технологияларини қўллаш: аудио ва видео ёзувлар, электрон почта, интернет.

Юқоридаги талабларни бажариш мақсадида, “Экология” фанидан бакалаврият талабалар ўз-ўзини (рейтингини) билимини назорат қилиши учун услубий кўрсатма ишлаб чиқилган. Бунда замонавий модулли тизим ва “Бумеранг” интерактив услубидан фойдаланилган (Авлякулов,2001; Виноградова ва б., 2015; Муззафарова, Кулдашев, 2017). Мустақил ишларни бажаришда индивидуал-гуруҳли ишлаш услубидан фойдаланиш тавсия қилинади. Ушбу усул рейтингни “онлайн” режимда аниқлашга имкон беради. Ўз ўрнида бу дунёда кенг тарқалган кредит тизимидир.



Расм. Экология фанини ўрганиш бўйича модулли технология кластери

Услубий кўрсатма олий ўқув муассалари талабаларининг билимини баҳолаш ва назорат қилиш Низоми асосида тузилган (О ва ЎМТВ №333 буйруғи, 25.08.2010 й.). Жорий, оралиқ ва якуний назоратлар соддалаштирилган ҳолда келтирилган. Талаба аниқ ўзининг даражасини у ёки бу босқичда баҳолаши мумкин. Ҳар бир мустақил ишни бажариш

босқичи ва ҳар бир назорат ишининг баллари (баҳолари) аниқ белгиланган. Бу профессор-ўқитувчига талабанинг фанни ўзлаштиришини назорат қилиш ва баҳолашга аниқ имконият беради. Фанни ўзлаштиришда модулли технологияси қўлланилган (расм).

Маълумки, фаннинг назарий (маъруза) қисмини тўлиқ ўзлаштириш (Валуконис, Мурадов, 2001; Мурадов, 2006) ва мустаҳкамлаш учун тўртта асосий вазифани ҳал этиш даркор: Амалий ва лаборатория ишлари, реферат ва маъруза конспектларини ёзиб ҳимоя қилиш. Мустақил ишни бажариш - сифатли таълим олишнинг асосий негизи бўлиб ҳисобланади. Бу эса, бизнинг асосий мақсадимиз бўлмиш - таянч компетенцияларни ва талабаларда эвристик таълимни шакллантириш, шу билан экологик дунёқарашининг ўзгаришига олиб келиш.

Адабиётлар:

1. Авлякулов Н.Х. Практические основы модульной системы обучения и педагогические технологии. Учебное пособие. Бухара, 2001.- 98 с.

2. Баркамол авлод – Ўзбекистоннинг пойдевори //Ўзбекистон Республикаси кадрлар тайерлаш миллий дастури.-Тошкент, “Шарқ” НМК, 1997.- 31-61 б.

3. Валуконис Г.Ю., Мурадов Ш.О. Основы экологии -Т. I.Общая Экология. Кн. I. – Т.: Мехнат, 2001. – 328 с.

4. Виноградова Е., Головенко Т., Воронович В., Кудрявцева С.А., Телеш Н., Деменковец И. Программа TRANS Министерства Чешской Республики: Использование интерактивных методов обучения как средство активизации познавательной деятельности учащихся. С. 8-150. www.amo.cz/wp-content/uploads/2015/11/.

Гидротехника иншоотлари чидамлилигини узайтириш масалалари

проф. Р.Хўжақулов, талаба О.Очилов

Қарши муҳандислик – иқтисодиёт институти

Аннотация: Мақолада гидротехника иншоотлари чидамлилиги ҳақида фикр юритилади. Унда муаллифлар томонидан ўтқарилган кўп йиллик тадқиқотлар асосида сув хўжалиги объектларининг, жумладан каналлар, тўғонлар ва гидромелиоратив тизимнинг бошқа элементлари чидамлилигига таъсир этувчи омиллартаҳлил қилинган ҳамда гидротехника иншоотларини чидамлилигини ошириш бўйича бир қанча тавсиялар берилган.

Калим сўзлар: гидротехника иншоотлари, чидамлилик, гидромелиорация объектлари ишончилиги, эскириш ва ейилиш.

Қириш. Вақт ўтиши билан иншоотлар, шу жумладан гидротехника иншоотлари ҳам эскиради, ейилади, путурдан кетади. Турли хил ички ва ташқи омиллар таъсирида иншоотларнинг эксплуатацияси, механикавий,

физикавий, кимёвий ва бошқа хоссалари ўзгаради. Гидромелиорациянинг турли хил объектларини тўхтовсиз ишлаши доимий катталик бўлмасдан вақт мобайнида геологик, гидрологик, иқлимий, эксплуатация ва бошқа омиллар таъсирида ўзгариб туради.

Қопламасиз каналлар асосан ювилиб кетиш ёки лойқа босиш, чўкиш, ўт босиши ва ён қирғоқлари ўпирилиши натижасида ишдан чиқса, қопламали каналлар эса қопламани ейилиши, эскириши ва деформацияланиши туфайли яроқсиз ҳолга келади.

Тўғонлар асосан нотекис чўкишлар, ҳарорат зўриқишлари, қуйи бьефнинг маҳаллий ювилиши, замин грунтларининг фильтрация туфайли бўртиб чиқиши натижасида тўғон танасининг деформацияланишидан сув олиш қурилмалари ва тиндиргичлар галерия ва камераларни ейилиши, эскириши, қуйи бьефни маҳаллий ювилиши сабабли ишдан чиқади.

Ювилишга қаршилик, фильтрация сингари хоссалар вақт бўйича ўзгариб туради. Масалан, канал ён қирғоқларини устки қисмини грунтини канал ишга тушган пайтда рўй берган ювилиб кетиши, вақт ўтиши билан камая бошлайди. Канал қирғоғи грунтларини йирик ва кичик ғовакларини кольматацияси туфайли фильтрация тўхташи мумкин.

Канал қирғоғи грунтларида тез эрийдиган тузлар борлиги, ювилиб кетиш ва ишқорланиши натижасида каналдан фильтрация кўпайиши мумкин.

Канал чокларини эскириши сабабли темир-бетон нов (лоток) лардан сув оқиши вақт ўтгач кескин ортиши мумкин. Чўкинди зарраларини оқим билан бирга оқиб келиши, ифлосланиши туфайли туннеллар ва қопламали каналларда гидравликавий қаршилик қиймати кучайиши кузатилади.

Йиғма, шунингдек монолит (қўшма) конструкцияларда бетон мустаҳкамлиги вақт ўтиши билан ортиб боришига қарамай, ушбу конструкциялардаги пайвандланган чоклар коррозияси ва уларнинг мустаҳкамлиги пасайиши ҳисобига умумий мустаҳкамлик камайиб боради.

Металл ва бошқа конструкцияларнинг мустаҳкамлиги зарбали ва вибрацияли динамик юклама таъсирида сезиларли равишда пасаяди. Кўпгина пластмассали буюмларни мустаҳкамлиги иқлим омиллари таъсирида вақт мобайнида камаяди.

Лёсс грунтларнинг ўзига хос хусусиятлари (чўкувчанлиги, таркибида карбонатлар кўплиги, чангсимонлиги ва бошқалар) уларни қурилиш материали ёки гидротехника иншоотларини замини сифатида ишлатишда маълум бир қийинчиликлар туғдиради. Чўкишга қарши тадбирлар мажмуасини ўз вақтида ва тўлиқ қўлланмаслиги каналлар ва бошқа гидротехника иншоотларининг деформацияси ва чўкишига олиб келади, бу объектлар анча муддатга ишдан чиқади.

Материаллар ва методлар. Берилган маълум эксплуатация шароитида барпо қилинган пайдан бошлаб то эксплуатация хоссаларини тўла йўқотишгача (профилактика-таъмирлаш ишларини ўтказиш учун тўхташлар ҳам киради) тўхтовсиз бузилмасдан ишлаш давомийлиги – *чидамлилиқ* – объектнинг белгиланган вазифаси ва бошқа факторларга қараб меъёрий ҳужжатлар билан ўрнатилади.

Замонавий босқичда иқтисоднинг асосий масалаларидан бири – ишлаб чиқариш фондларидан фойдаланишни яхшилашдир. Иншоотларнинг сифатини яхшилаш, ишончилиги ва чидамлилигини ошириш бирламчи вазифа ҳисобланади. Объектни чидамлилигини бошқариш учун учта усул мавжуд:

- объектнинг мустаҳкамлигини (зўриқишларга қаршилиқни) ошириш;
- объектга қўйилган юкларни камайтириш;
- объектни эскириш тезлигини пасайтириш.

Ана шу учта асосий параметрларни ўзгартириш билан иншоот чидамлилигини ростлаш мумкин.

Гидромелиорация объектлари ишончилиги ва чидамлилигини башоратлаш – илмий-техника прогресси (ривожланиши)ни умумий муаммосини бир қисми ҳисобланади.

Эскиришнинг умумий тенгламаси Аррениуснинг умумлашган тенгламаси деб аталади ва қуйидаги кўринишга эга:

$$\ln S = \ln S_0 Q - K'' t e^{-\frac{Q}{E}} \quad (1)$$

бу ерда S - бир лаҳзалиқ мустаҳкамлик;

S_0 - бошланғич мустаҳкамлик;

Q – активлаштириш энергияси;

E - реакция энергияси;

$K'' - K$ ва K' ўзгармас катталиқларни (константа) ўз ичига олиб, моддалар тўпланиши ва улар табиатини функцияси ҳисобланади; K - материалга боғлиқ ўзгармас сон; K' -дефект ўлчамини тавсифловчи ўзгармас сон.

K' -нуқсон (дефект) ўлчамини тавсифлайдиган ўзгармас сон.

Ушбу тенгламадан қуйидагилар келиб чиқади:

а) ташқи муҳити доимий бўлганда объектнинг мустаҳкамлиги вақт давомида экспоненциал қонун бўйича камаяди;

б) объектнинг хизмат қилиш муддати белгиланган мустаҳкамликка қадар муҳит материали концентрациясига тескари пропорционал;

в) мустаҳкамликнинг маълум бир қийматига мос келадиган объектнинг чидамлилиқ логарифми муҳит энергиясига тескари пропорционалдир.

Натижалар ва уларнинг таҳлили. Ўтказилган тадқиқотлар натижалари шуни кўрсатдики, тенглама иккита мустақил жараён:

бошланғич ва узок муддатли эскириш бўлганда материалларнинг кўпгина турлари учун ўринли бўлади.

Элементга юклама қўйилганда, юклама туфайли киритилаётган энергия янги заиф жойлар ҳосил бўлишига олиб келади. Шундай қилиб, юклама энергияси эскириш жараёнида иштирок этади деб ҳисоблаб, эскириш тезлиги юкламага боғлиқ бўлади ва юкламанинг кичик қийматларида у кичикроқ бўлади дейиш мумкин. Эскиришга юкламанинг таъсири катта миқдордаги материалда тадқиқот қилиб кўрилган. Кўпгина материаллар учун чидамлилиқ юкламанинг барча қийматларида камаяди. Вейбулл тажрибалар асосида (Б.В.Гнеденко эса назарий жиҳатдан келтириб чиқарган) мустаҳкамликка боғлиқ бўлган чидамлилиқни изоҳловчи тенгламани топган:

$$N = K(S - E)^m \quad (2)$$

бу ерда N - чидамлилиқ (циклларда);

S - синов учун қўйилган юклама миқдори;

E - келтирилган фойдали мустаҳкамлик;

K, m - келтирилган ўзгармас қийматлар.

Агар E тажриба йўли билан танланган бўлса, тенглама аниқ натижалар беради. Бу боради Вейбулл $E = 5,5$ кгс/см² бўлганда энг яхши мос тушиш бўлишини аниқлаган. Агар $E = 0,1$ бўлса:

$$N = K \left(\frac{S_T}{S} \right)^m \quad (3)$$

бунда N - чидамлилиқ циклларда ёки соатларда;

S - юклама (индекс “Т” стандарт ёки ишчи шароитига тегишли).

Шарикли подшипниклар учун $m = 4$ га тенг.

Изоляция материаллари учун кўп ҳолларда ўн градусли қонундан фойдаланилади, бу эса харорат ҳар 100С га кўтарилганда изоляция чидамлилиги икки баравар ортишини англатади. Изоляция, ўрама ва шу кабиларнинг чидамлилигини башорат қилишни аниқроқ боғлиқликларни Б.С.Сотсков таклиф қилган.

Мустаҳкамлик (ёки турли хил юкламаларга қаршилиқ кўрсата олиш) ни материалларга тегишли равишда ишлов бериш; бошланғич мустаҳкамликка эришиш учун профилактика таъмирлаш ишларини ўтказиш; эскириш жараёнида чора-тадбирлар қабул қилиш; муҳитнинг таъсирини ўзгартириш; фильтрация хоссаларини яхшилаш мақсадида цементлаш ва гилли аралашма юбориш; ейилишга қаршилиқни ошириш учун қопламалар юзасини торкретлаш орқали ўзгартириш мумкин.

Юкламалар қабул қилинган заҳира коэффиценти ва асосланган ишончилиқ тавсифи ҳамда хавфлилиқ даражаси билан юқорида келтирилган услублардан бири ёрдамида танланади.

Агар юклама ташқи муҳитга боғлиқ бўлса, уни камайтиришнинг иложи йўқ (шамол, бўрон, довул, сув босиши, тўфон, зилзила, кўп қор ёғиши ва ш.к.). Бундай ҳолларда объект конструкцияси энг кўп мумкин бўлган юкламани ҳисобга олиши керак. Юкламанинг бошқа бир гуруҳи объектнинг маълум бир вазифани бажариши билан боғлиқ. Умумий ҳолларда ушбу юкламаларни объектнинг ишчи тавсифини ўзгартириш орқали бошқариш мумкин.

Эскиришда материалларнинг физик-кимёвий хоссалари ёмонлашуви билан бир қаторда яхшиланиши ҳам мумкин, шу боисдан ушбу жараёни бошқаришни ўрганмоқ зарур.

Амалда эскиришни бошқариш учун қуйидаги усулларда фойдаланилади: материалларни танлаш; юкламани камайтириш; объектни таъмирлаш; энергия оқимларига қарши химоя чораларини қўллаш; эскиришни келтириб чиқарувчи сабабларга тўсиқ ўрнатиш. Чидамлилиқни ошириш тадбирлари уни қисқартирувчи сабабларни камайтиришга қаратилган бўлиши керак.

Хулоса. Чидамлилиқни ошириш учун юқори активлаштириш энергиясига эга материалларни танлаш лозим. Кичик ўзгармас активлашиш хоссасига эга материалларни, эскириш жараёнида катта массали реакцияга кирувчи моддалар иштирок этганда қўллаш мақсадга мувофиқдир. Тезликнинг кичик ўзгармас сони (константаси) реакцияга кирувчи материалнинг атоми ёки молекуласини объект материали билан бирикиши натижасида заиф жойни ҳосил бўлишига олиб келиши эҳтимоли камроқ эканини кўрсатади. Материални танлашда уни ишлаши тўғри келадиган муҳит ҳисобга олиниши керак. Масалан, пластмассалар озон мавжуд жойда тез эскиради, шу боисдан бундай жойларда улар сопол материаллар билан алмаштирилади.

Эскиришда иштирок этадиган энергияни камайтириш учун изоляция қилинади, мустаҳкам бўлмаган девор материаллари сувоқ қилинади, қоплама билан қопланади.

Эскиришга олиб келадиган сабабларни бартараф этишда химоя қилинадиган элемент тезликни кичик константаси ёки юқори активлаштириш энергиясига эга материал билан ўраб олинади (бўяш, турли хил қопламалар, герметиклаш, ёғ ваннаси).

Эскиришни камайтириш учун тўсиқ ва изоляция сифати ҳақида ўз вақтида маълумотга эга бўлиш муҳим ҳисобланади. Унга хусусиятларни кўз билан аниқлаш орқали эришиш мумкин. Изоляция ёки тўсиқ хоссаларини ўлчашдан уларни сифатини аниқлаш мақсадида фойдаланиш мумкин.

Лойихалаш даврида таъмирлаш ишларини тўлиқ бажара олиш имконияти мавжуд бўлиши, айрим алоҳида элементларга ҳам бемалол

таъмирланиши мумкинлиги кўзда тутилиши керак. Объект таъмирлана олиши лозим.

Эскириш ва ейилиш - иншоот чидамлилигига сезиларли таъсир ўтказадиган, қайтарилмас жараён ҳисобланади. Эскириш тўхтовсиз, ушбу элемент ишлаши ёки ишламаслигидан қатъий назар кечадиган жараён. Ейилиш эскиришдан фарқли равишда элементнинг фақат иш ҳолатида рўй беради. У атроф-муҳит ва ташқи кучлар иштирокида иншоот элементларини ўзаро таъсирида намоён бўлади.

Объектнинг турига қараб, унинг ҳаракатланиш принципига кўра объектнинг эскиришида у ёки бу физикавий ёки физика-кимёвий жараёнлар энг катта ўрин тутати. Лойиҳалашда эскириш ва ейилишга олиб келадиган элементлар тавсифи ўзгаришини келтириб чиқарадиган физикавий ёки физика-кимёвий жараёнларда турли хил омилларни таъсирини баҳолаш зарур.

Эскириш ва ейилишда қуйидаги физика-кимёвий жараёнлар иштирок этади: материал буғланиши, компонентлар диффузияси, коррозия, турли хил эрозиялар (емирилишлар), фотокимёвий жараёнлар, ёриқлар ҳосил бўлиши, рекристаллашиш, фильтрация деформациялари, шўрланиш ва ҳакозолар.

Эскириш ва ейилиш рўй бериши муқаррар бўлиб, уларни батамом тўхтатиб бўлмайди, фақатгина улар келтириб чиқарадиган оқибатларни маълум бир даражада камайтириш мумкин. Эскиришда ички ва ташқи кучлар таъсири остида материал (ёғоч, пўлат, жез, бронза, изоляция материаллари ва ш.к.) ларнинг физика-кимёвий хоссалари секин ўзгариб боради. Эскириш муҳитга – объектнинг бир қисми бўлмаган барча параметрлар тўпламига, яъни қаралаётган юкламалардан ташқари қолган бошқа барча омилларга боғлиқдир.

Адабиётлар:

1. Мирцхулава Ц.Е. Надежность гидромелиоративных сооружений. М. 1974 г., 279 с.

2. Хужакулов Р. Опыт проектирования гидросооружений и оросительных каналов на просадочных грунтах в аридной зоне. Сб. науч. тр. «Гидромелиорация и гидротехническое строительство». Национальный университет водного хозяйства Украины. Вып.32, г.Ровно, 2007, с.80-85.

3. М.Бакиев, И.Мажидов, Б.Носиров, Р.Хўжакулов, М.Раҳматов. Гидротехника иншоотлари. Т, “Иқтисод-молия”, 2009 й., 696 б.

Глобал экологик муаммолар

*А.Ф.Авалбоев- катта ўқитувчи, Жиззах политехника институти.,
А.К.Файзиева – талаба.*

Ҳозирги вақтда инсониятнинг кўпчилиги қисми табиатнинг иномига истеъмолчилиги нуқтаи назаридан ёндашмоқда ва планета миллион йиллардан буён сақлаб келаётган мувозанатни бузиб келмоқда. Лекин бунинг чегараси бўлиб, бугунги экологик вазият бунинг тасдиғи ҳисобланади. Саноатнинг барқ уриб ривожланиши, янги синтетик материалларнинг пайдо бўлиши ва табиий ресурслардан одамларнинг ўйламасдан фойдаланиши экологик вазиятнинг тўхтовсиз ёмонлашишига олиб келмоқда. Замонамизнинг глобал экологик муаммоларига атроф-муҳитнинг ифлосланиши, иссиқхона эффекти муаммоси ва озон қатламининг бузилиши кирди. Инсоният фаолиятининг натижалари шунга олиб келдики, Ернинг бутун қобиғи (биосфера, атмосфера, геосфера ва аквасфера) саноат, маиший ва кимёвий чиқиндилар билан шунчаки тўйинган. Бундай ножоиз таъсир натижасида бизга ҳаво берадиган атмосферада канцероген ва аллерген моддалар, олтингугурт (IV) оксиди ва азот оксидлари тўпланиб қолмоқда. Бундан ташқари ултрабинафша нурларга “ қалқон ” бўлган озон қатлами емирилиб бормоқда ва бу онкологик касалликларни келтириб чиқармоқда. Озонли ўпқонлар кўпинча кутбли соҳаларда пайдо бўлади. Биринчи озон ўпқони 1982 йили Антарктида пайдо бўлди. Тупроқ ва сувнинг ифлосланиши шунга олиб келмоқдаки, бунда планетанинг ҳаётий балансини ушлаб турувчи бутун экосистема ва унинг турлари нобуд бўлмоқда. Биосферанинг мангроли ўсимликлари, Катта Барерли Риф ва бошқа биосферани ташкил этувчилари ер юзида аста-секин йўқолиб бормоқда. Бундай захарланган муҳитда яшашга мажбур бўлган ва захарли озуқа билан озиқланувчи ҳайвон ва балиқлар йўқолиб бормоқда. Атмосферанинг ифлосланиши глобал ҳодиса ҳисобланади. Захарли химикатларнинг битта давлатда чиқарилиши бошқа давлатларда ҳам атмосферанинг кескин ёмонлашувига олиб келади. Атмосферада кислотали ёмғирлар ўрмонга худди уни кесгандек зарар келтиради.

Оғир металллар тупроқни ифлослантирувчи энг хавфли элементлар бўлиб, уларнинг миқдори меъёридан ошмаслиги керак. Агар уларнинг концентрацияси ортса, бу инсон ва барча тирик мавжудотлар учун хавфли ҳисобланади. Кимёвий қурол турлари, унинг тарихи ва йўқотилиши ҳамда оммавий қирғин қуроллари бутун инсоният тарихида энг кўрқинчли ҳисобланади. Антарктидани ўрганиш, материкнинг очилишидан уни ҳозирги вақтгача тадқиқ қилиш инсонлар учун ҳар доим жуда қизиқарли ҳисобланган. Ҳозирги вақтда олимлар бу совуқ материкнинг кўпгина сирларни очишга муваффақ бўлишди. Ўрмонларни қирқинчнинг жаҳон экологиясига таъсири ва уларни сақлаш бўйича чора-тадбирлар кенг кўламда олиб борилмоқда. Ўрмон нафақат дарахтларнинг тўплами, балки ўсимлик, ҳайвонот олами ва замбуруғларни бирлаштирувчи мураккаб экосистема ҳисобланади. Ер шари аҳолиси учун экология бўйича ўтказиладиган

давлатлараро даражадаги илмий-тадқиқот ишлари энг муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Экология ҳозирги замондаги глобал муаммолар орасида трасмиллий ва давлатлараро характерга эга бўлиб, алоҳида аҳамият касб этади. Инсонлар ва табиатнинг ўзаро муносабатлари масаласи хар доим кескин бўлган, лекин учунчи минг йилликда “индивидуум- жамият –атроф” муҳит занжири ўртасидаги қарама-қаршилик энг юқори нуқтага етди. Тупрок ернинг ҳосилдор қатлами бўлиб ундан планетадаги кўпгина тирик организмлар, жумладан , инсон ҳам озикланади.

Атроф-муҳитнинг ифлосланиши инсоният тараққиётининг муқаррар оқибати ҳисобланади. Бундай ходиса умумий холда ҳам экологияга, ҳам инсонларнинг ҳаёти ва соғлиғи учун хавфли ҳисобланади. Жаҳонда қанча ядро қуроли мавжуд ва унинг тарқалмаслиги устидан назорат қандай олиб борилмоқда. Ҳозирги вақтда бундай қуролга эга ва дунёда унинг миқдорини камайтириш учун қандай чоралар кўрилмоқда. Радиацияли ҳалокатлар муқаррар инсониятнинг ядро ёқилғиси бўйича олиб борилаётган фаолиятига боғлиқ бўлиб, улар айрим кишилар ва бутун планета бўйича улкан оқибатларни келтириб чиқаради. Глобал экологик муаммолардан яна бири иссиқхона эффекти ҳисобланади.

Иссиқхона эффекти – планета атмосфера ички қатламларининг ўта қизиқ кетишидир. У ёқилғини истеъмол қилиш ҳажмининг ортишига боғлиқ бўлиб, бунда чанг, метан, углерод (IV) оксиди ва бошқа захарли бирикмалар атмосферага чиқариб юборилади. Улар тўпланиб қуёш нурларини ўтказиб юборади, лекин иссиқликнинг тарқалишига йўл қўймайди. Бунинг натижасида температура кўтарилиб кундуз ва кечаси температуралар фарқи камайиб, бу музликларнинг эриши ва климатнинг кескин алмашишига олиб келади. Экология учун энг кўп зарар келтирадиган корхоналарга қора ва рангли металлургия, кимё саноати корхоналари, целлюлоза – қоғоз ишлаб чиқарувчи объектлар киради. Экологиянинг ёмонлашувига хар биримиз ўз ҳиссамизни қўшмоқдамиз. Бунда атроф-муҳитга турли хил синтетик чиқиндилар, автотраспорт воситаларидан чиқаётган захарли тутунлар, ювиш воситалари бўлган оқава сувлар, детергент ва захарли химикатлар чиқариб ташланмоқда. Юқорида айтиб ўтилган барча омиллар таъсирида хар йили 20 млрд гектар тупрок, 6 млн гектар илгари ишлов берилган ерлар чўлга айланиб бормоқда, ва чўл зона майдонлари кундан кунга кенгайиб бормоқда. Кейинги 60 йилда ўрмонлар худуди 15 % дан 7 % га қисқарди. Хар йили 11 млн гектар ўрмондаги дарахтлар кесилмоқда. Хар йили ёнаётган ўрмонларнинг майдони Франция давлати худудининг ярмига тенг. Хар йили атмосферага 20 млрд тонна CO₂ чиқариб ташланмоқда, ўтган асрдан буён бу кўрсаткич 10 % га ортиб, иссиқхона эффектнинг ривожланишига имконият яратмоқда. Планета озон қатламининг 9 % и бузилган бўлиб, бу АҚШ давлати худудига тенг ҳисобланади. Фақат охириги 20 йил давомида 200 млн қиммат баҳо ўрмонли худудлар йўқотилди. Планетанинг ҳақли равишда ўпкаси ҳисобланган тропик ўрмонлар йўқолиши айниқса ўта хавфли ҳисобланади. Бугунги кунда фойдали қазилмаларнинг миқдори кескин камайиб бормоқда. Нефт, сланецлар, кўмир, торф ва бошқа қазилма

бойликлар ўзига Қуёш энергияси ютиб, халок бўлган биосферадан мерос қолдирилган. Лекин шуни унутмаслигимиз керакки, инсоният томонидан ер қаъридан қазиб олинган нефтнинг ярими кейинги 10-15 йилга тўғри келади. XX аср давомида жахон океанига парчаланмайдиган синтетик моддалар, кимёвий ва харбий саноат маҳсулотларини чиқариб ташлаш кескин ортди. Умумий кислород миқдорининг 70 % га яқини фитопланктон фотосинтези вақтида ҳосил бўлади. Жахон океанининг кимёвий жихатдан ифлосланиши жуда хавфли бўлиб у сув, озик-овқат ресурсларининг камайишига ҳамда атмосферадаги кислород балансининг бузилишига олиб келади. Хар йили Жахон океани сувига 30 млрд тонна нефтни қайта ишлаш маҳсулотлари, 50000 тонна пестицлар ва 5000 тонна симоб ташланмоқда. Бу кўрсаткичлар инсоният антропоген фаолияти натижаларининг тўлиқ рўйхатини ташкил этмайди. Олимларнинг тахминига кўра шу юз йилликда температура 1-30 ортса, Гренландиядаги музликларнинг эриши натижасида жахон океани суви сатҳининг кўратилиши натижасида планета масштабида сув тошқинларига олиб келади. Унинг тузли сувлари бутун Европани қиздиради. Бунинг натижасида Голфстрим жараёни секинлашади ва бунинг натижаси йиллик ўртача температура ва климат ўзгаради. Ёзда амонал даражадаги иссиқлик ва қишда арктика совуғи таъсирида ҳосилдор ерлар чўлга айланади. Маълум температуралар оралиғида яшовчи ўсимлик ва хайвон турлари халок бўлиб, озикланиш занжиридаги звенолар бузилади. Бунинг натижасида ер кимиралиши, сув босиш ва турли бўронлар сони ортади. Бундан шароитларда флора ва фаунанинг яшаши янада қийинлашади. Маиший чиқиндилар ва захарли моддаларнинг тирик организмлар яшайдиган жойларда тўпланиши уларнинг ва озиқа миқдорининг кескин камайишига сабаб бўлади. Захарланган сувлар ва тупроқлар ўсимликларни захарли ва озуқа учун яроқсиз холга келтиради. Тирик мавжудотнинг бир қисми атроф-муҳитда тўпланган радиоктив моддалар туфайли мутацияланади. Натижада ҳеч кимда нормал шароитда озикланиш ва яшаш учун имконият қолмайди.

Ҳозирча атмосферамизни экологик кризисдан қутқаришнинг қуйидаги йўллари билан чиқариш мумкин: аҳоли сонини чегаралаш; энергияни истеъмол қилиш ва ундан фойдаланишни камайтириш; атмосферага чиқарилаётган ташланмаларни қисқартириш; табиий энергия манбаларидан фойдаланиш; кучли ифлосланган худудларда тозалаш воситаларидан фойдаланиш. Иссиқхона эффектини ҳам реал шароитларда тўхтатиш мумкин. Бунинг учун ёқилғи қазилмаларини гидро-, гелио, ва акваэнергиялар билан алмаштириш; чиқиндисиз технологияларни қўллаш; метанли чиқиндиларни минималлаштиришга эришиш, CO₂ ни ютиш технологиясини такомиллаштириш; ўрмонларни оммавий тарзда қирқишни тўхтатиш ва яшил ўсимликлар миқдорини ошириш керак бўлади. Агар бу тадбирларга дунёдаги барча давлатлар амал қилса, бизнинг планетамиз бундай экологик фалокатдан чиқиб кетиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Колесников С.И., Казеев К.Ш., Вальков В.Ф. Экологические последствия загрязнения почв тяжелыми металлами / С.И. Колесников, К.Ш. Казеев, В.Ф. Вальков. – Ростов н/Д:СКНЦ ВШ, 2000. – 232 с.
2. Новиков Г.А. Основы общей экологии и охраны природы / Г.А. Новиков. – Л.: Просвещение, 1979. – 130 с.
3. Новые технологии для очистки вод, почв, переработки и утилизации нефтешламов. Тез. Докл. Междунар. науч. конф. Москва, 10-11 декабря 2001 г. – Москва, 2001. – 313 с.
4. Экогеохимия городских ландшафтов. М.: Изд-во МГУ, 1995. – 336 с.
5. Экологические последствия антропогенных изменений почв // Итоги науки и техники. Серия почвоведение и агрохимия. – Т.7. – М.: ВИНТИ, 1990. – 154 с.
6. Mortvedt J.J. Plant uptake of heavy metals in zinc fertilizers made from industrial byproduct / J.J. Mortvedt // J. Environ. Qual. – 1985. – V. 14. – P. 424-427.

Инновацион шўрсизлантириш технология - сув ресурсларидан мукаммал фойдаланиш ва муҳофаза қилишда асосий омил

Мурадов Шухрат Одилевич,

Тўраев Улугбек Муртазоевич

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти

Маълумки, Ўзбекистонда асосий ичимлик сув захиралари ер остида жойлашган. Уларнинг миқдори Фарғона водийсида 380,6 м³/с, Тошкент вилоятида 134,5 м³/с, Самарқанд вилоятида 74 м³/с, Мирзачўлда (Жиззах ва Сирдарё) 71 м³/с ташкил этади. Бухоро, Навоий, Хоразм ва Қорақалпоғистон ҳудудларида чучук ер ости сувлари деярли йўқ. Қашқадарёда (11,46 м³/с) ва Сурхондарёда (шимолда 31,2 м³/с, жанубда 25,8 м³/с) ичимлик ер ости чучук сувлари мавжуд (Мирзаев С.Ш., 1974). Аммо уларнинг кўп қисми саноат ва қишлоқ хўжалик соҳаларида ишлатилади. Ўзбекистонда чучук ер ости сувлар миқдори 30 йилда (1965-1995 йй) 471 дан 294 м³/с гача камайган, 56% дан 34% умумий ер ости сувлари ҳисобидан 5г/л ва юқори даражадаги сувлар миқдори 844 дан 853 м³/с га ошди (Борисов В.А., ва б., 2002).

Барқарор ривожланиш учун, ҳозирдан қуйидаги ер ости сувларини шўрсизлантириб саноат ва қишлоқ хўжалигида фойдаланишда ҳолда сув ресурсларидан мукаммал фойдаланишга (интеграллашув бошқариш) тўлиқ эришиш зарур.

Халқ хўжалик тармоқларида фойдаланиш учун ер ости, кўллар ва зовур сувларининг сифатини яхшилаш муаммоси (шўрсизлантириш) ҳозирги кунда энг долзарб муаммодир. Мисол учун республиканинг йирик заводларидан бири бўлган «Шўртангазкимё» МЧЖ ҳар йили 30 млн. м³ дан ортиқроқ чучук сувни насос станциялари орқали олиб ўз эҳтиёжи учун ишлатади. Қашқадарё вилоятида бундай йирик корхоналар сони 9 та бўлиб, улар жами 370 млн. м³

дан ортиқроқ сувдан фойдаланишади. Агар 1 кишига хозирги вақт меъёрига кўра 1 суткада 125 литр сув берилса, бу 8,1 млн. кишига етади. Халқаро меъёрларга кўра (Швеция, Нидерландия) 1 кишига 80 л/сутка инobatга олинса унда 12,7 млн. Кишини сув билан таъминлаш мумкин.

Техник иқтисодий ҳисобларга кўра, агарда корхона 1 суткада 100 минг м³ сувни 150-200 км масофадан олиб келиб фойдалангандан кўра, жойларда шўрсизлантириш усулидан фойдаланиш афзалроқдир (Ю.В.Павлов, 1972). Мисол тариқасида Муборак газни қайта ишлаш заводи 1 суткада 41 минг м³ сувни Китоб-Шахризабз ер ости чучук сувларидан (қиш даврда) ва асосан Қуймазор сув омборидан қувурлар орқали 200 км масофадан олади. Ваҳолангки, ўзининг ҳудудида 1,7 млрд. м³ ҳажмли Сечанкўл, Ачинкўл, Султантоғ кўллари ва ер ости шўр сувлари мавжуд. Ер ости ва Сечанкўл сувларини биз таклиф қилаётган қурилманинг тўртта агрегати ёрдамида 48 минг м³ сувни шўрсизлантириб таъминлаш имкониятига эга. Бундан келиб чиқадики, корхона 1 суткада олаётган суви (41086 м³) билан 328 мингдан ортиқ кишини ичимлик сув билан (1 кишига 125 л/сутка меъёрида) таъминлашга эришилади.

Асосий эътибор Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ПҚ-2954 “2017 - 2021 йилларда ер ости сувлари захираларидан оқилона фойдаланишни назорат қилиш ва ҳисобга олишни тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарорида таъкидлаган “...2017 йилнинг охиригача мамлакатимизда ишлаб чиқарилаётган чучуклаштириш қурилмаларининг самарадорлигини аниқлаш бўйича тажриба-синов ишларини амалга оширсин;

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирлиги билан биргаликда - мамлакатимизда чучуклаштириш қурилмаларини саноат асосида ишлаб чиқаришни ташкил этиш юзасидан 2018 йилнинг 1 январигача Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин” масалаларни принципиал жиҳатдан ҳал қилишга йўналтирилган.

Бизнинг техник ечимимиз маҳаллий ер ости, коллектор-дренаж ва кўл сувларининг сифатини яхшилаш (шўрсизлантириш) асосида ичимлик сув таъминотимуаммосини ечишга қаратилган.

Техник ечимнинг асосий мақсади шўр (коллектор-дренаж, ер ости ва кўллар) сувларни шўрсизлантириб, саноат ва қишлоқ хўжалик соҳаларига етказиш, чучук сувлардан фақат ичимлик учун фойдаланишдир. Такимиллашган шўрсизлантириш технологияси намунасини ишлаб чиқиш учун (1-расм) асосан тежамкор энергия ва экологик жиҳатдан қулай кўрсаткичларни танлаш бўлди (1- жадвал).


1- жадвал

Шўрсизлантириш усуллариининг асосий техник-иқтисодий кўрсаткичлари

№	Усуллариининг номланиши	Шўрсизлантирилаётган сувнинг минерализацияси, г/л	Ишлаб чиқиш ҳажми, м ³ /соат	1 м ³ сувга сарфланадиган солиштирма энергия микдори, кВт	1 м ³ шўрсизлантирилган сувнинг нархи, сўм	Ишлаб чиқариш учун 1 м ³ сув нархи, сўм

				с/м3	(01.05.2018)	(01.05.2018)
1	Газли гидрат технологияси	2-3÷500	50-500	2-6	457-1371,6	2180
2	Қайта осмос	2÷36	0,005-50	2-2,5	457-571,5	
3	Электродиализ	2÷36	0,05	3-6,5	685,8-1486	
4	Термик шўрсизлантириш	Сувнинг минерализациясига боғлиқ эмас	1-12	5,5-25	1257,3-5715	
5	Музлатиш	Сувнинг минерализациясига боғлиқ эмас	20	9,2-10	2103-2286	
6	Дистилляция	Сувнинг минерализациясига боғлиқ эмас	0,06	18 гача	4115 гача	

Бундан келиб чиқиб биз газли гидратлар технологиясини асос қилиб олдик. Бу технология устида биринчи бўлиб 1777-1778 йй Пристли иш олиб борган. Кейинчалик бу технологияларни Пельтье ва Карстен (1785-1786), инглиз химики Дэви (1823), буюк Фарадей (1823), Левиг (1829), Вёлер (1840), Вроблевский (1882), Вилляр, Розебум (1888), Штакельберг, Мюллер (1950), Полинг, Марш (1952) ривожлантирган. Табиий шароитда Макогон Ю.Ф. (1965, 1966, 1974), Царёв В.П., Черский Н.В. (1970), Исролин В.А., Кван В.Г. (1985), Валуконис Г.Ю. (1989), Истомин В.А., Якушев В.С. (1992), Кирейчева Л.В. (1992), Batist M., Klerkx J. (2000), Мурадов Ш.О., Валуконис Г.Ю., Ёров У.Б. (2000), Щебетова А. (2006), Липенков В.А., Исролин В.А., Преображенская А.В. (2006) ва бошқалартомонидан ривожлантирилган. Лойихаланадиган қурилма АҚШнинг № 2904511, кл. 210-59 ва Ўзбекистоннинг JDP № 04339, 2000 патентларига (прототиплар) асосланиб такомиллаштирилди. АҚШ технологиясидан фарқи, биз муҳитнинг экологик ҳолатини яхшилаш билан CO₂ (карбонат ангидрид) газини ишлатишни таклиф этамиз.



1- расм. Такимилишган шўрсизлантиришқурилмаси.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкин:

Исследуя вопрос о воздействии подземных взрывов на наземные сооружения, необходимо учитывать состояние сооружения, основные виды нарушений и степень их опасности для объекта, здоровья людей и расположенного в нем оборудования. Это связано с тем, что сейсмостойкость любого сооружения при колебаниях грунта зависит от прочности, монолитности, пространственной жесткости всего сооружения и его отдельных элементов, также от размеров, формы, веса и их расположения относительно источника колебаний. Нарушения в несущих конструкциях зданий и сооружений постоянно увеличиваются при неоднократном воздействии динамических сил и нередко представляют серьезную опасность. Когда подземные взрывы производятся в горных

местах интенсивность сейсмического действия должна изучаться также в зависимости от рельефа местности. В этом направлении основным моментом является выявление эффектов различных форм рельефа местности при прохождении сейсмозрывных волн и учет этого обстоятельства при проектировании зданий.

В ранее опубликованных работах приводились некоторые результаты, где основное внимание было уделено разработке инженерного метода расчета прогнозирования безопасного расстояния в зависимости от геологических и гидрогеологических условий[5].

В данной работе приводятся результаты, по изучению сейсмического эффекта подземных взрывов при наличии между пунктом взрыва и охраняемым объектом уступов, сложенных глинистыми породами с пропластками песчаников высотой около 30 м.

В результате инженерного анализа сейсмограмм, полученных в процессе инструментальных измерений сейсмозрывных колебаний грунта, были получены следующие данные.

На сейсмограммах в начале наблюдаются колебания частотой 25-30 Гц., вертикальная составляющая в этом случае является преобладающей и они в 6-8 раз превышают горизонтальную. Далее, за ними наблюдаются колебания частотой 8-13 Гц, для которых характерно изменение соотношения интенсивности вертикальной и горизонтальной составляющих по мере удаления от борта карьера. Если в пункте наблюдения, ближайшей к борту карьера, вертикальная составляющая примерно в 4 раза превышает горизонтальную, то на расстоянии 60 м. горизонтальная составляющая больше вертикальной в 4,5 раза; при дальнейшем удалении от борта карьера интенсивность сейсмозрывных колебаний постепенно уравнивается. Здесь также отмечается увеличение разности фаз максимальных значений вертикальной и горизонтальной составляющих сейсмозрывных волн.

Максимальные значения скорости смещения в исследованном диапазоне расстояний равнялись 3,25 см/сек и достигала максимальной величины на расстоянии 40 м для горизонтальной составляющей.

Экспериментально полученные данные были аппроксимированы методом средних в виде зависимости от веса заряда C и эпицентрального расстояния R и в результате установлена эмпирическая формула в следующем виде:

$$V = k_v \left(\frac{\sqrt[3]{C}}{R} \right)^{n_v}$$

В этом случае численные значения постоянных k_v и n_v были равны соответственно 470 и 1,5. Расчеты, проведенные на основе этой формулы, показали, что уровень интенсивности сейсмического действия подземных взрывов оказались несколько завышенными. Это можно объяснить с учетом рельефа местности.

Влияние рельефа местности на интенсивность сейсмических колебаний при тектонических землетрясениях были исследованы С.В.Медведевым, С.В.Пучковым и др.[3,4].Была предложена эмпирическая зависимость, выражающая связь между ускорением на вершине и приращением балльности в следующем виде [4]:

$$\Delta J = 3,3 \lg h \frac{W_{ep}}{W_{ck}} + 3,3 \lg \frac{W_{\epsilon}}{W_0}$$

т.е. здесь общее приращение балльности складывается из двух составляющих: приращения балльности за счет грунтовых условий и приращения балльности, вызванного рельефом местности.

Представляя колебания грунтовой среды гармоническими скорость смещения грунта можно написать в виде[5]:

$$\Delta J_{rel} = 3,3 \lg \left(\frac{T_0}{T_{\epsilon}} \cdot \frac{V_{\epsilon}}{V_0} \right)$$

Для нашего случая $(V_{\epsilon}/V_0 = 1,9, T_{\epsilon}/T_0 = 0,94)$:
 $\Delta J_{rel} = 3,3 \lg(0,94 \cdot 1,9) = 0,83$ балл

Известно, что для надземных сооружений наибольшую опасность представляют поверхностные волны, характеризующие по сравнению с объемными волнами большими амплитудами. Поверхностные волны формируются на некотором расстоянии от источника и если на пути распространения поверхностных волн возникает препятствие в виде уступа, нормальное распространение ее прерывается и на поверхности уступа такая волна вновь формируется за счет взаимодействия объемных волн. Таким образом, за уступом образуется зона, где наблюдается приращение интенсивности сейсмозрывных волн. Приращение интенсивности вызванного рельефом местности для Джумуртауского карьера, где производилось измерение параметров сейсмического колебания грунта, оказалось равным около 1 балла.

Рельеф местности является важным природным фактором, который влияет на выбор территории для застройки. Когда здание строится на территории со сложным рельефом в сейсмоактивном регионе и к тому же на территории с многократно действующими сейсмозрывными воздействиями ответственность перед архитектором удваивается. Большой вред здоровью людей, окружающей среде наносит образующаяся при взрывных работах и распространяющаяся на большие расстояния пыль.

В упомянутом выше газопылевом облаке концентрация пыли составляет около 2000 мг/м, а при массовых взрывах на карьерах выход пылевых фракций крупностью до 1000 мкм достигает 0,17 кг/м³. Основная часть пыли и газов выбрасывается из карьеров и засоряет окружающее пространство. Кроме них, вредное влияние на здоровье

людей, оказывает также пыль других горных пород. Конечно, для борьбы с пылью на предприятиях, ведущих взрывные работы, осуществляется система мероприятий, в основном, тех же, что и при борьбе с ядовитыми газами. Это обстоятельство должно учитываться при выборе конкретной территории для расположения населенного пункта, а также зданий на ряду с другими требованиями, влияющих на организацию удобного проживания людей и рационального размещения промышленных предприятий. При ландшафтной организации территории промышленных узлов рекомендуется учитывать природно-климатические особенности участка; функциональное назначение территории, подлежащих ландшафтной организации; санитарно-гигиенические характеристики элементов ландшафтной архитектуры; планировочные и эстетические требования, предъявляемые к элементам ландшафтной архитектуры; и конечно экономические факторы [1,2]. Дифференцированный подход к архитектурному проектированию зданий, комплексно учитывающий местную природную специфику, на этой территории будет способствовать созданию здорового в гигиеническом отношении и удобного для проживания населенных пунктов, условий, удовлетворяющих необходимым требованиям непредвиденных ситуациях.

Литература:

9. Григорян А.Г. Ландшафт современного города. М. СИ. 1986г.
10. Лейкина Д.К. Ландшафтная организация промышленных узлов. М. СИ, 1984г.
11. Медведев С.В. Спектры действия сейсмических колебаний при взрывах. Тр. ИФЗ АН СССР, №33 (200), 1964.
12. Пучков С.В. О развитии исследований по учету рельефа местности при сейсмическом микрорайонировании. Бюллетень по инженерной сейсмологии, №8, Изд. АН Арм. Ереван, 1973.
13. Рахманов Б.С., Юнусалиев Э.М. Влияние рельефа местности на интенсивность колебаний породы и сооружения при промышленных взрывах//Материалы VIII-Всероссийского съезда по теоретической и прикладной механике. Пермь, 23-29 август, 2001 г.

Қўштабақали геодезик чизиқли - бурчакли асосни тенглаштириш

Бахтиёржон Мамасолиевич Саидов

Дилафруз Усмановна Тогаева

Тошкент архитектура қурилиш институти

Архитектура тарихий обидаларини реставрация қилиш жараёнида обидани планли ва баландлик ҳолатини тиклаш учун геодезик маълумотлар зарур бўлади. Бундай маълумотларни геодезик таянч пунктларидан олиш керак бўлади. Амалиётда бундай пунктлар чизиқли-бурчакли триангуляция кўринишида боғланади ва шаклан қўш табақали бўлиши мумкин.

Қўш табақали геодезик чизикли-бурчакли триангуляция яратиш кўп вақт ва катта маблағ талаб этади. Қўш табақали чизикли-бурчакли триангуляция барпо этишучун дастлаб жойда таянч нуқталари белгиланади ва уларни бирлаштириб қўш табақали чизикли-бурчакли триангуляцияси кўринишида тўр ҳосил қилинади. Сўнгра тўрдаги ички бурчаклар ҳамда томонларнинг узунликлари ўлчанади. Яратилган тармоқнинг таянч нуқталарини координаталари ва баландликлари ўлчаш натижалари асосида махсус “Credo DAT” дастури орқали ҳисоблаб топилади. Ҳар бир учбурчакнинг ички бурчаклари йиғиндиси 180° га тенг бўлиши керак. Ички бурчаклар дирекцион бурчаклардан, дирекцион бурчаклар эса таянч нуқта координаталаридан аниқланганлиги сабабли учбурчакнинг ички бурчаклари йиғиндиси албатта 180° га тенг бўлади. Ҳар бир учбурчакнинг ички бурчаклари йиғиндиси 180° дан, 1-2 секунддан ошмаслиги керак. 1-чизмада қўштабақали геодезик чизикли, бурчакли асос схемаси келтирилган. Ушбу яратилган геодезик асосни баҳолаш учун тузилган шакллар тенгламаси ва шартли тенгламалар тузилади. 1-чизмада тузилган қўш табақали геодезик чизикли-бурчакли триангуляцияда 6 та учбурчак мавжуд бўлиб, уни баҳолаш учун тузилган шартли тенгламалар сони 18 тани ташкил этди.

Шаклшарти

$$1. (1+2)+(4)+(7)-1800=0$$

$$1. (1)+(3+4)+(6)-1800=0$$

$$2. (3)+(5+6)+(8)-1800=0$$

$$4. \frac{S_1}{S_2} = \frac{\sin 4}{\sin 7}, S_1 \cdot \sin 7 - S_2 \cdot \sin 4 = 0$$

$$9. \frac{S_6}{S_1} = \frac{\sin(1+2)}{\sin 4}, S_6 \cdot \sin 4 - S_1 \cdot \sin(1+2) = 0$$


$$10. (9+10)+(12)+(15)-1800=0$$

$$11. (9)+(11+12)+(14)-1800=0$$

$$12. (11)+(13+14)+(16)-1800=0$$

$$13. \frac{S_7}{S_8} = \frac{\sin(12)}{\sin(15)}, S_7 \cdot \sin 15 - S_8 \cdot \sin(12) = 0$$

$$18. \frac{S_{11}}{S_7} = \frac{\sin(9+10)}{\sin 12}, S_{11} \cdot \sin 12 - S_7 \cdot \sin(9+10) = 0$$



1- чизма. Қўштабақали геодезик чизиқли, бурчакли асос схемаси

Шартлитенгламалар

1. $(3-1)+(6-5)+(11-10) -1800$

2. $(2-1)+(6-4)+(9-8) -1800$

3. $(5-4)+(9-7)+(12-11)- 1800$

4. $\frac{S_7}{S_8} = \frac{\text{Sin}(6-5)}{\text{Sin}(11-10)}$; $S_1 \cdot \text{Sin}(11-10) - S_2 \cdot \text{Sin}(6-5)$

9. $\frac{S_6}{S_1} = \frac{\text{Sin}(3-1)}{\text{Sin}(6-5)}$; $S_6 \cdot \text{Sin}(6-5) - S_1 \cdot \text{Sin}(3-1)$

10. $(15-13)+(18-17)+(22-21) -1800$

11. $(14-13)+(18-16)+(20-19) -1800$

12. $(17-16)+(20-6)+(1-22)- 1800$

13. $\frac{S_7}{S_8} = \frac{\text{Sin}(18-17)}{\text{Sin}(22-21)}$; $S_7 \cdot \text{Sin}(22-21) - S_8 \cdot \text{Sin}(18-17)$

18. $\frac{S_{11}}{S_7} = \frac{\text{Sin}(15-13)}{\text{Sin}(18-17)}$; $S_{11} \cdot \text{Sin}(18-17) - S_7 \cdot \text{Sin}(15-13)$

Шакл тенгламалари

1. $\omega_1 = -\{3-1\} + \{6-5\} + \{11-10\} - 1800$

2. $\omega_2 = \{2-1\} + \{6-4\} + \{9-8\} - 1800$

3. $\omega_3 = \{5-4\} + \{9-7\} + \{12-11\} - 1800$

4. $\omega_4 = S_1 \text{Sin}(11-10) - S_2 \text{Sin}(6-5)$

5. $\omega_5 = S_2 \cdot \text{Sin}(3-1) - S_3 \text{Sin}(11-10)$

$$18. \quad \omega_{18} = S_{11} \cdot \sin(18-17) - S_7 \sin(15-13)$$

Шартлитенгламалартузиш

$$1) \quad -(1)+(3)+(5)-(6)-(10)+(11) - 1800 + \omega_1 = 0$$

$$2) \quad -(1)+(2)-(4)-(6)+(9) - 1800 + \omega_2 = 0$$

$$3) \quad -(4)+(5)-(7)+(9)-(11)+(12) - 1800 + \omega_3 = 0$$

$$4) \quad \sin\{11-10\}V_{S_1} - \sin\{6-5\}V_{S_2} - \frac{S_1}{\rho} \cos\{11-10\}(10) + \frac{S_1}{\rho} \cos\{11-10\}(11) +$$

$$\frac{S_2}{\rho} \cos\{6-5\}(5) - \frac{S_2}{\rho} \cos\{6-5\}(6) + \omega_4 = 0$$

$$9) \quad \sin(6-5)V_{S_6} - \sin(3-1)V_{S_1} - \frac{S_5}{\rho} \cos(6-5)(5) + \frac{S_6}{\rho} \cos(6-5)(6) +$$

$$\frac{S_1}{\rho} \cos(3-1)(1) - \frac{S_1}{\rho} \cos(3-1)(1) + \omega_9 = 0$$

$$10) \quad -(13)+(15)-(17)+(18)-(21)+(22) - 1800 + \omega_{10} = 0$$

$$11) \quad -(13)+(14)-(16)+(18)-(19)+(20) - 1800 + \omega_{11} = 0$$

$$12) \quad -(16)+(17)-(6)+(20)-(22)+(1) - 1800 + \omega_{12} = 0$$

$$13) \quad \sin(22-21)V_{S_7} - \sin(18-17)V_{S_8} - \frac{S_7}{\rho} \cos(22-21)(21) + \frac{S_7}{\rho} \cos(22-21)(22) +$$

$$\frac{S_8}{\rho} \cos(18-17)(17) - \frac{S_8}{\rho} \cos(18-17)(18) + \omega_{13} = 0$$

$$18) \quad \sin(18-17)V_{S_{11}} - \sin(15-13)V_{S_7} - \frac{S_{11}}{\rho} \cos(18-17)(17) + \frac{S_{11}}{\rho} \cos(18-17)(18) +$$

$$\frac{S_7}{\rho} \cos(15-13)(13) - \frac{S_7}{\rho} \cos(15-13)(15) + \omega_{18} = 0$$

Ушбу тенгламаларни ечиш орқали олинган натижалар шуни кўсатадики, чизиqli бурчакли геодезик асоснинг аниқлиги мавжуд анъанавий геодезик тармоқ яратиладиган усулларга нисбатан аниқроқ бўлади.

Ҳозирги фан ва техника ривожланган вақтда бундай геодезик ишларни бажариш, ҳисоб-китобларни компьютернинг махсус дастурларида ҳам юқори аниқлик билан бажарилмоқда. Шунингдек, бундай яратиладиган геодезик асос қурилишнинг барча йўналишларида қўлланилиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Н.М. Нишонбоев “Мақбул усулларда ечиладиган геодезик масалалар”
Ўқув қўлланма. Тошкент. Ўқитувчи 1992.

2. Б.М. Саидов “Ноёб иншоотларни қуришдаги геодезик ишлар”
Магистрлик диссертацияси. 2011 й.

Экологик соф ашё-маҳаллий пахса деворли иморатлар қурилишида

зилзилабардошлик масалалари.

*доц.Б.С.Раҳмонов (ЎрДУ), стажер ўқитувчи А.А.Айтбаева,
М.А.Айтбаев талаба (ҚДУ)*

Лой минг йиллардан бери бино ва иншоотлар барпо этишда қурилиш ашёси сифатида қўлланилиб келинмоқда. Олимларнинг ҳисоблари пахса деворли иморатларда уйни иситишга сарф қилинган ёқилғи бошқа биноларга кўра 30% гача кам бўлишини кўрсатди. Айниқса, ушбу қурилиш ашёсининг акустик ҳамда теплотехник кўрсаткичларининг яхшилиги билан бошқа (пишиқ ғишт, бетон ва х.к) қурилиш ашёларидан ажралиб туради. Бу турдаги бинолар пишиқ ғишт ёки бетон деворли уйлардан иқтисодий самаралиги билан кескин фарқ қилади. Кўпгина мамлакатларда (Германия, Белоруссия ва х.) лой деворли иморатлар қурилишидан жуда катта иқтисодий фойда олингани тарихдан маълум. Маълумки, Хоразм меъморчилиги Шарқ меъморчилигининг ажралмас қисми бўлиб, у ўта даражада такомил ривож билан ажралиб туради. Хоразм ҳудуди кескин кантинентал иқлимий шароити билан характерланади.

Қизилқум текис рельефи туфайли шимолий шамол йўналиши учун паст ҳимоя қобилиятига эга. Бу ерда лой асосий қурилиш ашёси сифатида шаклланган ҳудудда ўрмон ва метал захиралари танқис ҳисобланади. Бундай қийин қурилиш шароитида ва эстетик талаблар асосида шаклланган Хоразм меъморчилиги қонунларининг асосий қисмини пахса деворли турар-жой бинолар меъморчилиги ташкил қилади. Пахса деворли бинолар қатор афзалликларга эга бўлиши билан бир қаторда талайгина камчиликларга ҳам эга. Улар лойиҳада бино ўлчамларини квадрат ёки шунга яқин шаклда қилишга интиланлар[1,2].


Маълумки, бино баландлиги ортиши билан унинг хусусий оғирлиги ортиб боради ва унинг статик мустаҳкамлигини таъминлаш муаммоси пайдо бўлади. Замонавий фан ютуқлари бўйича, бино девори кўндаланг

кесим юзаси бўйлама ўлчамига нисбатан $F = F_0 e^{\frac{\gamma h}{[\sigma]}}$ қонунияти бўйича ўзгарса бундай жисм баландлиги бўйлаб барча кесимларидаги кучланиш ўзгаришсиз қолади (механикада тенг қаршилиқ кўрсатувчи жисм!).

Зилзила пайтида сейсмик таъсир бино пойдеворида грунт орқали узатилиб, девор бўйлаб тарқаладиган тўлқинлар бино деворлари шикастланиши ёки бузилишига сабабчи бўлади. Бинолар пойдевори билан девори орасида екан қатламининг қўйилиши зилзила таъсири пайтида девор бўйлаб тепага тарқалувчи сейсмик тўлқинларнинг қийматини кескин камайтиришга олиб келади. Бундан ташқари ушбу қатлам ер ости сувларининг капиллярлар орқали девордан тепага кўтарилишга ҳам йўл

қўймайди. Ушбу тадбир туфайли бино деворига гаризонтал йўналишдаги сейсмик таъсир қиймати кескин камаяди[1,3].


Булардан ташқари пахса деворли иморат бунёд этилётган даврда 1-поғона пахса 2-поғона пахса ва хакоза оркали ҳамда иморат бурчаклари алоҳида кучайтирилади. Пахсалар ораларига ёғоч балкалар қўйилиши оқилона тадбир бўлиб, унинг иморат фазовий бикрлигини таъминлашдаги ўрни муҳимдир.




1-Расм. Хоразм қишлоқ турар-жой иморатлари режаларидан наъмуналар А-Г-Бургут-қалъа ҳудудида жойлашган қаср(VII-VIIIасрлар) ва богча-ҳовли режалари(VII-VIIIасрлар); Д-Е- Қаватқалъа ҳудудидаги турар-жой биноси(XII-XIIIасрлар); Ж-З-Тўртқўл ҳудудидаги турар-жой биноси(XII-XIIIасрлар);

Шу нуқтаи назардан пахса деворларининг баландлиги ортиши билан ўлчамини камайиб бориши оқилона ечим бўлган (2-расм).

Бугунги кунда лой ашёдан тикланган иморатлар турар- жой маданий - маиший қишлоқ уйлари ва айрим ҳолларда ишлаб чиқариш бинолари сифатида ишлатилмоқда. Тажрибалар ушбу иморатлар 1-2 қаватда ҳаво намлиги 60% дан ошмаган ҳолларда ишлатилиши мумкин. Акс ҳолда, бу турдаги ашёли деворлар юк кўтарувчи эмас, балки ўз- ўзини кўтарувчи тўсиқ сифатида ишлатилиши мумкин. Бино икки қаватли бўлса девор ашёси намлик даражаси 25%, 1қаватлида 5-15% бўлмоғи лозим. Замонавий турар- жой биноси пойдевори қурилиши ва бино умумий кўриниши кўриниши 3- ва 4-расмларди келтирилган.



2-расм.Бино девори схематик кўриниши.



3-расм. Замонавий турар-жой биноси пойдевори қурилиши кўриниши.



4-расм. Зилзилабардошлик талабларига жавоб берувчи замонавий бино.

Маҳаллий лой паҳса деворли иморатлар хажмий канструктив ва антисейсмик тадбирлар ечимини замонавий фан ютуқлари асосида таҳлил қилиш уларнинг нақадар оқилона ва такомил эканини тасдиқлайди. Ушбу тадбирлар Хоразм бетакрор меъморчилиги намояндлари санъати ва меҳнатининг ижодий якунидир.

Адабиётлар

1. В. Г. Воробьева, М. С. Лапиров-Скобло, Е. Е. Неразик Археологические работы в Хазараспе в 1958-1960 г.г. Материалы Хорезмской экспедиции, 6 Москва, 1963.

2. Кой-крылган кала. Памятники культуры древнего Хорезма. Ответст. ред. С. П. Толстов - М, 1967.

3. Б. С. Рахмонов, К. Собиров, Р. Нафасов. Хоразм қалъалари қурилишида зилзилабардошлик масалалари. Илм сарчашмалари, N4, 2002 й.

УДК 349.4(575.1)

СЕРВИТУТ ҲУҚУҚИНИ ВУЖУДГА КЕЛИШИНИНГ ИЛМИЙ АСОСЛАРИ

*204-ГКК гуруҳ талабаси Юлдошев Шахзод
Илмий раҳбар: Ибрагимов Лазизбек (СамДАҚИ)*

Калим сўзлар: сервитут, предиад, usus, usufructus, operas servorum

Аннотация: Ушбу мақолада ер участкасидан чекланган тарзда фойдаланиш, сервитут ҳуқуқини амалга ошириш ва ер муносабатларини тартибга солиш билан боғлиқ масалалар, ер участкаларидан чекланган тарзда фойдаланиш ҳуқуқини тартибга солишнинг илмий-амалий ва назарий муаммолари атрофлича ёритилган.

Ер ресурсларидан оқилона ва самарали фойдаланиш, ер муносабатларини тартибга солиш ва ер участкаларидан чекланган тарздан фойдаланишни такомиллаштириш ҳамда ерларни муҳофаза қилишга йўналтирилган ягона давлат сиёсатини амалга оширилишини таъминлаш бугунги куннинг долзарб муаммоларидан бири бўлиб ҳисобланади.

Мамлакатимизда ер участкасидан чекланган тарзда фойдаланиш, ер участкаларига нисбатан мулк ҳуқуқи масаласи, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш муаммолари таниқли эколог-ҳуқуқшунос олимлар М.Б. Усмонов, Ж.Т. Холмўминов, Ш.Х. Файзиев, Х.Ҳайитов, У.Т. Аюбов, М.Р. Мирзаабдуллаева, И.Б. Зокиров, Р.Ж. Рўзиев, Ш.Н. Рўзиназаров, С.С. Ҳамроев ва М.Х. Баратовларнинг тадқиқотларида қисман ўрганилган бўлсада сервитут ҳуқуқининг миллий қонунчилигимиздаги ўрни ва аҳамияти илмий асосланмаган.

Сервитут-ер ҳуқуқининг янги институти бўлиб, унга кўра маълум эҳтиёж ёки зарурият туғилганда бир ёки бир неча ер эгалари ва ердан фойдаланувчилар ўзганинг ер майдонидан чекланган тарзда фойдаланишни амалга оширадилар.

Сервитутнинг ривожланиш тарихи ва элементлари Хамураппи қонунларида, ўрта асрларда Оссурия ва Хетт қонунларида ҳам ўз аксини топган. Бироқ, нисбатан мукаммал кўринишдаги ҳуқуқий тартибга солиниши бевосита рим ҳуқуқи билан боғлиқ. Айни дамда “сервитут” сўзининг этимологик келиб чиқиши ҳам қадимги рим ҳуқуқига бориб тақалади. Рим ҳуқуқида ер сервитутининг турлари, уларни амалга ошириш хусусиятлари мустаҳкамланган[1].

Сервитут юқорида таъкидлаганимиздек, моҳиятан классик шаклда Рим ҳуқуқи даврида вужудга келган бўлиб, бошқа шахсга тегишли бўлган ашёдан фойдаланиш ҳуқуқи ўша даврда айнан сервитутни англатган. [2] “Servitus” сўзи “ашёнинг ўзга шахсга хизмат қилиши” маъносини англатиб, ушбу атамадан муайян ер участкаси ўз муклдоридан ташқари бошқа шахсга ҳам хизмат қилганда фойдаланилган. Рим ҳуқуқида даставвал фойдаланиладиган ашёларга нисбатан сервитут атамаси қўлланилган бўлиб, кейинчалик ушбу атама ўзганинг ашёсидан фойдаланишни англатган ва кенг омма ўртасида тарқалган.

Ўзбекистон Республикасининг Ер кодексига биноан фуқароларга ердан фойдаланишнинг янги шакли, яъни ўзганинг ер участкасидан чекланган тарзда фойдаланиш ҳуқуқи белгиланди. Бу ер ҳуқуқида янги институт бўлиб, маълум эҳтиёж ёки зарурият туғилганда бир ёки бир неча ер участкаларидан ер эгалари, ердан фойдаланувчиларнинг ўзганинг ер майдонидан чекланган тарзда фойдаланиши тушунилади.

Бинобарин, амалдаги қонунчиликда ер сервитути ҳақидаги умумий қоидалар белгиланган бўлиб, уларни белгилаш ва бекор қилиш асослари, сервитут муносабатлари иштирокчиларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари қонунчилигимизда атрофлича тартибга солинмаган. Шубҳасиз, Фуқаролик кодексининг 173-моддаси ва Ер кодексининг 30-моддасига сервитутга оид умумий қоидалар ушбу соҳага оид муносабатларни тартибга солиш учун етарли эмас, бу айниқса ушбу соҳада хорижий тажрибага мурожаат этсак, яққол намоён бўлади. Зотан, бир қанча хорижий мамлакатларда сервитут муносабатларини тартибга солишга алоҳида бўлимлар ажратилганлиги ҳам фикримизни тасдиқлайди.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 173-моддасида ўзганинг ер участкасидан чекланган тарзда фойдаланиш (сервитут) ҳуқуқи белгиланган бўлиб, унга кўра “Кўчмас мулк (ер участкаси, бошқа кўчмас мулк) эгаси кўшни ер участкасининг эгасидан, зарур ҳолларда эса - бошқа ер участкасининг эгасидан ҳам ўзганинг ер участкасидан чекланган тарзда фойдаланиш (сервитут) ҳуқуқини беришни талаб қилишга ҳақлидир.

Ер участкасига ҳуқуқларнинг вужудга келишига асос бўладиган қонунда фуқаролик ҳуқуқ ва бурчлари вужудга келишининг асоси сифатида назарда тутилган давлат органларининг ёки фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ҳужжатлари деганда, даставвал бундай органлар томонидан ер участкасини мулк сифатида бериш тўғрисидаги қарорлари тушунилиши лозим. Бундай ер участкасининг мулк сифатида тақдим қилиниши доимий ёки муддатли фойдаланиш, ижара ва хоказолар кўринишида бўлиши мумкин.

Суднинг фуқаролик ҳуқуқ ва бурчларини белгилаган қарорида агар ер участкасига нисбатан ҳуқуқлар, жумладан сервитут ҳуқуқи белгилаб қўйилган бўлса, бундай асосга кўра ҳам ер участкасидан фойдаланиш ҳуқуқи, жумладан сервитут ҳуқуқи вужудга келади. Бундай асос қоида тариқасида ҳуқуқ тўғрисида мавжуд бўлган низо натижасида келиб чиқади. Бундай низолар одатда судларга қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда тақдим қилинади. Суднинг фуқаролик ҳуқуқ ва бурчларини белгилаган қарорига асосан ер участкасидан фойдаланиш ҳуқуқи вужудга келадиган ҳолатга эгасиз ер участкасига нисбатан мулк ҳуқуқининг белгилаши мисол бўла олади. Умумий юрисдикция судлари ёки ҳакамлик судларининг қонуний кучга кирган қарорлари ер участкасига нисбатан бўлган ҳуқуқнинг суд қарорига асосан давлат рўйхатида олиниши учун асос бўлади.

Қонун йўл кўядиган асосларда мол-мулк олиш натижасида ер участкасига бўлган ҳуқуқларнинг, жумладан сервитут ҳуқуқининг вужудга келишига мисол сифатида Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 188-моддаси (ер участкаларига бўлган мулк ҳуқуқи)ни келтиришимиз мумкин. Унга кўра фуқаролар ва юридик шахсларнинг ер участкаларига бўлган мулк ҳуқуқи қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳолларда, тартибда ва шартларда юзага келади.

Ўзбекистон Республикаси “Давлат ер кадастри тўғрисида”ги Қонунининг 13-моддаси ер участкаларига бўлган ҳуқуқларни давлат

рўйхатига олиш деб номланади ва унга биноан ер участкаларига эгалик қилиш, улардан фойдаланиш ҳуқуқини, ер участкаларини ижарага олиш ҳуқуқини, шунингдек ер участкаларига бўлган мулк ҳуқуқини, шу жумладан сервитутлар тўғрисидаги битимлар ва бу ҳуқуқларга доир бошқа чеклашларни давлат рўйхатига олиш туман (шаҳар) ер кадастри дафтарига тегишли маълумотларни киритиш орқали ер участкаси жойлашган ерда амалга оширилади.

Ўтказилган назарий ва амалий тадқиқот натижалари, қонун ва қонуности мёърий ҳужжатлар ва хорижий давлатлар таҳлилига таяниб қўйидагича хулосалар қилинди.

Ўзбекистон Республикаси Ер кодексининг 30-моддасидан келиб чиқиб ер участкасидан чекланган тарзда фойдаланиш ҳуқуқи – сервитут ҳуқуқининг келиб чиқиш асосларини қўйидагича гуруҳлаштиришимиз мумкин:

1) сервитутни белгилашни талаб қилган шахс ёки шахслар гуруҳи билан ўзга ер участкасининг эгалик қилувчиси, фойдаланувчиси, ижарачиси ва мулкдори ўртасидаги келишувга мувофиқ вужудга келадиган сервитут ҳуқуқи;

2) тегишли равишда қабул қилинган суд қарорига асосан вужудга келадиган сервитут ҳуқуқи.

Фуқаролар ва жамоат ташкилотларининг жамоа эҳтиёжлари бўйича қарорлар қабул қилишда иштирок этиш ҳуқуқларидан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси Ер кодексининг 2-моддасида берилган ер тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг асосий принципларини фуқароларнинг ва жамоат ташкилотларининг ерга оид ҳуқуқларнинг белгиланишига оид қарорлар қабул қилинишида иштирок этиши принципи билан тўлдирилиши мақсадга мувофиқ бўлар эди. Фуқароларнинг ва жамоат ташкилотларининг ерга оид ҳуқуқларнинг белгиланишига оид қарорлар қабул қилинишида иштирок этиши принципи оммавий ер участкаси сервитутларини белгилашга оид қарорлар қабул қилинишида фуқаролар ва жамоат ташкилотлари иштирокининг ҳуқуқий асосини яратиб беришда ва фуқаролар ва жамоат ташкилотларининг бундай қарорлар қабул қилиш жараёнида фаол иштирокини таъминлашда ҳуқуқий восита сифатида хизмат қилар эди.

Ўзбекистон Республикаси “Давлат ер кадастри тўғрисида”ги Қонунининг 16-моддасида мустаҳкамлаб қўйилган ер участкасига бўлган ҳуқуқларни ва ер участкаларига оид битимларни давлат рўйхатига олиш рад этилганлиги ёки рўйхатга олиш муддатларининг бузилганлиги устидан белгиланган тартибда судга шикоят қилиниши мумкинлиги тўғрисидаги қонуннинг Ўзбекистон Республикаси Ер кодексининг 35-моддасида ҳам белгилаб берилиши мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Юридик адабиётларда ерга нисбатан ҳуқуқ деганда ерни эгаллаш, фойдаланиш ва тасарруф этиш, сервитут, бир умрлик мерос қилиб қолдириш, ижара каби ҳуқуқлар англашилишидан келиб чиқадиган бўлсак, сервитут бу ерга нисбатан бўлган ҳуқуқнинг бир кўринишидир.

Ер участкасидан чекланган тарзда фойдаланиш ҳуқуқига оид муносабатларни тартибга солишга оид хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганиш вазиятга ойдинлик киритиши ҳамда айрим муаммоларнинг илмий асослантирилган ечимини таклиф этиши, муҳими Ўзбекистон Республикаси миллий қонунчилигини такомиллаштиришнинг истиқболли йўналишларини ишлаб чиқишга асос бўлиши мумкин. Бу соҳада хорижий тажрибага мурожаат этиш зарурияти икки сабабга кўра зарурдир: биринчидан, маълумки, ўзганинг мулкидан чекланган тарзда фойдаланиш ҳуқуқи (сервитут) фуқаролик ҳуқуқий институти роман-герман ҳуқуқ оиласидан кириб келган; иккинчидан, сервитутлар хусусий мулкчилик билан чамбарчас боғлиқ эканлигини ҳисобга олмаслик мумкин эмас.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Усмонов М.Б., Мирзаабдуллаева М.Р., Узакова Г.Ш. Ўзбекистонда ер ҳуқуқининг назарий муаммолари. Монография // Масъул муҳаррир: Ж.Т.Холмўминов. – Тошкент: ТДЮИ, 2011. – Б. 124.

2. Юридический энциклопедический словарь. / Под общ.ред. В.Е.Крутовых. – 3-е изд., перераб и доп. – М.: Инфра-М, 2004. – С. 365.;

3. Суд прецедентлари: Sunnyside Valley Irrigation District v. Dickie, Docket No. 726353MAJ (Wash. 2003).; Berg v. Ting, 125 Wn.2d 544, 552, 886 P.2d 564 (1995).

4. Астапенко П.Н. Римское частное право: Учебное пособие / Под общей редакцией профессора В.И. Кузицина. – М.: ЮИ МВД РФ, Книжный мир, 2001. – С. 125.

5. Новицкий И.Б. Римское право. – М., 1995. – С. 48.

6. Шейнин Л.Б. Земельное право России. – М.: Эксмо, 2006. – С. 244.

7. Нерсесов Н. И. Римское вещное право. – М., 1996. – С. 183.; Шейнин Л.Б. Земельное право России. – М.:

8. Усмонов М.Б. Ер ва қонун. – Тошкент: Адолат, 1994. – Б. 3.

Иқлимнинг иссиқлик – физик хусусиятларини бино ташқи тўсик конструкцияларига таъсири

катта ўқитувчи. М.Ш., Раҳимбобоева магистр Ж.Б. Анваров (ТАҚИ)

Замонавий турар-жой бинолари ва иншоотларни лойиҳалашда ҳамда қуриш жараёнида биринчи навбатда қурилиш жойининг иқлим кўрсаткичлари эътиборга олинади.

Ўзбекистон иқлими тўғрисида гап кетар экан, у шимолӣ ярим шарда, Ўрта Осиёнинг марказий қисмида жойлашган. Ўзбекистон иқлимига унинг географик ўрнидан ташқари, худуднинг денгиз сатхидан баландлиги ва рельефининг шакли ҳам таъсир қилади.

Республика худудининг тўртдан бир қисми тоғлардан иборат, қолган қисми денгиз сатхидан 2800-3000 метр баландликда жойлашган. Текислик ғарбдан жанубий-шарқ томон адирларга, адир эса тоғларга тутушиб кетади.

Ўзбекистон Республикасининг худуди 447.4 минг км² ва давлат чегаралари 5300 км дан ортиқ бўлиб, асосан Амударё ва Сирдарё оралиғида

жойлашган. Текислик (чўл) лар майдони республика худудининг 75 %ини ташкил этади. Чўллар денгиз сатхидан 300-400 метр баландда жойлашган бўлиб, иқлими кескин континентал. Июль ойининг ўртача харорати 30о-32о С иссиқ, январь ойида эса -2о-3о С совуқ бўлади йиллик ёғин миқдори 100-300 мм атрофида.

Республика худудининг денгиз сатхидан 400-1200 метргача баланд бўлган қисмида адир минтақани ташкил этади.

Чўл иқлимига нисбатан адир иқлими мўтадилроқ. Ёғин бу ерларга чўлдагига нисбатан кўпроқ (300-450мм) ёғиб, ёз фасли давом этади.

Тоғлар минтақаси денгиз сатхидан 2000-3000м баланд жойларга тўғри келади. Тоғларда ёз қисқа ва салқин бўлиб, ёғин кўп ва қиш изғиринли узок давом этади.

Ўзбекистоннинг кўп қисмида хусусан текисликларида кучли шамол эсади. Қурувчилар ҚМҚ 2.01.01-97, ҚМҚ 2.01.01-94 лар талабларига асосан хар бир иқлим минтақасида қурилаётган биноларнинг хажмий тархий ва конструвтив ечими ва шу иқлим шароитида ишлатилиши хар хил бўлиши лозим.

Биноларни ва уларнинг ташқи тўсиқ конструкцияларини лойиҳа қилишда биринчи навбатда инсонларнинг яшаши ва ишлаши учун мўтадил иқлим шароити яратишга қаратилган бўлади. Инсонларнинг яшаши учун мўтадил ҳарорати +140С - +240С бўлиши керак. Агар хона ичидага ҳарорат +80Сдан паст бўлса совуқ, +80С +150С бўлса салқин, +160С +280С бўлса илиқ ва 280С дан юқори бўлса ҳаво иссиқ ҳисобланади. Биноларни қиш фаслида иситиш ва ёз фаслида қуёш радиациясидан ҳимоя қилиш иқлим минтақасининг об-ҳавосига боғлиқ.

Масалан: Тошкентда июль ойининг ўртача ҳарорати +27,10С ва энг катта мутлоқ ҳарорат +44,50С, энг кичик мутлоқ ҳарорат -29,50С, ҳароратнинг суткалик энг катта тебраниш амплитудаси +23,70С бўлса, Термизда бу кўрсаткичлар +30,40С ва 46,70С бўлади. Қиш фасли учун Самарқандда йиллик кўрсаткичи 0,98 бўлган энг совуқ сутка ҳарорати -180С бўлса, Нукусда бу кўрсаткич -270С бўлади. Лекин кейин пайтларда бу кўрсаткичларни амалий тадқиқотлар натижасида қабул қилиш тавсия этилади.

Жуда совуқ иқлим минтақаларида жамоат ва турар – жой биноларини лойиҳа қилишда эркер, лоджия ва балконлар кўзда тутилмайди. Турар жой биноларида оралиқ баландлиги бир хил қилиб олиниб ёруғлик билан таъминловчи фонарлар кам қўлланилади. Асрлар бўйи музликдан иборат минтақаларда бинонинг биринчи қавати шамол эсиб туриши учун очик қолдирилади. Акс ҳолда бинодан ўтадиган иссиқлик музликни эритиб, бинони чўкишига олиб келади.

Тошкент шаҳрида иссиқ иқлимнинг давомийлиги 5-6 ойдан ортиқдир. Шу сабабли биноларда табиий шамоллатиш усули қўлланилиб, хона ҳаво ҳарорати жуда исиб кетишдаш сақланади. Бундан ташқари, биноларнинг девор ва деразаларига қуёш радиациясидан ҳимоя қилиш учун тўсиқлар

(экран - жалюзи) лойиҳаланиб, яхлит чордоқли томларда табиий шамоллатиш тадбирлари кўрилиши лозим.

Иқлим кескин континентал ҳудудларда биноларни кечаси деразалар ёрдамида табиий шамоллатиш ва кундуз кунлари деразани ёпиб, юқори ҳароратдан ҳимоя қилиш самаралидир. Ишлаб чиқариш жараёнига маълум талаблар қўйиладиган саноат биноларида суъний совутиш, яъни кондиционерлар ёрдамида хоналарда мўътадил иқлим яратилади.

Ҳозирги даврда қишлоқ ва шаҳарлар намунавий лойиҳа асосида бир ва икки қаватли турар жой бинолари кўп қурилмоқда.

Бунинг қулайлиги шундан иборатки икки қаватли биноларнинг юқори қисмини табиий шамоллатиш услуги билан қуёш радиациясидан ҳимоя қилинса пастки қисмидаги юқори ҳарорат ерга сингади.

Қуёш радиациясидан ҳимоя қилишнинг янада самарали усуллари билан бири саноат биносининг атрофига соя салқин ҳаво берадиган ихота, мевали дарахтлар экишдир.

Кучли шамол ва ёғингарчилик бирга кузатиладиган жойларда конструкцияларнинг ташқи сирти нам ўтказмайдиган сопол (керамик) ва нам юкмайдиган қатлам билан қопланади. Ёғингарчилик кам кузатиладиган жойларда биноларнинг девор сирти 2-4см қалинликда цементли – кумли қоришма билан сувоқ қилинади. Маълумки ташқи тўсиқ конструкцияларининг иссиқлик ўтказувчанлиги ва мўътадил намлик ҳолати жойнинг иқлими ва ички муҳитига боғлиқ. Бино хоналари ичида мўътадил иқлим яратиш ва рационал ташқи тўсиқ конструкциялар танлаш учун уларнинг иссиқлик – физик ва намлик ҳолати муҳандислик ҳисоблари бажарилади. Биз ташқи тўсиқ конструкцияларни лойиҳалаш учун қўлланиладиган асосий иқлим кўрсаткичлари билан танишиб чиқдик.

Адабиётлар.

1. “Ижтимоий ва фуқаро объектларини лойиҳалаш ва қурилишда тегишли тартиб ўрнатиш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримов қарори 2012 й.

2. Р.Ю.Маракаев. Н.Н.Норов “Ўзбекистон Республикаси шароитида энергия самарали биноларни лойиҳалаш” Т.2009 й.

ArcGIS дастури ёрдамида миллий географик ахборот тизими учун маълумотлар базасини яратишнинг баъзи масалалари

Самаров Бекзод, Худойназаров Мардон -201 ГК магистранти (СамДАҚИ)

Маълумки, мамлакатимизда мустақиллик йилларида барча соҳаларда кенг қамровли ислоҳотлар амалга ошириб келинмоқда. Ҳозирги кунда республикаимизда 21 та кадастр тури рўйхатга олинган бўлиб, уларни зарур ахборотлар билан таъминлаш муҳим аҳамиятга эга. Шунинг учун Ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри давлат кўмитаси томонидан турли соҳаларда фаолият олиб бораётган фойдаланувчиларни ахборотлар билан таъминлаш мақсадида манфаатдор вазирлик ва идоралар

билан ҳамкорликда давлат ва махсус аҳамиятга эга бўлган миллий географик ахборот тизимини яратиш борасида ишларни амалга ошириб келмоқда. Давлат кадастрлари маълумотларини электрон яъни рақамли шаклда яратиш мақсадида тематик қатлам кўринишида маълумотлар базаси яратилмоқда ва унга турли хил атрибутив маълумотлар киритилмоқда. Ушбу ишларни бажаришда дунёнинг кўпгина давлатларида бўлгани каби бизда ҳам ArcGIS дастури қўлланилмоқда. ArcGIS 9.3 дастури Америка Қўшма Штатларининг ESRI компанияси томонидан яратилган бўлиб, ҳозирда компания томонидан дастурнинг бир қатор авлодлари ишлаб чиқилган. Компания 1993 йилда ArcGIS 9.3 дастурининг илк авлодини ArcInfo тизими учун қўшимча сифатида яратди. Яратилган ушбу дастур оммавий равишда фойдаланувчилар учун мўлжалланган. Ушбу дастур ёрдамида турли хил мавзудаги картографик маълумотларни яратиш, олинган маълумотларни таҳлил қилиш ва тасвирлаш мумкин. Ҳозирги кунда, Республикамиз халқ хўжалигининг турли соҳаларида геоахборотлар тизимини яратишда космик ва аэросуръатлардан кенг кўламда фойдаланилган ҳолда аниқлик даражаси юқори бўлган электрон рақамли хариталарни яратиш технологияси йўлга қўйилиб, мавжуд 1:10000 ва 1:25000 микёсидаги электрон рақамли хариталар янгиланмоқда. Шу билан бир қаторда турли форматларда яратилган рақамли хариталар ArcGIS дастури форматларига ўгирилмоқда.

Ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри кўмитаси ва унинг жойлардаги бўлимларига республикамызда ягона ер сиёсатини олиб бориш учун “Ер кодекси” ҳамда “Давлат ер кадастри” тўғрисидаги қонун ҳамда Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланган қарорлар, кўмита томонидан ишлаб чиқилган низом ва йўриқномалар асосида давлат ер кадастрининг ягона тизимини яратиш ва ягона ер юритиш мақсадида замонавий компьютер технологияларни жалб этган ҳолда Миллий географик маълумотлар тизимини яратиш вазифалари қўйилган. Бунинг учун замонавий ГАТ дастурлари асосида маълумотлар базасини шакллантириш талаб этилади.

Юқорида келтирилган фикрлардан келиб чиқиб биз Пастдарғом тумани бўйича миллий географик ахборот тизимини яратишда қишлоқ хўжалик ер майдонлари бўйича маълумотларни киритиш учун бажариладиган ишлар бўйича маълумотлар базасини шакллантириш ишларини амалга оширишни режалаштирдик. Бунинг учун ҳозирги замонавий дастурлардан бўлган ArcGIS дастуридан фойдаланилди.

Маълумотлар базаси икки қисмдан ташкил топди. Биринчи қисмда тумандаги мавжуд ер ресурслари ва улардан фойдаланиш даражасига эътибор қаратилди. Бунда тумандаги мавжуд ер фонди, улардан халқ хўжалигининг турли соҳаларида жумладан қишлоқ хўжалигида фойдаланиш ҳолати, тумандаги мавжуд суғориладиган ерларнинг унумдорлиги, маданийлашганлик даражаси, суғориш даврийлиги, ерларнинг шўрланган ва шўрланмаганлиги, шўрланиш даражаси ва хиллари, эрозияга учраш даражаси, сизот сувлари чуқурлиги, тошлоқлик даражаси, экин турлари,

хосилдорлиги, тупроқ бонитировка баллари ва бошқа маълумотлар келтирилди.

Маълумотлар базасининг иккинчи қисмида тумандаги қишлоқ хўжалик ер турларидан фойдаланиш субъектлари тўғрисида маълумотлар киритилди.

Пастдарғом туманида мавжуд бўлган қишлоқ хўжалик ерлари тўғрисида маълумотлар базасини шакллантириш учун ахборотларни тўплаш ва уларни таҳлил қилиш жараёни қуйидаги тартибда амалга оширилди.

1. Тайёргарлик ишлари босқичи- Ушбу босқичда Пастдарғом туманида фаолият олиб бораётган барча қишлоқ хўжалик корхоналари, ташкилот ва муассасаларнинг “Ўздаверлойиха” институти томонидан тайёрланган 1:10000 масштаби хариталари ва уларнинг қайдномалари ўрганиб чиқилди. Ўрганиш жараёнида туман ерларидан оқилона фойдаланиш масалалари таҳлил этилди. Ерлар бўйича мавжуд бўлган ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий маълумотлар тўпланди ва ўрганилди.

2. Маълумотларни тўплаш, таҳлил қилиш ва қайта ишлаш босқичи- ушбу босқичда туманда фаолият олиб бораётган барча қишлоқ хўжалик корхоналари, ташкилот ва муассасалари ихтиёридаги ерларда хатлов ишлари олиб борилди. Олинган маълумотлар таҳлил қилинди ва қайта ишланди. Туманнинг янги рақамли карталар яратиш учун ер тўғрисидаги умумий маълумотлар базаси яратилди ва уларни расмийлаштириш масалалари ўрганилди.

3. Тўпланган маълумотлар асосида Пастдарғом туманида фаолият олиб бораётган фермер хўжаликлари суғориладиган ерларининг янги электрон рақамли харитаси яратилди.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш мумкинки, қишлоқ хўжалик ер майдонларида миллий географик ахборот тизимлари асосида ArcGIS дастури ёрдамида маълумотлар базасини тузиш муҳим аҳамиятга эга. Тузилган маълумотлар базаси фойдаланувчиларга зарур ҳолларда ишларини осонлаштиради.

ҚАЛАМТАСВИР ВА УНИНГ МАҚСАД-ВАЗИФАЛАРИ

Ўқитувчи Қосимова Ф.А., талаба Ганиева К. (СамДАҚИ)

Ёшларни бадиий жиҳатдан баркамол, Ватанга ва миллий санъатга садоқат руҳида тарбиялаб вояга етказишда тасвирий санъат хусусан, қаламтасвир предметининг ўрни алоҳида аҳамият касб этади. Бу эса ўз навбатида олий ўқув юрти факультетларида олиб борилаётган махсус фанларнинг чуқур ва асосли бўлишини тақазо этиб, педагог ва олим ва рассомлар зиммасига юксак вазифаларни белгилайди.

Қаламтасвир предмети бадиий-графика факультетларида ўқитиладиган барча масус фанларнинг асоси ҳисобланади ва улар ўртасида бевосита боғлиқликни таъминлайди. Қаламтасвир борасида етарли билим ва малакаларни эгалламай туриб, талаба композиция, рангтасвир, ҳайкалтарошлик, халқ амалий амалий санъати ва бошқа мутахассислик фанларни юқори даражада ўзлаштира олмайди.

Қаламтасвир – барча тасвирий санъат турларининг асоси ҳисобланади. Рассом тасвирий санъат турининг қайси бирида ижод қилишидан қатъий назар, қаламтасвирга асосланади. У ўзининг кузатишлари, катта асар композициялари устидаги изланишларини аввал қаламда дастлабки чизгилар билан ифодалайди. Санъат асарларини яратишда эса, ушбу бажарилган чизгилар рассомга ёрдамчи манба бўлиб хизмат қилади.

Рассом у ёки бу картинасининг яратишни қаламдан бошлайди. Шундан кейингина ушбу санъат асари ранглар жилоси орқали томошабинга эстетик ҳузур бахш этади. Бошқача қилиб айтганда, қаламтасвирсиз ҳеч бир рассом ўз асарини етук ҳолга келтира олмайди.

Қаламтасвир бошқа санъат турлари орасида мустақил равишда тугалланган дастгоҳли санъат асари ҳам бўлиши мумкин. тушь, сангина, пастель, соус, қалам билан бажарилган кўплаб картиналар жаҳоннинг турли санъат музейи ва кўргазмаларидан жой олган.

Қаламтасвир машғулотлари кўриб-кузатиб тўғри тасвирлаш, борликни идрок этиш, кўл, онг ва сезги органларини шакллантиришда нафақат бўлажак рассомга, балки турли касб соҳасидаги кишиларга зарурдир.

Тасвирий санъат ҳар бир ижодкор шахс учун жуда кенг фаолиятлар майдонидир. Расм чизишни пухта эгаллаш барча санъат турларида муҳим ўринни эгаллайди. Шу сабабли академик сурат ишлаш билими тасвирий фаолиятнинг барчасида кўл келади, муваффақиятни таъминлайди. Қаламтасвир ишлашга ва уни ўз маънавий ҳаётида фойдаланишга одамлар қадимги пайтларданок интилиб келганлар. Шу сабабдан ҳам расм чизишнинг маълум қонун-қоидалари ишлаб чиқилган ва йиллар, асрлар мобайнида такомиллаштирилиб келинган. Қаламтасвир барча тасвирий санъат турларининг асоси, негизи десак хато бўлмайди. Ўқув-машқ вазифаларни пухта, ифодали қилиб тасвирлай олиш академик расм қонун-қоидаларини атрофлича ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан ўрганишни тақозо этади. Улар иш фаолиятини сифатли ташкил этилишига ҳам кўп томондан боғлиқдир. Бундан ташқари чизишда ишлатиладиган асбоб-анжомлар сифатли, талабга жавоб берадиган бўлиши керак. Қаламтасвир ишлашнинг энг асосий талаби чизиш объектини ҳар томонлама ўхшатиб акс эттиришдан иборат фаолиятни таъминлашдир. Бунинг учун тасвирни қоғоз сатҳида тўғри жойлаштириш, нисбатларини тўри аниқлаш, буюмларнинг ўзаро масофасини ва перспектива ҳолатларини аниқ топиш талаб этилади. Ишнинг мақсадга мувофиқ чиқишида албатта билим, тажриба ва маҳорат етарли даражада керак бўлади. Билим ўқиш, ўрганиш, мутолаа қилиш орқали орттирилса, тажриба ва маҳорат кўп ишлаш, тинмай машқ, интилиш эвазига орттирилиши маълум.

Таълим олишнинг яна бир муҳим шарти ҳар бир тасвир этиладиган нарса, ҳодиса, лавҳани аслидан, яъни натурадан қараб акс эттирилишига жуда боғлиқ эканлиги сир эмас. Чунки чизишда ҳаёт ҳақиқатини кўрсата олиш сифати энг муҳимдир десак асло янглишмаймиз.

Тасвир чизишни ўрганиш оддий натюрмортларни, шунингдек алоҳида-алоҳида турган буюмларни акс эттириш орқали амалга оширилади. Иш тасвирни қоғозга тўғри ва чиройли тарзда жойлаштиришдан бошланади, сўнг

хар бир нарсани ўзаро жойлашиши, улар орасидаги масофалар нисбатлар аниқланади. Бунда қалам енгил, қоғозга ортиқ даражада босмасдан ишлатилиши керак. Акс ҳолда нотўғри чиққан жойлар ва ёрдамчи чизикларни ўчирғич билан кетказиш қийин бўлади. Шунинг учун ўртача юмшоқлик даражасидаги «ТМ», «М», «2М» русумли қаламлардан фойдаланиш анча қулай.

Тасвирларни ишлашда перспектива қоидаларига амал қилиниши зарур.

Маълумки ҳар бир нарса бошқа нарсдан узоқроқда турган бўлса, у кўзимизга кичрайиб кўринади, тархлари ҳам хирароқ бўлади, унга тушаётган ёруғлик, соялар ҳам биринчи пландаги буюмниқидан фарқланиб туради. Буларнинг ҳаммаси чизикли ва ҳаво перспективаси ходисасининг табиатда намоён бўлишидир. Ана шу жиҳатдан тўғри акс этирилса тасвир Ҳаққоний чиқиши таъминланади. Ҳар бир нарса қоғозда тасвирланар экан, албатта унинг туришига нисбатан уфқ чизиғи топиб олиниши керак. У чизувчи кишининг кўзи баландлигидан ўтувчи тасаввур этиладиган горизонтал тўғри чизикни ташкил этади.

Натюрмортларда уни тўғри аниқлаб олиб тасвир яратишда фойдаланиш зарур шартлардан асосийси бўлиб, тасвирнинг ҳаққоний чиқишни таъминлайди. Нарсанинг тасвирини горизонтал сатҳга ва вертикал картина сатҳига нисбатан ҳолати ҳам перспектива кўринишига мувофиқ топилади. Бунда томонларнинг қисқариб, узоқлашиб борган сари қисқариб кўриниши уфқнинг тутатиш нуқтасига асосан топиб чизилади.

Натюрмортларда манзара тасвирларига нисбатан перспектива қоидаларини қўллаш мураккаброқ, чунки буюмлар, нарсалар орасидаги фарқ, масофалар камроқ бўлиб, улар диққат билан кузатилиб аниқланади. Манзара, табиатдаги перспектива эса яққолроқ сезилади. Масалан, текис йўналган темир йўлни кузатсак бу ходиса аниқ кўринади. Ундаги релслар узоқлашган сари бир-бирига яқинлашиб, уфққа бориб бирлашиб, нуқта бўлиб икки томондаги сим ёғочлар тобора калталашиб бораётгандек туюлиши фикримизни тасдиқлайди. Бу ходисани кузатиб перспектива қонуниятларини англаб олиш, таҳлил қилиш, тегишли билимларни олиш мумкин.

Расм чизиш жараёнини босқичма-босқич ташкил этилиши тасвир яратишнинг энг муҳим педагогик ҳажмига. ифодасига ҳам, ҳар бир нарсанинг ўзи мавжуд бўлиб турган атроф муҳитига ҳам объектив тарзда ёидошилиши ҳаққоний тасвирланиши керак.

Нарсани ўзига қараб тасвирлашда суъний ёруғлик манбаларидан фойдаланиш буюмларнинг ҳажми ва шаклини тўғри бажаришда муҳимдир. Талабалар доимо шуни ёдда тутишлари керакки, ўқиш жараёни, хусусан қаламтасвир борасида, унинг ўзига хос илмий жиҳатларини мукаммал ўзлаштиришлари уларнинг кейинги ижодий фаолиятларида катта аҳамият касб этади.

Қаламтасвир машғулотларида буюмларнинг ҳажмини тўғри ва ҳаққоний тасвирлаш оддий қаламларда амалга оширилади. Рангтасвирдан фарқли ўлароқ бу вазифа анча мушкул бўлиб, талабалар зиммасига қаламтасвир борасида кўплаб амалий машқлар бажаришни талаб этади. Шунинг учун,

талабалар турли ҳажм ва шаклга эга буюмларнинг ёруғ ва сояларини тасвирланаётган буюмларнинг ҳажми ва шакли асосида иш юритишни тақоза этади. Бунда у қалам билан буюмга тушаётган ёруғ, соя, ярим сояларни енгил чизиклар билан бир текисда ва чизиклар тортишда унинг дона-дона бажарилишига эътибор бериш керак, буюмларга ёруғлик қанчалик тик тушса, уларнинг тасвири яққол кўринади

Тасвирий санъат соҳасидаги, хусусан ўқув қаламтасвирида кўлланиладиган қонун ва қоидалар табиат қонунларидан келиб чиқади. Ушбу қонунлар тасвирий санъатга таъсир этиб унинг ривожланишида катта аҳамиятга эга. Тасвирлаш қонунлари талабада қаламтасвир ишлаш билимларини оширади ва малакаларни шакллантиради, ижодий қобилиятларини ўстиради, ҳамда уни бўлажак педагогик фаолиятга пухта тайёрлайди.

Система поддержки принятия решений оценки и восстановления достоверности результатов измерений и вторичной информации


*Юсупбеков А.Н. зав. каф. АПП., д.т.н. проф., Абдукадыров А.А. д.т.н.,
Темербекова Б.М. PgD, доцент кафедры АПП, Дусмуродов Ж.И.
матристрант каф АПП (Ташкентский государственный технический
университет, г. Ташкент, Узбекистан)*

Для реализации разработанного в главах метода оценки и восстановления достоверности первичной и обеспечения достоверности вторичной информации в автоматизированной системе управления технологическим процессом необходимо разработать соответствующее, алгоритмическое и информационное обеспечения системы поддержки принятия решений оценки и восстановления достоверности первичной информации и обеспечения достоверности вторичной информации в автоматизированной системе управления технологическим процессом. Программного обеспечения система поддержки принятия решений оценки и восстановления достоверности первичной информации Supervisory Control And Data Acquisition систем на примере TraceMode. Общей тенденцией разработки автоматизированной системы управления технологическим процессом является использование Supervisory Control And Data Acquisition систем. Такой подход значительно снижает трудоемкость разработки за счет применения типовых программных решений сторонних разработчиков, исключая необходимость в написании собственного кода которыми обладают современные super visory control and data acquisition пакеты, не позволяют реализовать взаимодействие система поддержки принятия решений с информационной подсистемой автоматизированной системы управления технологическим процессом. По этому самый простой выход-сочетание библиотек стандартных компонентов Super visory Control And Data Acquisition системы и внешнего приложения, реализующего алгоритм

повышения достоверности первичный источник информации в режиме реального времени. Организация взаимодействия между приложениями предлагается осуществлять с помощью стандарта OPC (OLE for Process Control), разработанного корпорацией Microsoft.

Бу ерда σ^2 – қўшимча шовқин қувват дисперсияси [16]. Каналдаги сигнал қувватлари бир хил деб қабул қилинган. Қўшимча шовқин МАІ, бит шовқини ва иссиқлик шовқинини ўз ичига олган. Қабул қилинаётган сигнал ва интерференция сигналларидаги бит шовқини МАІ шовқинига нисбатан катта таъсир қилиши мумкин. Қўлланилган Δt чип давомийлигидан когерент вақти каттароқ бўлганда бит шовқини фотодетекторда юзага келади. Нокогерент OCDMA тизими МАІ шовқини бўйича чекланган.

Чип тезлигини аниқлаш тизим самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Оптик тўғрилагич чиқишида вақт бўйича ажратиш орқали чип тезлигини аниқлаш амалга оширилади. Бу ҳодиса спектри кенгайтирилган кенг полосали тизимда тор полосали филтрлаш ҳодисасига эквивалентдир.



1-расм. а) Асосий $1 \times N$ OCDMA архитектураси, б) вақт бўйича тақсимланган OCDMA ишлаш принципи.

Вақт бўйича ажратиш МАІ шовқинини камайтиради, бироқ корреляция жараёнидаги тўлқин шакли чўққиси бит шовқини ошишига олиб келади. Жараённи кучайтириш қиймати G вақт бўйича ажратишда $\sim \Delta t$ вақт ойнасининг бир битга баробар бўлган вақт даври T га нисбати орқали фойдаланади. Одатда $\sim \Delta t$ вақт ойнаси чип давомийлиги Δt га яқин ёки ундан

узунроқ қилиб белгиналади. Вақт бўйича ажратишдан сўнгбит қувватининг интерференция зичлигига нисбати E_b/N_0

$$\frac{E_b}{N_0} = \frac{S}{(K-1)S \left(\frac{\Delta\tau}{T}\right) + \sigma^2 \left(\frac{\Delta\tau}{T}\right)} = \frac{G}{(K-1) + \frac{\sigma^2}{S}}$$


$$G = \frac{T}{\Delta\tau}. \quad (2)$$

Юқоридаги ифодани (1) ифода билан таққосланганда бит қувватининг интерференция қувватига нисбати G жараённи кучайтириш қийматига боғлиқ бўлиши аниқланади. (2) ифодага кўра катта G қийматида юқори дискриминация, яъни тармоқ билан янада кўпроқ фойдаланувчилар қамраб олиниши мумкин. Вақт бўйича ажратиш лазер диоди ва оптик толали ночизик ойна орқали амалга оширилган [20]. Бунда чип даражасида синхронлаш талаб этилади, бу эса асинхрон фойдалана олишни камайтиради.


Вақт бўйича ажратишсиз оптик чегаравий қурилма МАІ шовқинини келтириб чиқаради. Бизнинг илмий-тадқиқот ишимизда дисперс зичланган толада суперконтинуумни (ингл. DFF - dispersion-flattened fiber) генерация қилишга асосланган оптик чегаравий қурилмасини қўллаганмиз. Ишлаш принципи 2-расмда кўрсатилган. У эрбиум қўлланган тола кучайтиргичи (ингл. EDFA - erbium-doped fiber amplifier) 2км узунликли DFF ва 5 nm узунликли полоса фильтри (ингл. BPF – bandpass filter). Ишлаш принципи куйидагича кечади. EDFA декодланган оптик сигнални кучайтиради, 2пкс пульс кенлиги ва юқори чўққи қувватига эга декодланган импульс суперконтинуумни (ингл. SC - supercontinuum) DFFда генерация қила олади. Нотўғри декодланган сигналлар, яъни МАІ шовқинлари катта вақт давомида жуда кичик чўққи қуввати билан тарқатилади ва шунга кўра SC генерация қилинмайди. BPF SC сигнални узатади ва асл сигнални инкор эта олади. BPFдан ўтган, тўғри декодланган сигнал МАІ шовқинисиз тикланиши мумкин. Бунда кам йўқотишларга, мустақил поляризацияга ва самарадорликка эришилади. 3-расмда ўлчанган қувватни ўлчаш функцияси оптик қувват кириш функцияси сифатида намоён қилинган.

Оптик код лойиҳаси

Бит шовқинни камайтириш учун когерент OCDMA тизимларида муайян бит тезлиги учун мумкин даражада узун оптик код кетма-кетлигини қўллаш мақсадга мувофиқ. Симсиз CDMAда турли M кетма-кетлиги, голд коди, Kasami коди оптик код сифатида қабул қилинган. Ушбу код кетма-кетликлари авто ўзаро корреляция сифатларига эга этиб лойиҳаланган. Шунга қарамай, яхши аперидик (нодаврий) корреляция сифатига эга кодларни яратиш код назариясига кўра мураккабдир. Биз учун муқобил усул бу турли код туркумларидан фойдаланиш, мисол учун асл код ва автокорреляция сифатлари юқори бўлган голд кодлари. Оптик код схемаларида корреляциянинг аперидик сифатини ошириш учун, икки параметрни: сигнал япроғи максимал даражасининг автокорреляция жадаллигига нисбати P/W , автокорреляция жадаллигининг ўзаро корреляция даражаси қийматига бўлган нисбати P/S . I жадвалда 127 ва 511 чип голд кодлари учун корреляция қийматлари келтирилган.



2-расм. DFF га асосланган оптик чегаралаш принципи.




3-расм. SCга асосланган оптик чегаравий қурилмасининг қувват узатиш функцияси.


Оптик кодлаш ва декодлаш. Оптик кодлаш ва декодлаш уч турга: бир ўлчамли вақт домени бўйича ёки оптик частота домени бўйича, икки ўлчамли ҳам вақт ҳам оптик частота домени бўйича ва нур манбаини когерентлаш бўйича турларга таснифланади.

Узун оптик кодни яратиш учунқўлланиладиган оптик кодлаш ва декодлаш услуги когерент OCDMA тизимларини яратишда катта аҳамиятга эга. Бунда ясси нурли диод схемалари (ингл. planar lightwave circuits – PLC) қўлланилади [4], [5], нурнинг фазовий модуляторлари SSFBG тўлқин таркатувчи тўрлар (ингл. arrayed-waveguide-gratings – AWG) ва


микроэлектроник тизимли ойналар (ингл. micro-electro-mechanical-system – MEMS) қўлланилади.



4-расм. SSFBG ва биполяр оптик кодни геренация қилиш (а) кириш импульси, (b-1) кодланган сигнал, (c-1) автокорреляция, (d-1) ўзаро корреляция.



5-расм. 511 чипли SSFBG коднинг ўлчанган узатиш спектри.



6-расм. BER 32 фойдаланувчига эга бўлганвақт бўйича ажратилган OCDMA тизими самарадорлигига турли манбага эга шовқинлар ва kt когерент нисбатининг таъсири.


Вақт бўйича ажратилган когерент OCDMA PLC ва SSFBG орқали намоён қилинган, бунда 16 та PLC чиплари қўлланилган. Бироқ бунда ҳам тўлқинни етарли даражада узайтириш амалга ошмайди.

Арзонлиги ва кирувчи йўқотишларнинг камлиги сабабли SSFBG курилмасини қўллаш самаралироқдир. 511 чип SSFBG курилмасида чип тўри ва чип узунлиги мувофиқ равишда 0,156 ва 80 nmни ташкил этади (4-расм). Бунда 640 Gbit/s тезлигига эришиш мумкин. 511-чипли 640-Gчип/s тезликли SSFBG синовлар натижаси 5-расмда кўрсатилган. Биринч чўққи 640 GHz (= 5 nm) қийматда юзага келади, акс эттиришнинг чўққи қобиляти 92% тенг. Бун ҳозирги кунла энг юқори кўрсаткичдир. Шунини эътиборга олиш керакки юқоридаги характеристикалар кирувчи сигнал кутбланишига боғлиқ эмас ва SSFBG орқали юқори самарали цилиндрик симметрия эришилганини кўрсатади.

Тизим самарадорлиги. BER самарадорлик кўрсаткичига МАІ ва бит шовқинининг OCDMA қабул қилгичи сезгирлигига нисбатан таъсири 6-расмда кўрсатилган.

6-расмда кўрсатилган OCDMA тизимида 32та фаол фойдаланувчилар иштирок этган. Бу ерда kt когерент коэффиценти, $kt = 1$ ва $kt \rightarrow \infty$ мувофиқ равишда когерент ва нокогерент лимит қийматлари. Энг кичик чўққи қабул қилгичдаги шовқин, ўрта чўққи қабул қилгичдаги ва МАІ шовқинига эга когенет OCDMA, юқори чўққи когерент OCDMAда бит шовқинининг намоён бўлишида кузатилади. Когерент ва нокогерент лимитларни солиштириш P/C нисбатида бит шовқинининг таъсири солиштириш орқали амалга оширилади. Нокогерент OCDMAда когерент OCDMAдаги P/C қийматга эришиш узунроқ бўлган оптик код талаб этилади. Бит шовқинининг когерент

OCDMAда юзага келиши одатий ҳол. Бит шовқинини олдини олиш учун узунроқ оптик код кетма-кетлиги қўлланилиши керак. Мисол учун 10 фаол фойдаланувчиларни таъминловчи чип тезлиги аниқлагичига эга тармоқда интерференция даражаси -27 dB қийматидан кичик бўлиши ва код узунлиги 500 чипдан катта бўлиши керак. 10та фаол фойдаланувчига 1.24 Gbit/s тезликда хизмат кўрсатувчи ҳақиқий асинхрон когерент OCDMA тармоғида 511 чип узунлиги ва SSFBG қурилмаси қўлланилди.



7-расм. WDMга асосланган OCDMAархитектураси

WDM OCDMAдаги каналлар сонини кўриб чиқайлик. Тажриба учун 1.24 Г/с тезлик қабул қилинди. SSFBG кодери ва декодери қўлланилган ҳолда якка WDM тўрида асинхрон тарзда 10та фаол фойдаланувчиларга хизмат кўрсатиш мумкин. якка WDM тўрида 16 фаол фойдаланувчига хизмат кўрсатилмоқда деб фараз қилайлик. Бунда каналлар сони қуйидагича:

- 1) 256та канал: 1310-1610nm диапазонда интервали 20 nm бўлган 16та CDWM тўрида 16та фаол фойдаланувчи
- 2) 512та канал: 1310-1610nm диапазонда интервали ва узунлиги 10nm бўлган 32та WDM тўрида 16та фаол фойдаланувчи;
- 3) 80та канал: C ва L диапазонларда интервали 20 nm бўлган 16таCDWM тўрида 16та фаол фойдаланувчи

4) 160та канал: С ва L диапазонларда интервали 10 nm бўлган 10та CDWM тўрида 16та фаол фойдаланувчи.

Иқтисодий нуқтаи назардан фикр юритилганда WDM PON OCDMA хозирги вақтда лаёқатсиз ҳисобланади. FBG кодери ва декодери пасив курилма бўлганлиги сабабли уни ишлаб чиқариш арзон бўлиши керак. Ультрақиска импульс лазерини ишлаб чиқариш қиммат бўлишига қарамай якка ультрақиска импульс лазерини OLTда ўрнатиш фойдаланувчиларга юқори каналидаги нур каналидан ўзаро фойдалана олишга имкон беради. Бу услуб катта бўлмаган иқтисодий харажат орқали тармоқ ишончилигини оширади.

Хулоса

Илмий-тадқиқот ишида асосий эътибор юқори ва қуйи каналлари гигабит тезлиги симметрияси таъминланадиган PON тармоқларига қаратилди. OCDMA орқали ҳар бир фойдаланувчи учун гигабит ва мультигигабит тезликларни юқори ва қуйи каналларда таъминланиши кўриб чиқилди. Биринчи ва сўнгги миля тракти учун WDM PON OCDMA тизими қўлланилиши истиқболли эканлиги аниқланди. OCDMA тизимида SSFBG кодер\декодери қўлланилганда WDM каналларда юзага келадиган каналлараро халақитларнинг спектрал самарадорликка таъсири кичик эканлиги аниқланди. WDM каналларининг каналлараро фарқи 200 ва 400 Hz этиб белгиланганда каналлараро халақитларнинг кичик қиймати аниқланди. Гигабит симметрик OCDMA тизимида 511 чип 640 Gчип/s бўлган SSFBG кодер\декодери қўлланилганда амалга оширилган синов натижалари ушбу тизимни амалий тадбиқ этишга илмий-амалий асос бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. H. Ghafouri-Shiraz, M. Karbassian, Optical CDMA Networks: Principles, Analysis And Applications, John Wiley & Sons Ltd, 2012.
2. H. Yin, D.J. Richardson, Optical Code Division Multiple Access Communications Networks, Theory and Application, Tsingua University Press - Springer, 2007.
3. Paul R. Prucnal, Optical Code Division Multiple Access: Fundamentals and Application, Taylor & Francis Group, 2006.
4. Tamura, A., Nakano, S., Okazaki, K. (2005). Optical code-division-multiplex transmission by Gold sequences. Jour. of Lightw. Tech. Vol 3, no 1, pp 121–127.
5. X.Wang, N. Wada, T. Miyazaki, G. Cincotti, and K. Kitayama, Advanced Modulation Techniques in OCDMA System, JLT, 22(2004), 2226-2235.
6. H. Kaur, M. Singh Bhamrah, Comparison of NRZ and RZ data modulation formats in SAC-OCDMA system under introduced clock timing jitter of laser diode, International Journal of Advanced Research in Computer and Communication Engineering, Vol. 2, no 8, pp 2942-2949, 2013.
7. G. Manzacca, F. Benedetto, V. Sacchieri, G. Giunta, G. Cincotti, Advanced modulation formats in optical code division multiple access networks, IEEE J. of Lightw. Technol., Vol 22, pp.2226-2235, Oct. 2004.

ArcGIS 9.3 дастуридан фойдаланиб, тарихий маданий объектлар давлат кадастрини юритишда электрон рақамли хариталарда маълумотлар баъзасини яратиш

Илмий раҳбар: Раҳимов Улуғбек, талаба: Абдурахмонов Шухрат

Электрон хариталарни яратиш учун янги замонавий асбоблар ва дастурлар зарур бўлади. Шу жумладан ҳозирда ишлаб чиқаришда қўлланилаётган ArcGIS 9.3 дастури янги рақамли хариталарни яратишда жуда қўлайликлар яратмоқда. Ушбу дастур ёрдамида яратилган хариталар билан ишлаш фойдаланувчининг имкониятларини янада кенгайтиради. Шунинг учун ушбу дастур ёрдамида тарихий маданий объектлар харитасини яратиш ва такомиллаштириш, маълумотлар баъзасини тўлдириш давр талаби ҳисобланади.

ArcGIS 9.3 дастури тарихий маданий объектларни географик маълумотлари ва атрибут маълумотлари билан биргаликда ишлаш имкониятини беради.

ArcGIS 9.3 дастурида маълумотлар базасини йиғиш ва сақлаш жуда қўлай. ArcGIS 9.3 дастурида электрон хариталарни яратиш учун қуйидагиларни бажаришимиз керак.

-ArcGIS 9.3 дастурининг ArcView қисми компьютер базасига ўрнатилади;

-жойни ҳаводан туриб рақамли фотокамера ёрдамида суратга туширилади;

-трансформацияланган суратлардан жойнинг фотоплани ёки фотосхемаси тузилади;

-фотоплан олиб жойга бориб, дешифрофка қилинади;

-суратларни ArcGIS дастурига масштаб бўйича туширамыз;


-дешифрофка қилинган фотоплан ёки фотосхемага қараб ArcGIS дастурига электрон харита чизилади, шу билан биргаликда маълумотлар ҳам компьютерга киритилиб борилади.

ArcGIS дастури асосий икки қисмдан иборат.

1.ArcMap; 2.Arc Catalog.


1 бўлим ArcMap географик объектларни атрибут маълумотлар билан ишлашга қўлланилади.

Ишчи ойнадан ArcMap ни яъни, дастурни ишга тушириш учун, ишчи ойнадан ArcMap нинг устига сичқончанинг чап тугмасини босиш орқали ишчи ҳолатга туширилади (1.1 расм).



1.1 – расм.

2бўлим Arc Catalog бу маълумотларни бошқариш (1.2 расм).



1.2расм.

Arc Catalog ойнаси очилиб,  **Персональная база геоданных** яратиб олинади.

 **Персональная база геоданных** ичига ўзимизга керакли шартли белгиларни ва объектларни киритамиз.

Ҳар шартли белгилар давлат стандартига мос равишда ясалади (1.3 - расм).

Ясалган ҳар бир шартли белгига координаталар тизимидан жойига тўғри келадиган координата тизимини киритамиз. Бизнинг республикамизда асосан Gauss Kruger координаталар тизимидан фойдаланилади. Барча топографик ва обзор топографик хариталар тенг бурчакли кўндаланг цилиндрик проекцияда тузилади. Бу проекцияни немис олими К.Ф.Гаусс (1777 1855) назарий жиҳатдан асослаган бўлса, иккинчи бир немис олими Л.Крюгер (18571923) уни ҳисоблаш формулаларини ишлаб чиққан. Шунинг учун ҳам Гаусс Крюгер проекцияси дейилади. Бу проекцияда эллипсоид сиртидаги шакл бурчаклари текисликда айнан ўзига ўхшаш тарзда тасвирланганидан унга тенг бурчакли ёки конформ (ўхшаш) проекция дейилади.

Баландлик бўйича бошланғич садҳий юза қилиб, Болтиқ денгизининг садҳи, ҳозирги Калилинград шаҳридаги Кронштад фуштогининг ноли қабул қилинган.

Бу тизимни ишга тушириш учун ишчи ойнадан **Новый класс пространственных объектов** ёқилади, унда **Gauss Kruger** координалар очилади бу тизимдан **Pulkovo 1942** танланади. Pulkova 1942 йилги координата тизими ҳудудларга бўлинади. Биз яшаб турган ҳудудга мос келадиган **Pulkovo 1942 GK Zone 12N** координата тизимидир (1.3 расм).



1.3 расм.

Arc Catalog ойнаси ёпилади.

ArcGIS дастурига электрон хариталарни киритиш.

Arc Map ойнаси очилади;

Arc Map ойнасидан редактор панели очилиб **Начать редактирование** ёқилади; редактор панелдан “задачи” пунктида “создать новый объект” очилади;

редактор панелидан **Целевые слои: тарихий объект чегар** керакли “слой” танланади;


редактор панелидан **Редактор** шу белгилар ёрдамида атрибут маълумотлар базаси яратилади;

атрибут маълумотлар базаси тўлдирилади (1.4 расм).

Свойство	Значение
OBJECTID	5
SHAPE_Length	494,462
Объект_номи	Бурхониддин Сағарджи нақбараси
Объект_манзили	Самарканд шаҳри Регистон кўчаси
Идоравий_мансублиги	Самарканд вилояти тарих ва маданият ёдгорликларини сақлашга улардан фойдалан...
Даври	XIV аср
Мухофаз_учун_асос_булган_хужжат	№52 27.03.1923 й. Туркистон Халқ комиссариати ва Марказий ижрои комитети, №958...
Объект_тури_ва_томфаси	архитектура ёдгорлиги
Ер_кадастри_рақами	141601930100020007001
Идентификацион_рақами	<Null>
Иморат_баландлиги	22,90 метр
Умумий_эгаллаган_майdon_га_	11768,75
Бино_эгаллаган_майdon_квн_	200,27
Конструктив_элементлари	ганч аралашнали ғишт
Архитектура_безаклари	йук
Техник_ҳолати	комиларли
Охириги_таъмирланган_йили	1990 йил
Тарихий_маданий_қиймат_аҳамияти	бебаҳо
Объектнинг_суратлари	растрли
Қушимча_наълунотлар	Шайх Бурхониддин Сағарджи нақбараси адабиётларда 14 асрда қурилган дейилади...
ДҚЯТга_руйхатга_олинган_рақами	№ 2624

1.4 расм.

Харитани ArcGIS 9.3 дастурида умумий кўриниши қўйидагича бўлади (1.5расм).



1.5rasm

Media va axborot savodxonligi tushunchasi

Uzoqov Axror Shrinboyevich, Mamadiyorov Dilmurod Mamarajab o'g'li, Kenjayev Ruslan Elmurod o'g'li, SamDAQI akademik litsey o'qituvchilari

Zamonaviy jamiyotda yashash uchun mediasavodxon bo'lish talab etiladi Marshall Maklyuen

Axborot nima-Axborot bu keng tushuncha bo'lib, o'z ichiga ma'lumot, o'qish jarayonida egallangan bilim, tajriba, ko'rsatma, belgi va ramzlarni qamrab oladi. Axborot kommunikatsiya vositalari yangilik xabarlar orqali olingan aniq vaziyat yoki voqea haqidagi bilimlarni uzatish va tavsiflash uchun ishlatiladi.

Norbert Vinerning yozishicha, “axborot–bu biz unga va uning bizning hissiyotlarimizga moslashuvchi, tashqi dunyodan olingan mazmun tavsifidir”.

Axborot savodxonligi qaror qabul qilish va borliqning dolzarb muammolarini tahlil qilish maqsadida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni olish, tushunish, baholash, moslash, generatsiya qilish, saqlash va namoyish qilish uchun kerak bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar va mahorat majmuasini bildiradi.

«**Media**» atamasi (*lotincha - medium, ya’ni vosita, vositachi, usul, muhit*) turli ko‘rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi.

Media-ommaviy axborot vositalari, ham keng, ham maxsus auditoriyaga mo‘ljallangan ko‘ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axborot va reklama axborotini tarqatishga yo‘naltirilgan ko‘p sonli va serqirra funksiyalarni amalga oshiruvchi kommunikatsiya kanallaridir.

Media va axborot sohasida savodxon (*Rahbar, Trener, O‘qituvchi, O‘quvchi, Oddiy fuqaro*) qanday ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak?

Medialar a) Elektron bo‘lmagan bosma medialar -Davriy nashrlar ,Gazeta va jurnallar, Kitoblar , Komikslar.

b) Elektron medialar -Radio, Kino, Televideniya, Kompyuter(SD-ROM, USB), Video o‘yinlar, Internet, YOzib olingan musiqa, Mobil telefon, Elektron kitoblar

Mediasavodxonlik ko‘nikmalari

- *utilitar, funksional va pragmatik ko‘nikmalar*
- *tanqidiy tahlil ko‘nikmalari*
- *estetik va kreativ ko‘nikmalar*
- *interfaollik ko‘nikmalari*
- *xavfsizlik ko‘nikmalari*

Media savodxonlik insonning jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas’uliyatini his qilgan holda

faol va savodli bo‘lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi,

yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushina olishi demakdir.

- **Media Savodxonlik**

Yangiliklar borasida savodxonlik Telesavodxonlik Kinosavodxonlik Elektron o‘yinlardan foydalanish savodxonligi Internet savodxonlik Kompyu-ter savodxonligi	Raqamli texnologiyalar sohasidagi savodxonlik O‘z fikrini erkin ifoda etish va axborot savodxonligi Kutubxonachilik savodxonligi Axborot savodxonligi Media savodxonlik Reklama sohasida savodxonlik
--	---

Raqamli media yangimedia sifatida



Mediasavodxonlik nima uchun kerak?

- ❖ Huquqiy demokratik jamiyatimizning to‘laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini tushinish;
- ❖ OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ❖ Axborot orqali inson ongini boshqarishga yo‘l qo‘ymaslik va har qanday vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish;
- ❖ Insonning vizual obrazlar ta’siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko‘rinmas ma’lumotlarni “o‘qiy olish”;
- ❖ OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish;
- ❖ Axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilyapti, kimning manfaatlarini o‘zida aks etayapti degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. “Web-dasturlash.” Zakirova T.A., Ibragimov E.U., Masharipov A.K., Musaeva M.A. Darslik. Toshkent, 2010
2. «Internet va elektron pochta asoslari» M. Aripov. Toshkent, 2000
A.A.Abdug‘aniev. Internet texnologiyalari. Toshkent, 2011, 88 b.
3. ziyonet.uz Informatika media savodxonlik.

BUGUNGI TALABALAR VA ULARNING RATSIONAL OVQATLANISH TIZIMI, UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Gadoyeva Muborakxon Xayriddin qizi, Suyarov Abdulaziz Shokirjon o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Respublikasidagi yoshlarning 30 foizi talabalarni tashkil qiladi. Talaba bir kunining deyarli yarmini uydan tashqarida ya’ni oliygoh darslari va mustaqil ta’lim uchun sarflaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki har bir talaba iste’mol qilish uchun uy taomlaridan emas balki turli xildagi retoran va kafe shaxobchalaridan foydalanadi. Har bir talaba ham to‘g‘ri ovqatlanish ratsioniga rioya qila olmaydi ya’ni yuqorida aytganimizdek tejamkorlik yo‘llarini tanlaydi. Lekin bu yo‘l har doim ham foyda keltiravermaydi balki sog‘lig‘imizga zarar keltiradi. Tejab qolishning samarali yo‘li sifatida tez tayyor bo‘luvchi va arzon mahsulotlar tarkibini o‘z ichiga oluvchi, chet davlatlardan kirib kelgan fast-foodni

olishimiz mumkin. U nafaqat arzon balki mazali ta'mga ham ega. Lekin shuni aytishimiz joizki hozirgi kunda bu turdagi taomlar yoshlar orasida muammolarni keltirib chiqarmoqda. Uning zararli tomoni shundaki, meyordan oshib ketgan xalestirin mavjud bo'lgan va noorganik mahsulot hisoblanadi. Shu sababli ushbu ozuqa hazm qilish sistemasiga jiddiy zarar yetkazadi.

Talabalar ovqatlanishni muvofiqlashtirishda quyidagi tavsiyalarga amal qilishlari zarur:[1]

- ovqat ratsioniga sifatli tabiiy, ya'ni yangi sabzavot va mevalar, sut va baliq kabi mahsulotlarni kiritish kerak.

- ovqat ratsionini tuzishda talabalar organizmiga xos xususiyatlarni hamda yashash sharoitini inobatga olishni unutmaslik muhimdir.

- kunlik iste'mol qilinadigan ozuqalar tarkibini vitaminlar, mineral moddalar, kalsiy, temir, yod, rux va boshqalar bilan boyitilgan bo'lishi kerak.

- hafta davomida kamida 2 kun odatdagidan oshirilgan miqdorda ko'katlar, sabzavotlar va mevalar iste'mol qilish foydadan holi emas.

- yog'li mahsulotlarni iste'mol qilgandan so'ng albatta hazm jarayonini yaxshilovchi salatlar hamda ko'katlar tanovul qilish zarur.

- asab tizimini barqarorlashtiruvchi va aql-idrokni teranlashtiruvchi quyidagi mahsulotlar - sabzi, qalampir, karam, limon, gilos, yong'on, zira, piyoz va baliq yog'i kabilar tavsiya qilinadi.

Gigiyena fani ishlab chiqqan qoidaga binoan, o'rta yoshli, aqliy va yengil jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi odamning bir kecha-kunduzgi ovqat ratsioni quyidagicha bo'lishi lozim:

Go'sht – 100-150 g (haftada ikki marta shuncha miqdorda baliq);

Yog` - 100 g bo'lib, yarmi mol yog'i va yarmi o'simlik (paxta, zig'ir, kungaboqar);

Tuxum – ikki kunda bir dona (go'sht, baliq bo'lmaganda, tuxum 3-4 tagacha);

Sut yoki qatiq – 300-500 g, tvorog 50-100 g (yoki 50-100 g qaymoq, pishloq);

Non – 400 g, (yarmi oq, yarmi qora non);

Don va xamirdan tayyorlangan taomlar – 40-60 g (guruch, mosh, no`xat, loviya, grechka, perlovka, makaron, vermishel, lag`mon, ugra kabilar). Bu mahsulotlar har kuni almashtirib ishlatiladi;

Qand-shakar (asal) – 30-35 g;

Kartoshka – 200-300 g;

Sabzavotlar – 200-400 g (karam, sabzi, piyoz, lavlagi, turp, sholg`om kabilar). Bular miqdori ko`p bo`lsa ham zarar qilmaydi. Sabzavotlarning yarmi xom holatda iste`mol qilingani ma`qul;

Mevalar – 200-400 g, ko`p bo`lsa ham zarar qilmaydi;

tuz 5-6 g (sabzavotlarga tuz sepmasdan iste`mol qilgan ma`qul, ya`ni tuzni faqat issiq ovqatga ishlatish lozim, chunki tuzni ko`p iste`mol qilish skleroz hamda buyrak va jigar tosh kasalliklariga sabab bo`lishi mumkin).

Ushbu jadval o'z ichiga kunlik iste'mol qilishimiz mumkin bo'lgan mahsulotlarni olgan. Albatta siz ular orasidan o'zingizga ma'qul variantlarini tanlab olishingiz mumkin.

Siz ham o'zingiz uchun mana shunday kundalik tanovvul qiladigan ovqatlanish ratsionini tuzishingiz mumkin. Ularni alohida e'tibor ko'rsatgan holda foydali hamda vitaminlarga boy mahsulotlar bilan to'ldiring.

Maslahat o'rnida shuni aytish mumkinki, nonushtangizda sut mahsulotlariga katta e'tibor qarating. Sababi ular bizga kerakli bo'lgan kalsiy va vitamin B2 moddalarning manba'laridir.

Tushlikka kelsak, albatta bu vaqtda biz asosiy ozuqani olishimiz kerak. Bunda bizga dukkakli o'simliklar hamda go'sht mahsulotlaridan tayyorlangan taomlar yordam beradi. Ular energiya ishlab chiqarishning asosiy manbai hisoblanuvchi oqsillarga boy.

Tolma choy - bu tushlik va kechki ovqat oralig'ida tanovvul qilinadigan yengil tamaddi. Bu vaqtda iloji boricha kam kaloriyaga ega mahsulotlar tanlanadi, ya'ni kefir, yogurt va mevalar.

Kechki ovqatni iloji boricha vaqtlitiroq tanovvul qilishga harakat qiling. Sababi siz uyquga ketguningizcha taom hazm bo'lishga ulgurishi lozim. Uning tarkibiga sabzavotli sho'rva va mevalarni kiritishingiz mumkin. Meva sabzavotlar kaloriyaga boy emas lekin tarkibida turli vitaminlar va minerallar mavjud.

Xulosa shuki, har bir taomda siz uchun maxsus narsa bor - tanangiz to'g'ri faoliyat yurgizishi uchun zarur bo'lgan vitaminlar. Eng muhimi sog'lig'ingiz haqida o'ylash va iste'mol qilayotgan har bir narsangiz to'g'ridan to'g'ri o'zingizni qanday sezishingizga ta'sir qilishini anglashdir. Siz sog'lom ovqatlanish foydasini tez orada sezasiz, siz kam charchaysiz, va o'zingizni baxtliroq sezasiz.

TURISTIK REKREATIONS HUDUDLAR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA GEOAXBOROT TIZIMLARINI QO'LLASH

Suyarov Abdulaziz Shokirjon o'g'li, Gadoyeva Muborakxon Xayriddin qizi
Samarqand iqtisodiyov va servis instituti

Turizm hozirgi davrning muhim iqtisodiy sektoriga aylangan sohalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, oxirgi yillarda ushbu sohani ham amaliy, ham ilmiy jihatdan tadqiq qilishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar bevosita turizmga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan aynan sayyohlik sohasiga qaratilayotgan e'tibor turizmning yanada ravnaq topishida muhim rol o'ynaydi. Jumladan, joriy yilda qabul qilingan quyidagi Prezident qaror va farmonlari bevosita turizmni xalqaro hamjamiyatda rivojlanishini ta'minlaydi²:

- 2018-yil 3-fevral sanasida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5326-sonli Farmoni;

² www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi huquqiy-normativ hujjatlar to'plami rasmiy web-sayti.

- 2018-yil 7-fevralda qabul qilingan “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3514-sonli Qarori;
- 2018-yil 6-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish Davlat Qo’mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3510-sonli Qarori;
- 2018-yil 6-fevraldagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3509-sonli Qarori shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan farmon va qarorlarning asosiy mazmun-mohiyati mamlakatimizda ichki va kirish turizmnini rivojlantirish, sayyohlarni qabul qilish hamda ularga yuqori darajali xizmat ko’rsatish bo’yicha infratuzilmani shakllantirish, qulay viza tartiblarini jori qilish kabi ko’plab turizmning rivojlanishiga g’ov bo’layotgan muammolarga yechim topilgan. Ushbu sohani chin ma’noda rivojlantirish maqsadida ko’plab davlat Dasturlari, hattoki turizmni yaqin o’n yillikda rivojlantirish Konsepsiyasi ham tuzib chiqilmoqda. Bularning barchasi sohada muhim qadam bo’lishi aniq.

Turizmni zamonaviy va innovatsion taraqqiy etishi hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan bo’lib, ayniqsa mamlakatimizda bu borada qilinishi kerak bo’lgan ishlar juda ko’p. Xalqaro hamjamiyatda turizmning har bir jabhasida axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Ayniqsa, internet-kommunikatsion vositalar shular jumlasidandir. Hozirgi kunda foydalanilayotgan asosiy dasturlar qatorida Geoaxborot tizimlari (GAT)ni alohida keltirib o’tish zarur.

Geo-Informatsion Sistemalar (GIS) hozirgi kunda axborot texnologiyalarining yutuqlaridan biri bo’lib, geografik axborotlarni kombinatsiyalashgan holda yig’ish va boshqa media dasturlar yordamida ulardan qulay foydalanish tushuniladi. Turizm sanoatida GIS quyidagilarni ta’minlaydi:

- Qog’oz kartalarga asoslangan raqamli kartalar;
- Internetdagi onlayn xaritalar uchun fayllar;
- Mobil xaritalar uchun raqamli fayllar;
- Attraksionlar, infrastruktura xaritasi;
- Interaktiv xaritalarga moslashgan Websayt.

GIS texnologiyasi turizmga zamonaviy xaritalardan foydalanishning samarador usuli hisoblanib, ma’lum hudud haqidagi kompleks ma’lumotlardan operatsion foydalanish, tahlil qilish kabi imkoniyatlarni taqdim qiladi. Turizm va GIS axborotlarining aniqlanib borishi turizm sanoati uchun yuksak imkoniyatdir.

GATdan foydalanishning asosiy funksional maqsadi hududni maxsus texnologiyalar yordamida kompleks o’rganib chiqish, shuningdek tadqiq qilishdan iborat. GAT aniq ma’lumotlar ba’zasi, hudud va undagi mavjud imkoniyatlar to’g’risida ma’lumot beruvchi to’plamdir. GATda ma’lumotlar asosan qobiqlar, ya’ni alohida qatorlar shaklida gorizontalar tarzda berilishi mumkin. GATni tuzib chiqish birmuncha murakkab jarayon bo’lib, dasturning maqsad va vazifasidan kelib chiqqan holda ma’lumotlar to’planadi va guruhlariga, turkumlarga ajratiladi. Ushbu turkumlar ichidan foydalanuvchilar o’zlariga keraklisini saralab oladilar.

Turizmga ixtisoslashgan GATlarda asosan turistik infrastrukturalar aks ettiriladi. Unda dam olish ob’ektlari, mehmonxona va restoranlar, istirohat manzilgohlari hamda yodgorliklar kabilar bo’lishi mumkin. Ushbu GATlarda

sayyohlar, shuningdek, ilmiy tadqiqotchilar va turizm sohasi mutaxassislari bevosita foydalanishadi. Bunday dasturlarni yaratishdan ko'zlangan maqsad aynan turistik hududlarni yanada takomillashtirish, ushbu hududlarda yangi turistik marshrutlarni tashkil qilish hamda sayyohlarga chinakam yengillik yaratishdan iborat hisoblanadi. GATda barcha turistik infrastruktura barafsil yoritiladi hamda imkoni bo'lsa, onlayn tarzda yangilanib boradi. Shuningdek, GATdan media dasturlar ham o'rin olgan bo'lib, hudud haqida aniq tasavvur uyg'otishga yordam beradi.

Umuman olganda turizm sohasidagi GAT quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

- Hududning tabiiy kartasi;
- Hududning kosmik ko'rinishi;
- Hududda mavjud restoran, kafe va mehmonxonalar;
- Hududning tabiiy va madaniy yodgorliklari, rekreatsion ob'ektlar va boshqalar.

Shuningdek, Google MAPning maxsus GPS tizimiga ulana olish imkoniyati paydo bo'lsa, ushbu dastur barcha orqali iliq kutib olinadi. Dasturning umumiy tavsifidan kelib chiqadigan bo'lsak, bunday dasturlar xorijda qo'llanilib kelinmoqda. Xususan, Fransiya, Ispaniya va AQSH kabi turizmning gullagan mamlakatlarida ham ayni tizimdan elektron va cho'ntak xaritalarini yaratishda foydalaniladi. Elektron xaritalar turizmda asosan GPS-monitoring tizimini qo'llashda foydalaniladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, mamalakatimizda turizmni innovatsion rivojlantirish nazarda tutulgan ekan, xorijiy tajribalardan foydalangan holda yuqori texnologiyalarni qo'llash bu borada o'ta samarali usul hisoblanadi. GATlar ham aynan hozirgi kunda rivojlanib borayotgan aniq tizimlar majmuidir.

Демократизация средств массовой информации.

Хасанова Л.Т.- ст преподаватель СамГАСИ

Носиров Ш.Ш.- ст преподаватель СамГАСИ

«Средства массовой информации свободны и действуют в соответствии с законом. Они несут в установленном порядке ответственность за достоверность информации. Цензура не допускается»³.

В ходе осуществления Республикой Узбекистан демократических реформ действенным инструментом в формировании нового мышления, пробуждения социальной активности граждан становятся средства массовой информации. В условиях независимости действующие в Узбекистане СМИ начали постепенно перестраиваться, отражая все новые процессы, которые происходят в нашей жизни. Политическое и духовное влияние СМИ огромно и осуществляется в массовых масштабах. Они содействуют

³ Конституция Республики Узбекистан. - Т., -2014, стр 22

расширению возможностей реального участия самых широких слоёв страны в политической и общественной жизни. СМИ широко привлекают граждан страны к обсуждению хода демократических реформ, существующих проблем и путях их преодоления. Это способствует становлению национального самосознания, достоинства личности, патриотизма, любви к Родине, пробуждает социальную активность людей.

«В настоящее время средства массовой информации являются важным и действенным фактором укрепления демократических принципов в жизни общества. Сегодня в нашей стране действует более 1500 средств массовой информации»⁴

Вместе с тем процесс превращения СМИ Узбекистана в реальную четвертую власть идёт пока сложно и медленно. Некоторые газеты и журналы отстают от жизни в деле оперативного освещения событий, другие же из них однообразны по форме и содержанию.

«К сожалению, в стране пока нет соответствующего базового высшего учебного заведения, которое централизованно решало бы масштабные задачи на высоком уровне»⁵

Крупная проблема и в росте профессионализма журналистов. Журналистский корпус должны представлять люди политически зрелые, честные ответственные, самоотверженные, патриоты нашей Родины. К сожалению, ещё не все наши журналисты в полной мере отвечают этим качествам. Предстоит ещё многое сделать, чтобы создать независимые и уверенные в себе СМИ, способные влиять на процесс демократизации в стране, чтобы все цело отвечать тем высоким требованиям, которые выдвигает перед ними общество и народ.

«Именно средства массовой информации должны стоять на защите демократических ценностей и идеалов нашего общества, вести активную работу по формированию политического, правового и экономического сознания людей»⁶

Для успешного повышения квалификации журналистского корпус решено в нынешнем году создать Университет журналистики и средств массовой коммуникации для подготовки квалифицированных кадров.

⁴ Мирзиеев Ш.М. Послание Президента Республики Узбекистан от 22.12.2017, стр 21 mfa. uz

⁵ Там же.

⁶ Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогрессе». Собр соч т-7, Т-1998, стр 360-361.

Роль СМИ меняется по мере либерализации общества. Сегодня стоят задачи повышения их активности, усиления их роли как подлинных институтов демократии и свободы слова.

«Чтобы сформировать профессиональную и современную журналистику, необходимо уделять внимание финансовой поддержке средств массовой информации, в частности, новых негосударственных информационных и аналитических сайтов, и создать с этой целью специальный государственный фонд»⁷

Без обеспечения информационной свободы, без превращения СМИ в арену, где люди могут свободно выражать свои мысли и идеи, позиции и отношение к происходящим событиям нельзя говорить об углублении демократии, политической активности населения, о его реальном участии в политической и общественной жизни страны. За истекшие годы, особенно за последние десять лет, в нашей стране реализован масштабный комплекс организационно-правовых мер по обеспечению свободы слова и либерализации средств массовой информации, которые играют большую роль в воспитании молодежи и подрастающего поколения.

На наше подрастающее поколение возложена огромная ответственность быть полезными нашей Родине, внести свой вклад в развитие государства. Новым фактором демократизации общественной жизни Узбекистана стала растущая активность граждан. Гражданская позиция поддерживает баланс интересов в обществе, служит противовесом государственным структурам. Конкуренция взглядов и идей всё увереннее заявляет о себе в законотворчестве, а также в работе средств массовой информации. Плюрализм и многообразие мнений в прессе гарантируется её независимым, статусом Абсолютное большинство издаваемых в Узбекистане -450 газет и 115 журналов, более 30 телеканалов и студий – уже имеют негосударственных учредителей. Важнейшим общественным достоянием стало единство всех политических сил в обеспечении гражданского мира, межнационального и межконфессионального согласия СМИ оказывают огромное влияние и воздействие на воспитание подрастающего поколения. За последние годы в нашей республике значительно улучшилось качество и уровень теле – и радиопередач, которые имеют воспитательное направление. Проводится большая работа по защите демократических ценностей, идеалов, по возрождению богатого духовного наследия узбекского народа, национальных традиций, осуществляется большая работа по освещению хода демократических реформ в политике и экономике.

Конечно предстоит ещё многое сделать, чтобы создать независимые и уверенные в себе СМИ, способные отвечать тем высоким требованиям,

⁷ Мирзиёев Ш.М. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 22. 12. 2017, стр 21, mfa. uz

которые выдвигает перед ними общество и наш народ. Важное принципиальное значение для повышения роли СМИ в общественно-политической жизни страны и в защите прав человека имеет указание И.А.Каримова о том, что они « не должны ограничиваться лишь освещением и отображением действительности, прежде всего, они должны быть защитниками интересов людей»⁸.

Средства массовой информации в зависимости от их учредителей, содержания и направления могут делиться на несколько групп - издаваемые государством, политическими партиями и общественными организациями, коммерческие, частные и другие. Также могут издаваться газеты и журналы религиозных организаций, литературно-художественные, общественно-политического, экономического, духовно – культурного направлений. С 1996 года наша республика установила связь с мировой компьютерной сетью Интернет, через которую были налажены приём новостей со всего мира и передача информации.

Право печати регулируются законами «О средствах массовой информации», «Об издательской деятельности», «О гарантиях и свободе доступа к информации», «О защите профессиональной деятельности журналиста», «Об авторском и смежных правах» и др. Принятые законодательные акты обеспечивают свободу слова и печати, создают условия для формирования рынка информации, защищают честь и достоинство журналистов.

«Сама жизнь диктует необходимость правильно организовать работу, обеспечить её эффективность, вывести деятельность всей системы управления на уровень, отвечающий современным требованиям»⁹

Историография Средней Азии по своду данных ученых - востоковедов. (20 – 80-е годы XIXвека)

Хасанова Л.Т.- ст преподаватель, Эрназаров Т.Р – преподаватель Сам ГАСИ

Средняя Азия. Как много о ней написано, как много перечитано. И всё же об этой территории можно очень много узнавать по данным путешественников, ученых того далёкого и в то же время не очень далёкого времени. В совокупности их труды образуют обширный и в своём роде единственный свод дополнительных знаний о природе и истории Средней Азии XIX века.

О полезных ископаемых Бухары и о местных способах обработки металла рассказывают публикации Константина Федоровича Бутенева (1805-1869 гг.)

⁸ Каримов И.А. «Работником печати и средств массовой информации. // Народное слово, 27 июня 2003г.

⁹ Мирзиёев Ш.М. Мы вместе построим свободное, демократическое и процветаю государство Узбекистан. –Т., 2016, стр 46

«... Медными рудами Бухарские владения весьма изобильны. Бирюза открыта в Бухаре не так давно и находится там в двух местах: в горах Нурата и в горах Бухарских, около колодцев Юз - Кудук. Впрочем цвет этой бирюзы зеленоватый, и она содержит много тёмных и белых пятнышек, так что почти совершенно не годится для вставок в качестве драгоценного камня.

Графит находится в весьма большом количестве, его даже начали продавать на базарах Бухары, считая по ошибке за сюрму, употребляемую для подкрашивания волос в чёрный цвет и как медикамент против глазных болезней. Месторождения графита находятся либо в горах Нурата, либо в **полной** горе близ города Гузора. Впрочем, может быть, он находится в обоих местах.

Гипс добывается в большом количестве в окрестностях города Самарканда. Отсюда он развозится по всей Бухаре, употребляясь на штукатурку стен в богатых домах, на выделывание из них разных узоров лепной работы, и наконец для отливки решёток, вставляемых в некоторых домах в окна, обращаемые обыкновенно в дворы.¹⁰ Сверх того гипс находится в значительном количестве в разных местах по дороге от Бухары в Оренбург, преимущественно на крайних склонах гор, и даже за ними в равнинах.

Уголь бухарцы получает покупкою на базарах Бухары, куда он привозится из тех частей степи, которые преимущественно изобилуют кустами саксаульника. Киргизы, кочующие в окрестностях тех мест, занимаются пережиганием его в уголь, и потом везут на продажу в Бухару, где платят за выюк угля одного верблюда, около 16 пудов весом.

По сему краткому обозрению минеральных богатств Бухары можно сделать заключение, что если бы эта страна была исследована в горном отношении надлежащим образом, то без сомнения в ней открылись бы значительные подземные сокровища.¹¹

В 1842 году в Хиву была направлена миссия во главе с подполковником Г.И. Данилевским, который в ходе миссии собрал ценные географические и этнографические наблюдения. Итоги работы миссии были освещены в работе Г.И.Данилевского «Описание Хивинского ханства».

«Все почти города Ханства обнесены глиняными стенами, окрестности которых состоят из обработанных полей, посреди которых разбросаны дома. Городские и окрестные жители пользуются водою из канав, но с позднею осенью, когда главные каналы мелеют и не могут уже разносить воду в средние каналы, хивинцы вырывают колодцы, которые хотя очень неглубоки и скоро вычерпываются, зато и легко заменяются

¹⁰ Имеются в виду узбекские художественные решетки («панджара») различных форм из дерева, ганча, камня и металла. В данном случае ганчевые оконные решетки. (см. Ремпель Л.И. «Панджара. Архитектурные решетки и их построение». –Т: - 1957, стр 144)

¹¹ Минеральные богатства Бухарии. Г.Подполковника Бугенева // Горный журнал или собрание сведений о Горном и соляном деле, с присовокуплением новых открытий по наукам, к сему предмету относящих соч. IV, кн XI, Сиб- 1842, стр 137-147.

другими, по причине близкого и почти повсеместного присутствия воды под землёю.¹²

Дома, лавки и городские стены построены во всех городах на один лад и одинаковым способом, и всюду представляют единообразный вид; только некоторые жилища - ханские или зажиточных людей отличаются от прочих величиною своих размеров и некоторою тщательностью в отделке.

Хива-главный город ханства и место пребывания хивинских ханов. В городе имеется: два ханских дворца, 17 мечетей, 22 медресе, караван-сарай и около 260 лавок, разбросанных в разных частях города. Улицы узки и извилисты, площадей в Хиве нет. Базар бывает два раза в неделю, по понедельникам и пятницам, около лавок, расположенных вдоль городской стены и привлекает довольно большое число жителей окрестных хуторов и городов.

Хивинское сельское хозяйство ограничивается хлебопашеством, садоводством, скотоводством и шелководством.

Сельское хозяйство и торговля составляет единственную отрасль промышленности хивинцев, у которых фабричная и ремесленная производительность до того скудна и стоит на столь низкой степени, что не может вполне удовлетворять даже собственным потребностям народа, несмотря на простоту и ограниченность его нужд.

Главные предметы, вывозимые хивинцами из Бухары - зелёный чай, курительный табак, китайский фарфор, шелковую и бумажную материю.

Взамен хивинцы должны отдавать наличную монету. Караваны из Персии проходят через Мерв и почти никогда не останавливаются в Хивинском ханстве, а следуют прямо в Бухару.¹³

Такие сведения о быте и жизни населения Узбекистана на всей Средней Азии имеются у русских исследователей. Каждый читатель не без пользы и с интересом воспримет данные, извлеченные из ставших библиографической редкостью описаний К. Бутенева и Г.И. Данилевского по Средней Азии. По их описаниям, которые несомненно имеют научно-познавательное значение, читатель знакомится с жизнью и бытом населения, с памятниками историко-культурного прошлого. Под этим углом зрения описание путешествий и их использование является существенной страницей в истории накопления знаний по Средней Азии.

O'zbekistonda ekologiya muammolari hamda ularning yechimlari
(*Sobirova Dildora Almaxammadovna "STKvaSRMQ" kafedrasida o'qituvchisi*)

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalar qatori ta'lim sohasiga ham yuqori darajada davlat e'tibori qaratildi. Ekologik halokatlarning kelib chiqishi, mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotiga

¹² Вода этих колодцев не ключевая. Просачиваясь сквозь рыхлые слои пашень, вода доходит до густых и часто глинистых пластов, находящихся ниже первых, которые по непроницаемости своей составляют род малых подземных водохранилищ.

¹³ Залесов Н.Г. Посольство в Хиву полковника Данилевского в 1842 году. // Военный сборник, Сиб -1866, № 5

ta'sirini o'rgatish bilan birga ularda ekologik madaniyat, ekologik tarbiya va ekologik ong tushunchalarini chuqur singdirishni maqsad qilib qo'ygan.

Insoniyatning o'z kelajagi, ertangi kuni, istiqbolini o'ylamay qilgan o'zboshimchaliklari, ko'r-ko'rona qilmishlari tufayli tabiat behad ozor chekdi, ko'pgina tabiiy boyliklaridan abadiy judo bo'ldi. Har xil kosmik changlar, ilmiy texnikaviy taraqqiyot, ayniqsa, avtomobillar sonining tez darajada o'sib borishi, radioaktiv moddalar va boshqalar ta'siri ostida barcha jonli mavjudotning hayot manbai bo'lgan atmosfera havosi maksimal darajada ifloslanmoqda. Bunday dahshatli hodisalar dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida tez-tez sodir bo'lib turadi. Atrof-muhitning radioaktiv va kimyoviy chiqindilar bilan bulg'anishi, aholining, chorva mollarining, parrandalarning, daryo hamda ko'llardagi, suv omborlari va okeanlardagi baliq va boshqa jonivorlarning ko'plab zaharlanishiga, Yevropa mamlakatlarida ko'plab ro'y berib turgan sigir, buzoq, qo'y hamda boshqa hayvonlarning oqsil kasalliklariga sabab bo'lmoqda.

Ekologik muammoni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mosdir. Sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ekologik muammoning hal qilinishiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi dunyodagi barcha mamlakatlar, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan hamkorlik va hamjihatlikda tabiatni, atrof muhitni himoya qilish, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish masalalariga katta e'tibor va ahamiyat berib kelinmoqda. Buning natijasi o'laroq, atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlari Respublikamizda ko'plab qabul qilinib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida belgilab qo'yilganidek "Fuqarolar atrof, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar".

Insoniyatning kelajakdagi taqdiri hozirgi davrda mavjud ekologik muammolarni qanday hal qilishga, ekologik muammolardan aholini, tabiatni qanday muhofaza qilishga bog'liq bo'lib qoldi. Bunday deyilishida juda katta ma'no, tarixiy zaruriyat, ob'yektiv ehtiyoj bor. Chunki ekologik muammo zamirida alohida xalqlar millatlar va mintaqalarnigina emas balki butun insoniyatning kelajak taqdiri yotibdi.

